

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

# **ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR**

Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI  
*Samarqand shahri, 2023-yil, 18-may*

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2023. – 208 bet.

*Ushbu to‘plamdan “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.*

**Tahrir hay‘ati:**

Professor I.M.Tuxtasinov	rais
Dotsent Sh.Ashurov	rais o‘rinbosari
Professor N.Q.Turniyozov	a‘zo
Professor Sh.S.Safarov	a‘zo
Professor T.A. Bushuy	a‘zo
Professor X.Z.Xayrullayev	a‘zo
Dotsent B.Turniyozov	a‘zo
Dotsent Sh.N.Turniyazova	mas‘ul muharrir
Dotsent M.A.Xalova	mas‘ul kotib

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘ul.*

# I SHO‘BA

## TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

### ТАРЖИМОН ТАЙЁРЛАШНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИ

*проф. И.М.Тухтасинов*

*(Самарқанд давлат чет тиллар институти ректори)*

Таржимон тайёрлашда таржима услуб ва усулларини ўқитишнинг ўзига хосликлари, бўлажак таржимонларнинг касбий компетенциясини ривожлантиришда оғзаки таржимонлик имкониятлари ҳамда линвист-таржимон касбий компетенциясини ривожлантириш шарҳланди. Таржимага оид амалиётлар таҳлилида таржима усулларини таржима услубларидан фарқлаш мақсадга мувофиқдир. Усул – қўйилган мақсадга эришишнинг асосий йўли бўлиб, қилинадиган ҳаракатларнинг мавжуд қонунларини акс эттиради. Бир тилдан бошқа тилга ўтишнинг иккита усули бор: биринчиси бир тилга мансуб сўз ёки белгидан бошқа тилга мансуб сўз ёки белгига тўғридан-тўғри ўтиш, иккинчиси эса айланма йўл орқали – аввал бир тилга мансуб белгидан мўлжалдаги ёки предметли вазиятга ва фақат шундан кейин ўгириладиган тилга мансуб белгига ўтишдир. Илмий манбаларда таржиманинг бу икки усулидан биринчиси белгилди, иккинчиси эса маъноли деб номланади. Метод ёки бошқача айтганда, таржима услуби, одатда, хусусий масалани ҳал қилади, яъни таржима жараёнида юзага келадиган қийинчиликларни енгиб ўтишга ёрдам беради. Таржима услублари, ўз навбатида, яна икки гуруҳга бўлинади: 1) таржима мутаносибликлари; 2) таржима тузилишининг ўзгариши. Таржимани аслият билан таққослаш шуни кўрсатадики, ўгириш жараёнида аслият тилнинг муайян бирликлари маъноси ўгирилаётган тилнинг бир хил бирликлари ёрдамида узатилади (масалан: уй - house, хона - room, tree - дарахт). Тил бирликлари нисбатан барқарор маънога эга. Шунинг учун тиллардаги (бизнинг ҳолатда ҳинд-европа тил оиласига мансуб тилларда) бир хил предметли ҳолатлар ўхшаш синтактик конструкциялар ёрдамида таржима қилинади. Бир тилдан бошқа тилга таржима қилиш жараёнида юзага келадиган қийинчиликлар ҳамда таржимада тилнинг «руҳияти» йўқолиши, кўпинча, поэтик асарларни таржима қилишда кузатилади. Уларнинг барчаси методологик жиҳатдан нотўғри, чунки исботлашни тилга татбиқ этиб бўлмайди ҳамда киришда берилаётган ва чиқишда олинаётган ахборотлар турли қатлам ва кўламга тегишли бўлгани учун хулосаларнинг тўғрилигига қўйиладиган энг оддий мантикий қоидаларга тўғри келмайди. Масалан, немис тилида артиклнинг мавжудлиги немисларнинг нарса-ҳодисаларни 21 жинсига алоқадор қандайдир белгиларига қараб қабул қилади, деган хулосани бермайди. Худди шу каби эргатив курилишга эга бўлган абхаз тилида сўзлашувчилар иш-ҳаракатнинг субъект ва объектини фарқлай олишга қодир эмас, деган хулосанинг келиб чиқиши ҳам мантиққа зиддир. Ўзбекча «кўл», русча «рука» сўзларининг инглиз тилида «hand», «arm» сўзлари билан, ўзбек тилидаги «каптар» ва «мусича» сўзларининг немис тилида битта «taube» сўзи билан берилиши немисларнинг каптар ва мусича каби турлича бўлган икки қушни бир-биридан ажрата олмайди, деган хулосага олиб келмаслиги керак. Чунки ўзбеклар каптар ва мусичанинг фарқига қандай етса, немислар ҳам худди шундай етади. Ўзбек тилидаги «билмоқ» сўзи немис тилида «wissen», «kennen» феъллари билан берилиши немисларнинг ўзбекларга қараганда кўпроқ билишини ёки бўлмаса билишнинг турли хилларини англашларини кўрсатади, деб бўлмайди. Инглиз тилидаги «lunch» сўзи ўзбек тилига «шунчаки нонушта», «иккинчи нонушта», «ўнбирлик», «енгил тушлик» каби тасвирий воситалар билан таржима қилиниши эса ўзбекларнинг бу тушунчани ўз ақлига сиғдира олмаганлигини кўрсатмайди. Икки ёки ундан ортиқ тилдаги сўзларнинг айрим маъноларини типологик жиҳатдан солиштирганда ва маъноларнинг мос тушмаслик ҳолатлари кузатилганда, тилшунослар томонидан «турли тилда сўзлашувчи халқларнинг тушунча аппарати турличадир», деган хулоса чиқарилади.

Тил бирликлари семантик мазмунининг миллий ўзига хослиги сўз бирикмаси, гап ва матн таркибидаги мураккаб семантик мажмуаларнинг пайдо бўлиш имкониятини инкор этмайди, лекин бу мажмуалар ифода этган маъно кўламига кўра турли тилларда бир-бирига ўхшаш бўлиши ҳам мумкин. Инъикос тушунчаси шаклининг объективлиги туфайли тил семантик томонининг миллий ўзига хослиги билиш жараёнининг субъектив унсури манба бўла олмайди<sup>1</sup>.

Аммо тил семантикасининг миллий ўзига хослиги намоён бўлишининг яна бир томони борки, у тил таракқиёти жараёнида товуш шаклини танлашдаги мотивациянинг ўзига хослиги билан алоқадор бўлиб, унинг натижасида ҳатто ўхшаш маъно гуруҳларида ҳам «ички форма» турли чегараларни ҳосил қилади, турли фарқловчи белгилар эса мотивацияланаётган маънони характерлаб беради. Товуш таркибининг турли тилларда бир хил бўлиб қолиши фарқларнинг турли йўналишда бўлганлиги ва бу ташқи ўхшашлик «қўшимча миллий ўзига хос маъно» ҳосил қилинаётганлигидан далолат беради. Масалан, инглиз тилидаги «head» – кеманинг олдинги қисми – бурин; «head» – михнинг қалпоғи; «head» – сутнинг устки қисми, қаймоғи. Бу маънолардаги субъектив хусусият денотатнинг ўзини ифодалашга тааллуқли эмас. Барча ҳолатларда мос келувчи жисмоний ҳодиса ўзининг белгиларидан бирининг белгиси билан 12 Кубрякова Е. С. Язык и знание. – М, 2006. – 650 с. 22 аниқланади. Бу белгини танлаш эса инглиз ёки ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ бўлади<sup>2</sup>. Тилнинг этимология билан узвий боғлиқ бўлган миллий ва субъектив омиллари «барча тилларда белгиланаётган ва белгилаётган унсурлар ўртасида муносабат бир хил бўлади ва бунинг натижасида предметнинг образи тўғри берилади», - деган бош фикрни инкор қила олмайди. Шундай қилиб, дунёнинг концептуал моделига сезги орқали олинган билимни қўшимча унсурлар сифатида киритишга қаршиликсиз бўлганидек, тилда сезгига алоқадор ахборот тилдаги рационал унсурларга дунёнинг концептуал модели ва дунёнинг лисоний моделига қўшимча қилинади деган фикрга қўшилиб бўлмаслиги бу ягона гносеологик моҳият касб этади. Оғзаки (синхрон) таржима қилиш учун таржимоннинг профессионал компетенцияси (билим, малака ва кўникмалар йиғиндиси) қуйидаги таркибий қисмлардан иборат бўлиши лозим<sup>3</sup>: - тил компетенцияси (аслият ва таржима тилларини билиш); - коммуникатив компетенция; - таржима компетенция (таржима қилиш малакаси); - техник компетенцияси (ахборот билан ишлаш малакаси); - шахсий фазилатлар (хотирани ривожлантириш) (2-жадвалга қаранг): Ўқитишнинг асосий босқичида оғзаки таржима билан боғлиқ фаол комплекс тренингида хотира тренинги, тилдан тилга ўтиш тренинги, суръат тренинги, лексика устида ишлаш, трансформация тренинглари амалга оширилади. Ўқитишда фойдаланиладиган машқларни танлаш кўникма ва маҳорат сирларини шакллантириш зарурати билан боғлиқлигини тақозо қилади. Улардан энг муҳимлари қуйидагилардир: - тинглаш кўникмаси; - мнемотехника кўникмаси; - трансформациялаш кўникмаси; - тилдан тилга ўтиш кўникмаси; - нутқий механизмларни бошқариш кўникмаси; - оғзаки нутқ техникаси кўникмаси; - таржима суръати; - таржима учун мўлжалланган матнни тинглаш кўникмаси. Компетенциялар илмий соҳадаги назарий билимлар, аниқ касбий вазиятларда билимлардан фойдаланиш бўйича амалий тажриба, шахснинг кадрият билан боғлиқ жиҳатларини ўз ичига олади.

Хулоса қилиб айтганда, таржима жараёни аслият матнидан ўгирилаётган матнга ўтишга ёрдам берадиган аниқ операциялар тизимидан фойдаланишни талаб этади. Бу жараёнда таржима усуллари ва таржима услублари таржима сифатини таъминловчи восита сифатида юзага чиқади. Таржима жараёнида юзага келадиган қийинчиликлар таржима услуби орқали таржима мутаносибликлари ва таржима тузилишининг ўзгаришлари каби кўринишларда намоён бўлади.

<sup>1</sup> Кубрякова Е. С. Язык и знание. – М, 2006. – 650 с

<sup>2</sup> Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Фан, 2006. – 48 б.

<sup>3</sup> Аликина Е. В., Швецова Ю. О. Формирование экстралингвистической компетентности будущих устных переводчиков // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 2. Электронный ресурс: <http://www.scienceeducation.ru/102-6037>. Дата обращения: 5.05.2018.

## Адабиётлар рўйхати

1. Кубрякова Е. С. Язык и знание. – М, 2006. – 650 с
2. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Фан, 2006. – 48 б.
3. Аликина Е. В., Швецова Ю. О. Формирование экстралингвистической компетентности будущих устных переводчиков // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 2.
4. Электронный ресурс: <http://www.scienceeducation.ru/102-6037>. Дата обращения: 5.05.2018.

## PARADIGMATIK VA SINTAGMATIK MUNOSABATLAR XUSUSIDA

*N.Q.Turniyozov,  
SamDCHTI professori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada paradigmatic va sintagmatic munosabatlar xususida ayrim mulohazalar keltirilgan. Jumladan, fonematik sathdagi paradigmatic qator, morfologik sathdagi paradigmatic qator hamda mikrosintagmatic munosabatlar to'g'risida ayrim fikrlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** paradigmatica, sintagmatica, mikrosintagmatic munosabatlar, fonetik sath, morfologik sath, morfemalar, fonemalar.

Ma'lumki, til unsurlarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlarini, xususan, paradigmatic sintagmatica va sintagmatic paradigmatica muammolarini o'rganish masalasi jahon tilshunosligida ham hali me'yor darajasiga yetganicha yo'q. O'zbek tilshunosligida esa mazkur masalalar talqini bobida hozirgacha biror tadqiqot ishi ko'zga tashlanmaydi. Faqat bugni emas, o'zbek tilshunosligida hali paradigmatic va sintagmatic munosabatlar tilning fonetik sathi materiallari asosida ham, morfologik, sintaktik sathlar materiallari asosida ham mukammal talqin etilmagan.

Til unsurlarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari nutq tovushlaridan tortib matngacha bo'lgan hududda kuzatiladi. Bu esa, o'z navbvtida, masala mohiyati til unsurlarining nutqda real qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqligidan dalolat beradi. Bizningcha, bunday bo'lishi tabiiydir, albatta.

Chunki tilimiz voqeligi nutq tovushlari bilan mavjuddir. Ana shu tovushlar zamirida tilimizning katta-kichik barcha birliklari nutqiy faollik oladi.

Nutqning shakllanishi jarayonida tovushlar tinimsiz harakatda bo'ladi. Va buning natijasida ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari shakllanadi.

<i>biroq</i>	<i>i : p</i>	<i>bor</i>	<i>o : t</i>
<i>bilan</i>	<i>i : n</i>	<i>bol</i>	<i>o : sh</i>
<i>bilak</i>	<i>i : sh</i>	<i>tol</i>	<i>o : q</i>
<i>tilak</i>	<i>i : t</i>	<i>mol</i>	<i>o : n</i>

Keltirilgan misollarda I va O unli fonemalarining paradigmatic munosabatlarini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, mazkur tovushlarning har ikkisi ham undosh fonemadan oldin (bir xil pozitsiyada) qo'llanilishidan qat'i nazar, ikki xil paradigmaga bo'y sunmoqda. Ularning birinchisini qisqa unlilar paradigmasi deb, ikkinchisini esa cho'ziq unlilar paradigmasi deb nomlaymiz. Mazkur paradigmalar tovushlarning bir xil o'rinlarda kelib qiyoslanishiga asoslanmoqda[1.24].

Aytish lozimki, bu singari fonemalarning paradigmatic munosabatlari tovushlar nutqda real qo'llanganda vujudga keladi. Ammo shu bilan birga tilning fonetik sistemasida fonemalarning tayyor holdagi paradigmalari ham mavjuddir.

Bunday paradigmalar jumlasiga dastlab unlilar va undoshlar paradigmasini kiritamiz.

Tahlilining keyingi bosqichida esa ular ichidan quyi bosqichdagi paradigmalarni ajratib ko'rsatish mumkin: til oldi unlilari, til orqa unlilari, lablangan va lablanmagan unlilar paradigmasi, til oldi undoshlari, til orqa undoshlari, jaranglilar, jarangsizlar, sonor tovushlar paradigmalari. Bunday paradigmalar har qanday tilning fonetik sistemasida tayyor holda bo'ladi. Masalan, o'zbek

tili fonetik sistemasida til oldi undoshlari paradigmasini quyidagicha ko‘ramiz: *s, z, sh, j, t, d, ch, n, l, r, j (dj)*.

Tilning morfologik sathida paradigmatic munosabatlarni ham, sintagmatik munosabatlarni ham yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin. Bunda eng avval shunga e‘tibor berish kerakki, morfologiyaning tub maqsadlaridan biri so‘zlarni turkumlarga ajratishdan iboratdir. Bu, o‘z navbatida, so‘zlar paradigmalariga bo‘linishidan dalolat beradi. Masalan, ot, sifat, olmosh va hokazo kabilarga turkumlanish shu turkumdagi so‘zlarning paradigmalarini taqozo etadi.

Biroq, yuqoridagilar bilan bir qatorda, morfologiyaning eng kichik birligi morfema ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, so‘zlar paradigmasidan kichik morfemalar paradigmalarini mavjudligini ham kuzatamiz. Boshqacha aytganda, morfemalar paradigmasi so‘zlar paradigmasidan kichik bo‘lgani uchun ular real qo‘llanganda so‘z qobig‘ida o‘rinlashadi. Fikr isboti uchun quyidagi misolga murojaat etamiz:

*maktab – ni*

*stol – ning*

*qalam – ga*

*daftar – da*

*kitob – dan*

Keltirilgan misolda kelishik qo‘shimchalarini taqozo etuvchi morfemalar paradigmasini va ular o‘zidan katta so‘z paradigmasi qurshovida kelayotganligini ko‘ramiz. Bunday vaziyatda har bir paradigma komponentlarini tashkil etuvchi til birliklarining o‘ziga berkitirilgan pozitsiyada (o‘rinda) kelishi xarakterlidir[2.6].

Yuqoridagi singari affiks morfemalar paradigmasi, asosan, sintagmatik qatorda shakllanadi. Bunga ko‘proq kelishik hamda egalik affikslari misol bo‘la oladi, zotan, ularning har ikkalasi ham so‘zlarning o‘zaro munosabatini ta‘minlashda faol qatnashadi:

*Xona – ngiz – ning katit – i*

*Uy – imiz – ning deraza – si*

Berilgan misollarda egalik va kelishik affikslari paradigmalarini **xona** va **kalit**, **uy** va **deraza** so‘zlarining sintaktik munosabatga kirishuvi jarayonida sodir bo‘layotganligini ko‘ramiz.

Biroq morfologik paradigma faqat sintagmatik qatorning nutqiy voqelanishida emas, balki til sistemasini unsurlarining nutqqa ko‘chirilmagan holatida ham kuzatiladi. Buni yasama so‘zlar misolida ko‘rishimiz mumkin:

*ish - chi*

*o‘yin – chi*

*somsa – paz*

*etik – do‘z*

*arava – kash*

*paxta - kor*

*darvoza - bon*

*til - shunos*

*kimyo - gar*

*soat - soz*

Ayni paytda tilimiz sistemasida tayyor holda mavjud bo‘lgan yasama so‘zlarda ichki sintagmatik munosabat mavjudligini ko‘ramiz. Bu xildagi o‘zak va affiks morfemalar munosabatini mikrosintagmatik munosabat deb ataymiz. Buning boisi bor, albatta. Chunki mazkur ko‘rinishdagi til unsurlari munosabati katta sintaktik munosabatdan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baskakov A.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1979, 24-bet.

2. Панов М.В. Русская фонетика. – М., 1967. – С.6.

## **O'ZBEK TILIDA ILOVALI QURILMALARNING SINTAKTIK SHAKLLANISHIDA ZIDLOV BOG'LOVCHILARNING O'RNI**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada teng bog'lovchili ilova qurilmalarning sintaktik derivasiyasi tamoyillari talqin etilgan. Bunda zidlov bog'lovchilarning ilova qurilmalar sintaktik derivasiyasi operatorlari vazifasida qo'llanilishini ko'ramiz. Maqolada mazkur bog'lovchilarning davomli ohang tinimidan so'nggi jumla boshida kelib, bu jumlaning yetakchi gaplarda aytilgan fikr ilovasi tarzida shakllanishi uchun semantik va sintaktik jihatlardan asos bo'la olishi e'tiborga olindi.

**Kalit so'zlar:** ilova qurilmalar, Hosila struktura, teng bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilar, yetakchi gap, operator, sintaktik derivasiya, ohang, operandlar. Ilova qurilmalarning sintaktik derivasiyasini o'rganishda eng avval ularning shakllanishi uchun qanday sintaktik vaziyat sabab bo'lishiga ahamiyat bermoq lozim. Sintaktik shakllar, o'z navbatida, bevosita til bilan nutqning birligi va qarama-qarshiligi qonuniyati bilan bog'liq. Negaki, til materiallari kishi tafakkurida nutq uchun mo'ljallanishi xali bu ularning nutqda faol qo'llanishi degan gap emas. Shuning uchun ham tilning har qanday belgisi ham nutqda konkret qo'llanilmagunicha virtualdir.

Til belgilarining nutqqa ko'chirilishi, shubhasiz, ma'lum bir nutqiy sathni talab etadi. Shunga ko'ra, har bir so'zning konkret ma'nosi jumla tarkibida o'z ifodasini topadi.

Jumla yoki gapning har qanday ko'rinishi ham nafaqat alohida olingan biror so'zning, balki til belgilari uyushgan holda anglatayotgan umumiy mazmunning ifoda etilishini taminlovchi sintaktik shakllar sanaladi.

Ammo sintaktik shakllar turli xil ko'rinishlarni taqozo etadi. Aynan ana shu narsa sintaktik derivasiya uchun asos bo'ladi va bir paytning o'zida semantik hamda sintaktik munosabatlar o'lchovining me'yorini belgilab beradi. Boshqacha aytganda, nutqimizda beriladigan xabar salmog'ining har biri o'ziga xos sintaktik shakllar orqali ifodalanadi. Ilova qurilmalarni sintaktik shakllarning alohida bir turi sifatida o'rganar ekanmiz, ularning ham, o'z navbatida, turli xil yo'l va usullar bilan vujudga kelishini ko'ramiz.

Ilova qurilmalarning sintaktik shakllanishda har xil teng bog'lovchilar qatnashishi mumkin. Lekin bu bog'lovchilarning ma'no va grammatik funktsiyalari bir xil emas. Masalan, ularning ayrimlari biriktiruv funktsiyasini bajarsa, ayrimlari zidlov funktsiyasini bajaradi. Shunga ko'ra, zidlov funktsiyasini bajaruvchi bog'lovchilar bilan shakllanuvchi ilova qurilmalarning sintaktik derivasiyasi xususida fikr bildiramiz.

Ilova qurilmalar davomli ohang tinimidan so'ng zidlov bog'lovchilari ta'sirida ham sintaktik shakllanishi mumkin. Bu xildagi hosila strukturalarning umumiy grammatik ko'rinishi, biriktiruv bog'lovchili hosila strukturalar singari, bog'langan qo'shma gap nusxasida bo'ladi. Shuning uchun tilshunoslik adabiyotlarida bunday strukturalarni zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar jumlasiga kiritilmoqda. Unga ko'ra ammo, lekin, biroq, kabi bog'lovchilardan oldin qo'yilgan nuqta yozuvchining ixtiyori bilan bog'lik xodisadir (stilistik printsip). Gaplarni esa bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ular o'z mazmuni bilan biri ikkinchisining tarkibiy qismiga aylanadi va yaxlit holda zidlik, ayirish yo biriktiruv munosabatini ifodalaydi.

Demak, bunday gaplarning qo'shma gap ekanini asoslashda bog'lovchi muhim belgi bo'lib qoladi.

Fikrimizcha, gap va uning sintaktik tasarrufi haqidagi bilim va ko'nikmalarimiz qo'shma gapni bu tarzda tasavvur etishga monelik qiladi. Ikkinchidan, bog'lovchi vositalarning davomli (nuqta, undov yoki so'roq belgilaridan so'ng) ohang tinimidan keyin gap boshida kelishi yozuvchining (so'zlovchining) ixtiyori bilan, uning so'zlashuv uslubi bilan bog'lik. Ammo bu bog'liklik yozuvchi nimani xohlasa, o'shani bo'rttiraveradi, degan gap emas. Chunki yozuvchi ham, so'zlovchi ham har doim til tashqi muhiti qurshovida bo'ladi va ana shu muhit talabiga hamohang tarzda nutqning ba'zi bir elementlari alohida bo'rttiriladi va, natijada, gapning

ta'sirchanligi ham oshiriladi. Ana shuning uchun ham ilova va parsellyativ qurilmalarning tadqiqi ekspressiv yoki uslubiy sintaksisning asosiy vazifalaridan biridir.

Yuqoridagilardan tashqari, qo'shma gapning tarkibiy qismlari ketma-ketlikni yoki galma-gallikni ifodalay ekan, biri ikkinchisidan davomli ohang tinimi bilan ajratilmaydi. Aks holda, ketma-ketlik, galma-gallik munosabatlari o'z qiymatini yo'qotadi. Ilova qurilmalar esa asosiy gapdan har doim davomli ohang tinimi bilan ajratiladi. Masalan:

1.- *Xudo davlatingga baraka bersin. Chiqar ukangni aravaga. Lekin o'zing piyoda ketasan, ot urinib qolgan (X.To'xtaboev. Qasoskorning oltin boshi, 26).*

2. *Shuning uchun ham biz o'g'limizning otini Botirali qo'ydik. Ammo umri o'xshamasin (H. G'ulom. Mash'al, 363).*

Keltirilgan misollarning birinchisida ilova qurilma tarzida bog'lovchisiz qo'shma gap kelayotganligini ko'ramiz. Uning qo'shma gap sifatida sintaktik shakllanishi, albatta, ohang bilan uzviy bog'liqdir. Biroq ilova qurilma deb tasavvur etilganda, derivasiya vositasi sifatida eng avval **lekin** bog'lovchisi ko'zga tashlanadi. Aynan ana shu so'z uni ham semantik, ham sintaktik jihatdan yetakchi Ganning ilovasiga aylantirmoqda.

Ikkinchi misolda berilayotgan ilova qurilma esa oldingisidan birmuncha farq qilgandek ko'rinadi. Birinchidan, ayni paytda ilova qurilma sodda gap shaklida kelmoqda. Ikkinchidan, sintaktik derivasiya operatori vazifasida **ammo** so'zi qatnashmoqda. Biroq ko'rsatilgan tafovutlarning har ikkalasi ham ilova qurilmaning umumiy mazmuniga ta'siri yo'q. Chunki, sintaktik hajmning katta yoki kichikligidan qat'i nazar, ular umumiy derivasion qoidaga muvofiq shakllangan. Derivashya operatorlarining mazmuni va sintaktik salmog'i ham tengdir.

Shuni ham aytish kerakki, tarkibida zidlov bog'lovchilari ishtirok etadigan ilova qurilmalarning sintaktik shakllanishida ham ikkinchi darajali derivasiya operatori sifatida ohang ishtirok etadi. Shuning uchun ilova qurilmalar sintaktik derivasiyasining belgili operatori - zidlov bog'lovchisi jumlaning boshqa komponentlariga nisbatan kuchliroq ohangda aytiladi.

Zidlov bog'lovchili ilova qurilmalarning sintaktik shakllanishida ham semantik asos yetakchi gapning biror bo'lagi bo'ladi. Chunki ilova qurilma ana shu bo'lak ifoda etayotgan ma'noning qandaydir bir jihatini to'ldirib yoki izohlab keladi. Bunda hosila strukturaning shakli har doim ham qo'shma gap qolipida kelavermaydi:

1.- *Bir so'z aytolmayman, sarkarda. Ammo bu sirni ochmaguncha qo'ymayman (Mirmuxsin. Temur Malik, 149).*

2. *Bu g'oyat xatarli ish. Ammo biz ko'rqmaymiz (H. G'ulom. Mash'al, 128).*

3. *Oraga bir oz jimlik cho'kdi. Ammo bu sukunat qiz qalbini tinchitish o'rniga battar dukillatdi (H. G'ulom. Mash'al, 55).*

Berilgan misollarning birinchisi mustaqil sodda gaplar tarzida, so'ngi ikkitasi esa qo'shma gap qolipida kelayotganligini ko'ramiz. Lekin har uchala misolda ham ilova qurilmalarning yetakchi gaplar bilan bog'lanish tartiblari bir xil. Boshqacha aytganda, ilova qurilmalar yetakchi gaplarning biror bo'lagini izohlash maqsadida yuzaga kelgan. Birinchi misolda ilova qurilma yetakchi gapda to'ldiruvchi vazifasidagi, ikkinchi misolda kesim vazifasidagi va uchinchi misolda ega vazifasidagi so'zlarning ma'no jihatlarini to'ldirish, izohlash uchun xizmat qilmoqda.

Zidlov bog'lovchilari ilova qurilmalar tarkibida juft holda qo'llanishi ham mumkin. Lekin bunday vaziyatda ilova qurilmalarning sintaktik derivasiyasi uchun ular bir butun tarzidagi yaxlit operator hisoblanadi:

*G'isht kerakmas, semon poydevorning ustiga paxsa ursa juda antiqa chiqadi. Ammo lekin, hamma o'z devorini o'zi uradi (S.Ahmad. Ufq, 49).*

Ko'rinadiki, yetakchi gapdan so'nggi davomli ohang tinimidan keyin shakllangan ilova qurilmaning tarkibida zidlov bog'lovchilari juft holda qo'llanilmoqda. Ayrim manbalarda zidlov bog'lovchilarining bu tahlit juft qo'llanishida zidlik ma'nosi keskinroq va kuchliroq bo'lishi va ikkinchi komponentning ma'nosi ta'kidlab kuchaytirilishi xususida fikr bildiriladi. Masalan, *S.Solixo'jaeva ana shunday mulohaza yuritadi.*

Albatta, *S.Solixo'jaeva* zidlov bog'lovchilarining davomsiz ohang tinimidan keyin bog'langan qo'shma gapning ikkinchi komponenti tarkibida qo'llanilishini tekshirish natijasida

bunday xulosaga kelgan. Lekin bizningcha, zidlov bog'lovchilari, qanday gap tarkibida kelishidan qat'i nazar, ma'noni kuchaytirish uchun ataylab juft holda qo'llanilmaydi. Chunki ma'no kuchaytirilishi zidlov bog'lovchilarining har birida ham seziladi.

Ularning juft tarzda ishlatilishi, birinchidan, so'zlovchining nutqiy ko'nikmasi va uslubi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, uning qaysi sheva (lahja) vakili ekanligi bilan ham aloqadordir. Masalan, zidlov bog'lovchilarining ammo lekin tarzida juft qo'llanilishi ko'proq Farg'ona vodiysida kuzatiladi. Lekin qanday bo'lishidan qat'i nazar, juft holda kelgan zidlov bog'lovchilarining har ikkalasi ham bir xil sintaktik vazifa bajaradi. Shuning uchun ularni sintaktik derivasiyaning operatori sifatida yaxlitligicha, bir butun tarzda o'rganamiz. Darhaqiqat, ularning har ikkalasi ham funktsiyasi va mazmuniga ko'ra bir xil kuchga ega va qo'shma gap tarkibida ham, ilova qurilma tarkibida ham bir xil vazifalarni bajaradi. Shu bois ilova qurilma tarkibidan bu bog'lovchilarning birini olib tashlaganimizda ham, ikkinchisi jumlaning sintaktik shakllanishini to'liq boshqara oladi va gapdagi ekspressivlik belgi-xususiyatni saqlab qoladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonov G'.A. Qo'shma gap sintaksisi.-Toshkent: Fan, 1983.
2. Aleksandrova O.V. Problemi ekspressivnogo sintaksisa. - M, 1964. - S.63-76.
3. Muxtorov J.Hozirgi o'zbek tilida bog'lovchilar.Nomzodlik dissertatsiyasi.- Samarqand:1953, 14-b.
4. Solixo'jaeva S. Bog'langan qo'shma gaplar//O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent, 1992, 181-bet.
5. Turniyozova K.A., Nusharov M.M., Turniyozov N.Q.\ O'zbek tili struktur-funksional sintaksisi asoslari. - Samarqand, 1993, 122-6.
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., Ko'ng'urov R., Rustamov H - O'zbek tili stilistikasi. - Toshkent, 1963, 204-bet.

*М.Х.Зайниева,  
СамДЧТИ таянч докторанти*

## **ГЛОБАЛ СИНТАКТИК СТРУКТУРА ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР**

Бугунги кунда нутқнинг мукамал ва мураккаб ҳосиласи бўлган глобал бирлик мақоми матн экани, унинг асосий белгилари нималарда намоён бўлиши, бу борадаги айни даврдаги қарашларнинг кенг қўламли бўлиши, фан тараққиёти динамикаси маҳсули сифатида қаралиши лозим. Шу асосга кўра нутқнинг максимал глобал структураси ва унинг энг кичик бирлиги масаласида ўзига хос муносабатлар илгари сурилмоқда.

Тилшунослиқда тилнинг ва нутқнинг бирликлари ўрганилар экан, аввало, уларнинг ўзаро ўхшаш ва фарқли жиҳатлари хусусида фикр юритилади. Шунга кўра, фонема, морфема, сўз, гап ва бошқа бирликлар хусусида фикр ютирилади [7, Б. 98-103]. Бу борада тилшунослиқда катта ютуқларга эришилган. Муаммо доирасидаги масалалар ечимига қаратилган изланишлар асрлар мобайнида давом этиб келаётгани изох талаб этмайди.

Бизнингча, тил инсониятнинг мулоқот воситаси сифатида тан олинар экан, унинг катта-кичик барча бирликлари таъриф ва тавсифи ҳам, ҳеч шубҳасиз, ана шунга асосланмоғи керак. Чунки тилнинг жамиятдаги бирламчи функцияси унинг коммуникатив хусусиятини тақозо этади.

Лисоний бирликларнинг ўзаро асоциатив муносабат доирасидан чиқиб, бирор бир функционал қиммат касб этиши унинг парадигматик қонуният таъсири доирасидан чиқишини, унинг бошқа бирликнинг компоненти мақомига ўтишини тақозо этади. Табиийки, бу жараён ўзигача бўлган жараённинг моҳиятидан тубдан фарқ қилади. Мазкур жараёнда лисоний бирликларнинг ўзаро муносабатини юзага келтирувчи қонуният аввалгисидан, яъни парадигматик қонуниятдан фарқли бўлиб, у синтагматик муносабатларга асосланади. Бошқача айтганда, парадигматик муносабат бирликларнинг

вертикал муносабатини ифода этса, синтагматик муносабат эса, уларнинг компонентлари ўртасидаги горизонтал муносабатни назарда тутади.

Бир парадигма доирасидаги бирликлар муносабати айна қонуният таъсирида шаклланади, бироқ уларнинг кейинги муносабати эса синтагматик қонуниятнинг оғушида шаклланади [2.203]. Айна жараённинг ўзи тилдаги учинчи қонуният, иерархик муносабатнинг юзага келишини ҳам талаб этади.

Келтирилган муносабатлар формал-структур изланишларнинг натижаси ўлароқ шаклланди. Бироқ, қайд этиш лозимки, тилшунослик адабиётларида лисоний бирликлар тавсифи матн доирасида ўрганилиши кераклиги таъкидланаётганини кейинги даврларда тез-тез учратсак-да, бу борадаги аниқ илмий-назарий жиҳатдан асосланган қарашлар ниҳоятда кам учраётганини айтиш ўринлидир. Матн ва унинг тавсифи, матн ва унинг таърифи, мант ва унинг кўришлари, турлари, унинг шаклланиши билан боғлиқ омиллар нималардан иборатлиги борасидаги қарашларда бир хилликнинг мавжуд эмаслиги, бу мавзулардаги қарашларда ўзаро бири бошқасини тўлдирадиган фикрларга нисбатан, бири бошқасини инкор этувчи фикр, хулоса ва қарашлар кўпроқ кузатилмоқда.

Ана шуларга таянган ҳолда айтиш мумкинки, фанмиз тараққиётининг бугунги босқичига келиб, матн тушунчаси ва унинг лингвистик мақоми, матннинг турлари, унинг таърифи ва тавсифи, матн компонентлари нималардан иборатлиги, унинг минимал ва максимал кўриниши, ундаги компонентлараро муносабатнинг шаклланиши, формал, семантик, коммуникатив, когнитив, прагматик, социал ва бошқа шу каби кўплаб муҳим масалалар борасида ўз ечимини кутаётган масалалар салмоқли миқдорни ташкил этиши кўзга ташланмоқда. Бундай масалаларнинг ечилиши фан тараққиёти динамикаси учун ҳам, инсоният ҳаётининг муайян мураккаблиklarини ҳал этиш учун ҳам долзарбдир.

Матн ўзидан кичик бўлган, аниқроғи, ўз таркибида коммуникатив функция бажараётган, синтактик фаоллик олаётган бирликларнинг комплекс муносабатидан вужудга келадиган қурилмани тақозо қилади [1.167].

Матнга берилган таъриф ва тавсифлар шуни кўрсатадики, матн тузилишига кўра макро- ва микроматнга ажралади [3.7-21]. Шундай экан, матнни микро- ва макро-матн деб номланувчи бирликларга эмас, балки уни ташкил этувчи компонентларга ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Фикримизча, ана шундай ёндашув глобал синтактик структура сифатида қаралаётган матннинг тўғри тавсифланишига имкон беради.

Глобал синтактик структура тушунчаси том маънодаги матнни назарда тутиши билан бошқа терминларга нисбатан мукамалдир. Масалан, кенг қўлланишда бўлган макро-матн тушунчаси ҳам ўзида катталиқ, тугаллик сингари семаларни мужассам этса-да, у глобал синтактик структуранинг ифодаловчи моҳиятини ўзида тўлалигича қамраб ололмайди. Чунки макро-матн тушунчаси бир неча гап ва жумлалар, мураккаб синтактик қурилмалар, абзац кабиларнинг муносабатидан иборат бўлиши билан юзага чиқади, шаклланади. Бунда унинг конститутив моҳияти лисоний бирликларга асосланган ҳолда берилади.

#### **Адабиётлар:**

1. Дейк ван Т., Кинч В. Стратегии понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1996. – С. 153 – 211.
2. Дейк ван Т. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Флинта, 2000. – 308 с.
3. Долбунова Л.А. Стратегический анализ глобальной структуры англоязычного правового документа вто // Лингвистические и экстралингвистические проблемы коммуникации: теоретические и прикладные аспекты: межвуз. сб. науч. трудов. Вып. 10. ISBN 978-5-7103-2640=4/ отв. ред.: И. В. Коровина. – Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 2016. (-С. 21-27) – 182 с.
4. Моррис Ч.У. Основания теории знаков. - Семиотика. - М., 1983. -С. 51
5. Хайруллаев Х. Тил бирликларининг поғонали муносабати. -Тошкент: Фан, 2008, 100 б.
6. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. -Самарқанд, 2008, 79 б.

## **GAP SHAKLINING KENGAYISHI XUSUSIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada gap nutq birligi sifatida murakkab va ko'p qirrali ekanligi, gapning darajalari, unung shaklining kengayishi kabi masalalar talqini berilgan. Shuningdek, gapning sintaktik shakli kengayishi derivasion jarayon doirasida vujudga kelishi va shu bois applikativ model qo'llanilishini sintaktik derivasiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o'rganishimiz ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** gap, universal grammatika, freym, derivatsiya, pragmatika, funktsional-kommunikativ, applikativ model.

Ma'lumki, tilshunoslik fan sifatida uzoq vaqtdan beri klassik universal grammatikalar nazariyalarining rivojlanishiga turtki bergan mantiq ta'sirida bo'lgan Tilning umumiy tushunchasi V. fon Gumboldtning ishi tufayli sezilarli darajada o'zgardi, u tilni o'rganishga antropologik yondashuvni ilgari surdi, bu tilda inson omilining rolini o'rganishni birinchi o'ringa qo'ydi. Deyarli barcha zamonaviy tilshunoslik nazariyalari uning ishiga asoslangan bo'lib, u inson hayotining umumiy tamoyillariga, shu jumladan ma'naviy va lingvistik qobiliyatlarga bag'ishlangan. Ko'p yillar davomida jahon tilshunosligida gapni o'rganishga mantiqiy, antropologik (psixologik) va rasmiy yondashuvlar rivojlandi va til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi masalasi falsafa, psixologiya, fiziologiya va tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, gap nutq birligi sifatida murakkab va ko'p qirralidir. Shuni ta'kidlash kerakki, gapning aspektlari va sathlarini o'rganish g'oyasi XX asrning 30-yillarida tilshunos va adabiyotshunos V.G.Admoni tomonidan ilgari surilgan. Uning "grammatika nazariyasi asoslari" asari gaplarni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga turtki bo'ldi [1]. Bunga katta hissa qo'shgan tilshunoslar orasida H. Brinkmann, G. Helbig, A. V. Bondarko, O. I. Moskalskaya, S. D. Katsnelson, B. A. Abramov, T. P. Lomtev, V. G. Gak, N. D. Arutyunova kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda gaplarni o'rganishda uchta darajani ajratish odatiy holdir:

- 1) sintaktik yoki tarkibiy;
- 2) semantik yoki nominativ;
- 3) funktsional-kommunikativ yoki pragmatik.

Gapning struktur tomoniga kelsak, u jumla shakli, jumla modeli va jumla a'zolari kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Semantik jihat voqelikning ma'lum bir lahzasini ma'ruzachi va tinglovchi vaziyat haqida g'oyani shakllantiradigan, o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan tarzda aqliy qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Semantik tuzilishning markaziy belgisi predikatdir. Gapning funktsional-kommunikativ tomoni modal-kommunikativ yoki kommunikativ-pragmatik deb ham ataladi. Bu aloqa ishtirokchilari o'rtasida rollarni taqsimlash, ularning voqeaga munosabati, xabarning maqsadi va bahosini o'z ichiga olgan ma'lum bir nutq holatini anglatadi. Nutq aktini tavsiflovchi ushbu tomonlarni shveysariyalik tilshunos Sh. Balli modus deb atagan [2].

Demak, bu muammoga mantiqiy qoidalar asosida yondashilganda formal -grammatik tamoyillar, formal - grammatik nuqtai nazardan yondashilganda, mantiqiy va psixologik masalalar talqini, sistem - struktur tamoyillarga tayanilganda esa mantiqiy - semantik masalalar ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Ammo shuni ham aytish kerakki, hozirgi paytgacha tilshunoslik muammolari tadqiqida, shu jumladan, gap sintaksisi masalalarini o'rganishda ham Aristotel yashagan davrlarda keng iste'molga kiritilgan mantiqiy (falsafiy) qoidalar ustuvor ahamiyat kasb etib kelayotgani sir emas. Buning natijasida esa sof grammatik tamoyillardan chetlashish holati vujudga keldi. Boshqacha aytganda, biz tilshunoslik muammolari tadqiqiga mantiqiy yoxud

psixologik nuqtai nazardan yondashib keldik va sof grammatik tamoyillar hamda ularga xos qoidalardan birmuncha chetlashib ketdik.

Masalan, gapning birgina sintaktik tahlilini oladigan bo'lsak, bunda gap bo'laklarini belgilash printsiptiga tayanamiz. Ammo hozirgacha amal qilinib kelayotgan gap bo'laklariga asoslanuvchi sintaktik tahlil ham noto'g'ri yo'nalishdadir. Chunki nutq lingvistikasi endigina ilmiy asoslanmoqda va shu bois uning qonun-qoidalari, tahlil usullari ham hali to'liq ishlab chiqilmagan [3]. Boshqacha aytganda, nutq lingvistikasi to'liq ilmiy asoslangandan keyingina, uning birliklari sintaktik tahlili usullari haqida so'z yuritish mumkin bo'ladi. Chunki gap hozirda supersintaktik butunlik sifatida talqin qilinmoqda [4;5]. Darhaqiqat, gap (jumla) so'zlovchining nutqiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab sintaktik hodisadir. Ana shu bois Chex tilshunoslari gapni (uni jumla tushunchasi bilan mushtarak hodisa tarzida e'tirof etishganlari holda) supersintaktik sath birligi sifatida talqin qiladilar.

Sh.Turniyazova to'g'ri ta'kidlaganidek, gap nutq birligi sifatida mustaqil qo'llanilishi ham, matn komponenti tarzida kelishi ham mumkin. Biroq uning ma'no jihatlarini matn tarkibida kelib, boshqa gaplar qurshovida bo'lgandagina to'liq namoyon bo'ladi [6]. Gap nutq birligi sifatida mustaqil qo'llanilganda, uning komponentlarini so'zlar tashkil qiladi. Til sistemasining muhim birligi sanaluvchi so'z esa gap shaklini kengaytiruvchi xususiyatga ega. Buni so'zning nutqda qo'llanilishida bevosita kuzata olamiz. Masalan, gapning sintaktik shaklini kengaytiruvchi vositalardan biri uyushiq bo'laklarni olaylik. Bunday bo'laklarni an'anaviy tadqiqot ishlarida ham gap shaklini kengaytiruvchi omil sifatida talqin etishadi. Masala tavsifiga kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, bu jarayonda uyushiq bo'laklarda subfreym va turdosh freymlar faoliyat ko'rsatayotganini anglash qiyin emas. Bu esa freym tushunchasi nafaqat gapning sintaktik strukturasi mazmuniy jihatini bilan, balki uning shaklan kengayishi bilan ham aloqador ekanligidan dalolat beradi.

Freym deganda, albatta, inson ongida mavjud bo'lgan tushuncha ifodasi bilan bog'liq bilimlar to'ri idrok etiladi. Sh.Safarov freym tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida "freymlar to'ri to'plami" mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyati ma'lum ko'rinishdagi "Andoza"lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi" [7].

Ravshanki, an'anaviy tadqiqot ishlarida gapning sintaktik shakli kengayishi masalasi uyushiq va ajratilgan bo'laklar vositasida ro'y berishiga e'tibor qaratiladi.

Gapning sintaktik shakli kengayishi derivasion jarayon doirasida vujudga keladi va shu bois applikativ model qo'llanilishini sintaktik derivasiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o'rganamiz. Sintaktik derivasiya hodisasi, avval eslatib o'tilganidek, asosan, ikki usul bilan - transformasion va gap shaklining kengayishi usullari bilan voqelanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Адмони, В.Г. Основы теории грамматики / В.Г. Адмони. – Л.: Наука, 1973. – 361 с.
2. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка / Ш. Балли. – М.: ИЛ, 1955. – 416 с
3. Turniyozov N. Gap bo'laklari haqida ba'zi mulohazalar // xorijiy filologiya, 2004, № 4.
4. Лешка. Л. Иерархия ярусов строя языка и их перекрывание. Тезисы докл, прочитанного на советско-чехословацком симпозиуме на тему: «Еденицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие». - М., 1967.- С. 5;
5. Trnka B. On the linguistic sign and the multilevel organization of language. « Travaux linguistiques de Prague». – Prague, 1964.-С.38.
6. Turniyazova Sh. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. // Nomz. dis -. Toshkent, - 2010.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006, 90 б.

## TIL SISTEMASIDA LEKSIK KAUZATIVNING O‘RNI

**Annotatsiya.** Tezida til sistemasida leksik kauzativning o‘rni haqidagi masala yoritilgan bo‘lib, unda tilshunos olimlarning til tizimi xususidagi fikrlari keltirilgan hamda til o‘zaro munosabatdagi elementlarning yig‘indisi sifatida e‘tirof etilgan. Muallif til sistemasida leksik kauzativning qay tarzda voqelanishi haqida ilmiy fikrlarini bayon etgan.

**Kalit so‘zlar:** struktura, element, funksiya, sistema, barqarorlik, leksik kauzativ.

Til elementlarining tizimli tarzda o‘rganilishi F.de Sossyur tomonidan asoslab berildi. Olim *langue* (til) va *parole* (nutq) tushunchalarining farqli tomonlarini ko‘rsatib berdi. U *langue* terminidan til tizimidagi mavhum ifoda belgilarini izohlashda foydalandi. O‘z navbatida, *parole* terminini har bir so‘zlovchi shaxsning mazkur tizimdan konkret foydalanishini anglatishda qo‘lladi[1.204-205].

F.de Sossyurning *langue*, *parole* tushunchalarini farqlashi L.Yelmslevga obyektlarni sistema hamda jarayonga bo‘lib o‘rganishga imkon yaratdi. Boshqacha aytganda, sistema tilning belgilari tanlab olinadigan paradigmatic o‘lchovi bo‘lsa, jarayon esa lingvistik belgilarni nutqda birlashtiruvchi, paradigmatic o‘qqa suyanuvchi sintagmatic munosabatni taqozo etadi.

Sistema o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarning bir butunligidir. Aniqrog‘i, til sistemasi elementlar munosabatini taqozo etadi. Bugungi kunda tilning sistem tabiati barcha tilshunoslik maktablari tomonidan e‘tirof etildi. Sistema elementlari yaxlit kompleksni tashkil etadi va pog‘onali munosabatga bo‘ysunadi. Til tizimining mohiyatini ochib berishga qaratilgan yondashuvlar ushbu hodisaning o‘ta murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda G.Giyomning til tizimiga bergan ta‘rifini keltirib o‘tishni joiz deb bilamiz: «Til o‘z mohiyatiga ko‘ra kogerent hodisadir. Boshqacha aytganda, u doimiy ravishda o‘zaro munosabatda bo‘lgan mikrosistemalar majmuyini tashkil etadi, o‘z navbatida, mazkur sistemalar «til» deb ataluvchi yaxlitlikni yuzaga keltiradi»[2.106].

Birinchilardan bo‘lib V.fon Gumboldt tilning mavqeyi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uni tizm sifatida o‘rganib: «Til iyeroglif singari insonning olam haqidagi tasavvurini qamrab oladi. Mazkur tasavvur muttasil ravishda kengayib, rivojlanib boradi va oxir oqibat o‘zgarimas bo‘lib qoladi», - deb aytgan edi[3.348-349].

M.Y.Blox til tizimini «yaxlitlik», «element», «struktura», «funksiya» kabi tushunchalardan iborat bo‘lgan korrelyat konseptlar munosabati deb biladi[4.10].

Darhaqiqat, *element* til tizimining funksional komponenti sifatida faoliyat yuritadi, *struktura* esa murakkab obyekt bo‘lib, elementlar yig‘indisini taqozo etadi, va nihoyat, *funksiya* tushunchasi paradigmatic yoki sintagmatic munosabatni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu muchalar yig‘indisi bir butunlikni kasb etib, til tizimini tashkil etadi.

L.A.Gruzbergning ta‘kidlashicha, til tizimi o‘z dinamikziga ega bo‘lgan har qanday tizim kabi quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi: 1) barqarorlik; 2) elementlar yaxlitligi; 3) uni tashkil etuvchilarning kamayib ketmaydigan yig‘indiga ega bo‘lishi; 4) o‘zgarishlarning o‘ziga xosligi[5.115].

Ta‘kidlash joizki, tilshunoslik fanining har bir bo‘limi o‘zi tadqiq etayotgan vazifalaridan kelib chiqqan holda til tizimi haqidagi nazariy qarashlarni takomillashtirib bormoqda. Masalan, funksional uslubiyat mutaxassislari tildagi funksional uslublar yig‘indisini o‘ziga xos tizim sifatida e‘tirof etishadi. Matn nazariyasini o‘rganuvchi olimlar har bir alohida olingan matnni tizim deb bilishadi. Leksikologlar uchun tilning lug‘at tarkibi belgilar tizimini tashkil etadi, so‘zning semantik tuzilishi esa tildagi leksik va grammatik tizimning elementi sifatida belgilanadi. Chunki so‘z semantik jihatdan ikki xil ma‘noni o‘zida mujassamlantirishi mumkin. Ulardan biri lug‘aviy ma‘no bo‘lsa, ikkinchisi grammatik ma‘nodir. Shu jihatdan olib qaralganda, kauzativlik ham grammatik ma‘no ifodalovchi vosita sifatida til tizimida alohida o‘rin egallaydi.

Umuman olganda, tilshunoslikda kauzativlik tushunchasi leksik, morfologik va sintaktik jihatdan talqin etilmoqda. Biz avvalgi ishlarimizda o'zbek tili materiallari asosida kauzativlikning morfologik va sintaktik maqomi haqida ilmiy qarashlarimizni bayon etib o'tganmiz. Mazkur tezisda kauzativlikning leksik jihatdan shakllanishi xususida to'xtalmoqchimiz. Aslida leksik kauzativ deganda ma'lum bir so'zda ham so'z yasalishi, ham kauzativlik alomatlar mavjudligini tushunamiz. Mavjud holatda kauzativ qo'shimcha so'z yasash uchun ham xizmat qilishi lozim. Buni Hind-Yevropa tillarda kuzatishimiz mumkin. Masalan, taniqli fransuz tilshunosi Antuan Meye kauzativ fe'llarni tarixiy jihatdan tadqiq etib, bunda kauzativ ma'no fe'l yasalishi orqali yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Jumladan, olim o'zining «Introduction A l'Étude Comparative des Langues Indo-Européennes» nomli asarida sanskrit, grek, slavyan, irland, lotin tillari materiallari asosida kauzativ fe'llarning qiyosiy tahlilini yoritadi. Ushbu asarda quyidagi jummalarni o'qiyamiz: «Hind tilida *-eyo-: -i-(-y-)* qo'shimchasi har doim o'zakka qo'shilib, fe'lning hozirgi zamon shaklini hosil qilishi bilan birga, kauzativni ham yasaydi. Masalan, sanskritdagi Vedalar tilida quyidagicha: *vart-aya-ti* «*aylantiryapti*»; *sad-aya-ti* «*o'tqizyapti*», *prath-aya-ti* «*uzaytiryapti*»[6.227].

T.G.Xazagerov ham kauzativ fe'llar yasama ekanligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi, lekin bu yasalish umumiy rejadagi yasalish emas, balki o'ziga xos yasalish hisoblanishini aytadi. Kauzativlar faqat fe'l so'z turkumi asosida emas, hatto ot va sifat so'z turkumlari asosida yasalishi mumkinligini izohlab o'tadi: *везти-возить* (tashimoq-tashitmoq), *отрезветь-отрезвуть* (hushiga kelmoq-hushiga keltirmoq), *обезлюдеть-обезлюдить* (odamsiz bo'lib (huvillab) qolmoq-odamsiz bo'lib (huvillatib) qoldirmoq) kabi[7.24].

O'zbek tilida mavjud holat kuzatilmasa-da, zero tilimizda ortirma nisbat qo'shimchalari so'z yasasah uchun xizmat qilmaydi, yasama fe'llarning buyruq-istak maylidagi II shaxs holatini kauzativ deb olishimiz mumkin. Chunki unda qo'zg'ash, ta'sir etish ma'nosi borligi kuzatiladi: *sana, kuchan, gapir* kabi. Shu bois mazkur fe'llarni tilimizdagi leksik kauzativlarga misol qilib olishga haqlimiz. O'z navbatida, leksik kauzativlarni ta'sir etish ma'nosiga qarab, quyidagilarga ajratish mumkin:

1) ishonch bildirish ta'siri: *ko'kar, boshqar, boshla*; 2) yaratish, ijodkorlik faoliyatiga ta'sir: *ishla, sahnalashtir*; 3) bilimga, aqliy qobiliyatga ta'sir: *bahslash, o'yla*; 4) hissiyotga ta'sir: *asabiylash, go'zallash, shodlan, lazzatlan*; 5) miqdorga ta'sir: *ko'pay, kamay, sana* kabi.

Ushbu maqolada leksik kauzativlarning til sistemasidagi o'rni haqida fikr bildirib, ularning ta'sir etishdagi ma'nosini qisqacha izohlab o'tdik, xolos. Ammo ularning kauzativ ma'nosini kelgusidagi katta ishlarda batafsilroq yoritish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мартин Б., Рингхэм Ф. Словарь семиотики. -М.: Книжный дом «Либроком», 2010.
2. Гийом Г. Принципы теоретической лингвистики. Сборник неизданных текстов, подготовленный под руководством и с предисловием Р.Валена/Пер. с фр. П.А.Скрелина. Общая ред., посл. и ком. Л.М.Скрелиной. Изд. третье. -М.: Изд-во ЛКИ, 2007.
3. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. -М.: Прогресс, 1985.
4. Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка. -М.: Высшая школа, 2000.
5. Грузберг Л.А., Савельева А.Ю. Системность и парадоксальность: взаимодействие или взаимоисключение?//Филол. заметки. Межвуз. сб. научн. Тр. Пермь-Люблина. -Пермь: Изд-во ПГУ, 2004. Вып. 3. Ч. 1.
6. Мейе А. Введение в сравнительное изучение индоевропейских языков/Пер.с фран. Д.Кудрявского, под ред. Р.Шор. -М.; Л.: Изд-ва Академии Наук СССР, 1938.
7. Хазагеров Т.Г. Каузативность: статус и эволюция средств выражения в русском языке//Филологический вестник Ростовского государственного университета, №1,1998.

## **APPLIKATIV VA TRANSFORMATSION MODELLAR XUSUSIDA**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada applikativ va transformatsion modellar va ularning tilshunoslikdagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Applikativ model, transformatsion model, transform, applikator.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda applikativ model o'zining yuqori bosqichida transformasiya bilan bog'lanishi xususida ma'lumot berilgan bo'lsa-da, mazkur modelning qay tarzda transformatsiyaga munosabat bildirishi konkret til materiali vositasida ko'rsatib berilmagan. Bunda ko'proq genotipik abstrakt til materialida dalillar keltirilganligini ko'rish mumkin. Ayrim bu boradagi ishlarda esa transformalar komponentlarining applikativ model asosida shakllanishi qayd etiladi. Masalan, S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalarning "Аппликативная порождающая модел и исчисление трансформаций в русском языке" asarida bu xususda quyidagilar til materialining tahlili uchun asos qilib olingan: **Bola qo'shiq aytadi.** Berilgan gapning transformalari. 1). Qo'shiqchi bola edi 2). Qo'shiqchi bola 3). Qo'shiq aytadigan bola 4). Bola tomonidan kuylangan qo'shiq [1,4]. Gap strukturasi berilgan misolda invariant asosli bo'lib, uning ma'nosi bilan mushtarak ma'nolar transformalarda shakllanayotgani va har bir transformada muayyan turkumlarga oid so'zlarning applikativ bog'lanishda ekanligi ta'kidlanadi. Nazarimizda, masala mohiyati talqiniga bu tarzda yondashish orqali, asosan, transformalar komponentlarining applikativ model asosidagi munosabatinigina ko'rsatib berish mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni, ya'ni applikativ modelning transformasion model bilan kesishishi esa ochiq qoladi. Bundan tashqari, mazkur usul orqali faqat muayyan transformasiya shaklining sintaktik kengayishini dalillay olamiz. Transformalarni qiyos qilganimizda ham applikativ model bilan transformatsion modelning kesishishi haqida deyarli hech qanday ma'lumot bera olmaymiz. Y.D.Apresyanda ham applikativ model bilan transformasiya o'rtasidagi bog'liqlik yuqorida ko'rib o'tilgan S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalarning ishlarida berilganidan qariyb farqlanmaydi. Quyida Y.D.Apresyan bergan misolni keltiramiz:

- **Yozuvchi kitobni tugatmoqda.**
- Yozuvchi tomonidan yakunlangan kitob
- Kitob yozuvchi bilan tugaydi
- Yozuvchining kitobini yakunlash [2,231].

Bu o'rinda ham odatdagi transformasiya berilayotganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, ayni paytda ham applikativ modeldan transformatsiyaga ko'chish yoki mazkur ikki modelning o'zaro kesishishiga oid ma'lumot olib bo'lmaydi. To'g'ri, har bir transformaning sintaktik shakllanishi o'ziga xos morfologik vositalar – applikatorlar yordamida voqelanmoqda. Biroq har bir applikatorning sintaktik vazifasi faqat bir gap sathida ko'zga tashlanadi. Bu orqali, albatta, applikativ va transformatsion modellarning bir – biri bilan kesishishini ko'rsatib bo'lmaydi. Ravshanki, transformatsion jarayon kognitiv – pragmatik vositalar, shuningdek, distributiv muhit bilan ham bevosita bog'liqdir. Yuqorida tahlil uchun keltirilgan misollarda esa bunday omillarga murojaat etilmagan. Vaholanki, mazkur omillar har ikki modelning o'zaro munosabatini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, gap sintaktik shaklining applikativ model, shuningdek, transformatsion model doirasida o'zgarishi tabiiy tarzda eng avval ichki tilshunoslik qonun – qoidalariga, ikkinchi navbatda esa tashqi tilshunoslik tamoyillariga bo'ysunadi. Buni jumla tarkibiga yangidan kiritiladigan morfemalardan boshlab, gap shaklining sinonimik struktura bilan almashtirilishigacha bo'lgan har qanday o'zgarishda ko'rish mumkin. Masalan, muayyan morfemaning biror so'z tarkibiga kiritilishi distributiv qonuniyatga bo'ysunadi. Xuddi shu kabi, muayyan so'zning gap tarkibiga kiritilishi ham semantik yohud sintaktik distributsiya qoidalari doirasida bo'ladi. Aynan shunday vaziyatni gap bilan ikkinchi gapning munosabat bog'lashida ham kuzatamiz. Kognitiv-pragmatik omillar ham avval semantik, keyin esa sintaktik munosabat doirasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ayni paytda tilning

antroposentrik xususiyati, aniqrog‘i, tilning amalda qo‘llanilishi applikativ va transformatsion modellarning har ikkisi uchun ham ahamiyatlidir. Bunday vaziyat, o‘z navbatida, kognitiv – pragmatik omillar ta‘sirini oshirish uchun xizmat qiladi, zotan, tilning amalda qay tarzda qo‘llanilishi birinchi galda inson omili, uning bilimlari darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Darhaqiqat, inson omili, garchi u til sistemasining ichida yashamasa – da, tilning amalda qo‘llanilishini boshqaruvchi asosiy vositadir. Shu bois pragmatik vositalarning ham eng asosiysini inson tashkil etadi. Bu o‘rinda, kasbidan, bilim darajasidan qat‘iy nazar, muayyan tilda so‘zlashuvchi barcha kishilar nazarda tutiladi. O‘z ona tilida so‘zlashuvchi kishilarning nutqida, hatto matn shakllanishida, tabiiyki, fonemalar, morfema va so‘zlar, shuningdek, gaplarning qo‘llanilishida muayyan qonun – qoidalar amal qiladi. Inson o‘z ona tilida so‘zlashish jarayonida gapning sintaktik shaklini istalgancha kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin. Bunga uning kognitiv salohiyati yo‘l qo‘yadi, zotan, tilimizning o‘zi kognitiv vosita sifatida belgilar majmuasini tashkil etadi[3,102]. Ta‘kidlash joizki, applikativ modelni gap sintaktik shaklining kengayishidan tashqari, matn sintaktik salohiyatining kengayishini o‘rganishda ham qo‘llash mumkin. Ammo endi applikator vazifasida keluvchi morfologik vosita morfema emas, balki mustaqil yoki yordamchi so‘z, shuningdek, alohida bir jumla bo‘lishi ham mumkin. Chunki matnning sintaktik salmog‘i kengayishi ana shu vositalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Endi esa applikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi masalasiga nisbatan o‘zgacharoq yondashishga to‘g‘ri keladi. Chunki transformatsiya ma‘no mushtarakligiga asoslansa, applikativ model bunga bo‘ysunmaydi. Shuning uchun muayyan gapning transformatsion xususiyat-larini tadqiq etishda ayni paytda applikativ model o‘ziga xos bo‘lgan usul tarzida faollik ko‘rsatadi. Ma‘lumki, transformatsion nazariya amerikalik olimlar tomonidan iste‘molga kiritilgan edi. Bunga Z.Xarris, N.Xomskiy kabi tilshunoslarning tadqiqot ishlari asos bo‘ldi. Ular transformatsiya deganda, muayyan berilgan gapning mazmunini saqlagan holda boshqa hosila strukturalarni shakllantirishni nazarda tutadilar. Z.Xarrisning ta‘kidlashiga ko‘ra, transformatsiya qilinayotgan gap bilan uning transformalari (hosilalari) o‘rtasida leksik mushtaraklik bo‘lmog‘i lozim. Bundan tashqari, olim asosiy gap bilan transformalar mazmuniy jihatdan bir xil bo‘lishi lozimligini ham qayd etadi[4,3]. Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, ayrim istisnolarga tayangan holda, tasdiq va so‘roq gaplarni ham transformalar sifatida o‘rganish mumkinligini ta‘kidlaydi [4,540-541]. Z.S.Xarris nazariyasida bu haqda quyidagilarni o‘qiymiz: “Ma‘no faktorini e‘tiborga olmog‘imiz darkor. Chunki transformatsiyada mazmuniy salmoq o‘zgarmaydi. Bir-biri bilan transformatsion munosabatda bo‘lgan ikki qurilma o‘rtasida farq kuzatiladigan bo‘lsa, bu farq tashqi grammatik maqomda (status) bo‘lishi mumkin. Bu xususda mulohaza yuritganida N.Turniyozov quyidagilarni qayd etadi: “... transformatsiya hodisasi tavsifini berishda tadqiqotchilarga muammo tug‘diradigan narsa ma‘no masalasidir. Chunki ba‘zi tadqiqot ishlarida darak va so‘roq gaplarning yoki buyruq va so‘roq gaplarning shu taxlit talqin etilishi (ya‘ni transformalar tarzida –P.C.) masala tavsifini bir oz xiralashtirmoqda. Bizningcha, transformatsiya hodisasining vujudga kelishi transformalar o‘rtasidagi ma‘no mushtarakligiga to‘liq rioya qilishi kerak” [5,61-62]. Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, Z.Xarrisning transformatsion nazariyasi ommalashib ketgani bois, ko‘pgina ishlarda tasdiq, so‘roq va buyruq gaplarni o‘zaro transformatsion munosabatda deb o‘rganilmoqda. Masalan, J.Bo‘ronov quyidagi gaplarni transformalar tarzida beradi:

- Doktor kelyapti
- Doktor kelyaptimi?
- Shifokor bemorni ko‘radi
- Doktor kimni ko‘radi?
- Shifokor bemorni qachon ko‘radi?[6,50].

Bizningcha, applikativ model bilan transformatsion modelning kesishishi nuqtasini transformalarning komponentlari munosabatidan izlash xato emas. Biroq bunda asosiy e‘tibor transformalar sintaktik shakllarining kengayishi yohud torayishiga qaratilmog‘i lozim deb o‘ylaymiz. Fikr dalili uchun quyidagi misollarga murojaat etaylik: 1.Oyisining bu so‘zlari o‘rtadagi ma‘yuslikni tag‘in ham og‘irlashtirdi (H.G‘ulom. Toshkentliklar). 2.Alijon bu savolga javob berishga jur‘at etolmay o‘ylanib qoldi (H.G‘ulom. Toshkentliklar). Berilgan misollarning

birinchisi materiali asosida quyidagi transformalarni hosil qilish mumkin: 1.O‘rtadagi ma’uslik oyisining bu so‘zlaridan tag‘in ham og‘irlashdi. 2.O‘rtadagi ma’uslikning oyisining so‘zlaridan tag‘in ham og‘irlashishi. Ayni paytda dastlab konversiya transformatsiyasi qo‘llanilib, bunda gap komponentlarining sintaktik vazifalari o‘zgarishini kuzatamiz: birinchi asos gapdagi ega o‘rnida transformada (o‘rtadagi) ma’uslik so‘zi sintaktik vazifa bajarayotganini, asos gapdagi ega transformada to‘ldiruvchi bo‘lib kelayotganini ko‘ramiz. Ikkinchi transformada esa gapning so‘z birikmasi bilan almashtirilishini va nominalizatsiya transformatsiyasi qo‘llanayotganini kuzatamiz. Keltirilgan misollarning ikkinchisida ham shunga o‘xshash derivatsion holat ko‘zga tashlanadi: Javob berishga jur‘at etolmagan Alijonni bu savol o‘ylantirib qo‘ydi. – Alijonning savolga javob berolmay o‘ylanib qolishi. Ko‘rinadiki, derivatsion jarayonda hosil qilingan transformalarning har biri sathida ularning komponentlari o‘ziga xos tarzda applikativ usulda bog‘lanmoqda. Agar berilgan gaplar transformalarining ikkinchilariga, ya’ni nominalizatsiya transformatsiyasiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, bunda transformalar komponentlari soni bir yoki ikkiga qisqarayotganini kuzatamiz va ana shu asosda applikativ model bilan transformatsion modelning o‘zaro kesishishini dalillay olamiz. Ammo har ikki gapning ham birinchi transformalarida bunday vaziyat kuzatilmaydi, zotan, ularda komponentlar soni asos gaplardagi komponentlar soni bilan mushtarakdir. M.V.Vsevolodovning ta’kidlashiga ko‘ra, transformatsion paradigma kommunikativ paradigmaning bir ko‘rinishini taqozo etadi[7,388]. Masala tavsifiga ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, u holda applikativ model bilan transformatsion modellarning munosabatida muhit ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘ramiz. Bu jarayonda ayniqsa qo‘shimcha distributsiya alohida nufuzga egadir. Tabiiyki, muayyan nutqmuhitida shakllanishi mumkin bo‘lgan gaplar ana shu muhitga xos bo‘lgan distributiv va kognitiv – pragmatik omillar qurshovida bo‘ladi va ularga bo‘ysunadi. Buni yuqorida ko‘rib o‘tilgan asos gaplar va ularning transformalari misolida izohlashimiz mumkin. Transformatsion model haqida so‘z yuritilganda shunga ham ahamiyat berish kerakki, transformatsiyaning barcha turlari bir – birini almashtira oladi, desak xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Yuqorida berilgan misollarda konversiya va nominalizatsiya, shuningdek, kontaminatsiya deb ataluvchi transformasiya turlari bir – birini qisman almashtira olishini ko‘rdik. Biroq buni doimiy imkoniyat deb bilmaslik lozim. Chunki ba’zi derivatsion muhitda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan transformalar almashinuvi ayrim holatlarda imkoniyatsiz bo‘ladi [8,90]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, applikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi jarayonida gapning sintaktik modelini hamda uning komponentlarining sintaktik pozitsiyalarini to‘g‘ri belgilay olish lozim bo‘ladi, zero, sinonimik ma’noli transformalar shakllanishida bu o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi[9]. Boshqacha aytganda, transformatsiya qilinayotgan material komponentlarining, xususan, mazkur jarayonga tushgan gaplarning qaysi biri unga ergashib kelishi masalasi talqini har doim jiddiy e’tibor talab qiladi. Chunki bu jarayonda transformatsiya qilinayotgan gaplarning ba’zilari o‘z lingvistik maqomini o‘zgartirishlari ham kuzatiladi. Bunda gap so‘z birikmasiga aylanishi yoxud tayanch gap komponentlarining birining aniqlovchisi vazifasida kelishi ham kuzatiladi. Bundan tashqari, yuqorida ko‘rib o‘tganimiz singari, applikativ model vositasida har doim elementar gaplardan murakkab gaplarni hosil qilish emas, balki murakkab gaplarni elementar gaplarga aylantirish yo‘li bilan ularning amaldagi applikativ bog‘lanishli komponentlari haqida ma’lumot olish ham mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шаумян С.К., Соболева П.А. Аппликативная порождающая модель и исчислениетрансформаций в русском языке. – М., 1963. – С.44
2. Апресян Ю.Д.Идеи и методы современной структурной лингвистики. . – М.,1966. – С.231.
3. Сорокина Т.С. Функциональные основы теории грамматической синонимии // Вопросы языко-знания, 2003, N.3.– С.101.
4. Харрис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре//Новое в лингвистике, вып. 2. –М., 1962.– С.533.

5. Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. O'zbek tili derivasion sintaksisi. – Toshkent, 2011, 61-62-betlar.
6. Vo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. –Toshkent, 1973, 50-bet.
7. Всеволодова М.В. Теория функционально– коммуникативного синтаксиса. Фрагмент прикладной (педагогической) модели языка. Учебник. – М.,2000. – С.388.
8. Виноградова Е.Н. К вопросу о трансформационной парадигме сложного предложения (на материале предложений, выражающих причинно следственные отношения) // Язык. Сознание. Коммуникация. Вып.19. – М.,2001. – С.90.

*Sh.N.Turniyazova,  
SamDCHTI dotsenti*

## **MATN DERIVATSIYASIDA KO'MAKCHILI QURILMALARNING O'RNI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sintaktik derivatsiya jarayonida ko'makchili qurilmalarning o'rni, ularning operatorlik maqomi, lingvistik tabiati o'zbek tili materiallari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada ko'makchili qurilmalar derivatsiya operatori sifatida nafaqat murakkab sintaktik qurilmalarni, balki abzatslararo bog'lanishni ta'minlashi dalillangan.

**Kalit so'zlar:** derivatsiya, operator, ko'makchili qurilma, murakkab sintaktik qurilmalar, operand, hosila.

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilmalar komponentlari ularning turiga qarab turli bog'lovchi vositalar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. An'anaviy tilshunoslikda teng komponentli MSQlar teng bog'lovchilar yordamida, tobe komponentli MSQlar ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanishi ta'kidlangan. Adabiyotlarda shuning uchun, shu sababli kabi qurilmalar sabab bog'lovchilari guruhiga kiritilgan [1.386].

Ammo boshqa bir guruh tilshunoslar bu qurilmalarni ergashtiruvchi bog'lovchilar emas, balki ko'makchili qurilmalar deb izohlashayapti [2.126]. Jumladan, N.Mahmudovning fikricha, ko'makchili qurilmalarni ergashtiruvchi bog'lovchilar sifatida talqin etish noto'g'ri, bu rus tilidan nusxa olishning oqibatidir [2. 126].

Olimning fikriga qo'shilsa bo'ladi, zero, shuning uchun, shu tufayli kabi qurilmalar olmosh+ ko'makchi bo'lganligi sababli ularni ko'makchili qurilma deb qarasaq nazarimizda xato bo'lmaydi.

Ayrim rus tilshunosligiga doir adabiyotlarda esa shuning uchun, shu tufayli (poetomu) kabi ko'makchili qurilmalarni ravish turkumiga mansubligi ta'kidlangan. Mazkur adabiyotlarda yozilishicha, ular bog'lovchilar ham emas, balki ravishlardir. Tarkibida bunday so'zlar ishtirok etgan murakkab sintaktik qurilmalar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sirasiga kiritilgan. Masalan: On ne prishyol, poetomu ya poshyol odin [3].

Fikrimizcha, bu qarash birmuncha izohtalab ko'rinadi. Chunki shuning uchun, shu tufayli (poetomu) kabi ko'makchili qurilmalar tarkibida rus tilida ko'makchi bo'lmasada, rus tilshunosligi nuqtai nazaridan uni ravish emas, bog'lovchi deb qarasaq, maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Va tabiiyki, tarkibida bunday so'z ishtirok etgan murakkab sintaktik qurilmalar komponentlari teng emas, balki tobe munosabatga kirishadi. Yuqoridagi misol buning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. chunki aynan poetomu so'zi ishtirok etayotganligi uchun ham mazkur MSQ tobe munosabatga kirishayapti. Agar biz bu so'zni MSQ tarkibidan chiqarib tashlasak, o'shandagina u teng munosabatli MSQga aylanishi mumkin: On ne prishyol, ya poshyol odin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ko'makchili qurilmalar makromatn komponentlarining sintaktik bog'lanishini ta'minlovchi morfologik vosita sanaladi. Ularning sintaktik vazifasi ham murakkab sintaktik qurilmalar komponentlarining, ham abzats komponentlarining bog'lanishida, ham abzatslararo bog'lanishda namoyon bo'ladi. Fikrimiz dalilini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

1. Saodat ko'pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham u jaranglagan ovozlarga qo'shib ashula aytgisi keldi (Ibrohim Rahim).

2. Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi (O'Hoshimov. Urushning so'nggi qurboni).

3. Bu hodisani bundan o'n yil oldin mana shu Karamnasa bo'yida otasi Bobur ham ko'rganini va o'z esdaliklarida yozib qoldirganini Humoyun bilardi. Bunaqa irimlarga ishonmaydigan Bobur Mirzo hozir Humoyun turgan joyini qo'shinga qarorgoh qilib tanlab, bir hafta turgan va shu atrofda yovlarni yengib, Agraga g'alaba bilan qaytgan edi.

Shuning uchun Humoyun taqvodorlarning irimidan ko'ra otasining tajrisbasiga ko'proq tayandi. Uch tarafi daryo bilan to'silgan baland tepaliklar uni dushmanlaridan asraydigandek tuyuldi. Beklar ham «faqat qarorgohning janubi-sharq tomoniga soqchilar qo'yilsa, kechalar tinch uxlash mumkin» deyishdi (P. Qodirov. Avlodlar dovoni).

Ko'rinib turganidek, ko'makchili qurilmalar keltirilgan misollarning birinchisida tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar qismlarini, ikkinchi misolda abzats komponentlarini bog'lashda xizmat qilayapti. Uchinchi misolda esa abzatslararo bog'lanishni ta'minlayapti.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ko'makchili qurilmalar ham vazifasiga ko'ra bog'lovchilarga o'xshaydi. Ular matn komponentlarini bir biroviga sintaktik jihatdan bog'lab, derivatsion jarayonda operator vazifasini bajaradi:

Zamon notinch, kechalari ko'chada yurish xavotirli edi. Shu sababli Hirot aholisi qosh qorayishi bilan ko'cha eshiklarini ichidan zanjirlab olishar edi. Amaldorlar yashaydigan «Injil» yoqasidagi bu chekka mahalla ahli ham kechasi bosh suqib ko'chaga chiqa olmas edi. Hozir ham ozoda ko'chalar, sahniga gul va sarv ddaraxtlari o'tqazilgan shinam hovlilar suv quygandek jim-jit (M.Osim. Zulmat ichra nur).

Keltirilgan matn to'rt komponentdan iborat bo'lib, har bir komponent derivatsiya operandlari sanaladi. Mazkur operandlarning har qaysisi hosila struktura sifatida gavdalanayapti. Aynan ana shu hosila strukturalar yig'indisi hosilalardan hosila – katta derivatni, ya'ni matnini yuzaga keltirayapti. Matnning tyanch strukturasi esa uning birinchi komponenti tashkil qilayapti. Chunki mazkur jumlaning mazmuniy salmog'i boshqalarnikidan ko'ra yuqoriroqdir. Buni abzatsning qolgan komponentlari unga ergashib, uning mazmunini to'ldirib kelayotganligida ham ko'rishimiz mumkin. Matnning tayanch strukturasi boshqa operandlar bilan sintaktik jihatdan bog'lab turuvchi vosita esa matnning ikkinchi komponenti tarkibida kelgan shu sababli ko'makchili qurilmadir. Shuning uchun ham ayni vaziyatda ko'makchili qurilma derivatsiya operatori vazifasida kelayapti. Buni biz sxemada quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1. Hosila (tayanch) struktura = D1(derivat)
2. Hosila struktura = D2 (derivat), (operator – shu sababli)
3. Hosila struktura = D3 (derivat)
4. Hosila struktura = D4 (derivat)
5. Hosilalardan hosila (D1 + D2 + D3 + D4) = D (matn).

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yuqorida ham guvohi bo'lganimizdek, ko'makchili qurilmalar boshqa ko'rib o'tilgan vositalar kabi nafaqat abzats tarkibidagi komponentlar bog'lanishini, balki abzatslararo bog'lanishni ham ta'minlay oladi. Bunday vaziyatda ko'makchili qurilmalarning matn sintaktik bog'lanishini ta'minlovchi vosita sifatida salmog'i yana bir pog'ona ortadi. Negaki, bu holatda sintaktik derivatsiya operandlari sifatida endi jumlar emas, balki abzatslar faollik ko'rsata boshlaydi. Operandlarning sintaktik bog'lanishini esa derivatsiya operatori sifatida ko'makchili qurilmalar ta'minlaydi:

Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi.

*Shuning uchun ham qo‘limizga tosh, kesak olib fanorga hujum qilishni o‘rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko‘zlarini o‘pirib tushirardi (Oybek. Fanorchi ota).*

Keltirilgan misolda derivatsiya operandlarining sintaktik bog‘lanishini shuning uchun ko‘makchili qurilmasi ta‘minlayotgani izoh talab qilmaydi, albatta. Operator sifatida faollik ko‘rsatayotgan bu vosita ayni paytda ikki abzatsni bog‘lab turganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Demak, ko‘makchili qurilmaning aynan ana shu vazifasi uni ayni paytda operator sifatida faollashtirayapti. Boshqacha aytganda, agar bu abzatslarni ayro tahlil qiladigan bo‘lsak, mazkur vosita operator maqomida kela olmaydi.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, makromatn derivatsiyasida hosila strukturaning ko‘makchili qurilmalar yordamida shakllanishi o‘z sintaktik qurilishiga ko‘ra tobe komponentli murakkab sintaktik kurilmalarga o‘xshaydi. Ammo o‘xshash sifatlariga qaramay, ko‘makchili qurilmalar yordamida hosil bo‘lgan abzatslararo bog‘lanishni tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar qismlarining bog‘lanishi bilan bir xil deb bo‘lmaydi. Chunki bir qator sintaktik belgilarning mos kelishi mazkur sintaktik birliklarning struktur-semantik o‘xshashligi ham borligidan dalolat bermaydi. Eng asosiy farq esa, yuqorida ham ko‘rib o‘tganimizdek, ularning derivatsion tahlilida operator va operandlarini belgilashda ko‘rinadi.

Ko‘makchili qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlardan biri ularning nominativ funktsiyaga ega emasligidir. Bu bilan ular bog‘lovchi, yuklama kabi matn derivatsiyasini shakllantiruvchi boshqa morfologik vositalarga o‘xshaydi. Biroq nominativ funktsiyaga ega emasligi ko‘makchili qurilmalarning matn komponentlarining sintaktik munosabatini shakllantira olishiga to‘siq bo‘la olmaydi. Ularning bu xususiyati matn tarkibiy qismlarining mazmuniy bog‘lanish xarakterini yaqqol ko‘rsatib bera oladi. Ko‘makchili qurilmalarning matn derivatsiyasidagi sintaktik va semantik o‘rni haqida gapirar ekanmiz, bu vaziyatda kontekstning roli ham kichik emasligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Negaki, kontekst sintaktik munosabatlarning xarakteriga sezilarli ta‘sir o‘tkazadi. Matn komponentlarining pragmatik munosabatlari ham aynan ana shu kontekst davomida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tursunov U., Muxtorov A. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. – 386-bet.
2. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995. – 129-bet.
3. Запятые при слове “поэтому”. - gramatik.ru.

## **XITOI VA O'ZBEK TILLARIDA TENG KOMPONENTLI MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR DERIVATSIYASI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xitoy va o'zbek tillarida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalarga oid fikrlar qisqacha yoritilgan. Bog'lovchili va bog'lovchisiz murakkab sintaktik qurilmalarga o'zbek va xitoy tillarida misollar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** teng komponentli MSQ, mazmuniy tobelik, sintaktik tobelik, teng munosabat, tobe munosabat, bog'lovchili MSQ, bog'lovchisiz MSQ, gap bo'laklari.

Ma'lumki, gaplar odatda bir-birlari bilan uzviy bog'liq. Mazkur bog'liqlik ikki xil bo'lishi mumkin: mazmuniy va sintaktik. Mustaqil gaplar sintaktik jihatdan mustaqil sanalsa-da, ular o'zaro tobe bo'lmaydi. Ammo, bu holat ularning o'zaro mazmuniy bog'lanishiga to'sqinlik qila olmaydi, albatta. Biroq murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiga kiruvchi gaplar ham sintaktik, ham mazmuniy jihatdan bir-birlariga bog'liqdirlar.

Demak, gaplarni murakkab sintaktik qurilmalar tarkibida bir-biriga bog'lashdan maqsad shundaki, bu orqali gaplarning mazmuniy tobeligi sintaktik tobelik bilan to'ldiriladi va natijada MSQ komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning mavqei ma'lum darajada ortadi.

Murakkab sintaktik qurilmalar odatda ikki qismdan iborat bo'ladi va u shunisi bilan sodda gapdan farq qiladi.

MSQlarning har bir qismi o'z tarkibiga kiruvchi gap bo'laklaridan iborat bo'ladi. Biz murakkab gapni aynan shu jihati bilan murakkablashtirilgan gapdan farqlay olamiz. Chunki murakkablashtirilgan gapda bir gap ikkinchisining tarkibiga alohida, mustaqil gap sifatida emas, balki kengaytirilgan gap bo'lagi sifatida kiradi.

Murakkab sintaktik qurilmalar teng va tobe munosabatli MSQlarga bo'linadi. Teng munosabatli murakkab sintaktik qurilmalar bog'lovchili yoki bog'lovchisiz bo'lishi mumkin. Biroq, MSQ qismlari qanday bog'lanishidan qat'iy nazar, ular sintaktik derivatsiya mahsuli sanaladi. Shunday bo'lsa-da, bog'lovchili va bog'lovchisiz MSQlarning derivatsion tamoyillari o'zaro birmuncha farq qiladi:

1. *Sham yorug'i Mirzoning yuziga tushdi, ammo bu ham uni uyg'otolmadi (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar").*

2. *Hasanali ham Otabeklar bilan birlikda birinchi kun qo'shib qamalg'an bo'lar edi, biroq uning saroyda bo'lishi ulardan ajralib qolishig'a sabab bo'lg'an edi (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar").*

3. *Har holda qarindoshlaringizning qattig' jazo tortishlari shubhalikdir, siz payqadingizmi, yo'qmi kecha men jarchig'a bu kungi osilg'uchilarni Otabek ila Mirzakarim bo'lg'anlig'ini tayinlagan edim (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar").*

4. *Xonzoda begimni Samarqand podshosining o'g'li Boysunqur mirzoga so'ratgan edilar, Umarshayx mirzo bunga rozi bo'lmagan edi (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar").*

Keltirilgan misollarning birinchi ikkitasida MSQ komponentlari o'zaro teng bog'lovchilar yordamida bog'langan. Aynan mana shu bog'lovchilar derivatsiya operatori maqomida kelmoqda. Uchinchi va to'rtinchi misolda MSQ komponentlari ni bog'lab turuvchi grammatik vosita ko'zga tashlanmaydi. Ular mazmunan bog'langan bo'lib, derivatsion jihatdan nol operatorga tayanadi.

Bog'lovchisiz murakkab sintaktik qurilmalar tarkibida bog'lovchilar va boshqa sintaktik aloqa maxsus vositalari uchramaydi. Bog'lovchisiz MSQlar o'zaro ohang yordamida bir-biriga bog'lanadi. Aynan shu sababdan bog'lovchisiz MSQlar tashkil bo'lishida ohang, shu bilan birga MSQ qismlari joylashuv tartibi ham muhim rol o'ynaydi.

Bog'lovchisiz MSQning ayrim turlari uchun lug'aviy tarkib munosabati ham xarakterlidir. Bu munosabat ba'zan MSQ qismlari vazifasiga ko'ra bir xil bo'lgan gap bo'laklari bilan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari ayrim hollarda bog'lovchisiz MSQning qismlarida gap bo'laklari ketma-ketligi ham bir xil bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda bog‘lovchisiz MSQlarda fe‘l shakllari ham o‘ziga yarasha o‘ringa ega.

1. 他是老师，我是学生。  
*U o‘qituvchi, men o‘quvchi.*
2. 我看书，他写字。  
*Men kitob o‘qiyapman, u yozyapti.*
3. 这张桌子大，那张桌子小。  
*Bu stol katta, narigi stol kichik.*
4. 我买票，他忙着照看行李。  
*Men chipta sotib olayotgandim, u yuklarni ko‘zdan kechirardi.*
5. 夜更深，天更黑了。  
*Tun tobora qorong‘ulashar, osmon tobora qorayardi.*
6. 他晓得，我也不怕。  
*U bilaversin, men baribir qo‘rqmayman.*
7. 你再不答应，我可生气了。  
*Sen rozilik bermading, men xafa bo‘ldim.*

Bog‘lovchisiz MSQlardan og‘zaki nutqda keng foydalanish bilan bir qatorda biz ularni badiiy asarlar dialoglarida ham ko‘p uchratishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. Москва: Просвещение, 1982
2. Люй Шусян. Очерк грамматики китайского языка/ Люй Шусян. – В 2-х тт. – Т.1: Слово и предложение. – М.: Восточная литература, 1961.
3. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. -Самарқанд, 1990.
4. <https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS4.5452>

## II SHO'BA SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Т.А. Бушуй, проф. СамГИИЯ*

### СОВРЕМЕННЫЙ СЛОВАРЬ КАК ПРОДУКТ ОПРЕДЕЛЕННОЙ НАУЧНОЙ КОНЦЕПЦИИ

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются проблемы, связанные с принципами отражения материала в новых типах словарей, таких как фигуративная лексикография и ассоциативный словарь.

**Ключевые слова:** словарь, фигуративная лексикография, ассоциативный словарь, образный строй языка, ассоциативные реакции

В современной теоретической и практической лексикографии разрабатывается перспективное направление «фигуративной лексикографии» (термин предложен Е.А. Юриной), т.е. образной (от английского figurativeness – «образность»). По верному замечанию Е.А. Юриной, образный строй языка – это «закреплённая в узусе национально и культурно обусловленная система образов, метафорически реализованная в семантике лексических и фразеологических единиц языка и формирующая языковую картину мира его носителей» [2. 231].

Фигуративная лексикография отличается и в плане целевого назначения, и в структурном отношении. Данный тип словарей включает в свой состав образные слова и выражения. Это достаточно широкий пласт, включающий единицы лексики, фразеологии и паремиологии, представляющие собой языковые единицы вторичной номинации.

Первостепенными задачами такого рода словарей являются: во-первых, разработка макроструктуры (корпуса словаря) и микроструктуры словаря (отдельной словарной статьи), а также представление дефиниций данных образных единиц конкретного языка. Во-вторых, определение принципов фигуративной лексикографии. В-третьих, антропоцентрический подход, базирующийся на взаимосвязи культуры и человека. Перед составителями словарей стоит непростая задача, а именно: как можно в более лаконичной форме отразить систему образных языковых единиц. Это, прежде всего, словари паремий, фразеологизмов, метафор, лингвокультурологические лексикографические источники. Такого типа источники включают в свой состав эпитеты, метафоры, сравнения и другие образные средства. На современном этапе выделяется фразеография составляющая значительную часть фигуративной лексикографии. Наряду с уже известным «Фразеологическим словарем русского языка» под редакцией А.И. Молоткова (1968), появилось множество словарей, различного типа и назначения. Среди них можно назвать труд О.И. Блиновой и Е.А. Юриной «Словарь образных слов русского языка» (2007); «Словарь образных слов и выражений народного говора» (2001) под редакцией О.И. Блиновой; Н.Ф. Алефиренко и Л.Г. Золотых «Фразеологический словарь: Культурно-познавательное пространство русской идиоматики» (2008); «Фразеологический объяснительный словарь русского языка» (2009), составителями которого являются А.Н. Баранов и Д.О. Добровольский; «Большой фразеологический словарь русского языка: Значение. Употребление. Культурологический комментарий» (2009) под редакцией В.Н. Теля и др.

Такие словари включают семантическое толкование фразеологической единицы (ФЕ), учитывая коннотативный аспект и способы выражения образности. В большинстве своем это идеографические словари, построенные по принципу выделения тематических рядов. Они охватывают различные речевые жанры при приведении иллюстративного материала.

Особенно важно отметить, что многие такого рода источники имеют комментарии культурологического характера.

Преимущество таких словарей нового типа является, конечно же, их опора на современные корпусные технологии. Эти лексикографические источники характеризуются такими основными принципами, как: репрезентация образной семантики языковых единиц, выявление мотивирующей стороны образности, демонстрация экспрессивно-эмоциональных особенностей, информация культурно-символического ракурса (комментарии и справочный материал), специфичность функционирования такого рода ФЕ, принцип расположения образного материала (образно-смысловой, алфавитно-гнездовой).

Одним из наиболее востребованных типов словарей является ассоциативный словарь. Ср. такого типа источники, как: Н.И. Берсенева, Л.А. Дубровская, И.Г. Овчинникова «Ассоциации детей от шести до десяти лет (ассоциативное значение слова в онтогенезе)» (1995), Е.Н. Гуц «Ассоциативный словарь подростка» (2004), Н.В. Уфимцева, И.А. Стернин, Х. Эккерт, В.И. Милехина, В.М. Топорова. Ассоциативные нормы русского и немецкого языков (2004) и др.

В этом плане выделяется «Русский ассоциативный словарь: Ассоциативные реакции школьников I–XI классов» (составители В.Е. Гольдин, А.П. Сдобнова, А.О. Мартыанов) [1]. Словарь связан с учетом восприятия языка в возрастном плане. В этом типе источника учитываются 4 возрастные группы, участвовавшие в эксперименте (1 группа – 1-4 классы, 2 группа – 5-6 классы, 3 группа – 7-8 классы и 4 группа – 9-11 классы). Число принявших участие в эксперименте составило свыше 30 тысяч учащихся городских и сельских школ. Данный лексикографический источник дает возможность проследить изменение ассоциативных связей в возрастном плане за счет накопления знаний, опыта и увеличения лексического запаса в когнитивном отношении. Такой словарь отражает реакции школьника на слово в той форме, в какой она зафиксирована во время эксперимента. Но в случае, когда в слове была допущена ошибка, фиксированию подлежали нормативные употребления слова.

Словарь придерживается следующих основных принципов:

1) Выделение ядерной зоны (достаточно стабильной), характерной для определенной по возрасту группе учащихся. Они представляют собой слова, выражающие реакцию на какое-либо понятие с опорой на ассоциативные связи. При этом выделяются смысловые зоны, такого типа, как «Растения», «Животные», «Человек» и др. Например, словами ядерной группы для всех учащихся являются *вода, дом, деньги, друг, мой, работа, плохой, хороший*.

2) Словарный запас учащихся представляет собой систему, формирующуюся с течением времени. В лексиконе учащихся появляются слова из сферы политики, права, образования.

3) Появляется эмоционально-экспрессивная оценка в речи старших возрастных групп

4) Употребление жаргонизмов

5) Образование новых моделей с корнями типа: *прикол-, супер-*, а также такого рода усеченных моделей, как: *клик, облом, отпад, комп* (жаргонизмы).

Причем I том «От стимула к реакции» представляет собой прямой словарь, где в алфавитном порядке расположены стимулы, являющиеся заголовочными словами словарной статьи. Стимул графически изображен прописными буквами полужирным шрифтом. После стимула отмечаются ассоциативные реакции, соответствующей возрастной группы, с указанием частоты такого рода реакций. II том «От реакции к стимулу» - это обратный словарь, в котором в алфавитном порядке фиксируются реакции в виде заголовочного слова, затем располагаются стимулы, с указанием числа испытуемых, проявивших подобную реакцию.

Ассоциативный словарь размещает в словарных статьях наряду с нормативными некодифицированные варианты лексем, словоформ. Ср.: *НЕУЖЕЛИ - мой день рождения* и *СЕГОДНЯ - мой день рождения*, *ВКУСНО - жувачка*, *ВКУСНО – жвачка* и др.

Совершенно очевидно, что лексикография становится все более востребованной наукой. Причем новые словари представляют собой результат воплощения в жизнь определенной языковой научной концепции.

### Литература

1. Гольдин В.Е., Сдобнова А.П., Мартъянов А.О. Русский ассоциативный словарь: Ассоциативные реакции школьников I–XI классов в двух томах – Саратов: изд-во Саратовского университета, 2011. – Т. 1. 500 с.; Т. 2, ч. 1. 480 с., ч. 2. 420 с.

2. Юрина Е.А. Концептуальная структура ассоциативно-образного семантического поля // Вестник Томского государственного университета № 282. Июнь 2004 г. Серия «Философия. Культурология. Филология». – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2003. – С. 228-234.

*A.M.Turobov,*

*SamDCHTI professori, filologiya fanlari nomzodi.*

## TILSHUNOSLIK MUSTAQIL FAN SIFATIDA

**Аннотация.** Мақоллада тилшunoslikning ilmiy-nazariy tomonlari va uning lingvistik maqomi masalasi tadqiq qilingan. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida shakllangan ekan, boshqa fanlar qurshovida o'rganmaslik kerak. Tilshunoslik mustaqil fan ekan, *sof grammatik kategoriyalar nuqtayi nazaridan* o'rganilishi kerakligi ilmiy asoslangan.

**Калит so'zlar:** Tilshunoslik nazariyasi, tafakkur, tilning ijtimoiy tabiati, ichki tuzilishi, lingua, til va nutq, til tipologiyasi.

Tilshunoslik nazariyasi fani tilshunoslikning ilmiy-nazariy tomonlarini o'rganadigan fandır. Tilshunoslik nazariyasi fanida tilning paydo bo'lishidan boshlab, tillarning tasnifi, uni tahlil qilish usullari hamda til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning ichki tuzilishi, tilning ijtimoiyligi kabi masalalargacha o'rganiladi. Uzoq yillar davomida tilshunoslik fani boshqa bir qancha fanlar qurshovida o'rganilib kelindi. Birinchilardan bo'lib Gegel va Gumboldt ta'limotlariga suyangan holda F.do' Sossyur o'z ta'limotlarida tilni boshqa fanlar emas, o'zining o'rganadigan alohida fani bo'lishi kerak, bu fanning nomi tilshunoslik deb nomlanishi lozim degan g'oyani ko'tarib chiqdi. Bu nazariya tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi.

Haqiqatdan ham, til kishilik jamiyati mahsuli bo'lib, jamiyatda kishilarning aloqa qilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til ayrim shaxslardagina emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi. U insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha madaniy-ma'naviy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan, uni avloddan avlodga meros qoldiradigan asosiy vositadir.

F.do' Sossyur tilshunoslik to'g'risidagi o'z mulohazalarini bu fanning ob'ektini chegaralashga urinishdan boshlaydi. Shu sababdan ham: Tilshunoslik goh ma'lumotlar oladigan, goh unga shunday ma'lumotlar berib turadigan qator fanlar bilan juda yaqin bog'langan. Uni shu fanlardan ajratib turadigan chegaralar hamisha ham ko'zga yaqqol tashlanavermaydi, – deb yozadi [F. do'. Sossyur, 2019: 13].

Ko'p tilshunoslar tilni biror hodisa (tafakkur, milliy ruh va hakazo)ning funksiyasi deb tushunadi va tilni shu hodisaga bog'lab o'rganadi. F.do' Sossyurning fikricha, bu – noto'g'ri. Til o'z qurilishiga ega bo'lgan tamomila mustaqil hodisadir [I.Qo'chqortoyev, 1976: 5].

Biz bu fikrlarga to'liq qo'shilgan holda, tilni boshqa fanlardan ajratgan holda o'z nazariy asoslariga tayanib o'rganishning tarafdorimiz. Til nazariyasi fani bu borada, ko'plab muammolarni hal qilib berishi lozim.

Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, tuzilishi va bu strukturani tashkil etgan unsurlarining o‘zaro munosabati, nutqiy faoliyat, uning ichki mexanizmi, ishlash tamoyillari kabi muhim masalalarni ilmiy o‘rganishni har taraflama tadqiq etishni talab etadi.

Tilshunoslik – tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi fan. Demak, tilshunoslik inson tilini o‘rganadigan mustaqil fandır [N.Uluqov, 2016: 6].

Tilshunoslik yoki lingvistik (lotin tilida *lingua* – til) til nazariyasini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan bo‘lib, u “Tilshunoslikka kirish” va “Umumiy tilshunoslik”, “Tilshunoslik tarixi” kabi nomlar bilan ataladigan mustaqil qismlardan tashkil topgan. Fe do‘ Sossyur tilshunoslikni ikkiga bo‘ladi til va nutq tilshunosligiga va bu haqda shunday yozadi: Bu ikki fan (til tilshunosligi va nutq tilshunosligi) uchun tilshunoslik nomini saqlab qolish va nutq tilshunosligi haqida gapirish mumkin. Biroq uni so‘zning o‘z ma‘nosidagi, sof, yagona ob‘ekti til bo‘lgan tilshunoslik bilan adashtirmaslik kerak [F. do‘. Sossyur, 2019: 29]. Biz uch ming yil davomida til lingvistikasini o‘rganib keldik, endi nutq lingvistikasini o‘rganishimiz kerak. Nutq lingvistikasi hali yaxshi o‘rganilmagan soha bo‘lib, o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim – tildir. Tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to‘liq ta‘rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo‘ysunuvchi o‘ziga xos ramzlar tizimi bo‘lib, kishilik jamiyatidagi aloqa – munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his–tuyg‘ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin [Z.Xolmonova, 2007: 5]. Darahaqiqat, til bugungi holga kelguncha turlicha yondashuvlar qamrovida o‘rganildi. Tilga berilgan yagona ta‘rifning yo‘qligi ham shundan dalolat beradi. Yagona ta‘rif kerak ham emas, har holda to‘liq ta‘rif berish va tilshunoslikka mustaqil fan sifatida qarashimiz juda muhim.

“Tilshunoslikka kirish” umumiy tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida til haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni, tilshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlarini, tilshunoslikda qo‘llanadigan ilmiy atamalarni va xususiy tilshunoslikda o‘rganiladigan masalalarni, masalan, ingliz tilining grammatikasi (morfologiya va sintaksis), fonetikasi, leksikologiyasiga xos masalalarni o‘rganish uchun nazariy asos yaratishga imkon beradi. Mazkur fanda, tilshunoslik tarixi sohasida mavjud bo‘lgan ilmiy dunyoqarashlarning, turli ilmiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi, umuman olganda, til taraqqiyotining dinamikasi o‘rganiladi.

“Umumiy tilshunoslik” til ilmiga xos bo‘lgan umumiy masalalarni o‘rganadigan mustaqil fan bo‘lib, u quyidagi nazariy muammolar talqini bilan shug‘ullanadi:

1. Tilshunoslikning predmetini, ya‘ni o‘rganish sohasini va vazifasini belgilash muammosi.
2. Tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyot qonunlari muammosi.
3. Til strukturasi, ya‘ni tilning ichki tuzilishi muammosi.
4. Tilning o‘ziga xos sistema-tizim ekanligi muammosi.
5. Tilning belgilik muammosi.
6. Til va tarix muammosi.
7. Til va jamiyat muammosi.
8. Tilning tabiati va ijtimoiy mohiyati muammosi.
9. Til va tafakkur muammosi.
10. Til va nutq muammosi.
11. Til tipologiyasi va universallik muammosi.
12. Tillarning tasnifi muammosi.
13. Tilni tadqiq qilish metodlari va boshqa muammolar.

Umumiy tilshunoslik xususiy tilshunoslikda erishilgan nazariy bilimlarni umumlashtirib, ayrim konkret tillarni ilmiy o‘rganish metodologiyasini va ilmiy metodlarini belgilab beradi.

“Umumiy tilshunoslik” fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo‘nalishda puxta, “hushyor” qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal

qurollangan talabalargina tom ma'nodagi filolog – tilshunos sifatida shakllanadi [R.Rasulov, 2017: 8].

Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea-hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. "V.Gumboldtning tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shundaki, u jahon tilshunosligida birinchilardan bo'lib tilning sistemaviy tabiatga ega ekanligini asoslab berdi. U "Tillarni turli rivojlanish davriga ko'ra qiyoslab o'rganish" asarida har qanday tilni ichki aloqalari va munosabatlarini e'tiborga olgan holda o'rganish tilshunoslik oldida turgan eng muhim vazifa ekanini bayon qiladi. V.Gumboldt fikricha, tilda hech qanday alohidalik yo'q, uning har bir alohida elementi butunning bir qismini namoyon qiladi. U tilni har bir tolasi boshqasi bilan zanjir bo'lib choklangan ulkan to'qimaga o'xshatadi. Tildan foydalanayotgan har bir individ bu ulkan to'qimaning faqat bir qismi bilan ish ko'rsa ham, lekin bu qism boshqalari bilan muqarrar aloqa hamda ichki munosabatlar garmoniyasidan iborat bo'lgani uchun butun bir to'qima o'laroq namoyon bo'ladi.

V.Gumboldt tilning sistemaviy tabiatga egaligini e'tirof etish bilan birga, uning belgilar sistemasi ekanini ham bayon qiladi" [A.Nurmonov, 2012: 28].

Xulosa qilib aytganimizda, qariyb 3000 yil davomida kurashib tilshunoslikni boshqa fanlardan ajratib oldik. Endi boshqa fanlar qurshovida o'rganmaslik kerak. Tilshunoslik mustaqil fan ekan, *sof grammatik kategoriyalar nuqtayi nazaridan o'rganilishi kerak. Shu bois til haqidagi bilim ham o'ziga xos tarixga ega.*

#### **Adabiyotlar:**

1. Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. –Тошкент, 2019. –308 б.
  2. Кўчқортоев И. Ф. дў. Соссюрнинг лингвистик концепцияси. –Тошкент, 1976. –36 б.
  3. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: "Barkamol fayz media", 2016. –190 b.
  4. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: 2007. –177 b.
  5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –312 b.
- Nurmonov A. Tanlangan asarlar, 2-jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi. –Toshkent, 2012. –232 b.

*S.D.Tursunkulov,  
SamDCHTI o'qituvchisi*

## **NUTQ VA UNING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy lingvistika, "diskurs" tushunchasi haqida tahlil, nutqning eng muhim xususiyatlari, ekzistensial aloqaning ayrim mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, matn, diskurs, ekzistensial aloqa, badiiy adabiyot, badiiy uslub, stilistika

Zamonaviy lingvistik adabiyotda topish mumkin nutqning ko'plab ta'riflarini. Polisemik tushuncha bo'lish, nutq tez-tez muhokama mavzusiga aylanib, munozaralarga sabab bo'ldi talqin qilish.

U dixotomiyaga yangi element qo'shdi F. de Sossyur tomonidan taklif qilingan "til-nutq" - uning fikricha, nutq fikr, nutqda tilni aktuallashtiradi<sup>1</sup>. Biroq, 70-yillarga qadar keng tarqalgan nutq tushunchasi ishlatildi matn va nutqning sinonimi. M.Fuko fikricha, nutq til va haqiqat, lug'at va tajriba<sup>2</sup>.

Ushbu bobda biz "diskurs" tushunchasini aniqlaymiz va uning tipologiyasini Gollandiyalik olim T.A.ning asarlarida van Deyk taqdim etdi nutqni murakkab tuzilgan hodisa sifatida keng tushunish ma'ruzachi o'rtasida yuzaga keladigan muloqot holati ma'lum bir kontekst,

<sup>1</sup> Buysens E. Les langages et le discours. – Bruxelles, Office de Publicite, 1943. – 17-23 pp

<sup>2</sup> Савельева Е.Б. О взглядах Мишеля Фуко на теорию дискурса // Вестник Московской международной академии. – 2015. – №2. – С. 34

vaqt va ma'lumotni qabul qilish bo'sh joy. Tor ma'noda, bu og'zaki yoki yozma matn, qachon faqat bitta og'zaki komponent mavjud<sup>1</sup>.

T. A. van Deyk, shuningdek, nutq o'zlashtiradi, deydi tarixiy davr madaniyati va mentaliteti, xususiyatlari va ishtirokchilari aloqa va sharoitlarni aytish kerakki, bu jarayonda "diskurs" tushunchasi paydo bo'lgan matn lingvistikasini rivojlantirish va uni o'rganish predmetini kengaytirish. Diskurs "nutq" va "matn" atamalari bilan birga tushuniladi.

Demak, tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi kalit orqali ifodalanadi "matn" atamasi, nutqqa nisbatan uning elementar tarkibiy birligi (fragmenti)<sup>2</sup>. Boshqacha qilib aytganda, nutq matnlarni ma'lum bir narsa bilan birlashtirgan murakkab murakkab matn umumiy tamoyil<sup>3</sup>.

Aksariyat tilshunos olimlar (V.I. Karasik, N.D. Arutyunova, V.A. Zvegintsev) nutq bo'lishi mumkin emasligiga qo'shiladi kommunikativ natija, chunki bu nutq harakati, jarayon so'zlovchining o'z nutqida niyatlarini ifodalash, shuningdek, ularni idrok etish muayyan muloqot sharoitida tinglovchilar. Boshqacha aytganda, asosiy tan olingan lingvistik kommunikativ funktsiya. Har qanday nutq doirasida, unga kiritilgan matnlar bo'lishi mumkin rasmiy ravishda mustaqil, lekin ko'pincha bir-biriga birlashadi.

Bu oldingi matnning postpozitsiyasi ekspozitsiyaga aylanadi keyingi muayyan nutq bir qatorning bir qismi bo'lishi mumkin shaxsiy nutqni tashkil etuvchi nutqlar. Nutqning eng muhim xususiyati uning aloqasi paydo bo'ladi. Karasik nutqni ochiladigan matn sifatida belgilaydi aloqa shartlari. Bu tushuncha tahlilga qaratilgan kommunikativ vaziyatdan kelib chiqadigan ma'lumotlar va matnda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos keladi. N.D. Arutyunova nutqni izchil matn sifatida tushunadi va pragmatik ma'lumotlar majmuasi bilan haqiqiy hayot nutqiga singib ketgan, ekstralingvistik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar<sup>4</sup>. S.K.ning so'zlariga ko'ra. Gural, nutqni, deb tushunish kerak lingvistik faoliyat uning muayyan ijtimoiy sohada rivojlanish dinamikasida kontekst, shuningdek, ushbu faoliyat natijasiga Makarov M.L. ishonadi.

Bu nutqni og'zaki ravishda taqdim etilgan va tushunilgan hamma narsa deb hisoblash mumkin muayyan sharoit va davrdagi muayyan ijtimoiy guruh. Ilmiy adabiyotlarda diskurs degan fikr ham mavjud umumiy mavzuga ega matnlar majmuasi, ularning har biri idrok etiladi muayyan voqelikning lingvistik korrelyatsiyasi sifatida<sup>5</sup>. Bugungi kunga kelib, turlarni asoslashda turli xil yondashuvlar mavjud nutq. Masalan, V.V. Krasnix, milliy mavzudagi nutqlarni ta'kidlaydi belgisi (rus, ingliz, nemis va boshqalar)<sup>6</sup>.

Karasikning fikricha, nutqning shaxsiy (shaxsiy yo'naltirilgan) va institutsional turlari mavjud. Shaxsiy ravishda nutq boy ichki dunyoga ega bo'lgan so'zlovchining shaxsiyatini taqdim etadi institutsional - shaxs ba'zilarining vakiliga aylanadi ijtimoiy institut. Birinchi turdagi nutq kundalik va bo'linadi ekzistensial nutqlar<sup>7</sup>. Kundalik hayotda muloqot tanishlar o'rtasida sodir bo'ladi va pastga tushadi ijtimoiy aloqalarni saqlash va kundalik muammolarni hal qilish.

Ekzistensial aloqa, o'z navbatida, asosan monolog va badiiy asarlarni o'z ichiga oladi va falsafiy va psixologik matnlar bizning tadqiqotimizda biz ushbu turni ko'rib chiqamiz ekzistensial nutq (V.I. Karasik tasnifi bo'yicha) badiiy nutq.

Bu filologlarning qiziqishini uyg'otadi badiiy adabiyot pragmatik maqsadga ega va ifodalaydi muayyan ekstralingvistik sharoitlarda namoyon bo'ladigan harakatdir kommunikatsiyalar. N.D.ning so'zlariga ko'ra. Arutyunova, adabiy ijod, shuningdek kundalik muloqot muallif kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, kommunikativ sozlamaning, adresatning va

<sup>1</sup> Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Socio-Cognitive Approach. – Cambridge, New York:Cambridge University Press, 2008. – P. 39.

<sup>2</sup> Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во МГУ, 1976. – С. 27.

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 19

<sup>4</sup> Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 136.

<sup>5</sup> Чернявская В.Е. Лингвистика текста. Поликодовость. Интертекстуальность. Интердискурсивность. – М.: URSS, 2009. – С. 26-27.

<sup>6</sup> Красных В.В. Основы психолингвистики и теории коммуникации: Курс лекций. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2001. – С. 200.

<sup>7</sup> Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – С. 100.

o'ziga xoslikning mavjudligi estetik ta'sir. Tilshunoslik etarli darajada imkon beradi katta hajmli badiiy asarlarni tahlil qilish va turli xil nutqiy harakatlar.

Qabul qiluvchining taassurotlari aniq aqliy operatsiya o'zini qayta qurish dirijyori sifatida namoyon bo'ladi badiiy asarning hikoya chizig'i bo'ylab hayot. Badiiy nutq universal xususiyatlar bilan tavsiflanadi, o'zaro ta'sir ishtirokchilarini o'z ichiga oladi, fazoviy-vaqt tashkilot (xronotop), hikoya maqsadlari va strategiyalari, shuningdek, janr navlari. Ammo bu turdagi nutqning o'ziga xos xususiyati ham bor xususiyatlar, jumladan antropotsentrizm, tasvir, fantastika, hissiyot va boshqalar<sup>1</sup>. pragmatik vaziyatning ishtirokchisi. Uning uchun asosiy narsa xabar qilingan narsaga o'ziga xos munosabat emas, balki matnning ijtimoiy-madaniy ma'nosi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buysens E. Les langages et le discours. – Bruxelles, Office de Publicite, 1943. – 17-23 pp
2. Савельева Е.Б. О взглядах Мишеля Фуко на теорию дискурса // Вестник Московской международной академии. – 2015. – №2. – С. 34
3. Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Socio-Cognitive Approach. – Cambridge, New York: Cambridge University Press, 2008. – P. 39.
4. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во МГУ, 1976.– С. 27.
5. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 19
6. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 136.
7. Чернявская В.Е. Лингвистика текста. Поликодовость. Интертекстуальность Интердискурсивность. – М.: URSS, 2009. – С. 26-27.

*D.A.Dadajonova,  
Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*

### **OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARINING O'ZINI- O'ZI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotasiya.** Ushbu maqola Oliy ta'lim tizimi talabalarining o'zini-o'zi rivojlantirishda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish, mustaqil va kreativ fikrlash zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kredit modul tizimi.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy o'rinni egallaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni echimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishdir.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini

---

<sup>1</sup> Бабенко Л.Г. Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика. – М.: Флинта: Наука, 2004. – С. 96

reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta‘limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir. Ta‘lim muassasalarida talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad:

- o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir;
- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
- talabalarning o‘quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
- ta‘lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- ta‘lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta‘minlash;
- predmetlararo aloqadorliqni ta‘minlash;
- ta‘lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida mutaxassislikka tayyorgarlikni takomillashtirish;
- fanlar va mutaxassisliklarning majmuaviy uslubiy ta‘minlanishi;
- darsning samaradorligini oshirish yo‘llari;
- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- ta‘lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kerakli ma‘lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an‘anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma‘lumotlar bilan ishlash;
- internet tarmog‘idan ratsional echimini belgilash;
- ma‘lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas‘uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta‘lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo‘yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi

Hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi» to‘g‘risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda. Albatta, ko‘pgina oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta‘lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq, ko‘p hollarda o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta‘lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e‘tibor berilmaydi. Bu va

shunga o'xshash boshqa masalalar oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlar tayyorlashda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni, uning ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan, o'z-o'zining kasbiy takomillashuvini nazorat qiladigan shaxslarni tarbiyalashdagi o'rnini ko'rsatish va bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllanishida uning rolini tahlil etishdan iboratdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassis kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki bo'lajak mutaxassisning ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kompetentlikni shakllanishida asosiy o'rinni talabalar mustaqil ta'limi egallaydi. Chunki bo'lajak mutaxassis faqat bilim va ko'nikmaga ega bo'libgina qolmay, uni amalda qo'llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta'lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkindir. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim bo'lajak mutaxassislarni har qanday sharoitda va holatda o'zlarining aqliy salohiyatlarini to'la ishga solish, zarur bo'lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlarida tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so'z bilan aytganda ijtimoiy hayotda va ta'lim-tarbiya jarayonida to'laqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Talabalik davrida o'qituvchining hamkorligida, maslahatlariga suyangan holda mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalari tarkib topadi. Oliy o'quv yurtidagi mustaqil ta'limning foydali tomonlaridan biri shundaki, talaba o'quv dasturi va darsliklaridan tashqaridagi kasbi va ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni ham izlab topishga, tajriba-sinovlar o'tkazgan holda yanada boyitishga erishadi. Bu, o'z navbatida, tashabbuskor, bunyodkor va ijodkor kadrlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o'zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali talaba iste'dodining noma'lum qirralari ochiladi. Talabaning o'ziga, aqli va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarining takomillashuvi ro'y beradi. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.

Bizning nazarimizda, mustaqil ta'lim yoshlarni ertangi kunning murakkab muammolariga qiynalmas dan javob topishga tayyorlashning omili bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o'quv yurtlarida o'quv reja va dasturda aniq belgilangan. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimliliigi katta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Ayniqsa hozirgi axborot asrida talabaning axborot kommunikatsion texnologiyalar dan erkin foydalana olishi va chet tilida muloqot qilishi ham uning to'laqonli mutaxassis bo'lib yetishishida muhim o'rin egallaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Aliev I.T. Pedagogning kasbiy kompetentligi // Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 55 b.
2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
3. Lyubimova O.V. Normativ kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va tashxislashning ba'zi usullari to'g'risida / O.V. Lyubimova // Tomsk xabarnomasi davlat universiteti. 2009. No 327. S. 181-183

## NEMIS TOPISHMOQLARINING KOMPOZITSION-RITMIK TUZILISHI TASNIFI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis topishmoqlari kompozitsion-ritmik tuzilishiga ko'ra tasniflangan va har bir turga xos topishmoq shakli va mazmuni ilmiy jihatdan sharhlangan.

**Kalit so'zlar.** topishmoqlarining kompozitsion-ritmik tuzilishi, harfli topishmoq, anagramma, palindrom, sharada, aritmogrif, logogrif, kalambur, til topishmog'i, sanoq topishmoq, rasm-topishmoq (rebus).

Nemis topishmoqlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Til topishmoqlari (Sprachrätsel).
2. Sanoq topishmoqlar (Rechenrätsel).
3. Rasm-topishmoqlar yoki rebuslar (Bilderrätsel, Rebusse).

Eng qadimiy va ko'p sonli topishmoqlar turi sifatida til topishmoqlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida, adabiy-mavzuiy topishmoqlarga (Sachrätsel) hamda og'zaki (Worträtsel) topishmoqlarga bo'linadi.

Og'zaki topishmoqlar orasida harfli topishmoqlar (Buchstabenrätsel), anagrammalar (Anagramm), palindromlar (Palindrom), sharadalar (Scharade yoki Silbenrätsel), aritmogriflar (Aritmogriph), sof topishmoqlar, polisemiya yoxud omonimiyaga asoslangan topishmoqlar (Homonymrätsel) ajralib turadi.

**Harfli topishmoqlar (Buchstabenrätsel).** Topishmoq javobi aynan topishmoq matni tarkibida bo'ladi.

*Man sieht es in der Mitte der **N**acht,*

*Man träumt nicht davon,*

*Dennoch sieht man es im **S**chlaf.*

*Am Tag kommt man ganz ohne es aus.*

*(Der Buchstabe "C") (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/075.htm>)*

**Anagrammalar (Anagramm).** Anagrammali topishmoq bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq turli ma'nolarga ega bo'lgan javobli topishmoq bo'lib, asos vazifasini birinchi javob bajaradi, qolgan javoblar esa asos vazifasida kelgan javobning teskari tarzda o'qilishi natijasida hosil bo'ladi. Teskari o'qish natijasida hosil bo'lgan yangi ma'noli so'z topishmoq matnida tasvirlangan bo'ladi.

*An Drähten oder an Gestängen*

*oder sonstwo mag ich hängen.*

*Zieh mein letztes ich vor mich,*

*stehe oder hänge ich.*

*Hab ich schließlich mich vermengt,*

*stehe ich, ein Teil nur hängt.*

*(Ampel, Lampe, Palme) (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/177.htm>)*

**Palindromlar (Palindrom).** Ushbu topishmoqlarda ham topishmoq matni xuddi anagrammadagi kabi shakllanadi, faqatgina ob'ektning teskari o'qilishida ketma-ketlik va tizimlilikka amal qilinadi. Bunda tizimli ravishda teskari o'qilgan javob asosiy javob bilan mazmunan bir xillikni yoki har xillikni tashkil qilishi mumkin.

*Vorwärts Trauer über Trauer,*

*Rückwärts Glück, doch ohne Dauer.*

*(Beileid, die Lieb) (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/077.htm>)*

**Sharadalar (Scharade yoki Silbenrätsel).** "Charade" so'zi keltcha chawr (o'yin) so'zidan yoki fransuzcha "gap sotish" so'zidan kelib chiqq bo'lishi mumkin. Sharada – bo'g'inli jumboq bo'lib, unda so'z ma'noli qismlarga bo'linadi. U Germaniyaga XVIII asrda Fransiyaning Provans

shahridan kelgan. Taxminan 1800 yilgacha nasrda charadalar mavjud bo‘lib, undan keyin she‘r shaklida ham yozilgan. Gyote, Hauff, Grillparzer, Geyne kabi atoqli shoirlar charadalar bitishgan.

*Mein Erstes ist nicht wenig,  
Mein Zweites ist nicht schwer,  
Mein Ganzes lässt dich hoffen,  
Doch hoffe nicht zu sehr.*

(*viel + leicht = Vielleicht*) (<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/035.htm>)

**Aritmogriplar (Aritmogriph).** Bu topishmoq turida harflar sonlar bilan almashtiriladi va qaysi harf sayisi raqamga mos kelishini topish kerak.

1 2 3 4

*Viele hör'n sehr gern mich heiter,  
Gerne traurig manche Leut';*

1 3 2 4

*So geändert bring' ich leider  
Stets den Leuten Traurigkeit.*

(*Lied, Leid*)

(<https://www.janko.at/Raetselgedichte/01/543.htm>)

**Omonimiyaga asoslangan topishmoqlar (Homonymrätsel).** Omonim so‘zlar topishmoqlarda qo‘llash uchun juda qulay. Bunday topishmoqlar omonim so‘zning bir necha mazmunini ta‘riflash orqali tuziladi.

*Ich helfe Kisten laden,  
Doch mach ich auch Scharaden.*

(*Hebel (1. Hebewerkzeug; 2. Johann Peter Hebel)*)

(<https://www.janko.at/Raetselgedichte/00/050.htm>)

Bulardan tashqari nemis adabiyotida **Calembour (kalambur)lar ham mavjud.** Bu imlosi bir xil yoki talaffuzi o‘xshash bo‘lgan ayrim so‘zlarning ko‘p ma‘noliligiga asoslangan so‘zlar ustida o‘yin turidir. Shunday aqliy o‘yin turlaridan yana biri – **Denkrätsel.** U matnli boshqotirma, eng qadimgi boshqotirmalardan biri hisoblanadi. U ming yillar oldin paydo bo‘lgan. Kelib chiqishining aniq davri noma‘lum.

**Dreieckrätsel (Uchburchak topishmoq).** Unda so‘zlar ikkita uchburchak ichidagi harflardan tuzilishi kerak.

**Erotisches Rätsel (Erotik topishmoq)lar** X-XI asrdagi Exeter Book qo‘lyozmasida keltirilgan. Pergamentda 90 ga yaqin qadimgi ingliz topishmoqlari (ehtimol, VIII asrga tegishli) yozilgan va episkop Leofrik tomonidan soborga taqdim qilingan.

*Steif steckt man ihn rein, und schwabbelig zieht man ihn wieder heraus. Rat, was ist das?  
(Zwieback) (Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 40)*

**Flechträtsel (To‘quv boshqotirmasi).** So‘zlar kiritilgan va ba‘zi harflari qoplangan, to‘qilgan chiziqlardan iborat. Birinchi marta “Troll” jumboqlar jurnalida chop etilgan.

**Füllrätsel (To‘ldirish).** To‘ldirilishi kerak bo‘lgan so‘zlar o‘rni-o‘rniga qo‘yib chiqiladi. Quyidagi holatda yig‘indisi 22 bo‘lgan raqamlar harflar bilan yozilib, bo‘sh joylar to‘ldirilishi kerak:

*Hamm\_\_leisch, Run\_\_\_\_se, N\_\_\_\_\_igall*

(*Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 48*)

**Literaturrätsel (Badiiy topishmoqlar).** Nemis topishmoqlari o‘rta adabiy nemis tili she‘riyati davridan beri mavjud. Nemis badiiy topishmoqlarining eng yuqori nuqtasi XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi.

**Logogriph (Logogriph).** “Ligogriph” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, jumboq, so‘z tarmog‘i degan ma‘noni anglatadi. Logogriph deganda harfni almashtirish ham tushuniladi (*Haus – Maus*). Yana unda harflarni qo‘shish yoki tishirib qoldirish orqali so‘zga boshqa ma‘no beriladi (*Hafen – Haufen*).

Quyidagi so‘zlarning har birining ikkita harfi tushirib qoldirilsa va qolganlari birgalikda o‘qilsa - undan maqol hosil bo‘ladi:

*Kreis - Niger - Ziegel - Koch - Düne - Pause - Nacht – Möwe - (Keine Regel ohne Ausnahme). (Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde, 86)*

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jolles A. Einfache Formen. Legende, Sage, Mythe, Rätsel, Spruch, Kasus, Memorabile, Märchen, Witz. – Tübingen: Niemeyer, 1968.

2. Schittek C. Die Sprach- und Erkenntnisformen der Rätsel. – Stuttgart: M und P, Verl. für Wiss. und Forschung, 1991.

3. Stock M. Kleine deutsche Rätselkunde. – Gelnhausen: Wagner Verlag, 2013.

4. Tomasek T. Das deutsche Rätsel im Mittelalter. – Tübingen: Niemeyer, 1994.

5. Мельникова Е.В. Виды немецких загадок // Альманах современной науки и образования. – Тамбов: Грамота, 2014. № 8 (86). С. 111-114.

6. Худоев С. ЖАҲОН ФОЛЬКЛОРИДА ТОПИШМОҚ ЖАНРИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.

7. Khudoev S. The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 13-15.

8. Худоев С. ТОПИШМОҚ МАТНИНИНГ СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ (ОЗБЕК- NEMIS ТОПИШМОҚЛАРИ MISOLIDA) Annotatsi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

9. Худоев С. NEMIS ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ТОПИШМОҚ JANRINING TADQIQ-U TAVSIFI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.

*R.Eshaliyeva, SamDU magistranti*

**O‘ZBEK TILIDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINING IMLOSI**

**Annotatsiya:**O‘zbek tilshunosligida olmosh so‘z turkumi bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan, jumladan, olmoshlarning guruhlanishi yozilishi, yasalishi qanday hosil bo‘lishi, qanday so‘zlar kirishi, umuman, imlosi bo‘yicha kuzatishlar olib borishShu bo‘yicha tushuncha berish.

**Kalit so‘zlar:** Olmosh, imlo, so‘z, nurq, jarayon ,belgi, imo-ishora, adresat, tinglovchi, turkum, qo‘shilish, ajratish, jamlash.

O‘zbek tilshunosligida olmosh so‘z turkumlarining yozilishi va imlosi, ularning boshqa so‘z turkumlari bilan munosabati.Bajaradigan vazifasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, so‘zlovchi fikriga qo‘shimcha izoh berish imo ishora vazifasini o‘taydi. Olmosh (ichi bo‘sh so‘zlar) - Barcha mustaqil so‘z turkumlari va hatto yordamchi so‘zlar, so‘z birikmasi hamda gap o‘rnida almashinib qo‘llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh turkumiga xos hisoblanadi. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo‘lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.Olmosh so‘z turkumining yozilishi,imlosi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan olmosh so‘z turkumida ma‘no ko‘lami kengayishi,yoki torayishi mumkin.Bu adresatning nutqiy muloqot jarayonida olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlarni ishlatishiga bog‘liq.

Olmoshlarning umuman, atash ma'nosiga ega bo‘lmaganligi sababli "Ichi bo‘sh so‘zlar" deb ataladi. Olmoshlar ma'nosiga ko‘ra quyidagi yetti guruhga bo‘linadi:Kishilik olmoshi,o‘zlik olmoshi,ko‘rsatish olmoshi,so‘roq olmoshi,belgilash olmoshi,bo‘lishsizlik olmoshi.

**1. Kishilik olmoshlari**

O'zbek tilida kishilik olmoshlari uch shaxsdan biriga ishora qiladi. Kishilarga nisbatan aytiladigan so'zlar shakllari olmosh so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar sirasiga kiradi. Birlik. Ko'plik.

I. men/biz (so'zlovchi) shakllariga xos bo'lgan, **Men** kishilik olmoshlari nutqda ishlatiladi, ammo ushbu olmoshlaridan shevaviy shakli **man** olmoshi takror qo'llanilsa man-man so'zi hosil bo'ladi. Masalan: "*Man-man degan yigitlar sinadi hayot zo'ridan.*" Bu esa **man-man** kishi ya'ni Tengi yo'q, o'zini ustun deb biladigan kishi ma'nosini beradi. Biz ko'plik olmoshiga yana qo'shimcha lar ko'plik shaklini qo'shganimizda bizlar olmoshi hosil bo'ladi. Masalan: "*Bizlar talabamiz*". Bu esa kuchaytirish, ta'kid ma'nosini beradi.

II-sen siz (tinglovchi) ga nisbatan ishlatiladigan so'zlar bo'lib, **sen** so'ziga lar qo'shimchasini qo'shganimizda **senlar** olmoshi hosil bo'ladi. Masalan: "*Buyruq shunaqa. Senlar qolasan.*" Bu sen olmoshning ma'nosiga nisbatan behurmatlik ma'nosini keltirib chiqadi. Nutqiy jarayonda bu sezilib turadi. **Siz** olmoshini esa nutqiy jarayonda ikki marta takror holda qo'llaganimizda sizsiz so'zi hosil bo'ladi, Masalan: "*Bu dunyoda sizsiz yashash qiyin.*" Bu esa **sizsiz** ya'ni bir o'zim siz bo'lmasangiz degan ma'no-mazmunni, tushunchani anglatib keladi.

III-u ular (o'zga) III shaxs kishilik olmoshlari insonlarga qarata ishlatiladi. Ammo **u** olmoshi narsalarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Masalan: "*Mashinam bor. U qora.*" **Ular** olmoshi ham xuddi shunday kishilarga nisbatan ko'plik shaklini hosil qilib kelyapti. Kishilarga nisbatan ham narsalarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan: "*Kiyimlarim ko'p. Lekin ular eskirgan.*"

I va II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimcha tarkibidan bir **-n** tovushi tushib qoladi.

Men +ni **meni**, Sen +ning **sening**, Sen +niki **seniki**.

III shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga -ga, -da, -dan qo'shimchalari qo'shilganda bir -n tovushi ortadi. M: **unga, unda, undan** kabi. Kishilik olmoshlari egalik shakllarini qabul qilmaydi.

Har uchala shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshlari (biz, siz, ular) uslubiy talab bilan birlikdagi kishilik olmoshlari o'rnida (men, sen, u) qo'llanishi mumkin.

a) Ko'plikni ifodalovchi olmosh birlikda ham qo'llanadi. **Biz-men**-kamtarlik, maqtanish ma'nolarida keladi: Kamtarlik ma'nosida - *Biz bu xabarni, albatta, yetkazamiz.* Maqtanish, kibr ma'nosida - *Bu ishni biz o'zimiz bajardik.*

b) Sen o'rnida **siz**, u o'rnida **ular** olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Siz bugun bir o'zingiz onajoningizni ko'rib keldingiz. Men onamni yaxshi ko'raman. Ular ham meni yoqtiradi.*

d) **Siz** olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda **sizlar** shakli ishlatilishi mumkin. *Sizlar kelajagimiz.*

## 2. O'zlik olmoshi.

O'zbek tilida o'zlik olmoshlari bo'lib, kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi **o'z** so'zi o'zlik olmoshi hisoblandi. O'zlik olmoshi egalik shakllarini olib har uchala shaxs kishilik olmoshi o'rnida almashinib qo'llanilishi mumkin.

Men - o'zim. *Ertaga meni o'zim boshlig'imiz oldiga boraman.*

Biz - o'zimiz. *Kelajak poydevorini biz o'zimiz qo'ramiz.*

Sen - o'zing. *Bu ishlarni boshida sen o'zing turibsan-ku?*

Siz - o'zingiz. *Boshlig'imiz siz o'zingiz.*

U - o'zi. *Kecha oshxonada ovqat pishirgan uning o'zi.*

Ular - o'zlari. *Mashinada borgan, ularning o'zlari.*

O'zbek tilida kishilik va o'zlik olmoshi ketma-ket kelsa, ta'kid ma'nosi berib keladi. *Bu ishni men o'zim qildim.* O'zlik olmoshi kinoya, piching ma'nolarini anglatishi mumkin. *O'zlarimi kelsinlar.* O'zlik olmoshi egalik shakllarisiz qo'llanmaydi. O'zlik olmoshiga barcha shakllar egalikdan keyin qo'shiladi. (ko'plik bundan mustasno).

O'z+imiz+ga, O'z+i+day

O'z+im+niki, O'z+lar+i

O'zlik olmoshi iboralarni yasalishiga asos bo'la oladi.

## 3. Ko'rsatish olmoshi.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap oʻrida qoʻllanadi va ularga ishora qiladi. Quyidagilar koʻrsatish olmoshari hisoblanadi: u, bu, oʻsha, shu, ana, mana, ana bu, ana shu, mana bu kabi.

I. Soʻz oʻrnida: *Bozordagi sotuvchi mana shu.*

II. Soʻz birikmasi: *Sen buni koʻr, qanday chiroyli.*

III. Gap: *Koʻngilni yoritguvchi mehr bu.*

Bu koʻrsatish olmoshlari ogʻzaki nutqda: anavi, manavi. Mumtoz adabiyotda quyidagicha ifodalanadi: ul, bul, shul, andoq, oʻshal. Kishilik olmoshi va koʻrsatish olmoshi oʻzaro shakldosh. Bu olmoshni farqlash matn mazmunida namayon boʻladi. Kishilik olmoshi kim? Masalan, *U soʻzladi.* Koʻrsatish olmoshi qaysi? soʻroqlariga javob boladi. *U tomonda darvoza bor.* Koʻrsatish olmoshlariga egalik, -ga, -da, -dan, -dek, -aqa, -cha qoʻshimchalari qoʻshilganda -n tovushi ortadi.

Misol uchun: oʻsha+n+ga, oʻsha+n+da, oʻsha+n+dan, oʻsha+n+dek, oʻsha+n+aqa, oʻsha+n+cha.

#### **4. Soʻroq olmoshi.**

Quyidagi maʼnolarni ifodalaydi: Shaxs - kim? Narsa - nima? Oʻrin-joy - qayer? Miqdor - qancha? Payt - qachon? Sabab - nima uchun?, nima sababdan? Harakat - nima qilmoq?, nima qiladi? Belgi - qanday?, qanaqa?, qaysi?.

Badiiy adabiyotda quyidagi turlari bor: ne, na, qay? qayon? nechuk kabi. Belgi bildiruvchi soʻroq olmoshi oʻrnida narsa maʼnosini beruvchi olmosh ishlatiladi. *Nima ichishga bor?* Soʻroq olmoshi gapda boshqa soʻzlarga nisbatan kuchliroq aytiladi.

#### **5. Gumon olmoshi.**

Quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi: Soʻroq olmoshlariga dir yoki alla qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasaladi.

a) Soʻroq olmoshlariga dir qoʻshimchasini soʻz oxiriga qoʻshish orqali yasaladi, gumon olmoshi kim+dir?, nima+dir?, qachon+dir?, qayer+dir?;

b) Soʻroq olmoshiga endi alla qoʻshimchasini soʻroq olmoshlarning oldiga qoʻshish orqali yasaladi, gumon olmoshi alla+kim, alla+nima

Ammo hamma soʻroq olmoshlariga ham qoʻshilib gumon olmoshini yasamaydi, jumladan, allaqanday (allaqachon ravish hisoblanadi) alla + oʻrin, payt = ravish.

Masalan, allamahol, allavaqt, allajoy; kabi soʻzlar ravish soʻz turkumiga xosdir. Bir soʻzi orqali ham yasalgan olmoshlarga gumon olmoshi desak boʻladi. Masalan: bir+kishi, bir+narsa, bir+nima;

Quyidagi soʻzlar ham gumon olmoshi hisoblanadi: falonchi, pistonchi, birov, biror, bir qator, bir xil, bir.

#### **6. Belgilash olmoshi**

Oʻzbek tilida belgilash olmoshi toʻpdan ajratilgan yoki jamlab koʻrsatilgan shaxs, narsa, belgi kabilarni ifodalaydi. Yoki belgilash olmoshini yaslashida soʻroq olmoshlari oldidan har soʻzini qoʻshish orqali yasaladi. Ularni tuzilishi, maʼnosiga qarab belgilash olmoshi 2 xil boʻladi:

1) Jamlikni koʻrsatuvchi: Hamma, barcha, bari, butun, bor, jami

2) Yakkalab, ajratib koʻrsatuvchi: Har bir, har kim, har nima, har qachon kabi.

Har soʻzi oʻrin va payt bildiruvchi soʻzlar bilan kelsa ravish hosil boʻladi. Har mahal, har vaqt, har pallada. Ayrim, baʼzi, bir xil, buncha, shuncha soʻzlari ham belgilash olmoshi hisoblanadi.

#### **7. Boʻlishsizlik olmoshi**

Quyidagicha boʻlishsizlik olmoshi hosil qilinadi: Soʻroq olmoshlariga hech soʻzi qoʻshilishi natijasida yasaladi. Ishni amalga oshmasligini bildirib keladi. Masalan: Hech+soʻroq olmoshi, hech kim, hech narsa, hech qachon, hech nima, v-zo.

Boʻlishsizlik olmoshi qatnashgan gapning kesimi inkor boʻladi. *Hech narsa qilish mumkin emas. Hech qayerda ishlamaysan.* Olmoshlar badiiy adabiyotda stilistik vosita sifatida ishlatiladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, Oʻzbek tilida olmoshning imloviy yozilishi, yasalishi bu nutqiy jarayonda amalga oshadi. Bu esa badiiy adabiyotda olmoshning qoʻllanilishi badiiy estitika va imotsiya bagʻishlab keladi hamda taʼkid, kuchaytirish maʼnolarini ham ifodalab keladi. Olmosh boshqa soʻz turkumi oʻrnida almashinib keladi. Bunda esa olmosh ifodalaydigan turli xildagi maʼnolar matn ichidan anglashilib turadi. Olmoshni nutq jarayonida qoʻllar ekanmiz

olmoshning yasalishiga, imloviy yozilishiga katta ahamiyat berib boramiz, olmoshning soʻz orttirilishi va qisqargan shakllari tilshunosligimizni soʻz boyligiga ega ekanligi, yozilganda oʻzgarishlar, soʻzning imo ishoraviy jihatlari oʻrganilib borilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev H. Kishilik olmoshi va hurmat maʼnosi // Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent. 2000.
2. Hamroyev M. Hozirgi oʻzbek tilidagi koʻrsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari. Toshkent. 2009.
3. Yusupova O. Oʻzbek tilida olmoshlarining funksional-stilistik xususiyatlari. Samarqand. 2007.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. (2006). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent, - 391 b.
5. Jamolxonov H.A. (2004). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanmasi. 1-qism. - T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi.
6. Tursunov U.M., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. (1992). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Qayta ishlangan, toʻldirilgan 3- nashri. - T.: "Oʻzbekiston".
7. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. (1980). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I qism. "Oʻqituvchi", T.

*D. Mamirova, SamDCHTI dotsent v.b., PhD.  
S. Ruziyeva, SamDCHTI talabasi*

### NOM BILDIRUVCHI SOʻZLARNING REKLAMA MATNLARIDA QOʻLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ot soʻz turkumining reklama matnlarida isteʼmolchilarga pragmatik taʼsiri va informatsion vazifasi misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** information vazifa, pragmatik taʼsir, kommunikatorlik xususiyati, ismlar, pragmatika.

Maʼlumki, tilning asosiy vazifasi odamlar oʻrtasida axborot almashinish vazifasini bajarishdir. Zamon rivojlangani sayin yangi axborotga ehtiyoj sezilyapti, shu sababli axborotni yetkazishning zamonaviy va qulay usullaridan boʻlgan reklamaning oʻrni ham ortib bormoqda. "Har qanday reklama matnlarida nomlar mavjud va ular isteʼmolchilarga reklama qilinayotgan tovarlar yoki ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat koʻrsatuvchilar haqida maʼlumot beradi."<sup>1</sup>

Ismlar tarkibiga kiruvchi ot soʻz turkumi reklamada keng qoʻllaniladigan soʻzlardandir. Otlarda nafaqat ishlab chiqaruvchi yoki xizmat koʻrsatuvchining nomi, tovar nomi yoki yetkazib beruvchining nomini (...-*Qiyasa gar beldagi dard, boʻgʻimlarda ogʻriqli harakat;*

*-Lekin dardlarga bordir malham, balki sizga beradi yordam*

*-Eslab qoling, uning nomi har dam siz bilgan KYUPEN.*

*"SHAYANA FARM " kompaniyasi mahsuloti);*

*VKUSNO BY SEVA jamoasi sizga uydan chiqmagan holda eng sara dunyo taomlari va shirinliklarini tayyorlash imkonini beruvchi yangilangan menyu asosida online kurs-2021 ni taqdim etadi;*

*Agar jigar sogʻlom boʻlmasa, "ESSETIALE FORTE N" yordam beradi. "ESSENTIALE FORTE N" ning uch tomonlama taʼsiri hujayra doirasida ishlab jigarni tiklash, mustahkamlash va uni taksinlardan himoya qilishga yordam beradi. Hayotni butun jigaringiz bilan seving! Jigaringizni bugundan avaylashni boshlang! SANOFI, FRANSIYA) balki potensial isteʼmolchiga pragmatik taʼsir koʻrsatish maqsadida ham foydalaniladi.*

Maʼlum bʻlishicha, odam birinchi navbatda katta-katta sarlavhalarga eʼtibor beradi, bosh harflar bilan yozilgan sarlavhalar adresatning eʼtiborini jalb etadi hamda sarlavhalar reklama

<sup>1</sup> Mamirova D.Sh. Reklama matnlarida son soʻz turkumining oʻziga xos xususiyatlari nomli maqolasi, "Davlat tili: tadqiqi, taʼlimi va amaliyotida qoʻllanishi" Samarqand-2022; 97-100b.

matnini qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, natijada, iste'molchi matni o'qishni davom ettiradi. Shuning uchun reklama sohasidagi birinchi muvaffaqiyatlardan bu qiziqarli sarlavhalardir. **"KO'PROQ TA'M PEPSI BILAN", "MUSAFFOLIKNI STYX BILAN HIS ETING!"**

Adresatning e'tiborini tortish, yoqimli holat paydo qilish va estetik didi hamda ongiga ta'sir qilish maqsadida reklamalarda ko'proq qisqa, ammo uslubiy bo'yoqdor so'zlardan hamda abstrakt otlardan foydalaniladi: *Navro'z mo'jizalarini baham ko'rish sehlidir! "NESTLE DECORATION"-mayinlikning o'zgacha timsoli!* Reklamani ana shu xususiyatini hisobga olib, L.G.Feshchenko reklamaga quyidagicha ta'rif beradi: "reklama matni marketing kommunikatsiyasi sohasida faoliyat yuritadigan kommunikativ birlik".<sup>1</sup>

Shuni ta'kidlash kerakki, "...reklamada ishlatiladigan odamlarning haqiqiy prototiplari bo'lishi shart emas. Biroq, reklamada ishtirok etish uchun ko'pincha taniqli aktyorlar, madaniyat arboblari, teleboshlovchilar va boshqalar jalb qilinadi. Bu reklamani yaxshiroq idrok etishga olib keladi, bunda reklama bayonotlari manbasining ijobiy imidji ma'lum darajada uzatiladi va bayonotlarning o'zi katta ishonch bilan ta'minlanadi": **Demet O'zdemir:** *"Qizlar bugun kayfiyatim juda zo'r, nimaga deganda, sochim afsonaviy bo'ldi. Pantene konditsionerlar yig'masi shikastlangan sochimni tiklab, ko'rinishimni mukammal qilib o'zgartiradi. Pantene bilan boshlangan kunim eng yaxshi kunim bo'ladi"* Ushbu reklama mashhur aktyor nomi ostida mahsulot(shampun) reklama qilinmoqda. Bu reklamada verbal vositalar, shu bilan birgalikda, noverbal vositalar(harakatlar, yuz mimikasi) orqali ham oluvchiga ta'sir ko'rsatadi; Shahzoda "...UZUM MARKETda har kuni chegirmalar ham bor, shuning uchun UZUM MARKETdan oling! Xaridlar shu yerdan boshlanadi" Yuqorida keltirilgan reklamada esa xonanda tomonidan iste'molchini yaxshi ilova ekanligiga ishonitirishga urinyapti.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, lingvistik birliklardan reklamalarda foydalanish iste'molchiga informatsiya berish bilan birgalikda, ularga ta'sir o'tkazish, mahsulotni yuqori baholash imkonini ham tug'diradi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar kommunikatorlik vazifani bajaradi, ya'ni matnlarda ifodalamoqchi bo'lgan maqsadlarni mavhumlikdan aniqlikka tomon, umumiylikdan esa xususiylikka tomon yo'naltiradi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Mamirova D.Sh. Reklama matnlarida son so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari nomli maqolasi, "Davlat tili: tadqiqi, ta'limi va amaliyotida qo'llanishi" Samarqand-2022; 97-100b.
2. Медведева Е.В. Рекламная пропаганда, или «почем опиум для народа» // Вестник МГУ. Сер.19. – Москва: [Моск. ун-та](#), 2003. №1. – С.27.
3. Мамирова Д. GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF ADVERTISING TEXTS //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА. – 2022. – Т. 3. – №. 4
4. <http://youtube> рекламный блок, анонсы(Zo'r TV <Узбекистан>;14.07.2021)
5. Mamirova, D. Sh. "ADVERTISING IS A SOCIO-LINGUISTIC STUDY AS AN OBJECT." *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ* (2022): 109.

<sup>1</sup> Медведева Е.В. Рекламная пропаганда, или «почем опиум для народа» // Вестник МГУ. Сер.19. – Москва: [Моск. ун-та](#), 2003. №1. – С.27.

## O'ZBEK TILIDAGI TAXMIN YOKI MUMKINLIKNI IFODALAYDIGAN ANALITIK IFODALAR ORASIDAGI FARQLAR<sup>1</sup>

**Kirish.** Oldingi ilmiy tadqiqotlarda o'zbek tilidagi '-sa kerak' yoki '-(i)sh mumkin' ma'nolari yoritib berilgan. Lekin, bu ikki ifoda morfologiya va sintaksis jihatdan tahlil qilinmagan. Bu maqolada bu ikki ifodani 'subyektivlik' (Palmer 1986: 16) jihatdan korpus va intervyu tadqiqotlari orqali tahlil qilaman. Shu tahlil natijasida shunday xulosa qilaman: '-sa kerak' suhbatchi o'zi to'g'ri deb o'ylagan voqeani ifodalash uchun foydalanadi, demakki, ushbu voqeaning subyektivligi baland. Aksincha, '-(i)sh mumkin' shu voqea to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkinligini ifodalaydi, shu sababli bu voqeaning subyektivligi pastroq.

### 1. Oldingi ilmiy tadqiqotlar va muammolarni ko'rsatish

O'zbek tilida (Turkiy tili, Janubi-Sharq guruhi) suhbatchi shu suhbatlashadigan kunda yomg'ir yog'ishini taxmin qilganda, kesim o'ziga '-sa kerak' (1) yoki '-(i)sh mumkin' (2) degan ifodalar qo'shiladi.

(1) *Bugun yomg'ir yog'sa kerak.*

(2) *Bugun yomg'ir yog'ishi mumkin.*

Oldingi ilmiy tadqiqotlarda "-sa kerak" ifodasi kutilgan harakat (Bodrogligeti 2003: 876), Gumon, tashvish (Abdurahmonov et al. 1976: 110), taxmini (Kononov 1960: 398) ifodalashi yozilgandi. Bu holat quyidagi 3-misol Abdurahmonov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida (1976: 110) ko'rsatiladi.

(3) *Qo'rqan bo'lsa kerak! — dedi ohista Pavel.*

(Abdurahmonov va boshq. 1976: 110)

V-(i)sh mumkin esa mumkinlik (Bodrogligeti 2003: 853, Kononov 1960: 401), ruxsat ma'nosini (Kononov 1960: 401) ifodalashi yozilgan. Lekin bu tahlillarda imkonlik ma'nosi jihatidan yoritib berilmagan. Lekin, imkonlik ma'nosini ifodalayotganni 6-misolda ko'rsatish mumkin. 4-misolda mumkinlik, 5-misolda ruxsat ifodalangan.

(4) *Unda ochlikdan o'lish mumkin.* (Bodrogligeti 2003: 855)

(5) *Mashina tayyor. Jo'nashingiz mumkin.* (Bodrogligeti 2003: 855)

(6) *Bu ishni ikki kunda bajarish mumkin.* (Kononov 1960: 401)

Bu maqolada ruxsat (5), imkonlik (6) ifodalanayotgan misollarni tahlil qilmayman.

HIDAKA (2013) O'zbek tilida yozilgan misollari to'plami. O'zbek tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi odam Kazama (2011) tomonidan yozilgan yapon tilidagi tadqiqot misollarini o'zbek tiliga tarjima qilib oldi. Bu maqolada faqat modallik haqidagi musollarni (§2.3; pp.447-484) ko'rsataman.

(7) *taxmin, gumon:*

*U odam bugun kelmasa kerak.*

(8) *taxmin, gumon:*

*Ular hali ham kelmayapti, balki mashinalari yo'lda buzilgan bo'lsa kerak.*

(9) *mumkinlik:*

*Hozir tushlik vaqti bo'lgani uchun, u odam uyda bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin.*

Kazama (2011) maslak, taxmin, gumon, mumkinlik degan to'rt atama ehtimollikni ifodalaydi deb hisoblaydi. Bunda ehtimollik darajasi maslak>taxmin>gumon> mumkinlik degan tartibda harakat ehtimolligi past deb sezishini hisoblaydi. (10) da o'zbek tilidagi ehtimollik uchun ifodalarni ko'rsataman.

(10) Kazama (2011) fikriga asoslagan o'zbek tilidagi ehtimollik darajasi uchun tartib

---

<sup>1</sup> Bu maqolaning mazmuni yapon tilida yozilgan 日高 (2023) ning qisqacha mazmunidir.

maslak > taxmin yoki gumon > mumkinlik  
 -(i)sh kerak -sa kerak (7), (8) -(i)sh mumkin (9)

1- va 2-misolda ko‘rsatilganicha, ‘-sa kerak’ va ‘-(i)sh mumkin’ bir voqea-hodisa uchun ehtimollikni ifodalaydi. Oldingi ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, har bir ifodalar farqli ma‘noni ifodalaydi ((3) ~ (6)). 10-misolda ko‘rsatilganidek faqat ma‘no jihatdan emas, ehtimollik darajasida ham farq bor. Lekin, oldingi ilmiy tadqiqotlarda bu ikki ifoda morfologiya va sintaksis jihatdan tahlil qilinmagan. Bu maqolamda ushbu ikki ifodani bir xil me‘yorda tahlil qilaman. Shu tahlil natijasida bu ikki ifodaning morfologik harakteriga tegishli semantik harakterini aniqlayman.

Maqolada ‘subyektivlik’ (subjectivity; Palmer 1986: 16) jihatdan ‘-sa kerak’ va ‘-(i)sh mumkin’ ifodalangan misollarni tahlil qilib, ularni ‘subyektivlik’dan farqli ravishda, ya’ni ehtimollik jihatidan ham tahlil qilib, semantik harakterini aniqlayman.

Palmer (1986: 16) modallik suhbatchidagi subyektiv fikrning grammatik shaklga ko‘chirilgan formasi ekanligini ta’rif qiladi. Shuning uchun, subyektivlik modallikda shakllarni tanlashga tegishli fikr deb hisoblanadi. Men shunday o‘ylaymanki, epistemik modallikdagi shakllarni tanlashga subyektivlik aloqador, va ‘suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini ifodalaydi’ degan subyektivlikga modallik ifodalaydigan shakllardagi morfo-sintaktik harakter aloqador. Shu fikrni isbotlash uchun, keyingi qismda internet korpus sahifasidan olingan misollarni morfo-sintaktik harakter jihatidan tahlil qilib, ‘-sa kerak’ va ‘-(i)sh mumkin’ni ifodalaydigan ikki ifoda orasidagi subyektivlik balandligi jihatdan farqlarni topaman.

## 2. Internet korpus sahifasi tadqiqoti

Bu maqola uchun Sketch Engine (<https://www.sketchengine.eu/>) ichidagi Turkic web – Uzbek nomli veb korpusidan foydalandim. Ifodalarni izlash yo‘li to‘g‘risidagi batafsil ma‘lumotni HIDAKA (2023) ni ko‘rishingiz mumkin. Quyidagi birinchi jadvalda ushbu korpusdan olingan misollarining umumiy soni ko‘rsatiladi.

Jadval 1: Internet korpus sahifasidan olingan musollarining soni

Shakl	Soni
V-sa kerak	1297
V-ma-sa kerak	534
V-(i)sh mumkin	2974
V-maslik mumkin	639

Birinchi o‘rinda, “-sa kerak” va “V-(i)sh mumkin” dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l-“ qo‘shimchalari qo‘shiladigan holat haqida gapirib o‘taman. Korpus sahifasidan olinagan misollari orasida (1831 misol) “-sa kerak”dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l” qo‘shimchalari qo‘shilgan holat to‘g‘risida misol yo‘q. Ammo, ‘-(i)sh mumkin’dan so‘ng e- yoki bo‘l qo‘shimchalari

qo‘shilgan misollar keltirilgan. 11-misolda ‘V-(i)sh mumkin’dan so‘ng “edi” joylashgan. 12-misolda “bo‘lgan” so‘zi ‘V-(i)sh mumkin’ aniqlovchiga kesim vazifasida keladi.

(11) ... *sog‘liqni saqla-sh, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida ham qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin edi.* (ayol.uz)

(12) *Davlat, jamiyat va shaxsga jiddiy ekologik, ijtimoiy va boshqa zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ekologik xavflarni...* (meteo.uz)

Ikkinchi o‘rinda, 3ta yuklama (“-da”, “-a”, “-mi”) ga to‘xtalib o‘taman. “-da” yuklamasi ta’kidni ifodalaydi (Bodrogligeti 2003: 1019-21). “-a” yuklamasi tasdiq ifodalaydi (Nakajima 2015: 159). “-mi” yuklamasi so‘roq gapda ishlatiladi. Quyida “V-sa kerak”ga “-da” (13), “-a” (14) ishlatilgan misollarni keltiraman. Lekin, “-mi” yuklamasi ishlatilgan misol yo‘q.

(13) *Nimanidir tushunmagan bo‘lsam kerak-da.* (filmlar.uz)

(14) *O‘shanda qo‘rqan bo‘lsangiz kerak-a?* (uzbekistonovozi.uz)

Yuqoridan farqli ravishda, “-(i)sh mumkin” misollari (3613 misol) da “-da” va “-a” qo‘shilgan misol yo‘q. Lekin, “-mi” qo‘shilgan misol (15) bor.

Jadval 2: Internet korpus sahifasi tadqiqotning xulosasi

	-da, -a	-mi	e-, bo‘l-
V-sa kerak	○	×	×
V-(i)sh mumkin	×	○	○

(15) ... *“Osteoporoz: nasldan naslga o‘tishi mumkinmi?” kabi qiziqarli maqolalarni o‘qishingiz*

*mumkin.* (shou-biznes.uz)

Ikkinchi jadvalda yuqoridai tahlil birgalikda ko‘rsatiladi.

### 3. Intervyu tadqiqoti

Bu qismda ikki xil tadqiqot o'tkaziladi.

1. To'g'ri va noto'g'ri gaplar qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasini;
2. Ravishdoshini saqlab, kesimini o'zgartirgan gapning ishlatilishi tahlili

Interbyu beruvchi o'zbek tilini ona tili sifatida gapiruvchi, 1989-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan erkak kishi.

Birinchi, Miyake (1992, 1995) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga asoslanib, tadqiqotni o'tkazaman. Miyake (1992, 1995) yapon tilidagi "darou" ("sa kerak"ka o'xshaydi) va "kamosirenai" ("(i)sh mumkin"ga o'xshaydi)" orasidagi farqlarni aniqladi. Miyake (1992, 1995) quyidagi uchta sharoitda ham faqat "kamosirenai" ishlatiladi deb aytadi: 1. 16-misolda ko'rsatilgandek, ayni paytda to'g'ri deb o'ylagan fikrni ifodalamoqchi bo'lganda, "darou" ishlatilmaydi.

(16) Amewa hurukamosirenaishi, huranaikamosirenai.

'yomg'ir yog'ishi ham mumkin, yog'masligi ham mumkin.'

2. 17-misolda ko'rsatilishicha, suhbatchi bir voqea to'g'ri bo'lishga ishonlaydi, aslan shu noto'g'ri bo'lish mumkinligi bo'lganda, "darou" ishlatilmaydi.

(17) Sorewa hontoukamosirenaiga, usodato omou.

"Bu yolg'on bo'lishi ham mumkin, lekin men rost deb o'ylayman".

3. 18-misolda ko'rsatilishicha, shubatchi boshqa oladigan harakatini tinglovchiga aytib berganda, 'darou' ishlatilmaydi.

(18) A: "Ashitamo denwasitekureru?"

'Ertaga ham telefon qilasanmi?'

B: "Ashitawa denwasinaikamosirenai."

"Ertaga telefon qilmasligim mumkin".

(16)~(18) misollardagi yaponcha misollarni ona tili bo'lib o'zbek tilida gapirayotgan erkakga ko'rsatib, o'zbek tiliga tarjima qilib oldim. Shu tufayli hamma musol "(i)sh mumkin"da yozildi. Men shu javob ichidagi kesimni '-sa kerak'ga o'zgartirib, shu misol ishlatilish darajasi haqida undan so'radi. U hammasini qabul qilolmayman deb javob berdi. Shu tadqiqot natijalarida "(i)sh mumkin" bir ehtimollik bo'lib, to'g'ri ekanini ifodalashni aniqladim.

Ikkinchi, ravishdoshini saqlab kesimini o'zgarilgan gapning qabul qilinishi haqidagi tadqiqot o'tkaziladi. 10-misolga ko'ra, "sa kerak" "(i)sh mumkin"dan balandroq ehtimollikni ifodalaydi. Avvalo, balandroq ehtimollikni ifodalaydigan "sa kerak"ning musollarni veb sahifalaridan izladim. Shundan keyin, shu misollardagi kesimlarni "(i)sh mumkin"ga o'zgartirib, ushbu gaplarning ishlatilish darajasini intervyu beruvchidan so'radim. 19-misolda baland ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh "shubhasiz" ishlatilgan misolini, 20-misolda past ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh "balki" ishlatilgan musolini keltirib o'taman.

(19) *Har qanday o'qituvchi uchun, shubhasiz bu eng qiziq masala bo'lsa kerak.*

(<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3535.html>)

[oxirgi ko'rgan kuni: 27/04/2023]]

(20) *Balki katta bo'lib onamni qadrini yaxshiroq bila boshlaganim sabab bo'lsa kerak.*

(<https://mobile.twitter.com/nizomuddinova02/status/1539284436327489536>)

[oxirgi ko'rgan kuni: 27/04/2023]]

19- va 20-misollardagi kesimni -(i)sh mumkin'ga o'zgartirib, ushbu gaplarning ishlatilish darajasini intervyu beruvchidan so'rasam, 19-misol ishlatilishi mumkin, lekin, 20-misol mumkin emas degan javobini oldim. Shu tadqiqot natijalarida shuni aytishim mumkinki, "sa kerak" ravishdosh ifodalanadigan ehtimollikga qaramasdan birga sodir bo'ladi. Aksincha, "(i)sh mumkin" faqat pastroq ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo'ladi. Uchinchi jadvalda yuqoridai tahlil birlikda ko'rsatiladi.

Jadval 3: Interbyu tadqiqotning xulosasi

Shakl	to'g'ri va noto'g'ri gaplar	Ravishdosh bilan sodir bo'lish
-------	-----------------------------	--------------------------------

	qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasida	past ehtimollik	baland ehtimollik
V-sa kerak	×	○	○
V-(i)sh mumkin	○	○	×

#### 4. Xulosa

Birinchi o‘rinda “-sa kerak” to‘g‘risidagi xulosamni aytaman. Internet korpus sahifasi tadqiqotida “-da” va “-a” joylashishi, lekin, “-mi” joylashmasligini aniqlayman. Bodrogligeti (2003: 1019-21)ga ko‘ra, “-da” harakatning kerakligi, to‘g‘riligini kuchaytiradi. “-a” tasdiq foydalaydi. Demakki, suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqea uchun shu ikki yuklamadan foydalanadi. Shuning uchun, “-sa kerak” ham suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqeani ifodalash uchun ishlatiladi. Shunday ekan “-mi” “-sa kerak” bilan birga foydalanmasligini izohlashi mumkin. Chunki “-mi” yuklamasidan suhbatchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tushunmagan voqeani ifodalashda foydalanadi. “-sa kerak” dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l-“ qo‘shimcha joylashmaydi. Chunki “-sa kerak” zamon bo‘yicha tuslanmaydi va aniqlovchi bo‘lib kelmaydi. Demakki, “-sa kerak” ‘suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini ifodalaydi’ degan subyektivlik baland bo‘ladi.

Intervyu tadqiqotida to‘g‘ri va noto‘g‘ri gaplar qatoriga kiritilgan bir gapning tarjimasida ‘-sa kerak’ foydalanmaydi. Shuning uchun, “-sa kerak” mumkinlikni emas, balki suhbatchi shu voqea to‘g‘ri bo‘ladi degan fikrini ifodalaydi. Ravishdosh jihatidan shuni ham aytamanki, “-sa kerak” ravishdosh ifodalanadigan ehtimollikga qaramasdan birga sodir bo‘ladi, ammo, “-(i)sh mumkin” faqat pastroq ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo‘ladi.

Ikkinchi o‘rinda, “-(i)sh mumkin” to‘g‘risida xulosa aytaman. Internet korpus sahifasi tadqiqotida “-da” va “-a” joylashmasligi, lekin, “-mi” joylashishini aniqlayman. Chunki, ‘-(i)sh mumkin’ suhbatchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tushunmaydigan voqeani ifodalashda foydalanadi. Shu borada, “-(i)sh mumkin’ dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l-“ qo‘shimcha joylashadi. Chunki “-(i)sh mumkin” zamon tomonidan tuslanadi va aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. Demakki, “-(i)sh mumkin”da suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini shubhasiz ifodalanmaydi, ya‘ni subyektivligi pastroq bo‘ladi.

Intervyu tadqiqotidagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri gaplar qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasida faqat “-(i)sh mumkin” foydalanadi. Shuning uchun, “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi. Bundan tashqari, “-(i)sh mumkin” faqat past ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo‘ladi. Chunki “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi.

Bu maqolaning xulosasi sidatida shuni aytishim mumkinki, “-sa kerak” suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqeani ifodalash uchun ishlatiladi, demaki subyektivligi baland. Aksincha, “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi, shu tufayli subyektivligi past.

Minnatdorchilik

Ushbu ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda meni qo‘llab-quvvatlagan JSPS Granti JP22J01538 ga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdurahmonov, G‘. A. va Sh. Sh. Shoabdurahmonov, A. P. Hojiyev (1976) *O‘zbek tili grammatikasi II-tom Sintaksis*. Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti.

Bodrogligeti, András J. E. (2003) *An academic grammar of Modern Literary Uzbek*. München: Lincom Europa.

日高晋介 HIDAKA Shinsuke (2013) 「ウズベク語：補遺データ（受動表現，ヴォイスとその周辺，モダリティ）（データ）」 『語学研究所論集』 18: 467–85.

日高晋介 HIDAKA Shinsuke

(2023) 「ウズベク語における推定・可能性を表す分析的表現の差異：V-sa kerakとV-(i)sh mumkinに注目して」 『北東アジア諸言語の記述と対照』 3: 79–98.

- 風間伸次郎 KAZAMA Shinjiro (2011) 「まえがき—テーマ企画:  
特集「モダリティ」」 『語学研究所論集』 16: 29–55.
- Kononov, Andrej N. (1960) Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo jazyka. Moskva, Leningrad: Izdatel'stvo akademii nauk SSSR.
- 三宅知宏 MIYAKE Kazuhiro  
(1992) 「認識的モダリティにおける可能性判断について」 『待兼山論叢  
日本学篇』 26: 35–47.
- 三宅知宏 MIYAKE Kazuhiro (1995) 「カモシレナイとダロウ—概言の助動詞③  
—」 宮島達夫・仁田義雄編 『日本語類義表現の文法 (上)』 東京: くろしお出版.  
197–200.
- 中嶋善輝 NAKAJIMA Yoshiteru (2015) 『簡明ウズベク語文法』 大阪: 大阪大学出版会.
- Palmer, F. R. (1986) Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press.

*A.Ibayev,  
SamDChTI o'qituvchisi*

## TOBE KOMPONENTLI MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada murakkab sintaktik qurilmalar va ularning struktur tahlili derivatsion aspekta amalga oshirilgan. Bunda MSQning derivatsion jarayonini BI (bevosita ishtirokchilar) guruhiga ajratib, shajara usulida ko'rib chiqilgan. Nazariy fikrlar ingliz va o'zbek tilidagi misollar bilan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** MSQ, operator, operand, derivat, BI metodi, kontakt bog'lanish, distant boglanish.

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilmalarni tilshunoslar mustaqil sintaktik birlik sifatida talqin qilishadi va ularning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishadi:

1. MSQlar sodda gapda ifoda etib bo'lmaydigan bitta umumiy yoki bir nechta fikr ifodasini beradi;
  2. Uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xosdir hamda hokim va tobelik munosabatning ifodalanishi bilan xarakterlidir;
  3. Tobe komponentli MSQlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanish bir tomonlama, ikki tomonlama yoki o'zaro muvozanatlashgan xususiyatga ega;
  4. MSQ komponentlari o'rtasidagi bog'lanish vositalari sifatida bog'lovchilar va korrelyatorlar (bog'lovchi o'rnidagi boshqa vositalar)ni qayd etish mumkin;
  5. MSQ komponentlari turli xil o'ziga xos kompozitsion xususiyatlarga ega. Mazkur xususiyatlar ularni boshqa sintaktik birliklar bilan formal-funksional jihatdan qiyoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.
  6. Tobe komponentli MSQlar yopiq strukturaliligi bilan ajralib turadi. Masalan, ikki komponentli tobe munosabatli MSQlar tarkibiga yana bir yoki bir nechta predikativ birliklarning qo'shilishi mazkur tobe komponentli MSQni teng munosabatli MSQga yoki makromatnga aylantirishi mumkin.
  7. Tobe komponentli MSQlarni teng komponentli MSQlardan yana bir farqli jihati shundaki, ularda parallel munosabatning kuzatilmasligidadir<sup>1</sup>.
  8. Derivatsion nuqtai nazardan, tobe komponentli MSQlarda biz teng komponentli MSQlardan farqli o'laroq, dublooperator hamda polioperatorlik xususiyatlarni kuzatamiz.
  9. Tobe komponentli MSQlarning operandlari o'rtasida funksional tenglik kuzatilmaydi.
- Darhaqiqat, tobe komponentli MSQlar bir butun yagona sintaktik birlikni tashkil qiladi. Derivatsion aspektda tahlil qiladigan bo'lsak ham bitta derivat sifatida olib qaraymiz:

<sup>1</sup>. Qarag: Зиброва Н.В. Сложноподчинённые предложения в аспекте понятия синтаксического поля. Автореф. канд.дис.  
– Елец,2008. – С.8-9.

1. *Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, oldin saroybon, uning orqasidan ovlarda kabobpazlik qiladigan baqaloq bakovul ko'rindi (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi).*

2. *Having applied diligence and patience to the matter, Tom soon acquired the necessary skill and walked down the street even faster (Mark Twain. The Adventure of Tom Sawyer).*


Ravshanki, MSQ tarkibidagi komponentlar tayyor holdagi derivatni taqozo etadi. Ammo ularni MSQ tarkibida olsak, operand vazifasida kelishi izoh talab qilmaydi.

Buni MSQning derivatsion jarayonini BI (bevosita ishtirokchilar) guruhiga ajratib, shajara usulida ko'rib chiqsak, yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. *Po'lat qoplangan zalvorli eshik asta g'ichirlab ochilgach, qorong'i bo'shliq ko'rindi (O.Yoqubov.Ulug'bek xazinasi).*

Keltirilgan misolning analizi quyidagicha amalga oshadi:

### Murakkab sintaktik qurilma (mikromatn)



Keltirilgan sxemaga nazar tashlasak, sintagmatik qatorda birlashgan paradigmalar derivatsiya operandlari sistemasini tashkil qilayotganligini, ular esa, o'z navbatida, MSQ shaklidagi derivat sistemasini hosil qilganligini guvohi bo'lamiz. Buni quyida keltirilgan sintezli formulada ham ko'rishimiz mumkin:

$$N1 + V1 = GV2$$

$$d1 + N2 = GN3$$

$$GV2 + GN3 = GN1$$

$$d2 + d3 + V2 = GV1$$

$$d4 + N3 = GN2$$

$$GN1 + GV1 = P1 \text{ (operand)}$$

$$GN2 + V3 = P2 \text{ (operand)}$$

$$P1 + P2 = D \text{ (derivat)}$$

Guvohi bo'lganimizdek, eng oxirgi bosqichda katta sistema, derivat hosil bo'lmoqda. Umuman olganda, MSQ sistemasini to'g'ridan-to'g'ri so'z shakllaridan yig'ilmaydi, balki ketma-ket, ierarxik ravishda quriladi: uning qismlari oddiy, "qurilish" bloklariga birlashtirilgan, katta bloklar ushbu bloklardan butun hosila bitta blok sifatida taqdim etilgunga qadar qurilgan<sup>1</sup>.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, so'zlarning sintagmatik qator sathida bog'lanishi, avvalo ularning o'z morfemalari bilan bog'lanishi doirasida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, birinchi navbatda, morfema va so'zlar o'z ob'ektlari sathida sintaktik bog'lanadi. Keyin esa gap yoki MSQ doirasida sintagmatik chiziq bo'ylab sintaktik aloqaga kirishadi.

<sup>1</sup>. Метод непосредственно составляющих. Трансформационный метод. <https://megaobuchalka.ru/2/38193.html>.

Shunisi xarakterliki, jumla tarkibida soʻzlar oʻzaro kontakt hamda distant bogʻlanishda boʻladi<sup>1</sup>. Kontakt bogʻlanishda soʻzlar oʻzaro bevosita bogʻlanishda boʻladi. Masalan:

*He opened the door.*

Mazkur gapda *opened the door* birikmasining komponentlari oʻzaro bevosita bogʻlanishda ekanligi koʻzga tashlanadi.

Shu bilan birga, soʻzlar distant bogʻlanishda ham boʻlishi mumkin. Bunday bogʻlanishda soʻzlar oʻzaro bevosita bogʻlanmaydi, balki gapdagi ikki komponent oʻrtasida uchinchi komponent ham mavjud boʻladi:

*He opened the iron door.*

Koʻranadiki, *opened the iron door* birikmasida *opened* hamda *door* soʻzlari oʻrtasida *the iron* soʻzi turib, *opened* va *door* soʻzlarining distant bogʻlanishini taʼminlayapti.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Зиброва Н.В. Сложноподчинённые предложения в аспекте понятия синтаксического поля. Автореф. канд.дис. – Елец, 2008. – С.8-9.

*A.V.Faleeva, teacher of SamSIFL*

### **THEORETICAL INTERPRETATION OF AMERICAN COLLOQUIALISTICS IN LEXICOGRAPHICAL SOURCES**

**Annotation:** The article highlights the issues of theoretical experience in the study of American slangisms and colloquialisms, taking into account lexical-semantic, derivational features in English-language dictionaries.

**Keywords:** slangisms, colloquialisms, electronic dictionaries, word formation, metaphorical transfer, American slang

In modern linguistics the analysis of American colloquial studies is of great importance in connection with the spread of this variant of the English language not only in the United States, but also abroad. Research on this issue is being carried out in various directions. Historical features become an integral component for analysis due to the close connection of the current state of colloquial speech with all previous stages in the development of American slang. A detailed study in terms of the formation of the colloquial lexical level is carried out by L.M. Borisov in his dissertation “Исторические корни современной неформальной лексики американского варианта английского языка” (“Historical roots of modern informal lexis of American variant of the English language”). Lyudmila Mikhailovna analyzes both the general theoretical prerequisites for studying the historical influence of American slang on the evolutionary processes of the conversational layer (in the first chapter “The History of the Formation of Modern American English” [1, 312]) and investigates structural and semantic transformations using various microfields (for instance, money, cinema, sports, computer lexis), taking into account the national stereotypes of the English-speaking population, the functional aspect. Particular attention is paid to the specifics of expressiveness and the actualization of the study of linguistic games in the study of American slang.

An analysis of slangisms in terms of the pragmatic characteristics of individual periodicals is carried out in the work of A.V. Guslyakova “Особенности современного американского сленга: на материале прессы США за последнее десятилетие” (“Features of modern American slang: on the material of the US press over the past decade”) [2, 170]. Alla Viktorovna analyzes the external and internal features of slangisms and their place in modern media linguistics. Rapid changes in the functioning of American slang in the context of newspapers are considered by the

---

<sup>1</sup>. Qarang: Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari. Toshkent: 2009. – B.74.

author on the examples of groups of slangisms that describe anthropocentric and other characteristics (professional qualities, recreation and interests, sports, financial status, appearance of a person, his behavior, character, emotional range, gender parameters, the influence of the area, gastronomic (gluttonymic) vocabulary, relationships between individuals as members of social groups, role-playing communication). Another work from the perspective of the representation of the language in the mass media context is the study of К.Е. Mozzhukhin “Сленг в речи студентов американских университетов: На примере анализа газеты “The Koala”, Калифорнийский университет в Сан-Диего” (“Slang in the speech of students of American universities: On the example of the analysis of the newspaper “The Koala”, University of California at San Diego”) [5, 194].

Not only the lexico-semantic side of American slang is subject to great changes, but also the functional side, as well as various levels (phonetic-phonological, word-formation, morphological-syntactic, etc.). So, Yu.K. Voloshin in his study “Общий американский сленг: Состав, деривация и функция” (“General American Slang: Composition, Derivation and Function”) [3, 341] explores various ways of forming slangisms in modern English.

Speaking about the theoretical studies of American slang, one cannot fail to mention the close relationship of language with culture, society, i.e. how some extralinguistic factors influence on the formation of an implicit indicator in slangisms. Knowledge of coded information by extracting data from etymological dictionaries, works on cultural studies contribute to the disclosure of the hidden meaning of individual slangisms and contribute to the further prediction of semantic shifts in American English. This issue is dealt with by such researchers as: V.P. Korovushkin, G.N. Chirshhev [4, 68-73], O.V. Fomenko [7, 291], etc.

At present, there has been a large influx of lexicographic sources focused on the substantive and colloquial layer of the language. This trend in the formation of a database of printed and electronic dictionaries, reflecting the current state of colloquialisms, slangisms, argotisms, dialectisms, indicates a new position of the spoken language in society. Dictionaries with such coverage of data are heterogeneous, differ in terms of presentation of definitions, have distinctive characteristics in terms of style, choice of illustrative material and a special selection of dictionary labels.

Let us examine in more detail the contribution of lexicographers to the formation of an idea of the real language picture of the English language from the perspective of colloquialistics.

Some English slang dictionaries have an unusual style of presentation. Dictionary definitions are written in colloquial language with the presence of reduced vocabulary. The reason for such a presentation is the audience for which the lexicographic source is compiled. Thus, young people become the main user of dictionaries containing slang terms. The authors sometimes use an informal style in the design of dictionary interpretations in order to attract attention. For example, the commented dictionary of N. Moskovtsev and S. Shevchenko “Вашу мать сэп! Иллюстрированный путеводитель по американскому сленгу” (“Your mother, sir! The Illustrated Guide to American Slang”) uses the effect of a conversation with the user of the dictionary by addressing the reader in the text of the dictionary definitions. The authors use rhetorical questions, advice, explanations and try to express indignation and attitude. Thus, the effect of an impartial presentation of information is lost; one feels the constant presence of the authors during the entire presentation, and sometimes even a subjective view.

In addition, the dictionary contains illustrations presented in the form of pictures, photos with inscriptions, fragments from announcements, documents, advertisements, etc. This information not only reinforces the dictionary with real factual material, but also contributes to the easy memorization of individual slang terms. For example, the dictionary provides two photographs to compare a portable toilet (*Andy Gump* [6, 139]) and a conventional toilet.

It becomes obvious that this type of dictionary refers to the American variant of the English language from the name of the dictionary. Compiling dictionaries with a choice of one of the variants of the English language (cp.: American, British, New Zealand, Australian, Canadian, Indian English) has a number of advantages. The user of the dictionary can get acquainted with

the vocabulary of a particular variant, learn some information on cultural specifics, etc. Dictionary interpretations contain some etymological data. Compare: *ain't* is the colloquial equivalent of the expression *are not*. It is one of the clearest examples of “New Yorkisms” [6, 136], which came to American English from Yiddish.

The dictionary also specifies the scope of borrowed vocabulary and the degree of its presentation. So, Spanish borrowings in this dictionary are given in a small amount. However, borrowed vocabulary from Yiddish is revealed more fully. It is explained by the authors of the dictionary as the desire to decode meanings of the most difficult examples. Such result may be maintained with the help of the connection of the hidden semantics with etymological data. Thus, the reason for the low percentage of borrowings from Spanish is specified as additional information in the dictionary entry *amigo* (with a meaning “friend” [6, 138]). The authors of the dictionary stipulate that there are a huge number of Spanish borrowings in American slang, but their meaning is quite clear in context and without translation. Another example of borrowing is the word from the Russian language – *apparatchik* with a meaning “bureaucrat, assistant in the political apparatus” [6, 140].

The dictionary presents information on word formation by giving motivated / derivative and motivating words, i.e. word-building pairs. Compare: *amp* is an *amplifier* as well as a drug (from *ampoule*) [6, 138].

The dictionary contains a solid database of words and expressions with a hidden meaning of linguocultural realities, self-names of nations, etc. Cp.: *banana* is the self-name of the Chinese who were born in America or grew up in some state. This example demonstrates the metaphorical transfer of some color characteristics of a fruit to a description of a person. The outer shell of a banana (peel) is yellow, often associated with the racial origin of the Chinese. The internal component of the fruit has a white color. Thus, the hidden context is revealed “outside” one (according to external characteristics), and “inside” [6, 148] (according to consciousness, worldview, position) another.

Thus, lexicographic sources reflecting the colloquial system of the English language are becoming popular among various groups of people due to the active filling of everyday communication with colloquialisms, slangisms, and dialectisms. The creation of new projects of online dictionaries makes it possible to record a new influx of spoken words in a short time, most clearly and fully reflect examples from direct communication, literary texts and journalistic publications with the involvement of linguistic games, various kinds of entertaining material on lexical, grammatical, etymological, derivational, cultural features.

#### **List of used literature**

1. Борисова Л.М. Исторические корни современной неформальной лексики американского варианта английского языка: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Москва: МПГУ, 2001. – 312 с.

2. Гусякова А.В. Особенности современного американского сленга: на материале прессы США за последнее десятилетие: Дисс. канд. филол. наук. – Москва: Изд-во ЧГПУ, 2008. – 170 с.

3. Волошин Ю.К. Общий американский сленг: Состав, деривация и функция. – Краснодар: КГУ, 2000. – 341 с.

4. Коровушкин В.П., Чиршева Г.Н. Субстандартные автоантропимы афроамериканцев (из опыта соционимативно-лексикографического анализа) // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж: ФГБОУ ВО ВГУ, 2017. – №1. – С. 68-73.

5. Мозжухин К.Е. Сленг в речи студентов американских университетов: На примере анализа газеты "The Koala", Калифорнийский университет в Сан-Диего: Дисс. канд. филол. наук. – Москва: МПГУ, 2005. – 194 с.

6. Московцев Н., Шевченко С. Вашу мать сэр! Иллюстрированный путеводитель по американскому сленгу. – СПб: изд. Питер, 2004. – 480 с.

*Sh. Alieva,  
Andijon davlat universiteti dotsenti,*

## ANIQLOVCHILI BIRIKMALAR BILAN KENGAYISH NATIJASIDA HOSIL BO‘LGAN TRANSFORMALAR XUSUSIDA

**Annotasiya.** Mazkur maqolada transformasion tahlilning bir ko‘rinishi, ya’ni aniqlovchili birikmalar bilan kengayish natijasida hosil bo‘lgan transformalar xususida ayrim mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birga yig‘iq gaplarning yoyiq transformalarini shakllantirishda operator maqomida keluvchi sintaktik qurilmalar o‘z ichida boshqa bo‘laklar bilan kengayib, sodda yoyiq gapni murakkab qurilmaga aylantirishi to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** transformasiya, transform, aniqlovchili birikma, operator, operand, derivat, yig‘iq gap, yoyiq transform.

Transformasiya atamasi lingvistikada Amerika tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan XX asrning 50-yillarida tadqiqotlar kun tartibiga kiritilgan edi. Transformasiya tushunchasining iste’molga kirishiga deskriptiv tilshunoslikning yirik namoyandasi va asoschisi Leonard Blumfeldning “Til” (“Language” - 1933) nomli asarida berilgan g‘oyalar sabab bo‘ldi.

Bu g‘oyalar tishunoslikda strukturalizm yo‘nalishining shakllanishiga sabab bo‘ldi. L. Blumfeld birinchilardan bo‘lib ko‘rsatilgan asarida transformasiya termini haqida so‘z yuritgan. Ammo o‘zi transformasion metod ustida alohida tadqiqot olib bormagan.

Transformasiya tushunchasi strukturalistlar tomonidan tom ma’noda sintaktik strukturalarga nisbatan qo‘llanilgan edi va bugungi kunda ham mazkur tushuncha, asosan, gapning sintaktik strukturasi tahlilida samarali ishlatilmoqda. Qarash dalili uchun quyida nufuzli manba “Lingvistik entsiklopedik lug‘at” da berilgan transformasion metod ta’rifini keltiraylik: “transformasion metod – bu nisbatan kichik strukturalardan katta strukturalarni hosil qilishga asoslangan gapning sintaktik shaklini vujudga keltiruvchi metod sanaladi”. Bu jarayonda muayyan sintaktik qurilma zahirida Hosila vujudga keladi. Biroq transformasiyaning shartiga ko‘ra, Hosila strukturaning ma’no ifodasi oldingi qurilmaning mazmuni bilan mushtarak bo‘lmog‘i kerak.

Transformasion metod distributiv (qurshov) metodning zaif tomonlarini to‘ldirish maqsadida joriy qilingan bo‘lib, u bevosita ishtirokchilar metodini ham (bi metodi) o‘z ichiga oladi. Transformasion metodning lingvistik mohiyati dastlab amerikalik olim Z. Xerris tomonidan mukammal yoritib berildi. Olim transformasiya jarayonida Hosila gap asoslanayotgan qurilmani yadroviy struktura deb ataydi. Z. Xerris Hosila gap, ya’ni transformasiya bilan yadroviy gapning leksik birliklari bir xil bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Masalan: *professor ma’ruza so‘zlashdi – ma’ruza professor tomonidan so‘zlashdi*<sup>1</sup>.

Ayni paytda, oldingi gap asos, uning transformasiya esa Hosila gap sanaladi. Guvohi bo‘lganimizdek, har ikki gapda ham qariyb bir xil leksik vositalar qatnashmoqda.

Yig‘iq gaplarning yoyiq transformalarini shakllantirishda operator maqomida keluvchi sintaktik qurilmalar o‘z ichida boshqa bo‘laklar bilan kengayib, sodda yoyiq gapni murakkab qurilmaga aylantirishi mumkin. Buning natijasida jumlaning sintaktik qurilishi uch qavatli shajara tusini oladi. Birinchi qavat gapning semantik va konstruktiv markazi bo‘lgan va yig‘iq gap sanaluvchi kesim, ikkinchi qavat kesim bilan semantik va grammatik munosabatga kirishishga va uning bo‘sh o‘rinlarini (valentliklarini) to‘ldirib keluvchi bo‘laklar, uchinchi qavat esa kesimning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldirib kelgan bo‘laklar bilan grammatik va semantik munosabatga kirishib, u


---

<sup>1</sup>. Qarang: Turniyozov N. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand davlat chet tillar instituti nashri, 2007, 58 b.


bilan yaxlit holda butun gap tuzilishida yagona sintaktik vazifa bajaruvchi bo‘laklardan iborat bo‘ladi.

Masalan, *Birdan Boburning beg‘am yurgan davrlari esiga tushdi.* (P. Qodirov) gapidagi esiga tushdi bo‘lagi shu gapning yadrosi sanaladi bu yadro birdan, Boburning, beg‘am yurgan davrlari bo‘laklari bilan kengayib kelgan.

Gapning kesimiga bog‘lanib, uning kengaytiruvchisi vazifasini bajaruvchi beg‘am yurgan davrlari bo‘lagi o‘z ichida bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, bu bo‘linish aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidan tashkil topadi. Bu shajarani quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Yoki: *chiroyli inshootlar barpo etilmoqda* gapining struktur va semantik markazi, ya'ni asosi **barpo etilmoqda** bo‘lagi sanaladi. Bu bo‘lak **chiroyli inshootlar** bo‘lagi bilan kengayib kelmoqda. Bu birikma xarakterida bo‘lib, butun gap tuzilishi uchun **nimalar?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan holda bitta sintaktik vaziyatda kelmoqda. Birikma ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, uning tarkibida chiroyli qismi bo‘lakning bo‘lagi sifatida ajralib chiqadi. Bu gapning sintaktik munosabat shajarasini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Shunday qilib, qaratqich aniqlovchi ham, sifatlovchi aniqlovchi ham gap tarkibida jumlaning kengaytiruvchilari tarkibida kelib, kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari bo‘lib keladi. Bunday sintaktik birliklar bilan kengaygan yoyiq gaplar sintaktik munosabatlar ierarxiyasini bir pog‘onaga murakkablashtirdi.

Gapning kesimi ot kesim bo‘lganda, ot kesim ham aniqlovchi bilan kengayib kelishi mumkin. Masalan, *rejasiz ish–qolipsiz g‘isht.*

Bunday jumalalarda aniqlovchi va aniqlanmish munosabati gapning boshqa qismlariga nisbatan bir butunlikni tashkil etgan holda jumlada bitta sintaktik mavqeni egallaydi. Bunday hollarda aniqlovchi go‘yo kesim bilan munosabatga kirishayotganday tuyuladi. Aslida esa sifatlovchi aniqlovchi ot leksema bilan munosabatga kirishib bir butunlik kasb etadi. Ana shu butunlik kesimlik shaklini olib, kesim vazifasida keladi – **qolipsiz g‘isht**.

Guvohi bo‘lganimizdek, bu kabi vaziyatlarda ham umumiy qonuniyat amal qiladi. Hamma hollarda aniqlovchi ot leksema yoki egalik shaklidagi ot leksema - shakl (so‘z shakl) hosil qiladi va gapning sintaktik tuzilishida yaxlit holida bir sintaktik mavqeni egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:**

1. Hojiev A. O‘zbek tilida forma yasalishi. – T., 1979. – 80 b .
2. Turniyozov N.Q. Nazariy grammatikadan ocherklar. – Samarqand: SamDChTI nashri, 1998, 48 b.
3. Turniyozov N. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand davlat chet tillar instituti nashri, 2007, 58 b.
4. Blumfeld L. Language (англ.). — New York: Holt and Co, 1933.

*Valijeva Rufina*  
*Fakultät für Romano-Germanische Philologie des Staatlichen*  
*Instituts für Fremdsprachen von Samarkand*

#### **ZUR FRAGE DER TERMINOLOGIE VON PHRASEOLOGISCHEN EINHEITEN IN DER MODERNEN LINGUISTIK**

Der Artikel behandelt eines der schwierigsten terminologischen Probleme der modernen Phraseologie - das Verhältnis zwischen den Begriffen "Phraseologismus" und "phraseologische Einheit". Die Gründe für das Fehlen einer einheitlichen Position zum Verständnis dieser Begriffe werden erläutert. Basierend auf der Analyse der Theorie wird ein verfeinertes Konzept der "phraseologischen Einheit" formuliert.

**Schlüsselwörter:** Phraseologie, Phraseologismus, Phraseologische Einheit.

Die Entstehungsgeschichte der Phraseologie hat tiefe Wurzeln. Ab dem Ende des 18. Jahrhunderts versuchten die Wissenschaftler in speziellen Sammlungen und erklärenden Wörterbüchern die Bedeutung von phraseologischen Einheiten, Aphorismen, geflügelten Ausdrücken (Worten), Idiomen, Sprichwörtern, Redensarten, aufzudecken.

Es ist bekannt, dass das Wort "Phraseologie" aus der Addition zweier griechischer Wörter besteht: "phrasis", was eine Redewendung, ein Wort oder einen Ausdruck bedeutet, und "logos" - Lehre. Aus der Etymologie dieses Wortes folgt, dass die Phraseologie eine Wissenschaft ist, die stabile Redewendungen untersucht, die eine einzige Bedeutung haben.

Linguisten wie M.D. Stepanova und I.I. Chernysheva unterscheiden die folgenden Bedeutungen des Begriffes "Phraseologie" [13]: Im weitesten Sinne bedeutet der Begriff "Phraseologie" die Gesamtheit aller Arten stabiler Kombinationen von Wörtern einer bestimmten Sprache; im engeren Sinne werden mit diesem Begriff nur solche stabilen Wortkombinationen bezeichnet, die sich durch eine gewisse Emotionalität, Aussagekraft auszeichnen und einen wertenden Charakter haben.

Die Frage der Phraseologie als linguistische Disziplin wurde erstmals von dem berühmten sowjetischen Linguisten E.D. Polivanov gestellt. E.D. Polivanov glaubte, dass "die Phraseologie in der linguistischen Literatur der Zukunft eine stabile und isolierte Position einnehmen wird - wenn unsere Wissenschaft frei von zufälligen Lücken in der konsistenten Formulierung verschiedener Probleme sein wird" [8, 25]. Und wir können sagen, dass er Recht hat. Schließlich ist die Phraseologie zweifellos eine wertvolle Schicht der Sprache. Phraseologische Einheiten spiegeln historische Erfahrungen sowie die Originalität der Kultur und Lebensweise der Menschen wider.

Die Verwirrung des terminologischen Bestandes der Phraseologie ist eines der schwierigsten Probleme dieser Wissenschaft. Laut E.M. Galkina-Fedoruk ist ein solches Problem bisher in keinem Bereich der Linguistik so deutlich nachgezeichnet worden [5]. Laut O.S. Achmanova, erklärt sich die Fülle an Begriffen durch die unzureichende Entwicklung der Grundkonzepte der Phraseologie, von denen viele Synonyme und die meisten mehrdeutig sind [4]. Beispielsweise finden wir häufig die Begriffe wie: "Phraseologismus", "Phrase", "Idiome", "Phrasenogramm", "Idiomatische Wendungen", "nicht freie Phrase", „feste und nicht feste Wortverbindungen“ usw.

Beachten wir, dass der am häufigsten verwendeten Begriff zur Bezeichnung einer phraseologischen Einheit „Phraseologismus“ ist. Nicht so selten stellen die Autoren selbst in vielen Wörterbüchern und Enzyklopädien neben diesem Begriff andere synonymische Konzepte in eine Reihe, zum Beispiel:

1. "Wörterbuch der russischen Synonyme": Phraseologismus, Idiome [3].

2. „Moderne Enzyklopädie“: „Phraseologie ist ein Idiom, eine stabile Phrase (feste Wortverbindung) mit einer einzigartigen semantischen Bedeutung. Der Begriff Phraseologismus und seine zahlreichen Synonyme (phraseologische Einheit, Idiom, idiomatischer Ausdruck, unfreie Phrase, Phraseogramm usw.) werden von Linguisten benötigt, um Kombinationen von Wörtern in der Sprache darzustellen, die eine unauflösbare Einheit darstellen, die in der Sprache auf derselben Ebene als ein einziges Wort funktioniert " [12].

3. „Kleines akademisches Wörterbuch“: „Phraseologische Einheit (Idiome) ist eine stabile Phrase (feste Wortverbindung), deren Bedeutung nicht aus den Bedeutungen ihrer Bestandteile abgeleitet werden kann [6].

4. Eine ähnliche Definition findet sich im "Großes enzyklopädisches Wörterbuch": "Phraseologismus (phraseologische Einheit, Idiome) ist eine feste Wortverbindung (stabile Phrase), die die Funktion eines separaten Wortes erfüllt, dessen Bedeutung nicht aus den Werten von seinen Bestandteilen ableitbar ist“ [9].

Gleichzeitig treffen wir uns im Wörterbuch sprachlicher Begriffe: „Phraseologismus ist dasselbe wie eine Phraseneinheit“; phraseologische Einheit ist eine lexikalisch unteilbare, stabile in ihrer Struktur, eine bedeutungsintegrierte Phrase, die in Form einer fertigen Spracheinheit wiedergegeben wird“ [10].

Daher wird in Enzyklopädien und Wörterbüchern meistens der Begriff "phraseologische Einheit" verwendet, zusammen mit anderen Begriffen, die als Synonyme definiert werden. So kann beispielsweise der Begriff „Idiom“ nicht als Synonym für den Begriff „Phraseologismus“ interpretiert werden, da beispielsweise nach E.G. Rizel, ein Idiom, ist eine der Arten von Phraseologieeinheiten [2].

Wenn wir außerdem die oben gegebenen Definitionen des Begriffes "Phraseologismus" analysieren, können wir feststellen, dass er meistens nur als feststehende Phrase verstanden wird. Folglich spiegelt dieser Begriff nicht die gesamte Mehrdimensionalität des Phraseologieumsatzes wider, da in der Phraseologie auch idiomatische Sätze unterschieden werden, wie z. B. Redewendungen, Sprichwörter, geflügelte Worte, Sprichwörter. Es ist ratsam, den Begriff "phraseologische Einheit" zu verwenden, der von V.V. Winogradow angeboten wurde. Dieses Konzept wird viel breiter ausgelegt und umfasst alle Arten von festen Ausdrücken (auf Phrasenebene) und festgelegten Ausdrücken (auf Satzebene). Phraseologische Einheiten sind nach dem in dem Wörterbuch präsentierten Definition „stabile Phrasen (feste Wortverbindungen), die durch die Konstanz des lexikalischen Bestandes und komplizierte Semantik gekennzeichnet sind“ [15].

V. Kunin definiert Phraseologische Einheiten als "stabile Kombinationen von Lexemen mit einer vollständigen oder teilweise neuübertragenden Bedeutung" [7].

Ju.P. Solodub zitiert den Standpunkt von A.O. Ivanov, der eine Phraseologieeinheit als eine Phrase versteht, in der die semantische Solidität (die Integrität der Nominierung) über die strukturelle Getrenntheit ihrer konstituierenden Elemente herrscht [11].

N.M. Shansky glaubt, dass Phraseologische Einheiten Redewendungen sind, die aus zwei oder mehr Wörtern bestehen und einen stabilen Bestand, Struktur, Reproduzierbarkeit, sowie eine ganzheitliche Bedeutung haben [14].

Von großem Interesse ist der Standpunkt von H. Burger, der glaubte, dass eine sprachliche Einheit, erstens, aus mehr als einem Wort besteht; zweitens, die Wörter addieren sich für dieses ein Mal nicht, sondern sie sind Kombinationen von Wörtern, die den Sprechern in dieser bestimmten Kombination bekannt sind [1]. Gleichzeitig hob H. Burger die folgenden charakteristischen Merkmale von Phraseologieeinheiten hervor: Polylexikalität, Stabilität, Idiomatik.

Beim Vergleich der Schlüsselbegriffe der Phraseologie sind wir zu dem Schluss gekommen, dass der Begriff „phraseologische Einheit“ in seiner Bedeutung vollständiger ist, da dieser Begriff viel breiter ausgelegt wird und alle Arten von festen Phrasen und festgelegten Ausdrücken umfasst. Unter der phraseologischen Einheit ist eine lexikalisch-semantische unteilbare Einheit einer Sprache zu verstehen, die aus mehr als einem Wort besteht und eine ganz oder teilweise übertragene Bedeutung hat, mit einem festen Bestand und einer unveränderlichen Struktur ist.

### **Literaturverzeichnis**

1. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. / H. Burger. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2015. – 241 S.
2. Riesel E. Deutsche Stilistik. / E. Riesel, E. Schendels. – M., 1975. – 316 с.
3. Абрамов Н.А. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. / Н.А. Абрамов. – Москва: Русские словари, 1999. – 431 с.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. / О.С. Ахманова. – М., 1969. – 608 с.
5. Галкина-Федорук Е.М. Современный русский язык. / Е.М. Галкина-Федорук. – М., 1964. – 339 с.
6. Евгеньева А.П. Малый академический словарь. / А.П. Евгеньева. – М.: Институт русского языка Академии наук СССР, 1957-1984. В 4-х т.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. / А.В. Кунин. – Феникс, 2005. – 488 с.
8. Поливанов Е.Д. Избранные работы: Труды по восточному и общему языкознанию. / Е.Д. Поливанов. // Институт востоковедения АН СССР. – М.: Наука (ГРВЛ), 1991. – 622 с.
9. Прохоров А.М. Большой энциклопедический словарь. / А.М. Прохоров. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 1434 с.
10. Розенталь Д.Э. Словарь-справочник лингвистических терминов. / Д.Э. Розенталь, М.А. Теленкова. – М.: Просвещение, 1976. – 543 с.
11. Солодуб Ю.П. Национальная специфика и универсальные свойства фразеологии как объект лингвистического исследования. / Ю.П. Солодуб. // Филологические науки. – 1990. № 6. – С. 55-65.
12. Современная энциклопедия. [Электронный ресурс]. – URL: [http:// enc-dic.com](http://enc-dic.com). (дата обращения: 05.01.2023).
13. Степанова М.Д. Лексикология современного немецкого языка. / М.Д. Степанова, И.И. Чернышева. – М.: Высшая школа, 2003. – 252 с.
14. Шанский Н.И. Фразеология современного русского языка. / Н.И. Шанский. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 192 с.
15. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. / В.Н. Ярцева. – М., «Советская энциклопедия» 1990. – 682 с.

### III SHO‘BA

#### KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI

*prof. X.Z.Xayrullayev,  
o‘qit.M.A.Ibragimova, SamDCHT*

#### MORFEMANING LINGVISTIK TAVSIFI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Ishda morfemaning lingvistik tavsifi va morfematik sath xususida fiklar jamlangan. Ularga munosabat bildirilgan. Yangi xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** morfema, morf, morfemaning lingvistik tavsifi, morfematik sath, til birliklari, birlik, fonematik va morfematik sath.

Til birliklaridan biri – fonema haqida mulohaza yuritganimizda uning eng kichik va mustaqil holda ma’no anglatmaydigan birlik ekanligi atroflicha tavsiflandi. Biroq shuni ham aytish lozimki, fonemaning lingvistik tabiatini faqat undan katta birliklar – morfema yoxud so‘z doirasidagina o‘rgana olamiz. Bu, albatta, masalaning bir tomonini tashkil etadi. Uning ikkinchi tomoni morfema va so‘zning ham lingvistik tabiati tavsifi fonema bilan uzviy bog‘liq ekanligida o‘z aksini topadi. Til belgilari sanaluvchi morfema va so‘zning ifodalovchi jihati tovush kompleksini taqozo etadi. Shu bois bu o‘rinda tilning morfematik sathi haqida mulohaza yuritar ekanmiz, morfemaning ifoda vositasi fonema ekanligini alohida ta’kidlaymiz.

Morfema ham tilimizning eng kichik birligidir. Biroq u o‘zining nafaqat ifodalovchi, balki ifodalanuvchi jihatiga ham egaligi bilan fonemadan farqlanadi. Lekin qizig‘i shundaki, morfemaning til belgisiga xos bo‘lgan jihatlarining har ikkisi ham fonema vositasida voqelanadi. Bu, o‘z navbatida, fonematik va morfematik sathlarning uzviy munosabatidan dalolat beradi. Ularning biriga taalluqli elementlar material sanalsa, ikkinchisiga tegishli elementlar shu material vositasida vujudga keluvchi formani taqozo etadi.

Tilshunoslikka «morfema» termini dastlab I.A.Boduen de Kurtene tomonidan kiritiladi. Bu xususda V.M.Solnsev quyidagilarni yozadi: «L.V.Shcherbaning guvohlik berishicha, tilshunoslik *morfema* termini uchun uni so‘zning eng kichik ma’noli qismi deb ta’riflagan I.A.Boduen de Kurtenedan qarzdordir. I.A.Boduen de Kurtene: «Bog‘lanishli nutq mustaqil gap yoki frazalarga, gaplar mustaqil so‘zlarga, so‘zlar morfologik bo‘g‘inlarga yoki morfemalarga, morfemalar fonemalarga bo‘linadi», – deb yozgan edi.

Morfema haqida bildirilgan J.Vandriesning fikri ham o‘ziga xos bo‘lib, u mustaqil ma’no anglatuvchi til elementlari o‘rtasida munosabat o‘rnatuvchi birliklarni morfema deb ataydi va ular jumlasiga tilning barcha yordamchi vositalarini hamda so‘zlarning formal qismlarini kiritadi.

*Morfema* termini deskriptiv tilshunoslikning asoschilaridan biri L.Blumfild ta’limotida yanada boshqacharoq tavsiflanadi. Bunga ko‘ra, boshqa biror forma bilan fonetik-semantik jihatlariga ko‘ra o‘xshash bo‘lmagan til formasini sodda forma yoki morfema, deb atash mumkin. Bird «ptitsa», play «o‘ynamoq», dance «raqsga tushmoq» va h.k. kabilar morfemalardir [L.Blumfild 2002:168].

Ko‘rinadiki, L.Blumfild morfema deganda, tilning minimal birligi shaklini tushunadi va sodda (nomurakkab shaklli) so‘zlarni, nomustaqil yordamchi so‘zlarni hamda so‘zlarning ma’noli qismlarini shu nom bilan ataydi. Boshqacha aytganda, L.Blumfild til birligi–so‘zga nisbatan *morfema* tushunchasidan ko‘proq foydalanadi.

V.M.Solnsev biz yuqorida ko‘rib o‘tgan I.A.Boduen de Kurtene, J.Vandries, L.Blumfild kabi taniqli tilshunoslarning morfema haqida bildirishgan fikr va mulohazalarini o‘rganishi jarayonida quyidagilarni alohida ta’kidlaydi:

1. J.Vandries uchun eng muhimi morfemaning nomustaqil (yordamchi) xarakteridir.

2. L.Blumfild uchun morfemaning minimal xarakteri muhim bo'lib, bunda uning til sistemasidagi o'rni va boshqa birliklarga munosabati ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois L.Blumfild ta'limotida sodda va nomustaqil so'zlar ham, so'zning ma'noli qismlari ham morfema jumlasiga kiritiladi.

3. I.A.Boduen de Kurtene ham morfemaning minimal shaklli bo'lishini alohida qayd etadi. Biroq bunda uning til sistemasida tutgan o'rni va boshqa birliklarga bo'lgan munosabati ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi. Boduen so'zning minimal ma'noli qismini morfema deb ataydi.

Bizningcha, morfemaning lingvistik tabiati haqida yuqorida bildirilgan L.Blumfildning mulohazalari keng qamrovli bo'lib, u haqiqatga yaqindir. Hajman minimal sodda so'zlar ham, nomustaqil so'zlar ham qayta parchalanmasligi va muayyan ma'no ifodasini berishiga ko'ra morfemaning ta'rifiga mos keladi. I.A.Boduende Kurtene mulohazalarida esa morfemaning, asosan bir turi – so'z bilan bog'liq bo'lgan, uning ma'noli qismini tashkil etuvchi minimal birliklar haqida so'z yuritiladi.

J.Vandries ham morfemani nisbatan tor ma'noda tushunadi. Shu bois u yordamchi so'zlar, so'zning formal qismlarini, urg'u va intonatsiya haqida fikr bildiradi. So'zning o'zak qismini morfema sanamaydi.

V.M.Solntsev L.Blumfild nazariyasida sodda so'zlarning morfema tarzida talqin etilishiga e'tiroz bildiradi. Bunda sodda so'zlarda nol shaklli morfema ham mavjudligini va shu bois ularni bo'linmas birlik sifatida izohlash noo'rin ekanligini aytadi [V.M. Solntsev 1971: 246-247].

To'g'ri, sodda so'zlarda nol morfema ham kuzatiladi. Biroq nol morfema hech qachon morfologik ifodalibo'lmaydiva u doim Grammatik ma'no anglatadi. Sodda so'z shaklli morfema esa leksik ma'no ifodalaydi. Masalan, *tosh, bosh, kon, don*, va h.k.so'zlari birlik Grammatik ma'nosini ham anglatishi tabiiydir. Agar mazkur so'zlarni *tosh+loq, bosh+liq, kon+ga, don+ning* tarzida tasavvur etsak, u holda o'zak va affiks morfemalar xususida so'z yuritish mumkin bo'ladi. Lekin bu o'rinda ularni uch morfemali desak (*tosh- o'zak morfema+birlik ma'nosi: nol morfema+affiks morfema*) to'g'ri bo'larmikan?

Ikkinchi tomondan, albatta, nol morfemaning mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Bu haqda aytilgan G.Glisonning fikri, bizningcha, birmuncha ibratlidir. G.Glison nol morfemani inkor etmaydi. Lekin material jihatdan o'z ifodasiga ega bo'lmagan allomorf tushunchasidan keng foydalanish ayrim chalkashliklarga olib kelishi mumkinligini ham ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olim nol morfema tushunchasi mantiqiy jihatdan ham o'zini oqlay olmasligini va shu bois mazkur tushunchani qo'llashda suiste'mollikka yo'l qo'yib bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi [G.Glison 1959:119].

Darhaqiqat, nol morfema tushunchasidan til materialining lingvistik tahlili jarayonida ustalik bilan foydalanish lozim. Aks holda turlicha ma'no g'alizliklariga yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, *ko'z so'zi* bir paytning o'zida birlik hamda ko'plik grammatik ma'nolarini anglata oladi. Bundan kelib chiqib, mazkur so'zni leksik va ikkita grammatik ma'no ifodasini beruvchi birlik deb, aniqrog'i, o'zak morfema+grammatik ma'noli nol morfema+grammatik ma'noli nol morfema tarzida talqin etadigan bo'lsak, so'zsiz, nol morfema tushunchasini suiste'mol qilgan bo'lamiz. Bu o'rinda V.B.Kasevichning quyidagi mulohazalari ham e'tiborga molikdir: *нога* so'zi o'z ifodalovchi va ifodalanuvchilariga ega bo'lgan ikki morfemadan iboratdir: *ног+а*. Biroq *а* morfemasining ifodalanuvchi jihati yana *birlik, bosh kelishik* kabi Grammatik ma'no ifodalarini ham o'z ichiga oladi. Lekin mazkur grammatik ma'nolarning har biri uchun alohida ifodalovchilar (tovushlar kompleksi) mavjud emas. Shuning uchun ayni paytda-*а* minimal belgi hisoblanadi [V.B. Kasevich 1977: 53].

Morfema talqinining yuqorida eslatib o'tilgani kabi ayrim izohtalab jihatlari ba'zi tilshunoslarni o'zga bir termindan foydalanish lozim, degan xulosagacha olib keldi.

Y.Stepanov eng kichik grammatik forma *morf* ekanligini ta'kidlaydi. Olim morf deganida, ma'no yaxlitligini saqlagan holda bo'linmaydigan birlikni tushunadi. Y.Stepanov ta'limotida morfning quyidagi turlari mavjudligi ko'rsatiladi: 1. So'zning asosiy qismini tashkil etuvchi o'zak morf. 2. Kategorial ma'noli affiks morflar.

Morfning ifodalovchi jihati fonemalar bilan uzviy aloqador bo'lgani uchun uni fonemalarning pozitsion variantlaridan (yoki allofonlardan) tashkil topadi deyish mumkin.

Y.Stepanov *morfema* tushunchasi *allomorf* tushunchasiga nisbatan yuqori pog'onada turishini, morfema morflar majmuasini taqozo etishini eslatadi. Bu o'rinda morfema invariant xarakterli bo'lsa, morflar variant xarakterliligi ta'kidlanadi.

V.B.Kasevich morfemani minimal ma'noli birlik, minimal ma'noli belgi tarzida talqin etadi. U til materiali tahlilini deduktiv metod asosida olib borish lozimligini va bu jarayonda matni segmentlash natijasida har biri o'zining ifodalanuvchisiga ega bo'lgan eng kichik ma'noli birliklar-morfemalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi. V.B.Kasevich morfemalarni ikki katta guruhga bo'ladi: Mustaqil (leksik) morfemalar va yordamchi (grammatik) morfemalar. Masalan, *рука* so'zida *рук* mustaqil, *-а* esa yordamchi morfemadir.

V.B. Kasevich yordamchi morfemalar o'zlari bog'lanib kelayotgan o'zak morfemalarsiz qo'llana olmasligini va bunday vaziyat flektiv affikslarda ham, agglyutinativ affikslarda ham kuzatilishini eslatadi. Biroq agglyutinativ affikslar har safar bir grammatik ma'no bilan, flektiv affikslar esa bir necha grammatik ma'no bilan qo'llanishi mumkin. Masalan, turk tilida *-lar* affiksi faqat ko'plik ma'nosini, rus tilidagi *-i* affiksi esa, bir paytning o'zida ko'plik ma'nosini ham, bosh kelishik ma'nosini ham ifodalaydi... Bundan tashqari, agglyutinativ affikslar standart xarakterli, ya'ni muayyan grammatik ma'no ifodalashda faqat shu affiks qo'llansa, flektiv affikslar aksariyat hollarda boshqa-boshqa ko'rinishlarda keladi: *голоса,волосы, колосья* va boshqalar.

V.B. Kasevich predlog, artikl, ko'makchi, bog'lovchi va h.k.larni yordamchi grammatik morfemalar jumlasiga kiritadi. Mazkur grammatik morfemalarning birinchi turiga kiruvchilari o'zlari bog'liq bo'lgan mustaqil elementlardan pozitsion xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi va shu bois ular o'rtasiga boshqa elementlar kiritilishi ham mumkin. Ikkinchi tur grammatik morfemalar esa o'zlari birikayotgan o'zak yoki asosdan ajralgan holda qiymat kasb eta olmaydi.

Yordamchi so'zlar, morfema maqomiga ega ekanligidan qat'i nazar, so'zdan katta birliklar – so'z birikmalari yoxud gap uchun xizmat qilganida, ularni yordamchi so'zlar sifatida tushunmoq lozim. Ifoda materiali affikslar bo'lgan agglyutinativ tillarga xos morfemalar ham funksional salmog'iga ko'ra yordamchi so'zlarga yaqin turadi.

E.S.Kubryakovning morfema va uning talqini haqidagi mulohazalari V.B.Kasevichning bu xususdagi fikriga ancha yaqin ekanligini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, E.S.Kubryakova ham morfemaning lingvistik tabiatini bilmoq uchun matni segmentlarga bo'lish zarurligini va bu orqali minimal holatdagi ma'noli elementlar haqida zaruriy ma'lumotlar olish oson kechishini qayd etadi. Biroq V.N.Golovin mazkur usul vositasida morfemalarning faqat fonemalar integratsiyasidan iborat ekanligi haqidagina ma'lumotga ega bo'lish mumkinligini, ularning funksional salmog'ini, har birining o'zigagina xos bo'lgan ma'no nozikligini o'rganish imkoniyati bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi. U morfemani matnning segmenti emas, balki til birligi tarzida o'rganish maqsadga muvofiq ekanligini eslatib o'tadi.

Bizningcha, bu o'rinda bildirilayotgan e'tirozga qo'shilish birmuncha qiyin ko'rinadi. Chunki morfemani matnning minimal segmenti tarzida talqin etish, uning til birligi ekanligini inkor etmaydi. Bundan tashqari, morfemaning integral xususiyati ham uning funksional salmog'ining bir ko'rinishidir.

Morfemaning lingvistik tabiatini o'rganish borasida o'zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari bajarilgan va ularda bu haqda ilmiy mulohazalar berilgan. Mazkur mulohazalarda morfema so'zning bo'linmas, eng kichik ma'noli qismi ekanligi ilmiy asosli tarzda ta'riflanadi (M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. –Toshkent, 1978; Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarovava boshq. Hozirgi o'zbek adabiytili. –Toshkent, 1980; A.Hojjiyev. O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi. – Toshkent, 2007; A.Hojjiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –Toshkent, 1985; Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent, 2006.).

Bunda morfemaning o'zak holatidagi ko'rinishi va affiks morfemalar xususida mukammal ma'lumotlar beriladi. Shuningdek. Morfemaning so'z yasalishi tizimidagi nufuzi ham atroflicha yoritilganini ko'ramiz.

1979 yilda nashrdan chiqqan N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abdualizovlarning «Umumiy tilshunoslik» darsligida morfema tushunchasi ancha keng va ilmiy asosli tarzda talqin etiladi. Bunda morfemaning ta'rifi quyidagicha beriladi: «Tilning (uning bir bosqichi morfologiyaning) eng kichik ma'noli birligi *morfema* deb ataladi».

Mazkur ta'rif, albatta, morfemaning barcha turlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, A.Abdualizov (eslatib o'tilgan darslikning morfologiya bo'limi muallifi) morfemalarning har bir ko'rinishi *morf* deb atalishi va uning fonemalar kompleksi bilan, ba'zan esa yagona fonema bilan ifodalanishi mumkinligi, morflarning yig'indisi morfemani tashkil etishi haqida ham atroflicha so'z yuritiladi. Shu bilan birga, har bir morf boshqa morfga nisbatan qo'shimcha distributsiyada turishi, bir pozitsiyada (qurshovda) ishlatilishi mumkin bo'lgan morflar *allomorflar*, ya'ni morfemaning variantlari ekanligi xususida ilmiy asosli fikr beriladi. Olim nol morfema haqida ham yetarlicha ma'lumot keltiradi. Biroq A.Abdualizov yordamchi so'z qolipidagi morfemalar haqida fikr bildirmaydi. Bundan tashqari, olimning quyidagi mulohazasi, bizningcha, izohtalabdir: «... bir so'z sostaviga boshqa so'zlarni kiritish mumkin emas, biroq bir morfema ichiga boshqa morfemani kiritish mumkin».

A. Abdualizov bu o'rinda L.S.Barxudarovga havola berib, misol tariqasida *ishq-i-boz* so'zini keltiradi. Nazarimizda, ayni paytda qandaydir fikr g'alizligiga yo'l qo'yilganga o'xshaydi. Agar *i* infiksini ham morfema deb hisoblaydigan bo'lsak, u holda pog'onali munosabat qoidasi buzilmaydi. Bordiyu, uni bir morfema ichiga kiritilayotgan ikkinchi morfema sifatida tushunsak, pog'onalik qoidasi buziladi.

Ko'p tadqiqotlarda morfemaning grammatik ma'no ifodalashiga urg'u beriladi. Bizningcha, bu masalaning bir tomonini tashkil etadi. O'zak morfema ham mavjud ekan, leksik ma'noni ham kun tartibiga kiritishga to'g'ri keladi. Bu haqda aytilgan A.Hojiyevning quyidagi fikri asoslidir: «O'zak ifodalaydigan ma'no so'zga xos leksik ma'noning yadrosini tashkil etadi». Darhaqiqat, aksariyat so'zlarning (masalan, suvchi, traktorchi) o'zak qismlari so'zga tengdir. Lekin ularni, ma'noli qismlarga bo'linmasligini hisobga olib, morfema deb atash mumkin. Ayni paytda, albatta, nol morfemani e'tibordan soqit qilmoqdamiz.

Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o'zbek tili» deb nomlanuvchi darsligida ham morfemalar haqida mukammal ma'lumot berilgan. Darslikda morfema til qurilishining grammatik ma'no ifodalaydigan eng kichik segment birligi deb ta'riflanadi. Morfemaning ma'no ifodalaydigan eng kichik segment birlik ekanligini Sh.Rahmatullayev to'g'ri ta'kidlamogda. Ammo morfema ta'rifining berilishida bu o'rinda nimadir yetishmayotgandek ko'rinadi. Boshqacha aytganda, ayni paytda o'zak morfema tushunchasi e'tibordan soqit qilinmogda.

Sh.Rahmatullayev: «Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma'no ifodalovchi birlik ekani ta'rifga kiritilishi lozim. Shunda «lug'aviy morfema», «o'zak morfema» tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi», – deb yozadi. Albatta, olimning mazkur fikri morfema tushunchasini hozirgacha amalda bo'lgan izohtalab masalalar qurshovidan ozod qilish va uni imkon qadar soddaroq holda talqin etish maqsadida aytilganligi shubhasizdir. Biroq, nazarimizda, o'zak morfema tushunchasidan voz kechish qiyin ko'rinadi. Sh.Rahmatullayevning o'zi ham darslikda «leksik tabiatli morfema» tushunchasidan foydalangan. Morfemaning leksik tabiatli bo'lishi, bizningcha, o'zak morfemalarga xos tushunchani taqozo etadi. Bundan tashqari, biz ko'rinishi so'z shaklida bo'lgan bog'lovchi, ko'makchi kabilarni ham o'zak morfemalar jumlasiga kiritmoqdamiz. Yuqoridagilardan tashqari, eslatib o'tilgan darslikda leksema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub birlik ekanligi, morfema esa til qurilishining morfemalar bosqichiga mansub birlik ekanligi alohida ta'kidlanadi. Ayni paytda leksemaning til qurilishining lug'at bosqichiga (tarkibiga) tegishli birlik ekanligi haqidagi fikr bilan to'liq qo'shilish mumkin. Lekin bunda morfemalardan holi leksemalarnigina emas, balki yasama so'zlarni ham nazarda tutmog'imiz lozim bo'ladi.

A.Hojiyevning to'g'ri ta'kidlashicha, morfema, affiks yoki so'z shaklida kelishidan qat'i nazar, so'z birikmasi yoki gapning sintaktik vazifa olishi uchun ham xizmat qilishi mumkin: *U brezent yopqichli mashina yonidan yer o'lchaydigan apparatning uch oyog'i chiqib turibdi*

(S.Ahmad). ...bir ikki kundan keyin Yozyovon masalasida katta yig'in bo'lishi kerakligini angladi (S.Ahmad).

Keltirilgan misollarning birinchisida *-li* affiksi ot birikmaga qo'shib (brezent yopqichli), uni sifatlovchi birikmaga aylantirayotgan bo'lsa, ikkinchisida *katta yig'in bo'lishi kerak* tarzidagi gapga teng qurilma *-lik* affiksi ta'sirida gap bo'lagi vazifasini olmoqda. Biroq affiks morfemaning (umuman, morfemalarning) nutq birligi tarzida talqin etilishi hollari ham kuzatilmoqda. Masalan, Y.Tojiyev bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: «...bosh morfemaga nisbatan, umuman affiks emas, balki aniq ma'no va vazifa bajaruvchi ergash morfema sifatida ishtirok etadi, shu maqomga ega bo'ladi. Demak, u umuman affiks sifatida til birligiga kiradi, falon ma'nodagi fe'l yasashi, falon ma'nodagi bosh morfemaga qo'shib kelayotganiga ko'ra nutq birligi ham hisoblanadi».

Y.Tojiyev ayni paytda *-la* affiksi bilan misol keltiradi. Mazkur affiks til birligi sifatida – asosan fe'l yasovchi va shakl hosil qiluvchi affiks sifatida mavjud. Shuningdek, u *pichoqla* so'zida boshqa ma'noda qo'llansa, *quchoqla* yoki *qatiqla* kabi yasalmalarda boshqa ma'nolarda qo'llanadi. Ana shu imkoniyatning o'zini namoyon etishi bilan u nutq birligi hamdir.

Y.Tojiyev morfemaning, xususan, affiks morfemaning lingvistik tabiatini mukammal yoritib bera olgan. Morfemaning til birligi ekanligini to'g'ri qayd etgan va shu bilan birga, affiks morfemalar ba'zi yasama so'zlarni hosil qilishda nutq birligini taqozo etish imkoniyatiga ham ega ekanligini alohida ta'kidlagan. Eng muhimi, olimning mulohazalarida ba'zi munozarali o'rinlar bo'lishiga qaramasdan, ayni paytda til bilan nutq hodisalari farqlab o'rganilgan.

Grammatik ma'no ifodalovchi, predlog, ko'makchi, bog'lovchi, yordamchi fe'l kabi o'zak morfema qolipida keluvchi elementlar ham borki, ular so'zlar (qo'shma gap tarkibida uning komponentlari) o'rtasida grammatik munosabat o'rnatishda faol qatnashadi. Mazkur elementlar ham morfemalardir, biroq ular faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

<sup>1</sup> Кузьмина Р.В. Омонимизация как результат аббревиации // Известия высших учебных заведений. Серия «Гуманитарные науки» (Научный журнал). Том 2 (2011). Вып. 3. Иваново: ФГБОУ ВПО «ИГХТУ», 2011. – С. 216.

<sup>2</sup> *Wells J.C.* Longman pronunciation dictionary; ed. 3. - London: Pearson Education Ltd., 2005. - 870 p. (Longman Pronunciation Dictionary by J.Wells, 3 изд., 2005)

<sup>3</sup> Macmillan English dictionary for advanced learners. - Macmillan, 2002, 2007.

## TIJORAT HUJJATLARI TILI VA UNING LEKSIKASI

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat hujjatlari tilining lingvistik xususiyatlari tadqiq qilindi. Bugungi yangilanib borayotgan O'zbekiston sharoitida tijorat sohasiga katta e'tibor berilayotgani tijorat hujjatlari tilining yangi terminlar bilan boyib uslubiy jihatdan konkretlashayotgani tijorat hujjatlari tili va uning lingvistikasini chuqur tadqiq e'tilish zaruratini yuzaga keltiradi. Yangi O'zbekistonda iqtisodiyot mexanizmlarini qayta qurish, korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar, firmalarning tashqi bozorlarga keng chiqishi, xorijiy sheriklar bilan birgalikda ishlab chiqarish va tijorat faoliyati olib borilishi - bularning barchasi til materialini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

**Kalit so'zlar:** lingvistika, iqtisodiyot mexanizmlari, lingvopragmatika, globallashuv, postindustrial jamiyat, funksional, nutqiy shtamlar.

Ma'lumki, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va ishlab chiqarish hajmining ortishi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarning kengayishi, ichki bozorda talabning ortishi bilan tijorat hujjatlari tiliga qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda.

Jamiyat hayotidagi bu jarayonlarning kuchayishi tijorat hujjatlarining ijtimoiy rolini, uning tuzilishi umumiy va o'ziga xos lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganishga mutaxassislarning e'tibori ortib bormoqda. Axborot globallashuvi va postindustrial jamiyatning shakllanishi sharoitida tijorat hujjatlari tilini lingvistik tadqiq qilish, o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslikni boyitish, balki savdo jarayonlarini tegishli tijorat hujjatlar bilan ta'minlash mezonlari asosiy o'ringa chiqmoqda. Bu jihatdan tijorat hujjatlari tilini funksional uslub doirasida o'rganish ishni samarali kechishini ta'minaydi.

Ma'lumki, har qanday funksional uslub jamiyatdagi ilmiy texnika hamda fan taraqqiyotining rivoji bilan turli xil bo'lishi mumkin. Garchi bu funksional uslublar ma'lum bir adabiy til doirasida ish ko'rishiga qaramay adabiy tilda mavjud barcha til vositalarini o'zida aks ettirishi imkonsiz. Bir funksional uslub til vositalarini ba'zi tomonlarini ifoda etishi va ba'zi tomonlarini umumman ifoda etmasligi ham mumkin. Shunga ko'ra har qanday funksional uslub ma'lum bir maqsad va vazifaga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, publisistik uslubni olaylik uning maqsad vazifasi shundaki, u davrning eng muhim va dolzarb masalalarini auditoriya ongiga singdirish ularning muayyan voqea hodisaga nisbatan ijtimoiy qarashlarini shakllantirishdir.

U bu vazifani Ommaviy axborot vositalari hamda keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum bir rasmiy sahifalar orqali yozma va og'zaki adabiy nutq formasida amalga oshiradi. Shu faktorlar natijasida yaxlit publisistik uslub shakllanadi hamda adabiy til fonida boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Badiiy uslubning maqsad va vazifasi esa o'quvchiga estetik emotsional ta'sir qilish, hayot voqeliklarini badiiy bo'yoqdorlikda yorqin ifoda etishdan iborat. Bu uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, asarning estetik ta'sirini oshirish uchun tilning barcha leksik va gramatik vositalaridan unumli foydalanadi. Bu funksional uslubda boshqa uslublar elementidan bimalol foydalanish mumkin. Shu xususiyati bilan ham badiiy uslub keng leksik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga bugungi kunda umumiste'moldan chiqib ketgan so'zlardan ham personajlar tilida foydalanadi.

Shunga ko'ra barcha uslublar bir-biridan til vositalarini ishlatish yuzasidan farq qiladi.

Tijorat hujjatlari tili ham rasmiy ish uslubining asosi sifatida leksik-semantik jihatdan qator xususiyatlarga ega. Ma'lumki tijorat hujjatlari tilining tushunarlilik, aniqlik, lo'ndalik, neytrallik, mantiqiy izchillik, rasmiylik xususiyatlari uning asosiy belgilari sanaladi. Bu jihatlar tijorat hujjatlari tilining leksik jihatdan so'z tanlash mezonini belgilabgina qolmay, badiiy bo'yoqdorlik, estetik ta'si ko'rsatish, litota, allegoriya jonlantirish, mubolag'a, argo, jargon va shevaga va turli hududlargagina xos bo'lgan so'zlarni qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu kabi unsurlarni qo'llash juda katta stilistik xatolik bilan birga tijorat hujjatlari tiliga xos bo'lgan

neytrallik, aniqlik, loʻndalik kabi xususiyatlariga putur yetqazadi. Tijorat hujjatlari tili rasmiy uslubga xos barcha xususiyatlarni oʻz ichiga olganligi bilan ham alohida xarakterga ega. Shuni unutmash kerakki, tijorat hujjatlari tili adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xosligi, qatʼiy odat tusiga kirib qolgan shakllarga egaligi bilan ham farqlanadi.

Tijorat hujjatlari tili leksikasi ijodiy yondashuvlardan xoli boʻlgan yaxlit til birligi sifatida “sovuqqon ifodaga “ega yozma nutqdir. Tijorat hujjatlari tilida tayyor nutq qurilmalari (*shu asosda: shunga koʻra; maʼlum qilamizki; ni eʼtiborga olib; ga koʻra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar...ga asosan (muvofiq); ...uchun, dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin kabi*) qoliplashgan soʻzlar va soʻz birikmalari keng qoʻllaniladi. Modomiki, tijorat hujjatlari tili rasmiy uslub xususiyatlarini oʻzida toʻliq namoyon qilar ekan, avvalo rasmiy uslub va uning ifoda yoʻsini haqida alohida toʻxtalib oʻtish joiz. Muhiddinova X. ning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” kitobida rasmiy uslub haqida quydagicha toʻxtalib oʻtiladi:

Boshqa fundamental uslublardan farqli ravishda rasmiy idoraviy uslubda darak gaplardan keng foydalanilsa, qaror, buyruq, koʻrsatma kabilarda buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslub gramatik jihatdan ilmiy uslubga yaqin turadi. Maʼlumki oʻzbek tilida gapda soʻzlarning yaʼni soʻz boʻlaklarining odatdagi tartibi mavjud boʻlib unga koʻra ega kesimdan oldin, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin, toʻldiruvchi va hol kesimdan oldin, kesim esa gapning oxirida joylashadi.<sup>1</sup>

Rasmiy uslubning tijorat hujjatlari tilida bu tartib qatʼiy saqlanadi. Rasmiy yozishma va hujjatlar tilining qoʻllanish doirasi keng va xilma-xil boʻlganligidan, uning tarkibi ham turlichadir.

Ular leksik-fraziologik va gramatik vositalarni tanlash hamda ishlatish jihatidan bir-biridan qisman farqlanadi. Ammo bu hujjatlarda yagona rasmiy uslub uchun xarakterli boʻlgan umumiy xususiyatlar mavjud. Misol uchun, qaror va bayonnomalar tilida taʼkidlov qismi bilan qaror qiluv qismlarini oʻrnini alamshtirish imkonsiz. Bayon qilingan fikrning izchillik bilan uzviy bogʻlangan boʻlishiga alohida eʼtibor qilinadi<sup>2</sup>.

Idoraviy yozishmalarga oid qogʻozlar, maʼlumotnoma, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnomalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Shuni eʼtiborga olish joizki, tildagi muayyan nutqiy shtamplar, qatʼiy odat tusiga kirib qolgan shakllar, idoraviy yozishmalarga oid hujjatlar sanaladi.

Nutqiy shtamplar matnga rasmiylik boʻyogʻdorlik bilan birga jiddiylik ruhiyatini beradi. Bu kabi matnlar sintaktik qurilishning murakkabligi bilan alohida farqlanadi. Shuni ham inobatga olish joizki, oʻzbek adabiy tilida rasmiy uslub rus tili taʼsirida takomillashgan, ishlatish doirasi kengaygan hamda lugʻat tarkibi yangi soʻz va terminlar bilan boyigan.

Tijorat hujjatlari tiliga qoʻyilgan aniqlik, neytrallik, rasmiylik kabi talablarni bajarishda terminlarni oʻrni katta. Xususan tovarning tannarxi, sifat va miqdoriy xarakteristikasi hamda qator tijoriy maʼlumotlarni aniq ifoda etishda faol ishtirok etadi.

Shuni inobatga olgan holda bizning nazarimizda tijorat hujjatlari tili leksikasini quydagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq boʻladi:

1. Terminlar;
2. Oʻzlashgan leksika;
3. Umumisteʼmoldagi leksika;
4. Froziologik leksika.

Biz bu guruhlashtirishda terminlarni birinchi oʻringa qoʻydik, negaki tijorat hujjatlari tilining ekstralingvistik xususiyatlaridan biri ham aynan neytrallik. Bu xususiyat tijorat hujjatlari tilida boʻyoqdor, soʻzlashuv va badiiy uslub elementlaridan foydalanmaslik, barcha funksional uslublarda umumiy boʻlgan soʻzlarni qoʻllashni talab etadi. Bu xususiyatlarni umumiy ifoda etishda terminlar ayni mudao. Shu sababdan ham tijorat hujjatlari tilida terminlardan keng foydalaniladi. Ammo terminlar ham tilning boshqa birliklari singari dinamikdir ular doim ham turgʻun boʻlavermaydi. Tilning mavjud qarama – qarshiligi taʼsiriga tushadi. Ekstralingvistik omillar asosida ayrim terminologik birliklar oʻzgaradi, isteʼmoldan chiqadi va oʻrniga yangi

<sup>1</sup> Muhiddinova X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqtuvchi, 2006.-B.197.

<sup>2</sup> Oʻsha manba

terminlar qabul qilinadi. Bu xususida tadqiqotchi B. N. Golovin hamda R.N. Kobrina o‘z tadqiqotida “terminologik portlash”<sup>1</sup> deb ta’rif bergan.

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Muhiddinova X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qtuvchi.
2. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. –Москва, 1987.
3. Ko‘chimov S.N.O‘zbekiston Respublikasi qonunlarinig tili Toshkent, 1997
4. Ko‘chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muommalari. Toshkent, 2004.

*M.M.Ergasheva,  
SamDCHTI magistratura talabasi*

## **THE ETYMOLOGICAL INFORMATION ON PHRASEOLOGICAL UNITS WITH PROPER NAME**

**Abstract.** In linguistics the recent period is characterized by the rapid development of the linguistics of the text and vocabulary, as a result of which the “intra-linguistic typology of the text” is gaining more and more effective study along with the development of such a theoretical direction as a system-level analysis of the language.

**Key words:** proper name, onomastics, phraseological unit, typology semantics, cultural specific, extra-linguistic, intra-linguistic.

In actuality, each country has unique phraseological tools that provide them a distinct choice. The language used in phraseological units can convey the history, culture, and way of life of any state. They are figurative and expansive linguistic tools that most effectively capture human-made images. The phraseological units give the language its uniqueness and specialness; they include distinctive symbols and associative connections that are fixed in the minds of native speakers because they are no longer produced during speech but rather used in it in a prepared form. The phraseological units visually represent the way of existence, geographical role, records, traditions of this or that network united with the aid of one culture. The set of phraseological devices images those subjects and phenomena which a person frequently faced in his existence, namely those which precipitated special emotions and feelings. Phraseological combos consist especially of word combinations, in different words, phraseologies are a separate unit of language and it includes figurative, fixed phrases that are structurally equivalent to a unfastened link or sentence, completely or partially semantically reconstructed. Most of the phraseologies have been created by using the humans in both English and different languages, their authors are unknown and their assets are now not clean. In this experience, the phraseologist A.V.Kunin justified opinions that the writer of most English phraseologies is unknown and that they have been created via the people. However, the origins of a few phraseological gadgets can be traced. In this experience, phraseology is a microsystem that is element of the well known device of language, and this device displays the historical past and values of the beyond, passed down from era to generation [4 – 156].

Many of the phraseological devices that make up a gadget are a supply of enrichment for a precise language. Phraseological gadget consists of phraseological devices, the relationship among their main components. Phraseologisms are connections of words that consist of more than one word and are stable in that means and shape. Phraseologisms are used in a figurative sense, in figurative expressions, and have norms and strategies of ancient use, the meaning of that is clarified in a specific speech process. Phraseologisms are unique from sentences which are a unit of speech whilst they're in the form of a word or a sentence. As a lexical unit, they are in lots of approaches near to phrases, and many of the characteristics of phrases are also function of phrasing. There are extraordinary hypotheses in defining the

---

<sup>1</sup> Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. –Москва, 1987.– С 235.

object of phrasing. The object of phrasing consists handiest of stable mixtures. Phraseology is described as the study of the religious and structural properties of phraseological devices, their appearance in the language machine, and the properties in their use at a point. Although the term "phrasing" is derived from the Greek word "frama" (phraseos), it is used to mean various things. For this cause, the time period phraseology is used in linguistics in senses: inside the trendy experience of the existing phraseological gadgets inside the language, and within the experience of the area that research such units. So phrasing is the technological know-how of expressions. Like other branche of linguistics, phrasing has its stages of formation and development. Although phrasing may be very historic in beginning, the science of phraseology spans nearly hundred years. The founder of the technology of phrasing is the Swiss scientist Charles Bally. In his paintings French Stylistics, he covered special chapters on the study of word combos. Ferdinand de Saussure, alternatively, expressed his perspectives on syntagma and its functions. He said that there are equipped-made units in a language whose linguistic nature is due to their that means and syntactic houses, such mixtures are used ready-made, historically [ 6– 942].

Phraseology is one of the fastest developing fields in the similarly improvement of linguistics. While phraseology has been studied in Russian and English linguistics for a long time. The resources of the starting place of phraseological mixtures in English are very unique. Itis expedient to examine the starting place of phraseological combos in English into 3 essential agencies:

1. Old phraseological mixtures in English;
2. Phraseological mixtures discovered from different languages;
3. Phraseological combos derived from the American model of English.

The author of maximum of the phraseological combinations in English are nonetheless unknown to technological know-how [5 – 739]. This problem is particularly obvious in this which might be considered to be a kind of solid mixture. Phraseological mixtures in all languages, mainly in English, are also people artwork that reflects the wisdom and linguistic taste of the kingdom. Many phraseological units reflect the traditions, customs and beliefs of the English people, ancient truths and facts of English history that we recognize and do no longer know. The roots of many phraseological units go back to expert verbal exchange. The primary source of phraseological combinations is the alternate of their meanings of interconnected phrases. Many English phraseologies are derived from works of art work and numerous literary resources. According to, the wide variety of phraseological combos in English, after the literary resources, the primary place is occupied by way of the Bible, and the second one region is occupied through phraseology from Shakespeare’s works. The works of writers, kids’ poetry, fairy tales, caricatures are also the supply of phraseology. V.V.Vinogradov classifies phraseology into 3 instructions: phraseological fusions, phraseological gadgets, phraseological collocations or combos. Phraseological fusion-components are phraseologies that are not related to the meaning of the whole unit. Phraseological units are made up of phrases which have a specific valence. One issue of such phraseological devices is used in its literal feel, the rest in a metaphorical sense. Phraseological units are, to a positive extent, semantically indivisible. For example: heavy father –the primary role inside the play; to kick the bucket–to die. Phraseologisms such as the bureaucratic technique are idioms that have the identical meaning as a whole. Phraseological functions a totally special meaning of a phrase. But not like phraseological combinations, their meanings aren't understood from the meanings in their additives. Words and phrases from the Bible are extensively utilized in Stoffen’s Studies in English, Written and Spoken. In the chapter “Scriptural terms and Allusions in Modern”, the student studied biblical phrases and their etymology and made a scientific evaluation [1 – 258].

The observe of biblicalism in Western linguistics is additionally related with the name of L.P.Smith. He studied the Bible terms in his e book, Phraseology of the English Language. The author writes, “The quantity of biblical terms and expressions in English is so high-quality that it isn't always an easy task to collect and listing them” L.P.Smith argues that English carries

no longer best some of biblical phrases, but additionally biblical idiomatic expressions that represent a literal translation of ancient Hebrew and Greek idioms. As a result of the evaluation, the following are examples of phraseological mixtures with meals additives related to the Bible: Adam's apple –a pair of apples; The apple of Sodom –a stunning but clean fruit; Milk and honey –abundance; Manna from heaven –waiting anxiously; A forbidden fruit –a forbidden wet fruit Biblical Phraseologies English food factor phraseologies consist of food names including apple, bread, milk, fatand olive [2 – 126].

In conclusion, place names in English also have phraseological units attached to them. The examination of place names is now regarded to be a subject not just of linguistics but also of geography and history. Examining linguoculturalism in the context of phraseologies that include area names in order to highlight their national and cultural elements is one of the current concerns in modern linguistics. The following units are examples of region names: -flattering - having kissed the Blarney stone. According to English mythology, a person who kisses a large stone in front of Blair's castle in Ireland will have the flaws of flattery and idleness; they will pass for a Burton and die or turn, to turn a blind eye, to vanish with out a trace. Barton is a small beer-producing metropolis in Staffordshire. The word became first used via British pilots to commemorate their comrades-in-arms who died in World War II. L.P. Smith argues that English contains not most effective a massive number of biblical phrases, however additionally biblical idiomatic expressions that represent a literal translation of the historical Hebrew and Greek idioms. For instance, Adam's apple –a phraseological unit with a food component –interprets as “to add”, “to swallow an apple”. George entered the office of the property brober, a little bold, old man with a thin neck and prominent Adam's apple. A forbidden fruit is a forbidden moist fruit-It is particularly ironic that many locations which need water maximum seriously have herge reserves their the front yard California and Texas for instance. Yet the salt in the seawater makes it a forbidden fruit. The Bible is the principle supply for a lot of meals-associated phraseologies in the Bible. Phraseological fusions are phraseologies in which the meanings of the components are not related to the that means of the entire unit. For example, heavy father –the principle position in a theatrical play, to kick the bucket –to die, red tape –the which means of bureaucratic techniques are phraseologies that give a unmarried that means that does not depend on the which means of the words in it. When words are combined for phraseological purposes, their original meaning is completely changed. However, unlike phraseological combinations, their meanings cannot be inferred from those of their individual parts, rendering metaphor-based completely semantic transitions unintelligible. Examples are the expressions to dance attention someone (to try to attract someone, to expose exaggerated attention), to display the white feather (to betray one's fear), and to leave someone in lurch (to abandon a friend while he is in trouble).

#### **List of used literature**

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Слово, 1963. -258 с.
2. Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте (на материале английского и русского языков). – Казань: ЛГУ, 2006. – 126 с.
3. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Просвещение, 1978. – 178 с.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2-е изд. перераб. – Москва: Высшая школа, 1996. – 156 с.
5. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. -Изд. 3-е, испр., в двух книгах. -М.: СЭ, 1967. – Т.1.- 738с.; Т.2. – 739 - 1264 с. (АРФС)
6. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 4-е, переработанное и дополненное. - М.: Русский язык, 1984. – 942 с. (АРФС)

## **O'ZBEK TILIDA IKKI NUQTA BELGISINING PRAGMATIK XUSUSIYATI**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ikki nuqta belgisining o'zbek yozuvida qachondan ishlatilganligi, shunigdek qanday nomlar bilan aytilishi, matn va gap tarkibida qo'llanilishi haqida so'z boradi. Unda avtor gapi o'zga nutqdan oldin kelsa, undan so'ng ikki nuqta qo'yilishi, sitata avtor gapi ichida kelsa, uning qis- mi hisoblansa, avtor gapidan so'ng ikki nuqta qo'yilmasligi ta'kidlangan.

**Kalit so'z:** ikki nuqta, punktuatsiya, umumlashtiruvchi so'z, uyushiq bo'lak, yo'g'on ichak, yo'g'on nuqta.

Yozma nutq kishilik jamiyati hayotida katta ahamiyatga egadir. U hozirgi bosqichda uch qism birligidan iborat: grafika, orfografiya, punktuatsiya. Demak, punktuatsiya, ham jamiyat hayotida va taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.[1] Shunga ko'ra punktuatsiyani katta bir sistema(oqim) deydigan bo'lsak ikki nuqta(:) uning kichik bir tarmog'i( bo'lagi) hisoblanadi.

Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan etiboran ishlatila boshlangan. Ikki nuqta (:) qo'sh nuqta. Bu sharh , izoh belgisidir. Ikki nuqta o'zbek tilshunosligida “ bayon belgisi”, “ bayon alomati” deb ham yuritiladi. [4]

Ma'lumki, qadimgi yunon faylasufi Platon ba'zan kitobning butun bo'limlarini ikki nuqta bilan tugatgan. Yo'g'on ichak qisqartma belgisi sifatida, odatda, eski Evropa yozuvlariga xos edi (rus tilida bu 19-asrning o'rtalarigacha bo'lgan). Zamonaviy tillar orasida yo'g'on ichakning bu funksiyasi shved va fin tillarida, hatto so'zning o'rtasida ham saqlanib qolgan: H:ki (Xelsinki).[2]

Bu tinish belgisi gap ichiga qo'yiladi. Ikki nuqta gapning o'zaro bog'lanishi yoki bir-biridan farq qilishi mumkin bo'lgan qismlar orasiga qo'yiladi. Bunday belgini oddiy gaplarda ham, murakkab gaplarda ham uchratish mumkin. Yo'g'on nuqta o'quvchi e'tiborini keyingi narsalarga qaratadi. [3]

Odatda, ikki nuqta sanab o'tish oldidan qo'yiladi, ya'ni “umumlashtiruvchi” tushuncha mavjud . Yaxshiroq tushunish uchun “Partada o'quv qurollari bor edi: kitob, daftar, qalam v.h.k”. Ushbu holatda “o'quv qurollari” so'zi umumlashtiriladi. Agar ma'lum bir qoidani inobatga olsak, umumlashtiruvchi so'z yo'q lekin sanab o'tish mavjud - Toshkanddan nimalar keltiradingiz, bek aka?

--Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va bir oz qozon.(“O'tgan kunlar”)

Murakkab gaplardagi ikki nuqta sodda gaplardan biri ikkinchisini tushuntirishini talab qilganda qo'llaniladi. Misol tariqasida:

--Salomat bo'lingiz, - dedi Rahmat, - shuni ham sizdan so'rayin: o'lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz?(“O'tgan kunlar”)

Agar inshoga biron bir matndan iqtibos kiritishingiz kerak bo'lsa, avval ikki nuqta, keyin esa qo'shtirnoq qo'yishingiz kerak [3]

“Masalan”, “darvoqe” kabi so'zlar o'zlaridan keyin ikki nuqta qo'yishni talab qiladi.

Ko'chirma gapdan oldin qo'llangan muallif gapidan so'ng.[5]

Otabek buni sezdi va o'zining so'zini kulgulikka olib izoh berdi: -Kelgan kunimda Marg'iloningizni xushlamay boshlag'an edim.

--Otam tag'in qulliq qilg'anida jallodga buyurar: “ qo'lingdag'ini bo'shatib, o'rniga hojini olib chiq!”

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko'rsatish uchun. [5]

--buning uchun sizga bir misol kelturay, bu ish yaqin oralardag'ina bo'ldi: Toshkanddagi jum'alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar...(“O'tgan kunlar”).

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki: ikki nuqta ustma -ust qo‘yiladigan ikki nuqtadan (:) iborat. Asosan uyushiq bo‘laklar oldidan qo‘llanadigan umumlashtiruvchi bo‘lakdan so‘ng, bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajratish uchun, ko‘chirma gapdan oldin qo‘llangan muallif gapidan so‘ng qo‘yiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.– Ижевск, 2004 г. ва б.
7. Чўлпон шеърининг тилини белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2020.- №4.- Б.26-33.
8. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2015.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.

*N.M.Rasulov, O‘zMU o‘qituvchisi*  
*S.J.Nurmatova, O‘zMU talabasi*

#### **-mi SO‘ROQ YUKLAMASINING O‘ZBEK TILIDA ISHLATILISH O‘RNI**

**Annotatsiya.** Maqolada yordamchi so‘zlarning bir turi hisoblangan yuklamalar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. So‘roq-taajjub yuklamalaridan -mi haqida to‘xtalib, ilmiy va badiiy asarlar orqali qiyosan tahlil qilingan. Ishlatilish o‘rni haqida bir to‘xtamga kelishga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *yordamchi so‘zlar, yuklamalar, tasnif, so‘roq-taajjub yuklamalari.*

So‘zlar gapda bajaradigan sintaktik vazifasi, lug‘aviy ma’nolari hamda morfologik belgilariga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi turli guruhlariga bo‘linadi. So‘zlarning lug‘aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko‘ra bunday guruhlariga bo‘linishi so‘z turkumlari deyiladi. So‘z turkumlarini tasnif qilish, ya’ni o‘xshash va farqli jihatdan guruhlariga ajratish qadimdan amalga oshirilgan. Xususan, yordamchi so‘zlar guruhi dastlabki morfologik tasnifdan o‘rin olgan edi va hozirgacha ham ushbu sinfni alohida bo‘lim sifatida o‘rganamiz. Ma’lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo‘linadi: mustaqil so‘z va yordamchi so‘z. Ular orasidagi zidlanishni «ma’noviy va vazifaviy nomustaqillik» tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko‘ra yordamchi so‘z belgisi, mustaqil so‘z esa belgisiz a’zo mavqei egallaydi. Yordamchi so‘z hech qachon mustaqil qo‘llanmaydi, bog‘liq qurshovdagina kela oladi. Mustaqil so‘z esa mustaqil qo‘llanilish va ma’no ifodalash qobiliyatiga ega.<sup>1</sup> Yordamchi so‘zlar uch guruhga bo‘linadi: bog‘lovchi, ko‘makchi hamda yuklamalar. Yordamchi so‘zlar so‘roqqa javob bo‘lmaslik, gap bo‘lagi bo‘lib kela olmaslik, atash ma’noga ega emaslik kabi belgilar bilan xarakterlanadi. Binobarin, yuklamalar ham yuqoridagi belgilar bilan birgalikda so‘zni so‘zga bog‘lamaslik, gap bo‘lagini shakllantirmaslik, so‘z yoki gaplarga qo‘shimcha ma’no “yuklash” kabi xususiyatlarga ham ega. -mi so‘roq yuklamasi gaplarga so‘roq ma’nosini yuklaydi hamda tinglovchidan “ha” yoki “yo‘q” javobini talab qiladi. Ko‘pincha

<sup>1</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 396-bet.

dialogik nutqlarda uchraydi. -mi so'rov belgisidir.<sup>1</sup> Bunday gaplarda savol ikkinchi yoki uchinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. So'roq yuklamasi: -mi, -chi, -a, -ya, nahotki. Bu yuklamalar turli so'z turkumiga qo'shib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan so'roq ma'nosidan tashqari taajjub, hayrat ma'nosini ham ifodalaydi. -mi yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi.

Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi,  
Suyganingiz bizlardan ham ortiqmidi?<sup>2</sup>

So'roq yuklamasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlaridan biri sanalgan so'roq gaplarni hosil qiluvchi vosita, qo'shimcha ko'rinishiga ega bo'lgan yuklama hisoblanadi. Badiiy adabiyotda dialogik, ba'zan monologik nutq jarayonida qo'llaniladi:

Bobo ko'rishib, qayta-qayta so'rashdi:

-Omonmisan, omonmisan, o'g'lim;

-Ha, yuribmiz sahroda, -javob beradi otam qisqagina.<sup>3</sup>

Mumtoz adabiyotning asosiy tasvir vositalaridan bo'lgan tajohuli orifona(bilib bilmaslikka olish) san'ati ham -mi yuklamasi orqali namoyon bo'ladi. Atoyining «Mengiz yo ravzayi rizvonmidir bu?» misrasi bilan boshlanadigan g'azali boshdan oyoq shu san'at asosida qurilgan. Bunda shoir malaksiymo qizning chiroyidan hayratga tushadi. U shu qadar barkamolki, undagi fazilatlar sanalgan va ularga e'tibor qaratilgan sari oshiqning muhabbati kuchayib boraveradi. Ma'shuqaning yuzi (mengiz) jannat bog'ini esga tushirsa, og'zi «g'unchayi xandon»ni yodga soladi. Qora ko'zlari qaroqchini, chiroyi esa Turkiston parisini xotirga keltiradi:

Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur:

“Ajab, ayyori Turkistonmidir bu?”<sup>4</sup> Oshiq mashuqasining shu qadar go'zalligini bilsa-da, uning chiroyini yana ham mubolag'ali qilib tasvirlash uchun o'zini “bilib bilmaslikka oladi”.

-mi so'roq yuklamasining ishlatilish o'rni ham bahs-munozarali hodisa bo'lib kelmoqda. Sababi, ba'zi badiiy asarlarda uning to'liqsiz fe'llar bilan birikish o'rni har xildir: Mulla Fazliddin Xonzodabegimning nomini tilga olishga qo'rqdi.

-Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

-Sandig'ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdimi?

-Surat o'zi bo'lmasa neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarxini chizish bilan bandmen. Suratlashlikka vaqtim yo'q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.<sup>5</sup> “Yulduzli tunlar” asaridan olingan ushbu parchada -mi yuklamasi to'liqsiz fe'ldan oldin kelgan.

Ali tushirgan taxtasini qaytadan joyiga qo'yabermi:

-Dunyoning ishi bitar emishmi, bek aka. Xo'p desangiz do'konni yopaman.

Otabek yarqirab chiqib kelgan quyoshg'a qaradi:

-Yoping bo'lmasa,- dedi.<sup>6</sup> “O'tkan kunlar” asarida esa, “-mi”ning to'liqsiz fe'ldan keyin kelganini ko'rish mumkin. XIX-XX asr adabiyotlarida “bo'libmi edi”, “qilibmi edi” singari jumlalarga ham duch kelish mumkin. Ba'zi asarlarda ikki so'roq yuklamasining bir o'rinda kelib, ma'no kuchayishiga xizmat qilganini anglash mumkin: -Qordan kafan kiygaymizmi-a? -dedi ikkinchi navkar.

-Hidukush deb bejiz aytmas ekanlar! Bu tog' odamkush toqqa o'xshaydir!

Bobur bu navkarlarni ovozidan tanib, ularning oldiga keldi.

-Mirzoquli, niyatni yaxshi qilinglar! Xudo xohlasa, bu qor qamalidan eson-omon chiqib ketgaymiz. Mamatbek, kuraklaring bormi?

-Bor!- deb Tohirning samarqandlik do'sti Mamat otining egariga tang'ib bog'langan kurakni Boburga olib berdi.<sup>7</sup>

<sup>1</sup> A. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Ma'naviyat”. 2009. 171-bet.

<sup>2</sup> Sayfullayeva.R.R, Mengliyev.B.R, Boqiyeva.G.H, Qurbonova.M.M, Yunusova.Z.Q, Abuzalova.M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 414-bet.

<sup>3</sup> Oybek. Bolalik. “Sharq”. Toshkent. 2004. 37-bet.

<sup>4</sup> @fayllar.org

<sup>5</sup> Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 8-bet.

<sup>6</sup> Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 155-bet.

<sup>7</sup> Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 184-bet.

Bugungi kunda -mi so'roq yuklamasining ishlatilish o'rni hamda beradigan ma'nolari ancha kengaygan hisoblanadi. Badiiy adabiyotda qofiyani ta'minlash, ta'kid, taajjub yoki so'roq ma'nolarini bo'rttirib ko'rsatish uchun to'liqsiz fe'lning har ikki tomonidan (bo'lgan edimi-bo'libmi edi), zamon shakllari hamda shaxs-son qo'shimchalaridan so'ng qo'llanilmoqda. Adabiy me'yor jihatdan esa, -mi yuklamasining to'liqsiz fe'llardan keyin, agar gapda to'liqsiz fe'l ishtirok etmasa, zamon hamda shaxs-son shakllaridan so'ng ishlatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 155-bet.
2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent. "Ma'naviyat". 2009. 171-bet.
3. Oybek. Bolalik. "Sharq". Toshkent. 2004. 37-bet.
4. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. www.ziyouz.com kutubxonasi. 184-bet.
5. Sayfullayeva.R.R, Mengliyev.B.R, Boqiyeva.G.H, Qurbonova.M.M, Yunusova.Z.Q, Abuzalova.M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2010. 414-bet.
6. Усмонова.М, Азларов.Е, Шарипов.Г, Узбек тили. Тошкент. "Укитувчи" 1981 142-бет
7. Shodmonov.E, Rafiyev.A, G'oyipov.S. O'zbek tili. Toshkent. "O'zbekiston". 1994.
8. Internet ma'lumotlari.

*B. Tuxtayeva, NDPI.*

### **KIRITMA VA QO'SHMA SO'ZLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

**Annotatsiya:** kiritmali sodda gaplar ergash gapli qo'shma gaplar bilan qorishtirilishi hamda sodda va qo'shma gap chegarasini aniqlash, ya'ni kiritmali sodda gaplarga bog'liq bo'lgan tomonini aniqlashga qaratilgan. Qo'shma gapning har bir komponenti o'z doirasida ma'lum bir fikrni ifodalaydigan holatlar misollarda ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** sodda gap komponenti, qo'shma gap komponenti, gap bo'lagi, kiritma sodda gap, ergash gapli qo'shma gap.

Sodda va qo'shma gaplarning chegarasi masalasi tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida hal qilinishi lozim bo'lgan muammoli masalalardan biridir. O'zbek tili sintaksisida sodda va qo'shma gaplar, ayniqsa, kiritma sodda gaplar bilan ergash gapli qo'shma gaplar bir-biri bilan aralastiriladi. Masalan, "Bilaman, siz buni yomon ko'rasiz" tipidagi gaplarni bir guruh tilshunoslar ergash gapli qo'shma gap desalar, ba'zilar kirish gapli qo'shma gap, ayrimlari kiritmali sodda gap deyishadi. Bundan ko'rinadiki, kiritmali sodda gaplar ergash gapli qo'shma gaplar bilan qorishtiriladi. Shuning uchun ham biz sodda va qo'shma gap chegarasini aniqlashning bir tomonini, ya'ni kiritmali sodda gaplarga bog'liq bo'lgan tomonini yoritishga harakat qildik.

O'zbek tili materialini o'rganish, to'plangan misollarni tahlil qilish bu ikki kategoriyani, ya'ni kiritmali sodda gaplar to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarning farqini aniqlashga yordam beradi. Bu farq qiyidagicha:

1. Qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapning mazmunini to'ldiradi yoki bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchilarni izohlab, ularning ekvivalenti bo'lib keladi. Qo'shma gapning har bir komponenti o'z doirasida ma'lum bir fikrni ifodalaydi. Ayrim-ayrim olganda o'z fikrlarni tugallangan deb bo'lmaydi, albatta. Komponentlardan anglashilgan fikrlar birlashib, qo'shma gap doirasida yaxlit bir nisbiy tugallangan fikrni bildiradi: *ko'ryapsizmi ular ishlayaptimi yoki yo'qmi?*

Kiritmali sodda gaplar tuzilishi jihatdan qo'shma gapga o'xshaydi, lekin mazmuni Grammatik xususiyatlari ularni qo'shma gap deyishga yo'l qo'ymaydi. Aniqki, kiritmalar so'zlovchi yoki yozuvchining voqelikka nisbatan munosabatini bildiradi, modallikni ifoda etadi. Masalan: *ko'ryapsizmi, bular kosmosni zabt etganlar sanaladi!*

Bu gapni yuqoridagi gap bilan bir xil tipdagi gap deb bo'lmaydi, albatta. Ko'ryapsizmi, bular kosmosni zabt etganlar sanaladi! gapi sodda . "Ko'ryapsizmi" komponentini, kesimlik ko'rsatkichlari bo'lsa ham bosh gap deya olmaymiz. Chunki uning mazmuni keying component

tomonidan to'ldirilmaydi, u o'zidan keying komponentni (bular kosmosni zabt etganlar sanaladi) ergashtirmaydi. Gapning "Ko'ryapsizmi" komponenti subyektning voqelikka nisbatan munosabatini bildirishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu gapdan so'zlovchining tinglovchini diqqatini jalb qilib, ularning kimligini, bundan o'zining xabardorligini, xursandligini bayon qilish sezilib turibdi.

2. Qo'shma gapni, ya'ni ergash gapli qo'shma gapni sodda gapga aylantirish mumkin. Bunda ergash gap o'z shaklini o'zgartirib, sodda gapning yoyiq to'ldiruvchisiga o'tadi. Qiyoslansa:

1. Hamma biladiki, yoshlar vatanimizning kelajagi.

2. Yoshlar vatanimizning kelajagi ekanligini hamma biladi.

Birinchi gap ikki komponentli qo'shma gap bo'lsa, ikkinchi gap to'ldiruvchili yoyiq sodda gap. Kiritmali gaplarni sodda gapga aylantirib bo'lmaydi, chunki ularning o'zi sodda gap. *Ko'ryapsizmi, bular kosmosni zabt etganlar sanaladi.* Bu gapning "*Bularning kosmosni zabt etganlar sanalishini ko'ryapsizmi?*" deb shaklini o'zgartirish mumkin. Bunda uslub buziladi, "sanalishini" ko'rish mumkin emas, so'zlovchining maqsadi ham sanalishni ko'rsatish emas.

3. Qo'shma komponentlari ikki sostavli, ba'zan bir sostavli bo'lishi: *Kenja botir fahmlab bildiki, bu joy ularning to'planadigan makoni ekan(Ertakdan) Qayoqqa qarasang qarag'ayzor, qalin o'rmon, rus yeri go'zal.(Oybek)*

Kiritma ba'zan qo'shma gap komponentiga teng kelsa ham, u harakat subyektini ifoda etmaydi: *Ko'rdingizmi, biz qanday zo'r ekanmiz.*

4. Qo'shma gapning har bir komponenti ma'lum fikrni bildiradi, tarkibidagi so'zlar o'zaro aloqaga kiradi: *Qurbon ota shundan bildiki, eshak Mahsumga juda yoqib qoldi (A.Qahhor).*

Kiritma fikr bildirmaydi, lekin ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayib keladi. Sostavli kiritma tarkibidagi so'zlar o'zaro aloqaga kiradi: *Menga qarang, ovsin, to'yni qachon boshlaymiz (A.Qahhor).*

5. Qo'shma gapdan kiritmali sodda gaplarni farqlashda gapning mazmun turlari ham xizmat qiladi, qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar ko'pincha so'roq gap shaklida bo'ladi. bunday qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirish mumkin: *Ko'ryapsizmi, ular ishlayaptimi yoki yo'qmi? Bilmaymanki, uning muddaosi nima?*

Kiritmali sodda gap darak, undov gap shaklida keladi. Ba'zan so'roq gap shaklida kelishi mumkin. Bunday gaplar sodda gap sanaladi:

*Ko'ryapsizmi, bular kosmosni zabt etganlar sanaladi.*

*Aytmoqchi, mehmonlaringiz qachon kelishadigan bo'lishdi?*

6. Qo'shma gapdan kiritmali sodda gaplarni farqlashda so'zning leksik ma'nosi ham muhim rol o'ynaydi. Qo'shma gapning kiritma bilan aralashirilgan komponentini ifodalovchi so'z o'z ma'nosida qo'llansa, bunday gaplar qo'shma gap sanaladi. u o'z leksik ma'nosidan butunlay yoki qisman uzoqlashgan bo'lsa, unday gaplar sodda gap sanaladi. qorishtirilgan component esa kiritma hisoblanadi.

*Ko'ryapsanmi, kim kelayotir,*

*Ko'ryapsanmi u qanday maroqli gapirayotir.*

*Bilmadim, ular qachon kelishadi.*

*... Azroil senga qolganda, bilmadim, nega g'ofil qoldi.*

Keltirilgan misollarning birinchisida "ko'ryapsanmi" bo'lagi ko'rish ma'nosini ifoda etadi, demak, bu gapda "ko'ryapsanmi" o'z leksik ma'nosida qo'llangan.

Ikkinchi misoldagi "ko'ryapsanmi" bo'lagi haqiqiy ko'rish ma'nosini ifoda etmaydi. Eshiyapsanmi, payqayapsanmi, sezyapsanmi ma'nolarini ifoda etadi. So'zlovchi esa shu so'z orqali tinglovchining diqqatini o'sha voqeaga tortadi.

Uchinchi misoldagi "bilmadim" bo'lagi to'g'ri ma'noda qo'llangan.

To'rtinchi misoldagi "bilmadim" bo'lagi o'z haqiqiy ma'nosida qo'llanmagan. U ajablanish, hayron bo'lish kabi ma'nolarni ifoda etadi.

Tekshirish shuni ko'rsatadiki, so'zlar, ko'pincha, so'roq gaplarda o'z ma'nosida qo'llanadi, darak, undov gaplarda esa leksik ma'nosidan butunlay yoki qisman uzoqlashadi: 1.Qara, hamma qaytib keldimi? 2.Qara, hamma qaytib keldi. 3.Qara, hamma qaytib keldi!

Birinchi gap so'roq gap bo'lib, undagi "qara" to'g'ri ma'noda ishlatilgan. Ikkinchi, uchinchi gaplardagi "qora" bo'lagi tinglovchining diqqatini tortish, fikrni tasdiqlash ma'nosini ifoda etadi. Shuning uchun bu xil gaplar suhbatdosh o'sha predmetga, voqea-hodisaga qarab turgan paytida ham qo'llanaveradi.

7.Qo'shma gapdan kiritmali sodda gaplarni sinonimlar yordamida ham o'sha ma'noni anglash mumkin. Qo'shma gap komponentlarini sinonimlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Kiritmalarni sinonimlar bilan almashtirish mumkin:

1.*Bilmadim, u qachon jo' naydi?*

2....*Azroil senga qolganda, bilmadim, nega g'ofil qoldi! (Mirmuhsin)*

Birinchi gapdagi "bilmadim" komponentini shu xil sinonimlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchi gapdagi "bilmadim" bo'lagini esa "hayronman", "tushunmayman", "ajabo" kabi sinonimlar-kiritmalar bilan almashtirish mumkin.

Ma'lumki, gap fikrni ifoda etadi, bo'lak esa uning tarkibiy qismlari bo'lib, ma'noni ifoda etadi. Gap tarkibida "aytaylik", "olaylik", "aytmoqchi", "deyman" kabi shaxs-son ko'rsatkichlariga ega bo'lgan fe'llar uchraydi. Bu fe'llar kiritma vazifasida kelib, so'zlovchining voqelikka nisbatan turlicha munosabatini bildiradi. Demak, bularni bo'lak, ya'ni kiritma deyish to'g'ridir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G'.A. o'zbek tili grammatikasi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. o'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent. "Fan", 1992.
3. Nurmonov A.lingvistik ta'limotning yangi bosqichi //O'zbek tili va adabiyoti, 2008. № 6.
4. Sayfullayeva A.R. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном языке.- Tashkent: "Fan", 1984.

*H.S.Egamberdiyeva,  
SamDCHTI tayanch doktoranti*

### **ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NEYROLINGVISTIKA SOHASINING PAYDO BO'LISHI VA UNING AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz zamonaviy tilshunoslikda paydo bo'lgan yangi soha neyrolingvistika, uning paydo bo'lishi, rivojlanishi, bugungi va kelajakdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nevrologiya, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, neyropsixologiya, psixolingvistika, afaziya, afaziyalogiya, Brokko maydoni, Vernika hududi.

**Kirish.** Neyrolingvistika (lot neuron -nerv va lingua — til) — psixologiya fani sohasi, afaziyaning psixolingvistik jihatlarini o'rganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishi, bir tomondan, neyropsixologiyaning, ikkinchi tomondan, lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bog'langandir. Hozirgi zamon neyropsixologiyasida neyrolingvistika so'zlashga miyaning sistemali funksiyasi sifatida, afaziyaga esa sistemaning buzilishi sifatida karaydi. Neyrolingvistikaning rivojlanishi psixolog A. R. Luriya (1902—77) va uning shogirdlarining ilmiy ishlari bilan bog'liqdir.<sup>1</sup>

Demak neyrolingvistika – neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan va inson miyasidagi nerv hujayralarining ya'ni neyronlarning tilde nutqdagi so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini o'rganadi. Neyrolingvistika nutqning shakillanishi va tushunilishini ta'minlovchi bosh miya mexanizmini o'rganuvchi fandır.

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyrolingvistika#cite\\_note-1](https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyrolingvistika#cite_note-1)

Neyrolingvistikaning paydo bo'lishi fundamental kashfiyotlardan sanaladi va bu atamaning kelib chiqishi 1940- yillarning oxiri va 50- yillarda Edit Krouell Trager, Anri Xeker va Aleksandr Luriyaga tegishli. Luriyaning "Neyrolingvistika muammolari" nomli kitobi ushbu sohadagi birinchi kitobdir ehtimol. Garri Uitaker 1970-yilda AQShda neyrolingvistikani ommalashtirib, 1974-yilda "Brain and Language" jurnaliga asos soldi. Neyrolingvistikani fundamental kashfiyot deb atashimizga asos bunda bosh miya po'stlog'ida psixik jarayonlarning lokalizatsiyasi (to'xtab qolishi) va inson miyasining funksional assimetriyasi bog'liqligi turadi. Fanning vujudga kelishida A.R. Luriya, Karl Vernikke, Pol Brokko va Teador Mayner nomlari bilan bog'liq.

Neyrolingvistika biologiya, san'at, psixologiya, linguakriminalistika, fiziologiya va meditsina fanlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib unung o'rganish ob'ekti miyaning nutqiy va fikriy faoliyati, miyaning xotira va hissiyotlar mexanizmi hisoblanadi. Insonda ikkita miya bor, bu miya va miyachadir. Miyacha- ta'na muvozanatini boshqaradi (u engsa chuqurchasida joylashgan bo'ladi). Miyani 2ga: o'ng va chap yarimshar miyaga ajratgan holda o'rganamiz.

Miya neyron (hujayra)lardan tashkil topgan bo'lib, usti akson(oq tolacha)lar bilan qoplangan. Insonning muloqot jarayonini miya boshqarib, miya faolligi quyidagicha bo'ladi:

**Chap yarimshar miya** – tillik miya; nutq markazlari joylashgan, so'z bilan bog'liq tafakkur operatsiyalarini bajaradi.

**O'ng yarimshar miya** – dunyoni so'zsiz idrok etadi, asosiy vazifani ko'zlar bajaradi.

**Ambidekslar** – har ikki miya faol ishlaydi, ularda nutq buzulishi bilan bog'liq kasalliklar tezda tuzaladi.

Neyrolingvistika fanining muammolari doimiy va o'zgarishda bo'lib, uning mazmuni, qoidalari, paradigmasi aniq va ravshan emas. Shunga qaramay fanning tadqiqot muammolari doirasi keng.

1861- yilda fransuz anatomi P.Brokko tadqiqotida peshona chap egri yarimshari shikastlanishini o'rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, miyaning bu qismi zararlanganda insongapirish qobiliyatini yo'qotadi, ammo boshqaning nutqini to'liq tushunadi.

1874-yilda nemis psixiatri K.Verniki miyaning chakka egri yarimshari shikastlanishini o'rganadi va bunda inson gapira olishi ammo boshqaning nutqini tushunaolmasligini aniqlaydi.

Miyaning vazifaviy assimetriyasi: chap yarimshar miya - mantiqiy ratsional tafakkur qilish vazifaini bajaradi; o'ng yarimshar miya- obrazli, emotsional tafakkur qilish vazifasini bajaradi. Miyaning vazifaviy assimetriasiga uzoq davrlar chap yarimsharlar asosiy deb qaralgan. Zamonaviy bilimlar shuni ko'rsatayaptiki insonlarda nutq zonasi turlicha, u yoki bu yarimshardajoylashishi mumkin.

Neyrolingvistikani yana bir jadal rivojlanayotgan tarmog'i bu neyrolingvistik dasturlashdir va bu bizning tilimizga tarjima qilsak nerv, til va dasturlash degan so'zlar kelib chiqadi. Yoki tushunarli tilda aytadigan bo'lsak, insonni til va so'zlar yordamida dasturlash degan ma'noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini o'rgangan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib o'z maqsadlariga yetmoqdalar. Uning yordamida insonga xohlagancha ta'sir ko'rsatib, uning o'zini tutishini boshqarish mumkin. Bu texnika gipnoz qilishning ham asosidir. Boshqa kishini boshqarish uchun oldin unga moslashish kerak. Moslashish uchun suhbatdoshning harakatlari ritmiga (holati, ko'z qarashi, gavdani ushlashi, qo'llarining holati, oyoqlarining holati, nafas olish ritmi,...) kirish kerak. Lekin bunda uning kayfiyatiga kira olish eng asosiy ahamiyatga ega. Nafas olish ritmiga moslashish katta natijalar beradi.

Nutqning yuzaga kelishi: Kundalik muloqot(oddiy vaziyatlar, oddiy so'zlar va sintaktik konstruksiyalar) – o'ng yarimsharda (chap yarimsharda qisman). Murakkab abstract mavzular chap yarimsharda faol bo'ladi.

Nutqning qabul qilinishi: birinchi so'zdan boshlab ikki yarimshar ham ishlay boshlaydi, chap yarimshar til birliklarini qabul qiladi, o'ng yarimshar tasvir butunligi va obrazlarni chizishni qabul qiladi. So'ngida yarimsharlarning ikkisi ham ma'lumotni birlashtiradi va muqobil voqelikka kiradi.

O'ng miya har qanday vaziyatni baholaydi va so'zlarga muhtoj emas ammo chap miyasiz o'ng miya hech qanday aniq fikrni so'z bilan bera olmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Wernicke.C “Der Aphasische Symptomencomplex. Eine Psychologische Studie auf Anatomischer Basis” Breslau: Cohn und Weigard 1874 y
2. Broca,P “Perte de la parole, ramollissement chronique et destruction partielle du lobe anterieur gauche du cerveau” Bulletin de la societe d'anthropologie 1861 y
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/neyrolingvistik-dasturlashning-ayrim-psixologik-jihatlari>
4. <https://www.livelib.ru/book/1000824883-osnovy-nejropsihologii-aleksandr-luriya>
5. <https://www.livelib.ru/book/1000218869-yazyk-i-soznanie-a-r-luriya>
6. <https://www.livelib.ru/book/1000032553-lektsii-po-obschej-psihologii-a-r-luriya>
7. <https://www.livelib.ru/book/1000249974-osnovnye-problemy-nejrolingvistiki-a-r-luriya>
8. <https://bolcheknig.ru/uz/encyclopedia/fiziologicheskie-osnovy-rechi-kratko-rech-e-funkcii-i-fiziologicheskie/>

*K.K.Ahmedova*  
*UrDU, tayanch doktoranti*

## VIRTUAL MULOQOTGA XOS NUTQ SHAKLI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda keng ommalashib borayotgan virtual ya'ni onlayn muloqot tushunchasi, nutqning og'zaki va yozma shakli, shuningdek, muloqotning yangi ko'rinishiga xos bo'lgan yozma so'zlashuv nutq shakli tushunchalariga batafsil to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** yozma so'zlashuv nutqi, zamonaviy kibermakon, kommunikativ muhit, sms, “Leet speak”, ommaviy muloqot.

Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari mavjud bo'lib, har ikkala nutq shakli adabiy tilga tayanadi. Biroq yozma nutq amal qiladigan punktuatsion, imloviy me'yorlar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz me'yorlari, intonatsion me'yorlar yozma nutqda yo'q[1]. T.Qudratov o'zining “Nutq madaniyati asoslari” nomli boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetlari uchun mo'ljallangan qo'llanmasida og'zaki nutqning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Og'zaki nutq tezkorlik bilan(avtomatik tarzda) amalga oshadi;
2. Og'zaki nutqda so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo'lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi;
3. Og'zaki nutq tahrir imkoniyatidan mahrum;
4. Og'zaki nutqda, odatda, muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi;
5. Og'zaki nutq so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag'al bo'ladi;
6. Og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam(pauza), ohang, urg'u, turli hil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq esa og'zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi, u o'z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahrir qilishi, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin[2].

Yuqorida yozma va og'zaki nutqning bir-biridan ajralib turuvchi jihatlarini ko'rib o'tgan bo'lsakda, bu ikkala nutq shakli orasida unchalik ham tafovutlar katta emas degan qarash tarafdorlari ham yo'q emas. Xususan, M.Sorokina o'zining “Особенности интернет-общения как новой среды коммуникации” nomli magistrlik darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida og'zaki nutq va yozuv o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilab olishning iloji yo'q, chunki vaqt o'tishi bilan ba'zi hodisalar bir aloqa shaklining sifatlaridan boshqasiga o'tadi, masalan, bir so'zli jumalardan foydalanish dastlab og'zaki nutqqa xos bo'lgan bo'lsa, tez orada yozma matnlarga ham kirib keldi[3].

Komputer texnologiyalarini ishlab chiqishdan ko‘zlangan dastlabki maqsad hisoblash jarayonlarini yengillashtirish hamda tezligini oshirish bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan insonlar komputerdan nutqning og‘zaki va yozma shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan kommunikativ muhitning yangi bir ko‘rinishi sifatida foydalana boshladilar.

Bundan bir necha yillar oldin ham “so‘zlashuv nutqining yozma shakli yo‘q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi. So‘zlashuv nutqi og‘zaki shaklda yuzaga chiqadi”[4] degan fikrlar hukmron edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Bugungi kunda mohiyatan lingvistik o‘zaro munosabatlarning yangi shakli – yozma so‘zlashuv nutqi paydo bo‘ldi”[5].

Bir qator manbalarda, so‘zlashuv nutqi asosan oddiy so‘zlashuv nutqi hamda adabiy so‘zlashuv nutqiga ajratilishi keltirib o‘tilgan bo‘lsa, S.Karimov o‘zining “O‘zbek tili funksional stilistikasi” monografiyasida so‘zlashuv nutqini uch guruhga ajratib o‘tadi: adabiy-so‘zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq[4]. Adabiy so‘zlashuv nutqi rasmiy davralarga xos bo‘lib, asosan ommaviy axborot vositalari tili hisoblanib, davlat idora va tashkilotlarida, ta‘lim muassasalarida keng qo‘llaniladi. Oddiy so‘zlashuv nutqi esa ko‘cha tiliga xos bo‘lib, asosan norasmiy doiralarda qo‘llaniladi.

Virtual muloqot jarayoniga xos bo‘lgan nutqning yozma shakli o‘zida nafaqat yozma balki og‘zaki nutq jarayonida uchraydigan jihatlarni hamqamrab olgan. Bu xususida A.Yu.Kruglov yozma internet muloqot tili o‘zida ham yozma, ham og‘zaki nutq xususiyatlarini jamlaganligi bois gibril til sanaladi deb ta‘kidlab o‘tgan[6]. Klyuyev ham bu borada anchayin qiziqarli bir fikrni bildirib o‘tgan: “Muloqotning yozma elektron shakli “og‘zaki nutqning uchinchi turi” sifatida qaralishi mumkin”[7].

Zamonaviy kibermakondagi muloqot matnga xos belgilardangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki multimedia vositalarini ham o‘z ichiga oladi, ya‘ni turli xil grafiklar, tovushlar, rang-barang tasvirlar, videolar ham onlayn muloqot jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Demak, zamonaviy komputer texnologiyalari kun sayin takomillashib borar ekan, xabar matnlari ham mos ravishda o‘zgarishga uchrab, yangicha tus kasb etib bormoqda.

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti ta‘sirida xalqaro globallashtirish jarayonining tezlashuvi natijasida internet muloqoti vositasi sifatida so‘zlashuv uslubining yozma shakli paydo bo‘ldi. Yozma so‘zlashuv nutqining dastlabki ko‘rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali qisqa xabar (sms – short message service) shaklida qo‘llangan bo‘lsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo bo‘lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi[8].

SMS xabarlarini nafaqat biror hodisa, yangilik to‘g‘risida ma‘lumot yetkazish uchun, balki har xil she‘rlar, kichik-kichik hikoyachalar, latifalar yoki barqaror birikmalarni jo‘natish orqali o‘z tuyg‘ularimiz, fikr-mulohazalarimiz, ichki kechinmalarimiz bilan o‘rtoqlashish imkonini ham beradi. Bunday qisqa xabarlarining kun sayin zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib, o‘zgarib borishi lingvistlarning diqqat-e‘tiborini jalb qilayotgani bejizga emas. Zeroki, xuddi jonli muloqotdagi kabi bu “til”da ham avvalambor salomlashib, suhbatdoshlar o‘zaro hol-ahvol so‘rashgach, suhbatdan ko‘zlangan asosiy maqsadga o‘tiladi.

Hozirgi kunga kelib, bundan 30-40 yillar oldin urfda bo‘lgan qo‘lyozma xatlar, tabriknomalar o‘rnini sms xabarnomalar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar egalladi desak xato bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz. Chunki yozuvning bu turi anchayin qulay va vaqt borasida ham unumlidir.

Internet makonda foydalanuvchilar fikr almashish, o‘rganish, hamfikr maslakdosh topish kabi turli maqsadlarda virtual jamiyatlarda birlashadilar. Ular uchun umumiy jihat virtual makonda o‘zaro muloqot qurish sanalib, bu foydalanuvchilar birgalikda virtual makrojamiyatni tashkil qiladilar. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu jamiyat a‘zolari bir-birlari bilan aloqa qilish uchun maxsus tildan foydalanishga harakat qilishadi. Shu asnodan “Leet speak” – yozuvning yangi shakli internet foydalanuvchilari orasida ommalasha bordi.

“Leet speak” yoki “Leet” ingliz tili yozuvining o‘zgargan shakli bo‘lib, uning son ko‘rinishidagi shakli “1337” sifatida qabul qilingan. Bu yozuv shakli faqat yozma nutqqa xos

bo‘lib, uni og‘zaki nutqda qo‘llashning imkoni yo‘q. “Leet speak” ning asosiy vazifalari harflarning maksimal qismini raqamlar va grafiklar bilan almashtirish hisoblanib, ayniqsa ushbu yozuv transformatsiyasini kirill yozuvidan foydalanuvchilar aksariyati ishlatadi va bunday urf sms matnlaridagi rus so‘zlarini lotin yozuvida yozuvchi yoshlar yozishmalarida ko‘pincha uchraydi[9].

Bu yozuv shakli shu qadar ommalashib boryaptiki, bugun u o‘z Leet alifbosiga ham ega ekanligi ko‘pchilikka sir emas[10]. Tan olish kerakki, Leet ingliz tilida muloqot qiluvchilar orasida ancha keng tarqalgan bo‘lsada, aksariyat o‘zbek yoshlari nutqida ham ushbu yozuv shakliga xos unsurlarni kuzatishimiz mumkin va bu jarayon brogan sari yanada ommalashadi degan fikr o‘zini to‘laqonli ravishda oqlaydi deb hisoblaymiz. Chunki u ancha qulay va shu bilan birga yuqorida aytib o‘tganimizdek, virtual makondagi makrohamjamiyat a‘zolari tomonidan qo‘llanilish doirasi sezilarli darajada keng.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. J. Omonturdiyev. Sh. I. Abduraimova. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati (bakalavr va magistrlar uchun uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2016.
2. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.
3. Sorokina M.V. Osobennosti internet-obsheniya kak novoy sredi kommunikatsii. Vipusknaya kvalifikatsionnaya rabota. – Belgorod, 2019.
4. Karimov S. O‘zbek tili funksional stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010.
5. Vinogradova T.Yu Spetsifika obsheniya v internete // Russkaya i sopostavitelnaya filologiya: Lingvokulturologicheskiy aspect. Kazan, 2004.
6. Kruglov A.Yu Komputerno – oposredovannoe obsheniye kak sotsialnoe yavleniye / A.Yu. Kruglov. – SPb.: 2000.
7. Klyuyev Ye.V. Rechevaya kommunikatsiya: Uchebnoe posobie dlya universitetov I vuzov / Ye.V.Klyuyev. – M.: 2000.
8. Sh. Shaxabitdinova, D.Rustamov, D.Popov, D.Rustamova, B.Abdullayev, Sh. Miralimova. Ommaviy lisoniy madaniyat. Jamoaviy monografiya. – Andijon: Step by step print, 2020.
9. L. Shukurillayeva. “Leet speak” yoxud bugungi kunda qanday yozuvdan foydalanamiz. Lingvist (Ilmiy maqolalar to‘plami) III. – Toshkent: “Akademnashr”, 2012.
10. <https://images.app.goo.gl/TyLo6XBMW1teDkCD7>

*G.M.Umarjonova,*

*Senior lecturer of Fergana State University*

*Doctor of Philosophy in Philology (PhD)*

*N. Aliyeva*

*Student of Fergana State University, group 20.93*

#### **CLASSIFICATION OF PRAGMATIC PHRASEOLOGIES IN THE GERMAN LANGUAGE AND PROBLEMS OF THEIR APPLICATION**

**Abstract.** *This article discusses the issues of studying pragmatic phraseological units, which are considered a new direction in phraseology. Of particular interest is the scientific terminology associated with the study of pragmatic phraseological units and the terminological diversity of their description.*

**Keywords:** *linguistics, phraseology, pragmatic phraseological units, terminology, oral speech, written speech,*

Pragmatic phraseological units are pragmatic expressions of oral and written speech that are used to perform various speech actions and communication functions. Pragmatic phraseological units belong to the branch of phraseology and can be called a new subject of

phraseology. In various fields of linguistics, they were sometimes actively studied, and sometimes they did not arouse much interest.

Pragmatic phrases are used more or less consciously every day by all members of our society. Although they play an important role in courtesy towards other people, in self-description of various social groups, and in expressing personal attitudes to linguistic and non-linguistic situations, they are critical to success in certain areas. Given the wide range of functions of pragmatic phraseological units, it is important to study them, although it is clear that there are certain difficulties associated with their distortion.

At about the same time, there are common aspects of phraseological research and pragmatics that have established themselves as a scientific science in linguistics, i.e. there are many classifications in both areas of research and there are no clear boundaries. These discussions continue to this day. "As in the field of phraseology, regardless of the language or culture of the theoretical dispute, there is a terminological diversity in the field of pragmatic phraseological units" [6. 12].

The term pragmatic phraseological units was first introduced by Burger, Buhofer and Sialm in "Pragmatic Phraseological Units" and "Pragmatic Phraseological Units" and "Pragmatic Phraseological Units" as a theory of the function of language and speech situation" [1. P.110]. H. Bürger previously described "rows that do not have a meaning in the first place (the equivalent of a lexeme or sentence), but mainly act as a sign in certain pragmatic situations" - "Ketten, die nicht primär eine (lexem und satzäquivalente)". Signale in bestimmten pragmatischen Situationen fungieren" [2, 58] spoke about the pragmatic meaning of idioms. G. Burger argues that pragmatic phraseology can only be studied with the inclusion of human behavior, which implies their consideration within the framework of pragmatics, and not as part of a "semantically oriented phraseology" [2, 59].

In "Einführung in der Phraseologie", written later by H. Burger, he rethought this type of phraseology. In his opinion, pragmatic phraseologies are, first of all, phraseologies that do not have "meaning", but serve as repetitive communicative situations. "Accordingly, they do not define either objects, or facts, or processes, or relationships" [3. 28]. The so-called pragmatic shift in linguistics occurred in the early 1970s. Pragmatic turn to phraseological research [5. 76-88], more precisely, the theoretical change in phraseology and its pragmatization [4. 41-64] also showed its effect. "Interest in pragmatics helped pragmatic phraseological units to take a special place in the field of phraseology" [7. 9-44].

In linguistics, one should not lose sight of the importance of pragmatic phraseological definitions and especially issues related to their functional classification. Native speakers do not usually face problems with pragmatic phraseology, but foreign language learners or translators face sharp differences between languages. Perhaps this is due to the difficulty of using pragmatic phraseology, in which case bilingual phraseological dictionaries can help.

Having studied research on the creation of phraseological dictionaries, we are convinced that in the development of phraseological dictionaries, researchers have managed to achieve a high level of lexical mastery. This was done, in particular, by solving theoretical problems in a practical way. For example, in phraseological dictionaries in various areas of life, theoretical recommendations are used, such as the organization of macro- and microcomponents of dictionaries given by leading scientists, the placement of a phraseological source in the dictionary, and the selection of phraseological expressions.

Examples are a number of foreign and Uzbek scientists who paid attention to the theoretical issues of phraseological dictionaries and gave their recommendations, including: A.I. Molotkov, N.T. Bukhareva, A.I. Fedorov, R.I. Yarantsev, E. Brewer, Roberta J. Dixon, A. McKay, M. I. Umarkhojaev. , A.M. Bushuya, M.T. Botner, Sh. Rakhmatullaev. Among lexicographers-phraseologists, the studies of M.I. Umarkhojaev. He approached the problem of phraseology in the field of lexicography and developed a number of concepts for the formation of dictionaries. Examples include monolingual, bilingual, multilingual, and mixed dictionaries; general (dictionary for all native speakers) and special (for speakers of other languages) dictionaries;

dictionaries 100-1000 and 1000-5000 depending on the number of units; divided into annotated and ideographic dictionaries based on an internal semantic system.

In addition, M. I. Umarhodzhaev drew attention to the following principles for the selection of phraseological expressions:

- each type of fixed expression;
- phraseological confusion, phraseological units, phraseological units, proverbs and sayings with a figurative meaning;
- Only proverbs and sayings.

The principle of compiling phraseological dictionaries differs from the principle of compiling simple lexical units. When compiling phraseological dictionaries, it is necessary to pay attention to their macro- and micro-components. Phraseologists-lexicographers identified denotative-motivational, evaluative, emotional, stylistic and grammatical systems of dictionaries. Phraseological dictionaries also include the study of the internal form of phraseology, i.e. cultural connotation, evaluative and methodological expressiveness. In terms of methodological expression of phraseological units, Guo Ningning was guided by the principle of their use in literary, colloquial, colloquial languages [10, 163]. The researcher also approached the grammatical system of phraseological units when forming a dictionary, taking into account the grammatical and semantic dependence of the word, morphological changes.

When forming a dictionary of phraseological units, one should also take into account their grammatical structure, grammatical and semantic dependence of the word, morphological changes. To monitor the expression of phraseological units in different layers of the language, it is recommended to take examples from the dictionary from various newspapers, magazines, works of art, colloquial speech. This emphasizes the ease of use of phraseological units and their diversity.

#### References

1. Burger H, Buhofer A, Sialm A. Handbuch der Phraseologie. Berlin/New-York: de Gruyter, 1982. – S. 110.
2. Burger H. Idiomatik des Deutschen. Tübingen: Niemeyer (Germanistische Arbeitshefte 16), 1973. – S. 58.
3. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4.neu. bearb. Aufl. Berlin: Schmitd, 2010. – S. 28.
4. Feilke H. Kontext – Zeichen – Kompetenz. Wortverbindungen unter sprachlichem Aspekt. Helmut, 2004. – S. 41-64.
5. Fleischer W. Zur pragmatischen Potenz der Phraseologismen. In: Linguistische Studien. Reihe A.80. Sprechhandlung, Satz und Text. Berlin, 1981. – S. 76-88.
6. Hyvärinen I. Zur Abgrenzung und Typologie pragmatischer Phraseologismen. S.12.
7. Hyvärinen, Irma (2011a): Zur Abgrenzung und Typologie pragmatischer Phraseologismen – Forschungsüberblick und offene Fragen. (Hg.), S. 9–44.
8. Umarhodjaev M.E. Основы фразеологии. – Tashkent: Fan, 1983.
9. Ninnin G. Лексикографическая разработка русской фразеологии: для толково-переводного русско-китайского фразеологического словаря. Diss. на соиск. uch.step.kan.nauk. Moskva, 2013. –163-bet.
10. Mukhtorovna, U. G. (2022). Somatic Phraseologies with “Hand” – “QO ‘L’” Component, Expressing Diligence in German and Uzbek Languages. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 68-71.

## **КИНОЯ ЛИНГВОСТИЛИСТИК КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА**

Ифода тасвир воситалари тизимида киноянинг ўзига хос ўрни бор. Зотан мазкур тасвир усули ифода мақсади ва таъсир кучига кўра бошқа тасвир воситалари билан муайян даражадаги узвийликни ҳамда фарқли жиҳатларни ўзида мужассам этади. Киноя ҳақида фикр ютар эканмиз бу борада айтилган кўплаб қарашларни, мулоҳазаларни қайд этиб ўтиш ўринлидир.

Киноя ҳақида фикр билдирганида С.И. Походня, унинг муаллиф ёки сўзловчи томонидан олдиндан режалаштирилганлиги, ўйлаб қўйилгани, нутқий шакллантирилгани каби белгилари мавжуд бўлишини қайд этади. Шу боис ҳам киноя мавзунинг умумий ҳолатини бошқаради ва унинг ҳар бир алоҳида моменти учун ҳам аҳамият касб этади [1, 22].

Г.В.Колшанскийнинг хулосаларига кўра, киноя жумланинг коммуникатив планида матннинг тафаккур билан боғлиқ аспектларини, ундаги коммуникатив талаб, буйруқ ва бошқа белгиларни аниқ ифодасини етказишга хизмат қилади. [2, 22].

Муаллифнинг кинояли фикрни ифодалашида ўз интенцияси, яъни кинояли жумлани тузишдаги фикрларни акс эттириши, нутқ мазмуни ва унда мужассам бўлган объектдаги лисоний меъёр, айти мақсадни амалга ошириш учун шакллантирилган матн киноянинг ифода объектидир.

Қайд этиш мумкинки, кинояли матннинг шаклланишида тил бирликларининг нутқий фаоллик олишида луғавий бирликларнинг аниқ контекстуал қимматга эга бўлиши қайд этилади.

Бу борада В.В.Виноградов қарашларида нутқий курилмаларнинг бадиий асарлардаги таркибий тузилмаси ва унинг мазмуний мундарижаси муаллифнинг нуқтаи назари ва муносабатига таяниши асосли қайд этилади. [4, 85].

Х. Вайнрихнинг қарашларида кинояли ифода учун лисоний моҳият ифода плани билан контекстуал ва ситуацион аспектда узвий бўлмоғи лозим.

Кинояли фикр шаклланишида контекстуал моҳиятнинг мазкур матн компонентларининг коннотатив ва ассоциатив муносабатларига ҳам боғлиқ. Жумланинг шаклланишида Г.В.Колшанскийнинг қарашлари асосида айтганда, ҳар қандай жумла муайян ҳаракат ва ҳолатнинг ифодасидан иборатдир. Жумла, шубҳасиз, қайсидир мулоқот акти доирасида шаклланади. Мазкур вазият нутқ мақсади ва ўрндан келиб чиққан ҳолда ўзига хос реаллик билан боғлиқ хусусиятни ифодалайди [2, 29].

Кинояли фикрнинг шаклланиши жумланинг коммуникатив йўналтирилгани билан ҳам боғлиқдир. Чунки бундай фикр билдиришимизнинг ҳам ўзига хос асослари бор, албатта. Бунда жумла тузилишининг ўз компонентларининг қайси ўринда, қандай жойлашишига, яъни пропозитив шаклланишига боғлиқдир. Мазкур ҳолат ифоданинг кинояли бўлишида ва унинг қандай фикр етказилишидаги ўрни ўзига хослиги билан боғланади. Киноя ифодаланишининг асослари тил структурасининг турлича сатҳлари бирликларининг фаоллашуви билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан қаралганида, ушбу мақсадни мужассам этган контекст қайд этилган хусусиятларни ифодалашга қодир бўлмоғи лозим [3].

Албатта, киноя ҳақида фикр билдирилган экан, бу ифода тасвир воситасининг ифодаланишида мураккаб ва юксак маданий ифода масъулияти мавжудлигини алоҳида қайд этишни ўринли деб ҳисоблаймиз. Бунда ўзига хос ва баъзан бетакрор кинояли ифодаларнинг шаклланиши ва коммуникатив акт нуқтаи назардан юқори даражадаи фалсафий, эстетик коммуникатив вазифани бажариши ўрни билан кулги ва ақлий таъсир кўзгатиши алоҳида хусусиятлардир. Шу боис ҳам мазкур ифода воситаси таркибида пропозиционал ва присуппозиционал аспектлар мужассам саналади. Шундай экан, кинояни

муайян концепт сифатида эмас, балки уни кенг тармоқли категория сифатида ўрганиш масала моҳиятини кенг ва аниқ тасаввур этиш имконини беради.

Айтиш жоизки, тулиқ ёки қисман кулги кўзғатувчи мазкур категория кишиларнинг ўзаро коммуникатив муносабатларида кўзланган ва кутилган натижаларга эришиш йўлларида бирини тақозо этади. Шунинг учун ҳам жамиятнинг турли тармоқларида унинг имкониятларидан ўринли ва мақсадли фойдаланиш ижтимоий аҳамият касб этади. Баъзан унинг ўрнини мулоқотда бошқача ёндашув бажара олишга қодир бўлмаслиги ҳам мумкин. Ана шу хусусияти билан мазкур категория ўзига хос ижтимоий характерга эга ва эстетик мақоми билан бошқа ифода тасвир воситаларидан фарқланиб туради.

#### **Адабиётлар:**

1. Походня С.И. Языковые виды и средства реализации иронии// Походня С.И. – Киев: Науковая думка, 1989. -128 с.
2. Колшанский Г.В. Контекстная семантика // Колшанский Г.В. – Москва: Наука, 1980.
3. Сердюк А. Способы выражения юмора, иронии и сатиры и модели их перевода на занятиях по болгарской литературе // Пловдивски университет „Паисий хилендарски“ – Болгария научни трудове, том 49, кн. 1, сб. г, 2011 – филология, paisiy hilendarskiy university of plovdiv – bulgaria research papers, vol. 49, book 1, part d, 2011 – languages and literature
4. [https://studbooks.net/586299/literatura/yazykovye\\_sredstva\\_vyrazheniya\\_ironii\\_hudo\\_zhestvennom\\_proizvedenii](https://studbooks.net/586299/literatura/yazykovye_sredstva_vyrazheniya_ironii_hudo_zhestvennom_proizvedenii)

*K.A. Mamadkulova, teacher of Samarkand State University of Kattakurgan branch*

#### **CRITERIA OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY: CONCEPTUALITY, CONSISTENCY, MANAGEABILITY, EFFICIENCY, REPRODUCIBILITY**

**Resume:** The concept and structure of pedagogical technology as a model for organizing the pedagogical process throughout the world is the subject of discussion. This article is devoted to the analysis of the organization of the pedagogical process: the conceptual framework, goals, means and content of the educational process.

**Key words:** traditional and non-traditional pedagogical models, utilitarian-technical and personal-humanistic, pedagogical process, knowledge, skills.

The pedagogical process in a modern university is complex and ambiguous. It is being built in the context of permanent and controversial reforms of higher education. On the one hand, the organization of the pedagogical process is set by the general trends in the development of education, the changing educational policy of the state. On the other hand, there is a fairly large scope or freedom of choice of pedagogical technologies for the teacher. This choice takes place in the face of intense competition between traditional and non-traditional pedagogical models and systems.

The main competition is between two paradigms of education: utilitarian-technical and personal-humanistic. The personal-humanistic paradigm is focused on the free and comprehensive development of each individual. It implies state guarantees of free high-quality education of all forms and levels of education, as well as guarantees of employment of graduates in their specialty.

The humanistic paradigm is based on the priority of humanistic values in the content of education, on the unity of upbringing and education. It involves the classical universal, comprehensive education of the individual. The utilitarian-technical pedagogical paradigm is that a person is considered as an agent of the production process and is evaluated according to his narrow professional qualities. Education is reduced to teaching the individual narrowly professional knowledge and skills. Therefore, an inevitable feature of this ideology is the idea of professional differentiation of education, both horizontally and vertically. This involves disparities

in people's abilities and exposing these disparities with limited educational opportunities for people with low abilities. The value of a person and his education is determined not by his humanistic spiritual potential, but by market demand, level, market value of his professional qualifications.

The content and goals of the pedagogical process are dictated by market conditions or production orders. The meaning of the pedagogical process is reduced only to special, narrowly professional training with complete indifference to personal development and the educational moment of the pedagogical process. In the context of a radical change in society as a socio-cultural environment in which the pedagogical process is organized, both the social organization of the pedagogical process and the activities of teachers and students cannot but change. In this regard, pedagogical innovations are of great importance. On the one hand, the use of innovative pedagogical technologies that have not been sufficiently tested in pedagogical practice is risky.

### **Traditional pedagogical technologies**

The term "traditional education" implies, first of all, the lecture-seminar-test system of organization of education, which developed in the 17th century on the principles of didactics formulated by Ya.A. Comenius, and still prevailing in educational institutions of the world.

The distinctive features of the traditional lecture-seminar-test technology are the following [2]:

- lecture is the main form of transferring a large amount of systematized information as an indicative basis for students' independent work (takes 90 minutes);
- a seminar is a form of organization of detailing, analysis, expansion, deepening, consolidation, application and control of the assimilation of the received educational information (at a lecture and in the course of independent work) under the guidance of a university teacher;
- the study group is the central form of organization of students (the permanent composition of which, as a rule, remains for the entire period of study);
  - the set of study groups represents a certain course of study at the university;
  - the course works according to a unified curriculum and programs according to the schedule of training sessions;
- the academic year is divided into two semesters, credit-examination period and holidays;
  - each semester ends with passing tests and exams in all academic disciplines;
  - education at the university ends with the passing of final exams in the leading disciplines and specialty (thesis defense is possible).
- Let's display in Table 1 the positive and negative sides of the traditional lecture-seminar-test technology.

Learning objectives are a mobile category that includes, depending on a number of conditions, certain components [2].

So, for example, the system of Soviet education was based on the "only true" ideology of Marxism-Leninism, which "offered to resolve any disagreement from the point of view: what is primary and what is secondary. The Soviet educational system was built on the priority of social needs over individual and personal, material over spiritual, learning over development. Therefore, an educational system was formed with the same type of educational institutions, uniform curricula and programs, uniform terms of study and the need for its mandatory completion. And this can only be achieved by authoritarian means, by imperative teaching. As a result, formalism, hypocrisy, untruth, double morality took root in education" [3].

An important function of education was, as sociologists say, social control: it was called upon to prepare obedient members of society who accepted its basic values. This, of course, is a completely respectable function, but the trouble is that along with obedience, a lack of initiative, a fear of creativity, and a desire for routine performance of well-defined duties usually come [4].

In modern educational institutions, the goals have changed somewhat - ideologization has been excluded, there have been changes in the nature of moral education, but the paradigm of presenting the goal in the form of a set of planned qualities (training standards) has remained the

same. This means that the education system with traditional technology is still a "school of knowledge", preserves the primacy of the individual's awareness over its culture, the predominance of the rational-logical side of cognition over the sensory-emotional one.

The conceptual basis of the traditional technology of education is the principles of pedagogy, formulated by Ya.A.Comenius:

- scientific character (false knowledge cannot exist, only incomplete knowledge can exist);
- conformity to nature (learning is determined by development, not forced);
- consistency and systematic (sequential linear logic of the process, from particular to general);
- accessibility (from known to unknown, from easy to difficult, assimilation of ready-made ZUN);
- strength (repetition is the mother of learning);
- Consciousness and activity (know the task set by the teacher and be active in executing commands);
- visibility (attraction of various sense organs to perception);
- connection of theory with practice (a certain part of the educational process is devoted to the application of knowledge);
- taking into account age and individual characteristics [4].

The traditional education system remains uniform, non-variable, despite the declaration of freedom of choice and variability. Training content planning is centralized. Basic curricula are based on uniform standards for the country. Academic disciplines (foundations of sciences) define "corridors" within which (and only within) the student is given the opportunity to move.

The authoritarianism of the learning process is manifested in the regulation of the activities and coercion of learning procedures, in the centralization of control, as well as in the orientation towards the "average" student.

Knowledge acquisition methods are based on:

- communication of ready knowledge;
- learning by example;
- inductive logic from particular to general;
- mechanical memory;
- verbal presentation;
- reproductive reproduction.

The learning process as an activity in traditional learning technology is characterized by a lack of independence, weak motivation for the student's educational and cognitive activity. As part of the educational and cognitive activity of the student, there is no independent goal-setting, the goals of learning are set by the teacher, and the planning of activities is carried out from the outside, imposed on the student against his will, etc.

The most important foundations for the development of scientific, technological and social progress are laid in the education system, therefore, like no other sphere of life in modern society, it needs advanced development. The modern education system should not only be sensitive to all the achievements of scientific thought and the needs of social practice, but also be constantly focused on the future. First of all, this should be manifested in the formation of an innovative type of thinking among students. The more flexible this system will respond to the demands of life, the more powerful will be its influence on the development of other spheres of society.

### **Bibliography:**

1. Zhukov R.F. Ways of development of active teaching methods at the university. // Sat. scientific tr. "Technology of acmeological teaching methods" / ed. ed. R.F. Zhukov. - St. Petersburg: SPbGIEU, 2001.
2. Comenius Jan Amos: Teacher of teachers ("Mother's School", "Great Didactics" and other works with abbreviations). M.: Karapuz, 2009, 288 p.
3. Klarin M.V. Innovations in world pedagogy: learning based on research, games, discussions (analysis of foreign experience). - Riga: Experiment, 1998.
4. Lerner I.N. Didactic foundations of teaching methods. - M.: Pedagogy, 1981. - p. 94-100, 114-123.

*Nurmuhammedov Bahodir Shakarboyevich  
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi*

## **TOPONIMLARNING KOGNITIV-PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY ASPEKTLARI HAQIDA BA'ZI ULOHAZALAR**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada toponimlarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, denotativ komponenti, toponimik va urbanomik nominasiyalarning boshqa tamoyillari haqida fikrlar yuritilib, Toponimlar kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan o'rganilganda uning kognitiv tuzilmalarni, ya'ni insonning tafakkur va idrok etish strukturalarini ifodalovchi ekanligini ko'ramiz.

### **Kalit so'zlar**

Connotatio, kognitiv-pragmatik, onomastika, toponim, yuqori maqomlik, lingvomadaniy, etnomadaniy, konkretlashtirish

Onomastik materiallar ma'naviy olam haqidagi ulkan madaniy axborotlar potensialiga egaligi ma'lum bolgan holda ularning lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik aspektlari to'lig'icha o'rganilgan deb baholab bo'lmaydi. Ularning madaniy-tarixiy qiymatlik axborotini tavsiflash metodologiyasini ishlab chiqish muhim vazifa sanalib kelingan. Onomastik leksikaning lingvomadaniy potentsiali va pragmatik imkoniyatlari tahlilida diaxronik yondashuv elementlari muhim sanalsada, avvalambor sinxronik yondashuvni taqoza qiladi, aks holda onimlarni tizimli to'laqonli tavsiflash imkoni bo'lmaydi

Onomastik materialga lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashuvning asosiy vazifasi – madaniy kodning madaniy semantikasi bilan til birliklari sifatida onimlarning o'zaro aloqalari mexanizmlarini tavsiflashdir. Ushbu mexanizm harakati natijasi onimlarning madaniy semantikasini qayta ifodalash hisoblanadi. Lingvomadaniy jamoaning tili uning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan integrallashgan bo'ladi, qadimgi mifologik ong sinkretizmligi bilan tavsiflanadi.

Toponimlar ijtimoiy mulk maqomi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar va jamoaviy-madaniy vaziyatga aloqadorlikga ega. Toponim bilan bog'langan "yuqori maqomlik" belgisi, ya'ni ijtimoiy – siyosiy hayotda davlatni boshqargan urug'-qabila nomlari mobillik tabiatli sanaladi. Toponimlarni ikki karra ijtimoiy belgi sifatida ko'rish mumkin. Toponimlarni moddiy va manaviy olam ortasidagi oraliq o'rni lingvomadaniyatshunoslik va lingvo-pragmatika uchun anchayin qiziqarli fenomen hisoblanadi.

Toponimik tizimning asosiy parametrlari ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga bog'liklar hisoblanadi. Bir ijtimoiy-madaniy holatlar toponimik va urbanomik nominasiyalarning boshqa tamoyillarini shakllantiradi. Toponimlar doirasida nomlarning takrorlanishi to'lig'icha ijtimoiy sabablar bilan bog'langan bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy, hukmron mafkura, etnomadaniy jarayonlar, konkretlashtirish va qoliplash (standartlashtirish) kabi ekstralingvistik omillar ham zamonaviy tilshunoslik yondashuvlarida alohiyida qimmatlik kasb etadi.

Lingvomadaniy jamoaning atrof borliqni bilish, idroq etish va tafakkur qilish jarayonlari hosilasi toponimlarda ham o'z ifodasini topadi. Toponimlar kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan o'rganilganda uning kognitiv tuzilmalarni, ya'ni insonning tafakkur va idrok etish strukturalarini ifodalovchi ekanligini ko'ramiz. Toponimlarda aslini olganda, faqatgina inson, olamning an'anaviy manzarasi va uning fragmentlariga sub'ektning barcha munosabatlari haqidagi bilimlarigina emas, milliy madaniyat etalon va stereotiplarining avloddan avlodga uzatilishida lisoniy voqeliklarning programmalashgan ishtiroki kontseptuallashtirilgan bo'ladi.

Toponimlarni o'rganishga kognitiv yondashuv avvalambor, uning leksik birliklarini semantik tahlil qilishni taqozo qiladi. Toponimlar nominativ birlik hisoblandi va ob'ektiv voqelikni tushuncha orqali aks ettiradigan tafakkurni ifodalaydi. Biroq nominativ birlik sifatida toponimlarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular avval nomlangan voqelik fragmentini nomlaydi, shu sababdan ularning referenti ortida muayyan belgi birikkan bo'ladi va bu ularni ikkilamchi nominativ belgi hisoblashimizga asos bo'ladi. Toponimlar til belgisi sifatida ikki vazifani amalga oshiradi: nominativ va semantik. Semantik vazifani amalga oshirishda predmetga obrazli, mantiqan bo'laklarga ajralmaydigan tavsif beriladi. Ayrim toponimlar ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, ulardan konnotativ komponent juda muhim sanaladi. Konnotasiya lotin tilidagi *connotatio* so'zidan olingan bo'lib "birgalikda anglataman" ma'nosini anglatadi. Konnotasiya til egalari ongidagi asosiy ma'no bilan turg'un bog'langan qo'shimcha semantik va uslubiy elementlarni o'z ichiga oladi; nutqiy ifodaning emosional va baho bo'yoqlarini ifodalash va jamiyatning madaniy an'alarini aks ettirish uchun mo'ljallangan; o'zida predmet va hodisalarning o'zini emas, ularga nisbatan muayyan munosabatlarni ifodalovchi turli shakldagi pragmatik axborotlarni ifodalaydi

Toponimlarni konseptual tahlil metodlarini qo'llash orqali tasniflab o'rganish istiqbolli hisoblanadi. Chunki toponimlarlar muayyan etnosning olamni idrok etishi va madaniyatining milliy xususiyatini, insonlarning hayot va faoliyatini, ularning olamga munosabatini, o'ziga xos qadriyatlar majmuasini va hokazolar haqidagi tasavvurlarni saqlaydi, umuman olam lisoniy manzarasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish imkonini beradi. Shunday qilib, qimmatli axborotlar toponimlar leksik-semantik aspektida qatlamli shaklda fiksatsiyalanadi.

Toponimlarlar ma'nosining denotativ komponenti bir tomondan birikma anglatayotgan bir tipdagi realiya obrazi haqidagi axborotni saqlaydi, ikkinchi tomondan realemani konkret referent bilan aloqasini ta'minlaydi. Denotativ komponent u yoki bu tushunchaning ekstensionalini mujassamlashtiradi, ya'ni u yoki bu ma'no qanday leksik-semantik guruh bilan o'zaro bog'lanishini ko'rsatadi. Yuqoridagilardan ma'noning denotativ komponenti olamning tuzilish jarayonini aks ettirishi ma'lum bo'ladi.

Ayrim toponimlar obrazli komponenti yoki ichki shakl mental tuzilmalar – freym, stseneriya, sahna, geshtalt bilan bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Tildagi qadriyat asosli tasavvurlar muayyan xalq yoki umum insoniyat tarixida ko'plab avlodlarning jamoaviy faoliyati natijasi hisoblanadi. Toponimlar etimologik tomondan xalqning moddiy-madaniy, ijtimoiy–iqtisodiy hayotidagi voqe, faktlari bilan bog'lanadi. Toponimlarning funksional vazifasi nomga ega bo'lgan voqelik fragmentini aks ettirib qolmasdan, ushbu nom yordamida ob'ektga yo'nalgan sub'ektiv ahamiyatli biron bir ish-harakatni obrazli anglatishdan ham iborat. Toponimlarning bunday murakkab denotati ular tarkibidagi ham ish-harakat semantikasida ham ish-harakat ob'ekti semantikasida aks etadi va bu toponimlarning murakkab ma'noviy tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Toponimlarni aynan o'qish orqali ichki shakl aniqlanadi, masalan "Kelinchaktosh" oronimi ma'nosining signifikativ belgisini "toshning ayol shakliga o'xshashligi" tashkil etadi. Ushbu birlikning ichki shakli "ayol", "o'xshash" belgilarini rivojlantirishga asoslangan. Bir tipli ichki shakllar majmuasi bosh obraz, konseptual geshtalt, freym, skriptlar lisoniy reprezentatsiyasini tiklashga imkon beradi. Masalan, "Faxri katak", "Botir katak" mikrooykonimlarining bosh obrazi "ovchi"ga dalolat beradi. Bosh obrazlar muayyan madaniy kodni aks ettiradi. Yuqoridagilar antroponomik madaniy kod hisoblanadi. Ko'rsatilgan bosh obraz

aktsional madaniy kodga mos keladi. Ichki shakl lingvomadaniy jamoada shakllanib etilgan tasavvurlarni gavdalaniradi, hodisalarni anglash stereotiplarini verballashtiradi.

Toponimning baho komponenti semantik strukturada anchayin murakkab hisoblanadi. Baho kategoriyasi baho sub'ekti, ob'ekti, baho motivi va baho kabi komponentlardan tashkil topadi. Muayyan bir shaxs, lingvomadaniy jamoa yoki sosium baho sub'ekti bo'lishi mumkin. Muayyan madaniyat til shaxsi milliy xarakter xususiyatidan kelib chiqib baho ob'ekti tanlovi va motiviga ta'sir etishi mumkin. Muayyan bir qiymat birlashtiriladigan toponim baho ob'ekti bo'ladi. Lingvomadaniy jamoa uchun dolzarbligidan kelib chiqib baho ob'ekting muayyan bir ko'rinishi yoki belgisi baholanadi va madaniy belgiga ega bo'ladi.

Toponimlarning pragmatik aspektini tadqiq qilish ular semantikasining baholovchi, motiv-obrazli va emotiv komponentlarini tahlil qilishni qamrab oladi. Baho kategoriyasi voqelik ob'ektlarini insonga xos bo'lgan turli aksiologik nuqtai nazarlar bilan tavsiflash qobiliyati sabab olam lisoniy manzarasining ajralmas qismi hisoblanadi. Baho sub'ekti ob'ekt belgilarini "yaxshi" va "yomon" kriteriyalar bilan baholash shkalasining mos zonasiga joylashtirganda rasional jarayon voqe bo'ladi. Ijobiy va salbiy belgilarning sifat va miqdoriga muvofiq ijobiy va salbiy baholar darajalanadi.

Toponimlar pragmatik aspekti tadqiqining oxirgi bosqichi toponim ma'nosining emotiv komponentini aks ettiruvchi toponimning intensional holat tahlili bo'ladi. Emotiv komponent turli his-munosabatlarni aks ettiradi, ko'p hollarda bir biriga qatlanadi va muayyan stereotip vaziyatiga kirib boradi.

Xullas, toponim ma'nosining pragmatik aspekti shuni ko'rsatadiki uning komponentlari – baho, motivasiya, emotiv komponent – to'laligicha toponimlarning denotativ gavdalanishiga (tasavvur etilishiga) bog'liq bo'ladi. Toponimlarning ekspressiv bo'yoqli ma'nolarida denotativ axborotlarning roli ma'no uzatishga olib boradi, toponimning obrazli asosini interpretasiyalash natijasida shakllangan olamning qadriyatlar manzarasidan uning bahosi, emotiv-baholi axboroti so'zlovchining madaniy-lisoniy kompetentsiyasiga bog'liqlikda bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedov S.N. Jizzax viloyati toponimlarining semantik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa fanlari doktori dis. avtoref. – Samarqand, 2019.- 45 b
2. Bahrami E. Dictionary of the Avesta. V.2.-Balh, 1359.-1146
3. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi.-Toshkent: Ma'naviyat, 1998
4. Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этнонимларининг таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 1999, 8-9-бетлар;
5. Туробов А.М. Самарқанд этноним ва этнонимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 87 б;
6. Хасанов Х. Х. Географик номлар маъноси. Тошкент, 1978;

#### IV SHO‘BA

### ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA‘LIM USLUBIYATI MASALALARI

*M.B.Begmatov, SamDCHTI professori, f.f.n.*

#### TALABALARGA CHET TILINI O‘QITISHDA GAZETA MAQOLALARIDAN FOYDALANISHNING USTUVOR VAZIFALARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishda gazeta materiallaridan foydalanishning ustuvor vazifalari tahlil qilingan bo‘ib, unda oliy ta‘lim muassasalarida xorij ommaviy axborot vositalarida chop etilgan gazetalarni o‘qitish lozimligi ta‘kidlanadi, gazetalarni o‘qish jarayonida original matnlarida yuzaga keladigan leksik-grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari tavsiya etiladi. Gazeta materialida yoritilgan voqeaning ijtimoiy ahamiyati, uning, sababi va maqsadi, unga nisbatan insonlarning munosabati va o‘qilgan gazeta xabari to‘g‘risidagi fikrlari umumlashtiriladi.

**Kalit so‘zlar:** gazeta, maqola, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy va siyosiy vaziyat, leksik-grammatik qiyinchiliklar, o‘qib tushinish.

Bugun mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan kirib borar ekan, talaba va professor-o‘qituvchilarda jahondagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan muntazam xabardor bo‘lib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu holat oliy ta‘lim muassasalarida xorij ommaviy axborot vositalarida chop etilgan gazetalarni ham o‘qitish lozimligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, xorijiy tilni o‘rganayotgan talabalar o‘sha tildagi matbuot materiallari yoritgan voqealarni tushuna olish va talqin etishi shart. Biz pedagoglarning burchi ularga gazetar bilan ishlashning asosiy uslublarini singdirishdir. Mazkur maqolada mashg‘ulotlarda gazeta maqolalaridan foydalanishning ba‘zi xususiyatlarini yoritishga urinamiz.

Mashg‘ulotlarda gazetalarni o‘qish jarayonini birinchi navbatda original matnlarida yuzaga keladigan leksik-grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan boshlash kerak. Matnni to‘g‘ri tushunish muayyan mamlakatdagi siyosiy ahvoldan yoki millatga xos bo‘lgan so‘zlar (realiya)dan bexabarlik matnni tushunishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Bu holda o‘qituvchi izohlari muhim ahamiyat kasb etadi [2; 45-b.].

Gazeta matnlarini o‘rganishning asosiy sharti berilgan matnni ovoz chiqarmasdan o‘qishdir. Ovoz chiqarib o‘qishdan tilning grafik tizimini o‘rgatishdagina foydalanish tavsiya etiladi. Biroq bu orqali ovoz chiqarib o‘qishdan butunlay voz kechish kerak degani emas. Birinchi bosqichda ba‘zan matnni tarjimasiz tushinish malakalarni rivojlantirish lozim. Ayni shu malakalar talabalarning fikrini matnning mazmunida jamlash va undan ma‘lumot olishga yo‘l ochadi.

O‘qitish jarayonining boshida talabalarga murakkab bo‘lmagan xorijiy tildagi gazeta matnlarini tanlab so‘zlarni bilmasdan ham tushina olish mumkin, degan ishonch hosil qildirish kerak. Ular o‘qiyotgan matnni xamma so‘zlarini bilmasa-da, til taxmini vositasida notanish so‘zlarga e‘tibor bermasdan tushinishga harakat qiladilar. Matnni qismlarga bulish maqsadga muvofiq emas, chunki u matn kompozitsiyasini buzib, ma‘lumot olishga halaqit beradi. Lekin matn juda katta hajmda bo‘lsa, o‘qituvchi talabalarga undagi ba‘zi asosiy mazmunga putur yetkazmaydigan abzaslarni qoldirib ketishni ham tavsiya qilishi mumkin [1; 26-b.].

Ilk ishlar amalga oshirilgach, matnni yana bir bor ko‘rib chiqish foydadan xoli emas, chunki bu hol mazmunni birlamchi ilg‘ashda paydo bo‘ladigan individual qiyinchiliklarni aniqlashga yordam beradi. O‘qib tushinilgan matnni tekshirish turini mashqlar bajarish orqali amalga oshirish mumkin [3; 63-b.]. Matn ustida ishlash uni talqin qilish bilan tugaydi. Bunga voqeaning ijtimoiy ahamiyati, uning, sababi va maqsadi odamlar harakatiga izoh, o‘qilgan matn xulosa va gazeta xabari to‘g‘risidagi fikrlarni kiritish mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatilgan fikrlardan quyidagilarni gazeta matnlari ustida ishlash jarayoni bosqichlari deb ko'rsatishimiz mumkin.

**O'qishga:** Talabalarni matn mazmunidan va ish maqsadidan xabardor qilish; Ba'zi so'zlar, grammatik modeli yoki so'z birikmalarini alohida ko'rib chiqish {leksik va grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida}.

**O'qigandan so'ng:** O'qilgan matnni tushunganlik darajasini aniqlashda va matn mazmunini to'liqroq o'zlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish; O'qilgan matn asosida ijodiy xarakterga ega vazifalarni bajarish.

Demak, gazeta matnlari xamda axborot materiallari bilan ishlash borasida – 1) bayonning lo'nda siqiq ifodalanishi-gaetaning axborot qismiga ortiqcha so'zlarni ishlatmaslikka xarakat qilish (albatta bir-biri bilan bo'lgan munosabatni ifodalashning yagona vositasi bo'lgan so'zlarni ortiqcha deb bo'lmaydi); 2) atamalar va nomenklatura (muassasa, davlat organlari, lavozim nomlari va u yoki bu marosimlarni ifodalanishi). Tarjimon bu holda o'z tilida ularni ishlatish an'alariga muvofiq ish tutadi, ayni paytda original tilidagi ortiqcha atamalardan voz kechadi; 3) uzun, murakkab tarjima jarayonida noaniqlik va chalkashlik maqsadga nomunofiq bo'lgan gaplar sintaksisida namoyon bo'lib, ularni qismlarga bo'lib tarjima qilish xam mumkin (gazeta matnlari uchun ilmiy matnlardan farqli ularoq bo'lingan gaplar tabiiyroq ko'rinadi).

Xulosa qilib aytganda dars mashg'ulotlarida gazeta matnlaridan foydalanishda gazeta janri va uslubi tilning boshqa uslublaridan o'zining lingvistik, grammatik, leksik-semantik xususiyatlari bilan farqlanadi. Lingvistik xususiyatlariga ulardagi takrorlanadigan so'z va iboralar, ya'ni gazeta qoliplarining keng ishlatilishi, hamda unda atoqli otlar, joy nomlari, muassasa nomlari, tashkilot va muassasalar ishlatilish darajasi yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Begmatov M.B Gazeta sarlavhalarining kommunikativ pragmatik funksiyalari Xorijiy til ta'limining kognitiv – pragmatik tamoyillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDChTI, 2007. -24-25 b.

2. Розенталь Д.Э. Актуальные вопросы изучения языка газеты – Вести. МГУ, сер. Журналистика, 1975, № I. –С. 44-48.

3. Коробова Л.А. Из наблюдений над некоторыми номинативными структурами заголовков газеты В кн: Иностранная филология, Республиканский сборник, Каз. гос. ун.-т им. С.М.Кирова. -Алма-Ата, 1975 вып. 5. -С. 60-67.

*Тоирова Гули Ибрагимовна,  
Ўзбек тилшунослиги ва журналистика  
кафедраси профессори, филология  
фанлари доктори*

## **ЎЗБЕК ТИЛИ МИЛЛИЙ КОРПУСИНИ ЯРАТИШ МЕТОДОЛОГИЯСИ ВА УНИНГ МУАММОЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада ўзбек тили миллий корпусини яратишда интерфейс турлари, корпуснинг қидирув ойнасининг аҳамияти муҳокама қилинади. Миллий корпусининг интерфейси турли дизайн ва тузилмалардан иборат бўлиб, унинг тўлиқлиги учун муаллиф жавобгар бўлади, интерфейс жозибали ва таъсирли бўлиши керак. Интерфейсни яратиш миллий ёки замонавий хусусиятларга асосланган бўлиб, интерфейсда миллий коллоритга эътиборни қаратиш керак. Тил корпуси - бу жуда катта ютуқларга эришган, ҳисоблаш лингвистикаси дунёсининг жуда тез ривожланаётган тармоғи. Интерфейс технология ва фойдаланувчи ўртасидаги алоқа тизими ҳисобланади. Интерфейс визуал, имо-ишоравий, овозли каби турлари таҳлил қилинган.


**Калит сўзлар:** интерфейс, муаллиф корпуси, математик моделлаштириш, морфологик ва семантик изоҳ, маълумот, лингвистик база, сунъий интеллект, компютер

лингвистикаси, корпус тилшунослиги, тил корпуси, махсус дастурий таъминот, электрон кутубхона, лексик, морфологик, грамматик, семантик белгилар, лингвистик белгилар билан боғлиқ муаммолар.

Корпус лингвистикаси – дунё фанининг, жумладан, тилшуносликнинг энг ривожланган соҳаси, корпус эса тилшуносларнинг зарурий иш қуроли; оғзаки, ёзма ёдгорликлар, миллий-маданий меросни ақс эттирувчи ахборот манбаи. У қидирув дастурига бўйсундирилган матнлар йиғиндиси, мукамал разметкага эга корпус лингвистик тадқиқотлар самарадорлигини таъминлашда барқарор лингвистик база вазифасини бажаради[1,2,4,5]. Сунъий интеллект маҳсули сифатида: электрон луғатлар, таржима порталлари, терминологик маълумотлар банки, виртуал (электрон) кутубхона, электрон матнли корпуслар, электрон ҳукумат, электрон нашр, электрон дарслик ва қўлланмаларнинг барчасини санаш мумкин. Сунъий интеллект маҳсули бўлган лингвистик электрон манбалар муайян тил корпусини яратиш учун хом ашё саналади.

Ўзбек тили миллий корпусини яратишда визуал интерфейс турини таклиф қиламиз. Интерфейснинг бу тури илк корпус яратиш жараёнида қийинчилик туғдирмайди[20]. Чунки, мониторда намойиш этиладиган визуал тасвирлар ёрдамида маълумотларни узатадиган стандарт компьютер интерфейси ҳисобланади. Келажақда кўзи ожиз инсонларни ҳисобга олган ҳолда овозли турини таклиф этиш мумкин.

Ушбу соҳадаги энг янги йўналишлардан бири бу сенсорли интерфейс саналади. Унинг ишлаш принципи маълум объектлар орқали амалга ошириладиган фойдаланувчи ва машинанинг жисмоний ўзаро таъсирига асосланади[34]. Айтишимиз мумкинки, бу монитordan фойдаланган ҳолда фойдаланувчига илгариги маълумотни графикавий равишда олган маълумотларни тақдим этишга уринишдир.




1-расм.

Корпусларининг интерфейси турли дизайн, тузилишга эга бўлиб, унинг мукамаллиги корпус яратувчи муаллифнинг зиммасига юкланади. Чунки интерфейс корпус ҳақида илк таассурот қолдирувчи, ўзига жалб этувчи умумий кўринишдир.

Интерфейс яратишда миллий коллоритни акс эттирувчи безаклар ҳамда мумтоз ёки замонавийликни акс эттирувчи белгилар эътиборга олинishi лозим.

Бу корпуснинг қидирув ойнаси, яъни интерфейси саналади. “Корпусдан қидириш” – бу жойда сўз ёки гапни қидириш имкони мавжуд. Бунда натижа қуйидаги кўринишга эга бўлади. Корпуснинг “Лексик-грамматик қидирув” тугмасидан сўзнинг қуйидаги хусусиятларини билиб олиш мумкин: Сўзнинг маъноси, грамматик ҳолати, синонимлиги, омонимлиги, паронимлиги, антонимлиги, сўзнинг варианти, сўзнинг қўлланилиш даври, сўзнинг қўлланилиш услуби кабилар[25, 28].



2-расм


Жумладан, “ингичка” сўзи ёзилганда, қуйидаги маълумотларга эга бўламиз:

- **сўзнинг маъноси:** 1.Кўндаланг кесими меъёрдан кичик; 2 Чийилдоқ, ўткир (товуш ҳақида);
- **грамматик ҳолати:** [сифат];
- **синоними:** майин;
- **омоними:** йўқ;
- **пароними:** йўқ;
- **антоними:** йўғон;
- **варианти:** йўқ;
- **қўлланилиш даври:** замондош;
- **қўлланилиш услуби:** бетараф;

“Синтактик қидирув” тугмасидан биз гапнинг мақсадига кўра: дарак, сўроқ, буйруқ турини ва гапнинг тузилишига кўра: содда ва қўшма, уюшган гапларни ажратиб оламиз.



3-расм



4-расм

“Сўз ясалиши” тугмасида 200га яқин сўзнинг ясалиши таҳлил этилган.

илож	но	лан	лик						
илтифот	сиз	лик	бе	лик					
инсоф	ли	сиз	лик	бе	лик	но	лик	она	
инсон	лик	парвар	лик	сифат					
интизом	ли	лик	сиз	лик	бе	лик			
ипак	ли	лик	фуруш	чи	лик				
иқлим	лаш	шунос	лик						
иқтидор	ли	сиз							
иқтисод	ий	от	чи						
исбот	ла	сиз	бе-						
ил	гак	пич							
илгари	ги	ча	ла						
жабр	ла	ли							
жадал	ла	лик							
жадид	изм	чилик							
жафо	каш	лик	кор	ли	сиз				
жаҳлат	ли	параст							
жаҳон	бахш	пир	лик	намо	шумул				
жилов	бардор	дор	ла	хона					
.....	---	.....	---	---					

5-расм

Маълумотлар базасини яртиш жараёнида “Excel жадвалларидан фойдаланилади, бунда биринчи устунда файл номи (аниқ кўрсатилган йўл), бошқа устунларда эса метаматнли атрибутлар ва технологик маълумот келтирилади. Мазкур амал Excel дастурининг ўрнатилган воситаларидан самарали фойдаланиш имконини беради ва кидирув тизимида анча қулайликлар туғдиради. Масалан, кидирув, филтрация, таҳлил ва маълумотларни қайта ишлаш (амаллар рўйхати, автотўлдириш, статистика). Бунда жадваллар матн форматида сақланиши лозим ва бу форматни Excel тушуниши шарт. Мазкур амал орқали жадвал кўринишида сақланган файл, нафақат Excel, балки бошқа жадвалли дастурлар қабул қилиши ва ишлаш вазиятининг самарадорлигини ошириш имкониятини беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, ўзбек тили миллий корпусининг онлайн варианты тузилишида “Ўзбек тили изоҳли луғат”да мавжуд сўзлар таҳлилга тортилади. Интерфейс - замонавий дастурий дизайн талабларига жавоб берадиган, фойдаланувчига тушунарли, ишлаш учун қулай шаклда бўлиши керак. Интерфейс технология ва фойдаланувчи ўртасидаги алоқа тизими ҳисобланади. Интерфейс визуал, имо-ишоравий, овозли каби турларда бўлади. Миллий корпус тизим ва амалий дастурлаш интерфейсидан ташкил топиши керак бўлади.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Charlez, Meyer, (2004). English corpus linguistics: An introduction. *Cambridge University Press*, UK, 168 p.
2. Eshmuminov, A., (2019). Synonymous database of the Uzbek language national corpus. *Dissertation of PhD in Philology*, Tashkent.
3. Fries, Ch.C., (1969). The structure of English. *An introduction to the construction of English sentences*, London.

4. Hamroeva, Sh., (2018). Linguistic bases of creation of the author's corpus of the Uzbek language: *Author's Abstract of the Dissertation of PhD in Philology*, Tashkent.
5. Zakharov, V.P., (2011). Corpus linguistics: a textbook for students of humanitarian universities, Irkutsk, 161 p.
6. Karimov, R., (2021). Linguistics and programming issues of creating a parallel corpus of Uzbek and English, *Author's Abstract of dissertation of PhD*, Bukhoro, 151 p.
7. Leech, G., (1991). The State of Art in Corpus Linguistics, *English Corpus Linguistics*, London.
8. Melchuk, I.A., (1985). Word order in the automatic synthesis of the Russian word (preliminary messages), *Scientific and technical information*, 12:12-36.
9. Mengliev, B., (2018). Is the Uzbek language corpus being created? *Ma'rifat newspaper*. April 3, 2018, retrieved from: [http://marifat.uz/marifat/v\\_pomosh\\_uchitelu-marifat/savol/1142.htm](http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/savol/1142.htm).
10. Mengliev, B., Bobojonov, S., Hamroeva Sh., (2018). Uzbek National Corpus. April 26, 2018, retrieved from: <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm>.
11. Pulatov, A. Q., (2011). Computer Linguistics. Tashkent, Akademnashr, 520 p.
12. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. *International Multilingual Journal of Science and Technology*, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.
13. Toirova, G., (2020). About the technological process of creating a national corpus. *Foreign languages in Uzbekistan*, 2(31):57-64, available at: <https://journal.fledu.uz/uz/2-31-2020>.
14. Toirova, G., (2020). The importance of the interface in the creation of the corpus. *Internauka*, 7, DOI: <https://doi.org/10.25313/2520-2057-2020-7-5944>.
15. Тоирова Г. Корпус лингвистикасининг атамалар луғати. Изоҳли луғат. Германия: «GlebeEdit» номли халқаро нашриёт. 2020, –68 б.
16. Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. Халқаро монография. Германия: «GlebeEdit» номли халқаро нашриёт, 2020. – 169 б.
17. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE)* ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355. (scopus)
18. Toirova G., Jurayeva O., Abulova Z., Norova M., Norova F. Application of Innovative Technologies in Teaching Process. // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Special Issue 1, 2020. ISSN: 1475-7192.–P.386-390. (scopus)
19. Toirova G., Hamroyeva N. The importance of linguistic models in the development of language bases // *Sciences of Europe*. vol 2, No 59 (2020) ISSN 3162-2364. –P. 57-64
20. Тоирова Г. Важность интерфейса в создание корпуса. *International Scientific Journal «Internauka»*, // *Международный научный журнал «Интернаука»*. – 2020. – №7. Онлайн журнал. <https://doi.org/10.25313/2520-2057-2020-7-5944> (Impact Factor –8,758)
21. Менглиев Б., Тоирова Г., Ҳамроева Ш. Ўзбек тилининг миллий ва муаллифлик корпуси. *Гувоҳнома № DGU 05735 Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк агентлиги*. – Тошкент, 2018
22. Toirova G. Importance of interface in creating corpus. // *Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси*. –Урганч, 2020, – №2/2. –Б. 49-52.
23. Тоирова Г. Миллий корпусни яратишда интерфейсининг аҳамияти. //Қарақалпақ давлат университети хабаршысы. – Нукус, 2019, ISSN 2010-9075–№ 4(45). –С.195-198.
24. Тоирова Г. Миллий корпус яратишнинг технологик жараёни хусусида //Ўзбекистонда хорижий тиллар. Электрон илмий-методик журнал. – Тошкент. 2020, –№ 2 (31), –Б.57– 64.
25. Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусни яратишда интерфейсининг аҳамияти. // *Сўз санъати халқаро журнали*, – Тошкент, 2020, № 3, – Б.100-105.

26. Toirova G. The importance of linguistic module forms in the national corpus// Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (Mintaqada zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari) (Elektron ilmiy jurnal), – Urganch. 2020, –№ 5 , –Б.155– 166.

27. Toirova G. The importance of linguistic models in the development of language bases. // Бухоро Давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2020. –№6. – Б.98-106.

28. Тоирова Г. Лингвистик базани тузишда модуллаштиришнинг аҳамияти // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. –Наманган, 2021. – №3. -Б.377-386.

*U.Rashidova, SamDU dotsenti  
O.Mamarajabova, SamDU magistranti*

## **O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATIDA “BOSH” KOMPONENTLI IBORALARNING GRAMMATIK TAVSIFI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “O‘zbek tili izohli lug‘ati’dagi “bosh” komponentli iboralarning grammatik tavsifi va ularning lug‘atda grammatik jihatdan qay tarzda berilishi haqida ayrim fikr va mulohazalar berilgan. Shuningdek, “bosh” komponentli iboralarning grammatik tarkibi haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** “bosh” komponentli ibora, iboralar tarkibi, birikmali iboralar, gap shaklidagi iboralar.

Tilshunoslikda frazeologiya terminini qo‘llash XVI asrga to‘g‘ri keladi. Birinchi bo‘lib bu termini dunyo filologiyasida ingliz adabiyotshunosi Neandr qo‘llagan. Bundan so‘ng asta-sekinlik bilan tilshunoslikda frazeologik iboralarni o‘rganish boshlandi. Rus tilshunosligida frazeologik iboralarni o‘rganish XIX asrdan boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida esa XX asrning 50-yillaridan o‘rganila boshlangan.

Frazeologiyaning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishida mashhur rus tilshunosi V.V.Vinogradovning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, A.Peshkovskiy, B.Larin, N.Shanskiy, A.Kunin, A.I.Molotkov kabi olimlar ham ish olib bordi. Turkiyshunoslar F.R.Ahmedjanova, R.M.Tayeva, G.A.Bayramova, S.Navro‘zboyeva va S.I.Muratov kabilar tomonidan frazeologizmlar haqida ma‘lumot berilgan va tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning o‘rganilishida Sh.Rahmatullayev, Y.D.Pinxasov, Sh.Shorahmedov, Sh.Maqsudov va boshqa tilshunos olimlar beqiyos o‘rin tutadi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik izohli lug‘ati” ham o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rganishimiz uchun katta manba hisoblanadi. Bu lug‘atda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan mingdan ortiq iboralar keltirib, ularning semanti, grammatik izohlari ham berilib o‘tilgan. O‘zbek frazeologiyasining bundan keyingi rivojida B.Yo‘ldoshev hamda A.Mamatovlarning ham xizmatlari katta bo‘ldi. B.Yo‘ldoshev o‘z faoliyati davomida iboralarning konnotativ ma‘nolarini, badiiy tasvir vositasi sifatida imkoniyatini yoritib berdi.

Frazeologiyada inson tana a‘zolari bilan bog‘liq bir qancha somatik iboralar mavjud. Somatik iboralarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Vakk hisoblanib, bunday iboralarda har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, ma‘naviyati aks etgan bo‘ladi. Tilshunos olim X.Hamidov ham somatik iboralar haqida shunday fikr bildirgan: “Inson hayoti bilan bog‘liq frazeologizmlarni shakllantirgan asoslardan birinchisi insonning tana a‘zolari nomlari (somatizmlar)dir. Bunday iboralar somantizmlar vositasida yuzaga kelgan bo‘lib, turg‘unlashgan holda insonning idroki, tafakkuri, e‘tiqodi, his-tuyg‘ulari, jamiyat bilan muomala munosabati, xulq-atvori, tashqi ko‘rinishini ifodalaydi. Ular ma‘no jihatdan emas, balki, tuzilishi, obrazlilik bilan ham bir-biriga mos va yogona ichki shakl asosida yuzaga kelgan”<sup>1</sup>.

Frazeologizmlar insonga har doim ko‘rinib turadigan tashqi a‘zolarining nomlari natijasida yuzaga keladi. Bosh esa odamning muhim tana a‘zolaridan biri bo‘lib, hayotning ramzi

<sup>1</sup> Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent: Bayoz,2019.

hisoblanadi. Bosh haqida frazeologizmlar esa insonning aqliy qobiliyatining yaxshi yoki yomonligiga baho beradi.

Bosh soʻzi umumturkiy soʻz boʻlib, unga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da (OʻTIL) quyidagicha taʼrif berilgan:<sup>1</sup> “Tananing boʻyindan yuqori, oldingi qismi, kalla”. Shuningdek, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “bosh” soʻzi bilan bogʻliq bir nechta somatik iboralar keltirilgan: *boshga tushmoq, boshida bor, bosh ogʻritmoq, boshiga yogʻilmoq, boshdan kechirmoq, boshiga kelmoq, bir yostiqa bosh qoʻymoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, biror ishning boshini ushlamoq, boshga qoʻymoq, boshga koʻtarmoq, boshga qoʻndirmoq, boshi bogʻliq, boshi buzuq, boshiga yetmoq, boshiga suv quymoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib olmoq, boshiga oʻtqizib qoʻymoq, boshida yongʻoq chaqmoq, boshida kaltak sinmoq, boshidan zar quymoq, boshidan qolmoq, boshi yostiqa tegmoq, boshi ketmoq, boshi koʻkka yetmoq, boshi toshdan boʻlmoq, boshini aylantirmoq, boshini bogʻlamoq, boshini bukmoq, boshini yemoq, boshiga yetmoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq, boshini tiqmoq, boshini xam qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq, boshi chiqmaslik, boshi qorongʻu, bosh qotirmoq, bosh koʻtarib yurmoq, bosh koʻtarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq, bosh egmoq, bosh qashimoq, bosh qoʻshmoq, bosh urmoq* kabi iboralar shular jumlasidandir.

“Oʻzbek tili izohli lugʻati”da qatnashgan “bosh” komponentli iboralarning ikki yoki undan ortiq leksemalardan iborat boʻladi. Bunday iboralarning baʼzilarida grammatik oʻzgarishlar roʻy beradi. Masalan, *boshiga chiqib olmoq, boshi toshdan boʻlmoq, boshi koʻkka yetmoq, boshini aylantirmoq, boshida kaltak sinmoq* kabi iboralarni nutqda qoʻllayotganda grammatik oʻzgarish roʻy berishi mumkin: *boshingga chiqib oldi, boshing toshdan boʻlsin, boshimiz koʻkka yetdi, boshingni aylantirdi, boshimizda kaltak sindi* kabi.

“Bosh” komponentli iboralarda hozirgi oʻzbek tilidagi sintaktik bogʻlanishlardan asosan boshqaruv hamda bitishuv munosabatlari koʻproq uchraydi. Masalan, *boshi bogʻliq, boshi buzuq, boshi ochiq* iboralari bitishuv usulida bogʻlangan boʻlsa, *boshiga tushmoq, boshida bor, boshiga yogʻilmoq, boshga qoʻymoq, boshga koʻtarmoq, boshga yetmoq, boshini tiqmoq, boshini aylantirmoq, boshini yemoq* kabi iboralar boshqaruv munosabatida bogʻlangan hisoblanadi.

“Bosh” komponentli iboralarning “Oʻzbek tili izohli lugʻati” (OʻITL) da tuzilishi jihatidan quyidagi iboralar uchraydi:

1) Soʻz birikmasi shaklidagi iboralar: *boshga tushmoq, boshida bor, boshiga yogʻilmoq, boshdan kechirmoq, boshga qoʻymoq, boshga koʻtarmoq, boshga qoʻndirmoq, boshiga yetmoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib olmoq, boshidan zar quymoq, boshini aylantirmoq, boshini bukmoq, boshini silamoq, boshini ikkita qilmoq, boshini tiqmoq, boshini xam qilmoq,*

2) Sodda gap shaklidagi iboralar: *boshi toshga tegmoq, boshi toshdan boʻlmoq, boshi bogʻliq, boshi ochiq, boshi buzuq, boshi qorongʻu* kabilar.

Oʻzbek tili izohli lugʻatidagi “bosh” komponentli iboralarning koʻp qismi soʻz birikmasi qurilishiga teng. Bunday iboralarning bir qismi esa sintaktik qurilish jihatidan gapga teng boʻlib, bunday iboralar tarkibida ega mavjud boʻladi: *boshi bogʻliq, boshi toshdan boʻlmoq, boshi ochiq* kabi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada “Oʻzbek tili izohli lugʻati”da mavjud (OʻITL) “bosh” komponentli somatik iboralarning tarkibi, ularning sintaktik qurilishi aniqlandi. Jumladan, bunday iboralarning aksariyatini grammatik jihatdan soʻz birikmasi qurilishida boʻlishi aytildi. Bundan tashqari, gap qurilishidagi iboralar ham mavjud. Iboralar ham xuddi erkin birikmalar singari grammatik jihatdan mukammal tuzilganligi ham koʻrib oʻtildi. “Oʻzbek tili izohli lugʻati”da “bosh” komponentli iboralarning sintaktik bogʻlanishi jihatidan asosan bitishuv hamda boshqaruv munosabatlari koʻproq uchrashi ham aniqlandi. Ushbu maqolada biz “bosh” komponentli iboralarning ayrim grammatik jihatlarini ayrim grammatik jihatlarini tahlilga tortdik, xolos. Keyingi ishlarimizda tahlillarni davom ettiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – T.: Qomuslar yosh tahririyati. – T.: 1992.

<sup>1</sup>Oʻzbek tili izohli lugʻati, -Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2021.

2. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent : Bayoz,2019.
3. Pinxasov U. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. –T.: “Fan”, 1968.
4. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki.-T.: “Fan”, 1970.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-Toshkent:O‘zbekiston nas

*I.U.Mamasoliev,  
SamDCHTI katta o‘qituvchisi, PhD*

## **ILOVA KONSTRUKSIYA TARKIBIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING ILOVALI ELEMENTLAR SIFATIDA QO‘LLANILISHI**

**Annotatsiya.** Matnning mantiqiy mazmunini yetkazib berishda emotsional-ekspressiv va estetik xabarni tinglovchiga yetib borishini ta‘minlash asosiy vazifalardan biridir. Matnda stilistik funktsiyani amalga oshirishda lisoniy birliklarning emotsional, ekspressiv va baholash konnotatsiyalari katta rol o‘ynaydi. Bunda, ilova konstruksiyalar ham ulkan badiiy tasvir imkoniyatlariga ega ekanligini ta‘kidlash lozim. Bunda ular juda nozik ma‘no va ta‘sirchanlik xususiyatlarini tinglovchiga yetkazib berish qobiliyatini namoyon etadi. Mazkur maqola ilova konstruksiya tarkibida badiiy tasvir vositalarining ilovali elementlar sifatida qo‘llanilishi tasvirlangan bo‘lib, ilova konstruksiyalar gapga o‘ziga xos ta‘sirchanlik – shiddat, keskinlik tusini berish imkoniyatini yuzaga keltirishi ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** stilistika, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy tasvir vositalari, ta‘sirchanlik, shiddat, keskinlik, ma‘no xususiyati.

Stilistika – til birliklarining kontekstdagi badiiy tasvir vositalari imkoniyatlari va uslubiy xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qiladigan fandır. Stilistik funktsiya til birliklarini matnda badiiy tasvirlash imkoniyatlarini namoyon qilish bilan amalga oshiriladi. Bunda matnning mantiqiy mazmunini yetkazib berish bilan birga unda emotsional-ekspressiv va estetik xabarni tinglovchiga yetib borishini ta‘minlash lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Stilistik funktsiyani amalga oshirishda lisoniy birliklarning emotsional, ekspressiv va baholash konnotatsiyalari katta rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ilova konstruksiyalar ham ulkan badiiy tasvir imkoniyatlariga ega ekanligini ta‘kidlash lozim. Bunda ular juda nozik ma‘no va ta‘sirchanlik xususiyatlarini tinglovchiga yetkazib berish qobiliyatini namoyon etadi. Jumladan, ilova konstruksiyalar gapga o‘ziga xos ta‘sirchanlik [ekspressivlik] – shiddat, keskinlik tusini berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

“Ilova hodisasi shunday bir tipologik lingvistik hodisaki, uni tahlil qilaversang, yangidan-yangi tomonlari ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi, buning manbai birinchidan, tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bo‘lsa, ikkinchidan esa turli funksional uslublarni o‘zida mujassamlashtira olgan nemis yozuvchilarining badiiy asarlari – matnlardir” [3; 210-b.].

Shuni ta‘kidlash kerakki, stilistik funktsiya ilovali elementlarning funktsiyalari orasida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ilovali elementlarga xos bo‘lgan stilistik funktsiyalar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, matnning xilma-xil kompozitsiyalarda ifodalanib kelishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ilovali elementlarning ilova konstruksiya tarkibida bajarib keluvchi stilistik funktsiyalarini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin:

1. Ba‘zi so‘zlarning takrorlanib kelishi ham ma‘lum stilistik vazifani bajarib keladi:

“Nie zwar meinte sie ähnlich Schöne, in ihrem tiefen Dunkel so auf leuchtende Augen gesehen zu haben. Nie eine solche Stirn. Nie eine so klangvolle Stimme” (Hofe Günter. Roter Schnee. 241).

Aytish joizki, “ilova konstruksiyalar tarkibidagi takrorlanuvchi qism oddiy takrorlanmasdan, balki o‘zining vazifasini ma‘lum darajada o‘zgartirib ifodalanadi va buning

natijasida takrorlanib kelayotgan ilovali elementning ta'sirchanligi ortib boradi. Kitobxonning diqqat-e'tibori takror ifodalangan ilovali elementga qaratiladi. Ushbu ilovali element gap tarkibida oddiygina takrorlanmaydi, balki u tilning leksik-grammatik vositalari yordamida boyitiladi. Buning natijasida asosiy ifodaga nisbatan qo'llanilgan qo'shimcha ma'no aniqlashtiriladi, to'ldiriladi" [2; 107-b.].

2. Ilovali elementlarning yana bir o'ziga xos bo'lgan stilistik vazifasi – bu ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlarning ma'no xususiyatlarini bir-biriga taqqoslash orqali paydo bo'ladigan stilistik tasvirlash vazifasi, ya'ni o'xshatish jarayoni yuzaga keladi.

Nachts sah man die mehrstöckigen Lichtgirlanden oben an der Bühne kilometerweit. Wie wenn sie den Turm herausgeputzt hätten für eine Feier (Küster Karl-Heinz. Das Gespenst von Black Rose Gastle. S.36).

Mazkur misolda ilovali elementlar asosiy ifodadagi ma'lum bo'laklarning ma'no xususiyatlarini bir-biriga o'xshatish yordamida ilova hodisasi yuzaga keladi. Xususan, *die mehrstöckigen Lichtgirlanden* jumlasining *wie wenn sie den Turm herausgeputzt hätten für eine Feier* ifodasi bilan ma'lum bo'laklarga o'xshashlik taraflari tasvirlangan.

3. Berilgan ifodaning ma'nosini to'ldirish. Asosiy ifodaning ma'lum bir bo'lagi tegishli sinonimlari bilan qo'shimcha qilinib gapda takroran beriladi va gapdagi joylashish o'rni berilgan bo'lakdan keyin kelib, nuqta bilan asosiy gapdan ajratib turiladi:

"... Bloß wir dürfen nicht nach drüben. Es geht wieder mal nur gegen uns. Immer gegen die armen Leute!" (Krupkat Gunter. Als die Götter starben. S. 47)

4. Gapning ma'lum bo'lagi gapning boshida maxsus urg'u bilan ajratib ko'rsatiladi va ifodaning davomi boshqa so'z yoki so'z birkimlari bilan oxiriga yetkaziladi.

"Wann sehen wir uns mal" fragte er... Anfang der Woche. Montag. Um neun mit dem Fahrrad (Bredel Willi. Die Söhne. S. 163).

Matn tarkibidagi biron-bir komponentni alohida ajratib ko'rsatish maqsadida unga mantiqiy urg'u berib yana bir marta takrorlaydi, maqsad kitobxonning diqqat-e'tiborini ana shu takrorlanib keluvchi komponentning mazmuniga yana bir-bor jalb etish. Chunki, kupincha ana shunday takrorlanib keluvchi leksik birliklar doirasida muxim xabarlar beriladi, biron-bir hodisa takrorlanadi, bu bilan uning ta'sirchanligi, badiiyligi ta'kidlanadi. Ana shunday funktsiyalar ilovali elementlar tomonidan amalga oshiriladi [1; 98-b.].

5. Ilovali elementning konstruksiya oxirida yakka holda kelishi:

Es tut Ihnen überhaupt nicht leid. Im Gegenteil (Bruns Marianne. Die Lichtung. S. 148).

Yuqoridagi misolda ilovali element sifatida ifodalangan "Im Gegenteil" komponenti yordamida butun matnga va uning mazmuniga yakun yasalmog'qa. Chunki ilovali element mazmun salmog'i jihatidan gapda muhim ahamiyat kasb etmoqda, garchi u tomonidan bildirilayotgan qo'shimcha ma'no qisqa ifodalangan bo'lsa ham.

6. Ba'zi hollarda ayrim komponentlarning ilova konstruksiya tarkibida o'z o'rnida kelmasligi yoki tushirib qoldirilishi ham uning stilistik vazifasini yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi:

"Für etwas anderes" stieß Berndt hervor in Englisch und Deutsch, für was ganz anderes. ... eine andere Zukunft. ... unsere Kinder... (Elgers Paul. Jungfrau Johanna. Erster Teil. S. 43).

Ushbu misolda biron-bir komponentning ilova konstruksiya tarkibidan tushirib qoldirilishi ilova konstruksiyaning boshqa komponentlari ma'nolari bilan muntazam to'ldirib borilishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilganda, tahlil qilingan misollar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning stilistik funksiyalari soddalik, sinonimlik, murakkablashish, ketma-ketlik kabi munosabatlarni ifodalabgina qolmasdan, asar qahramonlarining ruhiy holatini, his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini, shodlik va qayg'ulik kayfiyatlarini tasvirlashda muhim vosita hisoblanadi. Ilovali elementlar stilistik funksiyalarining xilma-xil, rang-barang tavsifga ega bo'lishi uning boshqa funksiyalarini aniqlashtirib, to'ldirib, reallashtirib kelishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. Begmatov M.B. Nemis tilida ilova konstruksiyalar. Monografiya. SamDChTI nashri, 2020, 122-bet.

2. Крот О.Н., Рослякова Е.Ф. Присоединительные конструкции в современном немецком языке. Научные ведомости / Серия “Гуманитарные науки”. 2013. №20 (163). Выпуск 19. – С. 105-110.

3. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Дисс... докт. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 465 с.

#### Badiiy adabiyotlar

4. Bredel Willi. Die Söhne. Aufbau - Verlag. – Berlin und Weimar, 1979. – 558 S.

5. Bruns Marianne. Die Lichtung. Mitteldeutscher Verlag. – Halle (Saale), 1972. – 460 S.

6. Elgers Paul. Jungfrau Johanna. Erster Teil. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1977. – 371 S.

7. Hofe Gunter. Roter Schnee. Verlag der Nation. – Berlin, 1976. – 512 S.

8. Krupkat Gunter. Als die Götter starben. Verlag das neue Berlin, 1967. – 287 S.

9. Küster Karl-Heinz. Das Gespenst von Black Rose Gastle. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1973. – 188 S.

*K.A. Mamadkulova – teacher  
of Samarkand State University  
of Kattakurgan branch*

## USE OF TRADITIONAL TEACHING METHODS IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

**Abstract:** The article discusses the main and most famous methods of teaching a foreign language. There are various methods of teaching a foreign language in the world. When teaching a foreign language, it is necessary to pay attention to new ways of stimulating the speech of students. Using new methods, you can easily learn to speak any foreign language and improve it.

**Keywords:** Grammar-Translation, audiolingual method, direct method, the structural approach, suggestopedia, total physical response, the silent way, the lexical approach, communicative language teaching.

There are various methods of teaching a foreign language. Languages have always been among the compulsory disciplines for study in schools, lyceums, colleges and universities. Over time, the approach to teaching and learning languages changed - something new was added, and something was abandoned. There are various methods of teaching a foreign language. Let's look at the main and most famous methods of teaching a foreign language.

One of the oldest techniques is classical or fundamental. The purpose of the classical technique is not so much to study as to understand the subtleties and details of the principles of a foreign language. The main task pursued by the classical technique is the formation of the grammatical base of the target language. Target audience are people who start learning a foreign language from scratch. This technique is well known to those who started to learn a foreign language at school. It should be noted that it is she who is preferred by many language universities in the CIS.

These days, intensive methods of teaching foreign languages are becoming more and more popular. Many types of traditional and non-traditional methods of teaching a foreign language have been created. These methods include: the emotional-semantic method (I. Yu. Shekhter), the method of accelerated learning for adults (L. Sh. Gegechkori), hypnopedia (E. M. Sirovsky), the method of activating the students reserve abilities (G. A. Kitaygorodskaya), the suggestocybernetic integral method of accelerated learning for adults (V.V. Petrusinsky), rhythmopedics (G.M.Burdenyuk), the method of immersion (A.S. A. Akishina) and others.

When writing the article, the following methods were used: Grammar-translation, Audiolingual, Suggestopedia, Communicative, Community Method, Full Physical Response and other methods of theoretical research.

**Grammar-Translation.** This is the oldest way of teaching language and is already considered a classic one. As the name suggests, the core of this method is learning grammar and working hard with translation. Although at present many educational institutions have abandoned it in favor of a communicative method. It is still used at least partially.

**Audiolingual Method.** Sometimes the audiolingual method is also called the Army method. It is based on the postulate of behaviorism that learning and remembering various things can and should be done through constant repetition. The method involves the oral presentation of the material and multiple repetition of various lexical and grammatical structures under the guidance of a teacher.

**Direct Method.** This method originated in the 1900s in France and Germany in order to teach quickly the military people to communicate in a foreign language. It is also called the Natural Method. It is somewhat similar to the audiolingual approach, as it involves repeated repetition and development of various structures. However, the main difference is that the language is presented inductively, that is, the teacher does not explain the rule to the students, but, on the contrary, helps them understand and deduce it on the basis of the language material. It is also worth noting that in both the audiolingual and the direct method, the teacher uses exclusively the studied language; mother tongue is not allowed.

**The Structural Approach.** As the name suggests, this method is based on structure and learning. The main idea of the approach is the hypothesis that any language consists of complex grammatical rules, and it is necessary to study them in a certain order. For example, before studying Present Continuous tense, you need to study the verb "to be", with which this tense is formed.

**Suggestopedia.** Although this method is often considered pseudoscientific, it was quite popular for a while. It builds on the student's confidence that the approach will work; the techniques of light hypnosis are used. Much attention is paid to ensuring that the student does not experience the slightest discomfort during the lesson. Also, the method widely uses music.

**Total Physical Response.** The method is based on the principle of "doing by learning". It works well with younger students - preschoolers and junior high school students. The lessons practice the execution of commands and assignments, for example: "Stand up!" "Close the door!" Thus, the student memorizes the simplest phrases, which become more and more complex over time.

**The Silent Way.** In this method, much attention is paid to the independence of students: the teacher, as the name implies, practically does not speak (for example, does not give detailed and lengthy explanations of grammar). Instead, he acts as an assistant who guides students. Pronunciation is of great importance - it takes a lot of time in each lesson. Also, the passed vocabulary and grammar is regularly repeated. Often, students do not even write formal tests based on what they have learned; instead, the instructor assesses their progress from lesson to lesson.

**The Lexical Approach.** Here the study of vocabulary is at the forefront. Initially, a list of the most frequently used words and lexical structures is determined, and the study moves gradually, from simple to complex. Much less attention is paid to grammar than in other methods.

**Task Based Learning.** In this method, language learning is based on the performance of a communicative task. For example, a teacher instructs students to act out a dialogue on the theme "In a restaurant". Students in pairs or groups perform it using only the lexical and grammatical means at their disposal. Then the analysis of what language is necessary for the successful completion of the task is carried out, the teacher gives the students the necessary vocabulary and grammar, after which a similar task is performed using new language tools.

**Community Language Learning.** Here the basis is the work of students in a group; they help each other and share their existing language knowledge. The teacher again acts only as an assistant, and not as a teacher in the classical sense of the word.

**Communicative Language Teaching.** The communicative technique is currently the most popular. It is based, as we can see from the name, communication: a teacher with students, students in pairs or groups, the whole group together. The main task of training is to teach students to communicate, and not to thoroughly learn all grammar or be able to translate texts. The teacher's communication with students is conducted entirely or almost entirely in the target language. Communication of students is also encouraged in any form; even if there are errors or inaccuracies in speech, they are not as important as the communication process itself.

This technique has proven itself in America and Europe. Continuing to conquer the world, the communicative method has come to us, taking an honorable place in the leading language universities of the republic. The methodology is based on the integration of two main methods of teaching foreign languages: traditional and modern. As the name suggests, communication plays an important role in communication. The main goal of this technique is to overcome the language barrier.

The main thing is to save a person from fear of a foreign language, from the fear of speaking a foreign language and at the same time develop other language skills and abilities, in particular, speaking and writing, reading, listening. It should be noted that grammar is studied in the process of speaking, communicating in a foreign language. The principle is as follows: first, students memorize and memorize language formulas, expressions, phrases, and only then parse the grammatical constructions found in memorized phrases. In simple terms, the principle of oral anticipation works.

The communicative technique is aimed at developing the skills and abilities of speaking a foreign language. It is also worth noting that the application of the methodology directly affects the structure of the lesson. Very often in the classroom it is necessary to use game situations, carry out group work, develop tasks for finding errors, for the ability to compare and compare.

Today, the development of the modern industry makes the latest interactive resources available for learning a foreign language: computers of the latest generation, Internet TV programs, newspapers, magazines. It is very important to put into practice all of the above. This helps to awaken students' interest in the history, culture, traditions of the country of the target language and helps to form the skills that will be needed in the future.

Learning is an active interaction between teacher and students and it cannot be one-sided. It depends on the teacher how successful the learning process will be.

Each teacher is guided in accordance with his personal experience in the choice of methods and techniques of work. But, based on the results of the experimental practical work, it can be argued that the use of various techniques within the framework of communicative, inductive, deductive methods gives a positive result and, undoubtedly, contributes to an increase in the effectiveness of teaching grammar.

We believe that it is necessary to adhere to the so-called "mixed" teaching methodology. This allows you to achieve your goals and gives you high results.

#### **Bibliography:**

1. Passov E.I. Conversations about a foreign language lesson: a guide for students of pedagogical institutes / E.I. Passov et al. - L. Education. 1975 .- 176 p.
2. Bim I.L. On the question of methods of teaching foreign languages / I.L.Bim // IYASh.- №2.
3. Volovin A.V. Volovin A.V. Communicative approach to the study of foreign languages in the methodological systems of Great Britain and the USA // Communicative approach to the study of foreign languages: collection of scientific works - Issue 275 - M., 1985. - P.19.

## **BADIIY NUTQNING ISHTIROKCHILARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy nutq va uning turli yo'llar bilan aniqlanishi, turli davrlarda tilning funksional-stilistik tahlili va sintagmatik munosabatlar xususida ayrim mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy nutq, badiiy axborot, badiiy adabiyot, badiiy uslub, stilistika

Bunda o'quvchi adresat vazifasini bajaradi, lekin pragmatik vaziyatning bevosita ishtirokchisi emas. Uning uchun asosiy narsa xabar qilingan narsaga o'ziga xos munosabat emas, balki matnning ijtimoiy-madaniy ma'nosi. Badiiy faoliyatning maqsadi uslub -muallifning his-tuyg'ularini etkazish, o'quvchida kayfiyatni shakllantirish.

1. Fazoviy-vaqtinchalik tashkilot (xronotop) badiiy nutqni turli yo'llar bilan aniqlash mumkin. Bu turli davrlar va sharoitlar bo'lishi mumkin, lekin faqat o'quvchi tanlaydi u tomonidan kelajak modeli sifatida qabul qilingan ba'zi tarkibiy qismlar harakatlar. Hodisalar turli tarixiy davrlarda sodir bo'lishi mumkin, shuning uchun xuddi shu davrda bir xil badiiy asar turlicha baholanadi. Va har bir yangi davr adabiy talqin qiladi va o'z yo'lida ishlaydi.

2. Antropotsentriklik, insonning qachon bilishini nazarda tutadi matnning barcha tarkibiy qismlari muhim, shu jumladan til parametrlari muhim; chunki inson shunchaki alohida ob'ekt emas balki uning tavsifi, u ham uning markazi, tamoyillarini belgilaydi adabiy matnni tashkil etadi.

3. Badiiy axborotning uch turi: mazmun-kontseptual, mazmun-faktik va mazmun-pastki matn<sup>1</sup>. Agar muallif ba'zi bir tipik hodisalarni tasvirlasa, o'rgansa, tashqi dunyoda yoki shaxsning ichki dunyosida mavjud bo'lgan, keyin adabiy matnning estetik va axloqiy xususiyatlari topiladi o'quvchi tomonidan idrok qilish kursi hisoblanadi.

4. Badiiy adabiyot muallif va o'quvchi o'rtasidagi kelishuvning bir turi sifatida ba'zi badiiy narsalarni o'zgartirish yoki o'tkazib yuborish tafsilotlardir. Muallif o'z ishida birlashtirishga intiladi xayoliy va real voqealarni. Buning sababi ichida badiiy asarning barcha xilma-xilligini tasvirlab bo'lmaydi hayotimizda sodir bo'ladigan voqealar.

5. Nutqni stilizatsiya qilish, buning natijasida o'quvchi so'z birikmalariga duch keladi va uning oddiy ongiga xos bo'lmagan iboralar (xususan, so'zlashuv nutqining alohida elementlari jonlilikka sabab bo'lishi mumkin tasvirlar va qahramonlarning samimiy his-tuyg'ularini etkazish).

6. Hissiy rang berish turli xil nutqlarda namoyon bo'ladi badiiy adabiyotda asar muallifi hamisha u yoki bu tarzda bo'ladi emotsional tildan foydalanadi. Bu funktsiyaning mavjudligi bilan bog'liq badiiy nutq hissiy idrokning shakllanishi atrofda haqiqat, bu faqat u tufayli mumkin bo'ladi tilning ekspressiv vositalari orqali. Muallif keng doiradan foydalanadi leksik va sintaktik obrazli vositalar. Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'zaro ta'sirni tahlil qilishda badiiy matn va asarni farqlash qiyinlashadi bu tushunchalar. Bu masala bilan, xususan, M.M. Bakhtin, K.A. Dolinin, Yu.M. Lotman va boshqalar shug'ullanishgan. Asar va matn faqat qarama-qarshilikda farq qilmaydi statik va dinamika, balki matnni umumiy va yuqoriroq deb tushinishda ham birida yopilgan mahsulotga nisbatan toifa ifodalangan bo'ladi.

Bu ish to'liq ramziy ma'noda tan olingan matnga aylanadi<sup>2</sup>. Bular orasidagi farq tushunchalar ikki ilmiy yo'nalishda namoyon bo'ladi - adabiy tanqid va tilshunoslik. Tilshunoslik matnni o'rganadi - yozma ravishda aniqlanadi bayonot berdi<sup>3</sup>. Shu bilan birga, adabiy tanqid badiiy asar, shu jumladan uning yozilish tarixi, mualliflik g'oya, yozuvchining tarjimai holi va boshqalar. Umuman olganda, tadqiqot badiiy asar hozirda uch darajada sodir bo'ladi: ma'lum bir yozuvchining bevosita matni, kontekst madaniy an'analar elementlari, shuningdek, gipermatn

<sup>1</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 63.

<sup>2</sup> Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста / Составление, общая редакция и вступительная статья Т. М. Николаевой. – М.: Прогресс, 1978. – С. 451.

<sup>3</sup> Успенский Б.А. Его Loguens: Язык и коммуникативное пространство. – М.: Российск. Гос. гуманитар. Ун-т, 2007. – С. 13

bilan ishlaydi haqida barcha mumkin bo'lgan hukmlarni o'z ichiga oladi ilmiy-biografik tanqidda adabiy asar<sup>1</sup>. Badiiy uslub - bu nutqning funksional uslubi badiiy adabiyotda qo'llaniladi. Ushbu uslub ta'sir qiladi o'quvchining tasavvuri va his-tuyg'ulari, muallifning fikr va his-tuyg'ularini tasvirlaydi; so'z boyligining barcha boyligini, turli uslublarning imkoniyatlarini qo'llaydi, nutqning obrazlilik, emotsionalligi bilan ajralib turadi<sup>2</sup>.

Badiiy uslubning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Etkazish vositasi bo'lgan til vositalari badiiy obraz, hissiy holat va kayfiyat hikoya qiluvchi.

2. Muallif va hikoyachining mos kelishi, shiddatli va to'sqinliksiz muallifning "men" ifodasi.

3. Stilistik figuralardan foydalanish, taqqoslash, metafora, metonimiya va boshqalar, emotsional va ekspressiv lug'at, frazeologik birliklar.

4. Ko'p uslublilik. So'zlashuv vositalaridan foydalanish, publitsistik va boshqa uslublar ijodiy amalga oshirishga bog'liq niyat. Bu uslub birikmalari muallif uslubini tashkil qiladi.

5. Nutqning noaniqligini qo'llash –so'zlar shunday tanlangan, ularning yordami bilan nafaqat tasvirlarni yarating, balki ularga sarmoya kiriting qandaydir yashirin ma'no beradi.

6. Axborot uzatish funktsiyasi ko'pincha yashirin. Badiiy faoliyatning maqsadi uslub - muallifning his-tuyg'ularini etkazish, o'quvchida kayfiyatni shakllantirish<sup>3</sup>. Matn tilshunosligi nisbatan yaqindan rivojlana boshlaydi. Olimlar "matn" tushunchasining ta'rifi bo'yicha tushunchaga keldi va, Shunga ko'ra, bu sohada deyarli har bir tadqiqot matn va uning mazmuni haqida fikr yuritishdan boshlanadi berilgan tomonidan ko'rsatilgan narsalarni tavsiflovchi belgilar yoki xususiyatlar muddat.

Bu qiyin atama, uning ta'rifi bevosita bog'liq matnni o'rganishda tanlangan yondashuv. U lingvistik birlik sifatida olimlar nisbatan yaqinda aniqladilar. Shu bilan birga, matnlar xilma-xil va kommunikativ vaziyat, shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi va boshqa ko'plab omillar, bu umumiy xususiyatlar va naqshlarni aniqlashni qiyinlashtiradi matn. Biroq, matn yaratish qobiliyati juda muhim, chunki u yo'qligi samarasiz muloqotga olib keladi.

Tilning funksional-stilistik tahlili yaqinda paydo bo'lgan. Lingvistik stilistika mustaqil fanga aylanganda tilshunoslikdagi yo'nalish -20-asrning o'rtalarida, shunga qaramay stilistika va nazariyaning asosini tashkil etgan g'oyalar ekanligi badiiy nutq ancha oldin paydo bo'lgan, ular hali ham bog'liq edi ilmiy izlanishlari bilan V.F. Gumboldt va A.A. Potebni<sup>4</sup>.

Badiiy matn muayyan turdagi matndir, Bu ko'pincha "badiiy" tushunchasi bilan belgilanadi ish". E'tibor bering, san'atning asosiy elementlari doimo usta va u qo'llagan badiiy vositalarning yig'indisi harakat qiladi va ular yaratgan san'at. Asosiy xususiyatlar badiiy asarning to'liqligi, yaxlitligi va tuzilishi kabi xususiyatlari<sup>5</sup>. Bu xususiyatlar san'at asari, muallifning mahoratli mehnati tufayli ustalar. Badiiy matn quyidagi funktsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan: yangi ma'lumotlarni yaratish, uzatish va saqlash.

O'quvchi adabiy matn birgalikda yaratilish natijasida hosil bo'lgan narsa bilan bog'liqdir ma'lumot, u muallif nima demoqchi bo'lganidan xabardor bo'lishi kerak. L.G. Babenko oldingi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, keldi degan xulosaga kelsak, ushbu kontseptsiyani ta'kidlab, turli tadqiqotchilar birinchi o'ringa chiqadilar uning tarkibiy qismlari bir xil emas<sup>6</sup>.

Olim quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqdi matnni o'rganish: antropotsentrik, tekstotsentrik, lingvosentrik, kognitiv. Bu masalaning munozarali tabiatiga qaramay, mumkin

<sup>1</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика: пер. с фран. / Общ. ред., вст. ст. и комм. Ю. С. Степанова. Изд. 4-е. – М.: Либроком, 2010. – С. 42

<sup>2</sup> Солганик Г.Я. Стилистика текста: Учеб. пособие. – М.: Флинта; Наука, 2000. – С. 21.

<sup>3</sup> Там же. – С. 22-23.

<sup>4</sup> Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис / Отв. ред Т. В. Булыгина. – М.: Наука, 1992. – С. 90.

<sup>5</sup> Федотова О.С. Эксплицитное присутствие автора в тексте англоязычного художественного произведения: мнение автора об особенностях современного ему мира. Вестник МГИМО. – 2013. – (4(31)). – С. 218

<sup>6</sup> Бабенко Л.Г. Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика: учебник для вузов; Практикум / Л. Г. Бабенко, Ю. В. Казарин. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С. 56.

taklif qilingan I.R.ni ko'rib chiqing. Galperinning "matn" tushunchasiga ta'rifi eng sig'imli, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan va aks ettiruvchi sifatida hodisaning tabiati: matn to'liq, ob'ektiv, o'z ichiga olgan nutq-ijodiy jarayonning yozma ishi nomi (sarlavha) va maxsus birliklar (superfrazalar birliklar) va leksik, mantiqiy, grammatik, stilistik aloqalarning har xil turlariga ega, shuningdek, maqsadlilik va mavjudligi bilan farqlanadi. pragmatik munosabat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.-С. 63.
2. Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста / Составление, общая редакция и вступительная статья Т. М. Николаевой. – М.: Прогресс, 1978. – С. 451.
3. Успенский Б.А. Ego Loguens: Язык и коммуникативное пространство. – М.: Российск. Гос. гуманит. Ун-т, 2007. – С. 13
4. Бенвенист Э. Общая лингвистика: пер. с фран. / Общ. ред., вст. ст. и комм. Ю. С.
5. Солганик Г.Я. Стилистика текста: Учеб. пособие. – М.: Флинта; Наука, 2000. – С. 21.
6. Там же. – С. 22-23.
7. Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис / Отв. ред Т. В. Булыгина. – М.: Наука, 1992. – С. 90.
8. Федотова О.С. Эксплицитное присутствие автора в тексте англоязычного художественного произведения: мнение автора об особенностях современного ему мира. Вестник МГИМО. – 2013. – (4(31)). – С. 218
9. Бабенко Л.Г. Лингвистический анализ художественного текста. Теория и практика: учебник для вузов; Практикум / Л. Г. Бабенко, Ю. В. Казарин. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С. 56.

*D.A.Dadajanova,  
Toshkent davlat pedagogika  
universiteti katta o'qituvchisi*

### **OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARINING O'ZINI- O'ZI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotasiya.** Ushbu maqola Oliy ta'lim tizimi talabalarining o'zini-o'zi rivojlantirishda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish, mustaqil va kreativ fikrlash zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kredit modul tizimi.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy o'rinni egallaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni echimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishdir.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita

asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim muassasalarida talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad:

- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir;
- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
- talabalarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
- predmetlararo aloqadorliqni ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida mutaxassislikka tayyorgarlikni takomillashtirish;
- fanlar va mutaxassisliklarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
- darsning samaradorligini oshirish yo'llari;
- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;
- internet tarmog'idan ratsional echimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi» to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda. Albatta, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq, ko'p hollarda o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta'lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning

samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlar tayyorlashda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

.Oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni, uning ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan, o'z-o'zining kasbiy takomillashuvini nazorat qiladigan shaxslarni tarbiyalashdagi o'rnini ko'rsatish va bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllanishida uning rolini tahlil etishdan iboratdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassis kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki bo'lajak mutaxassisning ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kompetentlikni shakllanishida asosiy o'rinni talabalar mustaqil ta'limi egallaydi. Chunki bo'lajak mutaxassis faqat bilim va ko'nikmaga ega bo'libgina qolmay, uni amalda qo'llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta'lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkindir. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim bo'lajak mutaxassislarni har qanday sharoitda va holatda o'zlarining aqliy salohiyatlarini to'la ishga solish, zarur bo'lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlarida tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so'z bilan aytganda ijtimoiy hayotda va ta'lim-tarbiya jarayonida to'laqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Talabalik davrida o'qituvchining hamkorligida, maslahatlariga suyanan holda mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalari tarkib topadi. Oliy o'quv yurtidagi mustaqil ta'limning foydali tomonlaridan biri shundaki, talaba o'quv dasturi va darsliklaridan tashqaridagi kasbi va ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni ham izlab topishga, tajriba-sinovlar o'tkazgan holda yanada boyitishga erishadi. Bu, o'z navbatida, tashabbuskor, bunyodkor va ijodkor kadrlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o'zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali talaba iste'dodining noma'lum qirralari ochiladi. Talabaning o'ziga, aqli va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarining takomillashuvi ro'y beradi. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.

Bizning nazarimizda, mustaqil ta'lim yoshlarni ertangi kunning murakkab muammolariga qiynalmas dan javob topishga tayyorlashning omili bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o'quv yurtlarida o'quv reja va dasturda aniq belgilangan. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimliliigi katta ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz kerak.

Ayniqsa hozirgi axborot asrida talabaning axborot kommunikatsion texnologiyalar dan erkin foydalana olishi va chet tilida muloqot qilishi ham uning to'laqonli mutaxassis bo'lib yetishishida muhim o'rin egallaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Aliev I.T. Pedagogning kasbiy kompetentligi // Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 55 b.

2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

3. Lyubimova O.V. Normativ kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va tashxislashning ba'zi usullari to'g'risida / O.V. Lyubimova // Tomsk xabarnomasi davlat universiteti. 2009. No 327. S. 181-183

## DISKURS VA MATN TUSHUNCHASI HAQIDA

**Annotatsiya.**Maqolada rus va g'arb tilshunos olimlarining diskurs va matn haqida fikrlari o'rganiladi hamda xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** diskurs, ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy madaniy, psixologik omillar.

“Diskurs” tushunchasi lisoniy muloqot tahliliga o'z shaxsiy nuqtai-nazari bilan bir qadar ideologik yondashuvni taqozo qiladi. Mishel Fuko bu so'zni keng qamrovli ma'noda ko'rib chiqib, diskursni lisoniy emas, balki umummadaniy tushuncha deb hisoblaydi. U yozadi: “... Diskurs, shubhasiz – belgi hodisasi, lekin bu - narsalarni ifodalash uchun belgilarning shunchaki ishlatilishidan ko'ra ko'proq ish bajaradigan hodisa. Aynan uning ana shu ko'proq ish bajarishi uni til va nutqqa qiyoslab bo'lmasligini ta'minlaydi” (Fuko 1996). M. Fuko tushunchasi bo'yicha diskurs birligi va “atom”i bu fikrdir. Fikrlar majmui diskursiv formatsiyalarni tashkil qiladi. Fuko formatsiyalarga insoniyat jamiyatining iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, tirik jonzorlar haqidagi fanlar kabi iqlimiy diskurs haqida gapirishga izn beradigan diskursni, tabiiy tarix diskursini, psixiatriya diskursini kiritadi. Fukoning tan olishicha, “diskurs” tushunchasining bunday ishlatilishi hamma tomonidan qabul etilmagan, biroq tilshunoslar unga butunlay boshqacha ma'no beradilar. Tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlarda “diskurs” ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy madaniy, psixologik va boshqa faktorlar bilan birgalikdagi bog'langan matn deb talqin qilinadi.

Yu.S. Stepanov diskursga V.Z. Demyankov bergan ta'rifni eng yaxshi ta'rif deb hisoblaydi. “Diskurs – bitta gapdan yoki mustaqil gap qismidan ko'proq matnning ixtiyoriy fragmenti. Ko'pincha, (lekin doimiy emas) qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi. Harakatlanadigan shaxslar, ob'ektlar, holatlar, zamonlar, harakatlarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni hosil qiladi. Diskurs gaplarning ketma-ketligidan emas, uni hosil qiladigan va talqin qiladigan, diskurs bilan “yaratiladigan” olam tomonidan aniqlanadi”. Qayd etish kerakki, ta'rifning bu qismida V.Z. Demyankov diskursning intensional tuzilishini ifodalayapti, chunki bu yerda gap talqin etuvchi olam haqida, ya'ni intensional gorizont va interpretatsiya konteksti haqida ketayapti. Shu bilan birga diskurs mantiqiy tuzilishga ham ega deb hisoblaydi ushbu ta'rif muallifi. Diskurs uchun boshlang'ich tuzilish kon'yunksiya, diz'yunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlari bilan o'zaro bog'langan elementar propozitsiyalar ketma-ketligi ko'rinishiga ega. Diskurs elementlari: bayon etilgan voqea-hodisalar, ularning qatnashchilari, performativ axborotlar va hodisalar emas, ya'ni, a) hodisalardan keyingi holatlar; b) hodisalarni aniqlashtiradigan fon; v) voqea-hodisa qatnashchilari bahosi; g) diskursni voqealar bilan solishtiridigan axborot (Stepanov 1995:37-38).

Ikkala ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, diskursni barcha ekstralingvistik faktorlar bilan birgalikda, dunyo, fikrlar, qarashlar, baho, adresantning maqsadini o'z ichiga olgan matn yoki harakatdagi nutq deb tushunsa bo'ladi. Shunday qilib, diskurs kengroq va ochiqroq tushunchadir.

Yu.S. Stepanov diskursni muqobil dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog'laydi. U shuningdek diskursni alohida ijtimoiy borliq ko'rinishida namoyon bo'lgan “til ichidagi til” sifatidagi keng lingvo-falsafiy izohini beradi (Stepanov 1998). Bunda diskursni shunchaki til sifatida grammatika, stil yoki leksikon kabi hisoblab bo'lmaydi. U eng avvalo, matnlarda mavjud, lekin shunday matnlardaki, ularning ortida alohida grammatika, alohida leksikon, alohida so'z ishlatilish va sintaksis qoidalari, alohida semantika mavjud bo'lgan matnlarda, bir so'z bilan aytganda diskurs alohida dunyodir. Garchi Yu.S. Stepanov diskursni matnlarda mavjudligi haqida aytgan bo'lsa-da, uning diskursni alohida dunyo sifatida ko'rishi diskurs matn doirasidan tashqari tushuncha deb xulosa qilishga olib keladi.

Endi bir qancha xorijlik tilshunoslarning diskurs tushunchasini qanday aniqlashganliklarini ko'rib chiqamiz. Debora Shifrin bu tushunchaga uch tomonlama yondashadi. Birinchi yondashuv tilshunoslikning formal yo'naltirilgan pozitsiyasidan diskursni shunchaki gap yoki so'z birikmasi darajasidan yuqorida turadi deb hisoblaydi - "language above the sentences or above the clause" (Makarovdan 1998:69). Ikkinchi yondashuv diskursga "the study of discourse is the study of any aspect of language use" (ukaz.soch.:69.) hamda "tilning turli-tuman ishlatilishi" sifatida funksional ta'rif beradi. Bu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifasini o'rganishni nazarda tutadi. Uchinchi yondashuv shakl va funksiyaning o'zaro harakatini ta'kidlaydi: diskurs-fikr - "discourse as utterances" (ukaz.soch.:70). Bu ta'rifga ko'ra diskurs "gapdan kattaroq" bo'lgan lisoniy tuzilmalarning ajratib olingan primitiv yig'indisi emas, balki til ishlatilishining funksional tashkil qilingan, kontekstuallashgan birliklarining majmuidir.

Robert de Bograndning ushbu tushunchaga yondashuvi shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Olim bu tushunchani boshqacha nazar bilan, aytish mumkinki, mutlaqo original kontekstda yoritadi. Bogrand ta'kidlaydiki, real dunyoda til o'z-o'zicha mavjud emas. "Siz kanal sohilida sayr etayotgan golland tilini, bir chashka choydan huzur qilayotgan ingliz tilini yoki qandaydir ish bilan mashg'ul nemis tilini topolmaysiz. Siz faqat diskurslarni, ya'ni real kommunikativ voqealarni topasiz" (Beaugrande 1997:36).

Bunday nuqtai-nazarni diskurs nazariyasini ishlab chiqqan yetakchi olimlardan golland tilshunosi T.van Deyk ham bildiradi. U ham diskursni kommunikativ hodisa deb hisoblaydi. Kishilar tilni o'z fikr va g'oyalarini uzatishda ishlatadilar. Bu o'z navbatida murakkabroq ijtimoiy harakatlarning bir qismi hisoblanadi (Dijk 1997). T.van Deykning tushuntirishicha, diskurs – bu tilning ishlatilishi, fikr va e'tiqodlarning berilishi, nutqiy ta'sirdir.

Diskurs tushunchasini ko'rib chiqishda "diskurs" va "matn" o'zaro munosabatlariga oydinlik kiritish talab etiladi.

V. G. Borbotkoning ta'kidlashicha, matn diskursga nisbatan umumiyroq tushunchadir. Olimning fikricha, diskurs ham matn, faqat kommunikativ birliklardan tashkil topgan matn. Gaplarning kattaroq birliklarga birikishi va ularning ichki ma'noviy bog'lanishlarga ega bo'lishi ularni bir butun tuzilma deb hisoblashga imkon beradi. Diskurs deb, masalan, hikoya, matnlar, maqolalar, chiqishlar, she'rlarni hisoblash mumkin (Borbotko 1981). Shu bilan birga V.G. Borbotko diskursning "yuqori kommunikativ birlik" sifatidagi statusini inkor qilmaydi (Borbotko 1981: 104).

Ba'zi tilshunoslar "diskurs" va "matn" kategoriyasini farqlashga harakat qilib, bu tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlamoqchi bo'ladilar. Diskursni "matn plyus situatsiya", matnni esa "diskurs minus situatsiya" qabilida tasniflashni taklif qiladilar (Ostman, Virtanen 1995:240).

Ba'zan bu kategoriyalarni farqlashda yozma matn og'zaki matnga qarama-qarshi qo'yiladi. I. R. Galperinda matnning quyidagicha izohini ko'ramiz. "Matn – nutqiy ijodning yozma shaklda ko'rinishi" (Galperin 1981:18). Z. Ya. Turaeva og'zaki nutqni e'tibordan chetda qoldirib, matnning juda tor ta'rifini beradi. Uning aytishicha, "matn – yozma hujjat shaklida ob'ektlangan tugallanganlikka ega nutqiy ijodiy jarayonning mahsuli" (Turaeva 1986: 11). Til va nutqni formal o'rganuvchilar uchun xarakterli bo'lgan ushbu yondashuv bu kategoriyalarni lisoniy borliqning faqat ikki shakliga – yozuvdan foydalanuvchi va foydalanmaydiganlarga bo'lib o'rganishni nazarda tutadi. Bu dixotomiyaga asoslanib bir qator tilshunoslar diskurs tahlil ob'ekti og'zaki nutq va yozma matn tilshunosligi bo'lishi kerak degan fikrdalar (Hoey 1983/4). Bunday yondashuvning ma'qul kelmasligi ba'zan ko'rinib qoladi, masalan, doklad ayni paytda ham yozma matn va chiqish qilish deb qabul qilinish mumkin (kommunikativ hodisa). Garchi bu tabiatiga ko'ra monologik nutq bo'lsa-da, ushbu faoliyat turida lisoniy muloqotning butun spetsifikasi aks etadi.

Juda ko'p funksional yo'naltirilgan tadqiqotlarda diskurs va matnni bir qancha oppozitiv kriteriyalar: funktsionallik-strukturaviylik, jarayon-produkt kriteriyalari bo'yicha qarama-qarshi qo'yish tendensiyasi kuzatiladi. Shunga ko'ra struktur matn – produkt (mahsulot), funksional diskurs-jarayon deb farqlanmoqda (Makarov 1998). Ba'zi tilshunoslar diskursni odatda bir muallifga tegishli bo'lgan matnga qarama-qarshi ravishda o'zaro nutqiy ta'sirning interaktiv usuli

deb tushuntirmoqdalar. Bunday qarama-qarshi qo'yish dialog va monologning an'anaviy oppozitsiyasiga yaqin. Diskurs iva matnni bunday farqlash o'rinsizligini T. Van Deyk ko'rsatib o'tgan. Diskursni gapiruvchi va retsipient kabi tildan foydalanuvchilarni o'zida jo qilgan verbal o'zaro ta'sir shakli sifatida qarab, olim ta'kidlaydiki, "matn ham o'zaro ta'sir shaklidan ko'ra verbal aktlar mahsulidir" deydi va yana ta'kidlaydiki, "... biroq bunga qaramasdan matnning ham muallif va o'quvchi kabi o'z "foydalanuvchilari" bor" (Dijk 1997:3). Ravshanki, biz yozma o'zaro ta'sir haqida gapira olamiz.

Shunday qilib, diskurs va matn o'rtasidagi farqlarga qaramasdan, ular o'rtasida o'xshashliklar bor. T. Van Deykninig hisoblashicha, bu matnni diskursda reallashadigan abstrakt nazariy konstrukt sifatida "diskurs" tushunchasiga kiritish uchun yetarli (Dijk 1985). Gap ham fikrda aktuallashadi. J. Lich aytganidek, matn xabarda reallashadi va bu orqali diskurs amalga oshadi (Leech 1983: 59).

Ko'rib turganimizdek, zamonaviy tilshunoslik "diskurs" tushunchasiga turli-tuman yondashuvlar bilan boydir. A. M. Kaplunenko "diskurs" va "matn" tushunchasi munosabatini aniq ifodalaydi. Olimning fikriga ko'ra "diskurs ancha keng universal tilshunoslik ob'ekti bo'lib, u nafaqat nutqning til strukturasi o'z ichiga oladi, balki kommunikativ situatsiyalarning bir tipdagi parametrlarini, kommunikantlarning o'ziga xosliklarini, muloqot qurilishi strategiyasini o'z ichiga oladi. Diskursdan farqli ravishda matn nutqning struktur-ma'noviy parametrlari doirasidan tashqari chiqmaydigan ancha o'ziga xos va tor ko'rinishni namoyon qiladi (Kaplunenko 1991). Diskursni bunday keng tushunish bugun bu masalaga tegishli barcha lingvistik adabiyotlarda uchraydi. Albatta, bularning hammasini qamrab ololmaymiz va asos sifatida T. Van Deykning qarashini qabul qilamiz. Unga ko'ra diskurs bu murakkab kommunikativ hodisa, u matndan tashqari ekstralingvistik faktorlarni (matnni tushunish uchun zarur bo'lgan dunyo haqidagi bilim, fikrlar, qarashlar, adresatning maqsadini) ham o'z ichiga oladi. Olimning qarashlariga ergashib diskursni uch aspektida ko'ramiz:

- 1) tilning ishlatilishi,
- 2) g'oya va e'tiqodlarning berilishi (muloqot),
- 3) ijtimoiy–shartli situatsiyalarda o'zaro harakat.

Aniq ko'rinib turibdiki, xulosa o'rnida aytishimiz mumkin, uch aspektni o'rganishga integratsion yondashuv til ishlatilishi g'oya va e'tiqodlarning berilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi va aksincha, o'zaro harakat aspektlari kishilarning gapirishlariga qanday ta'sir ko'rsatishlari va muloqot jarayonida e'tiqodlar til ishlatilishi va o'zaro harakatga qanday ta'sir etishi haqida tasavvur beradi. Diskurs va matn haqida bu qadar ko'p va xilma-xil fikrlarning mavjudligi hali bu muammoni hal etish uchun yanada tadqiqotlar o'tkazilishi kerakligidan dalolat beradi.

#### Adabiyotlar

1. Фуко М. Археология знания / М.Фуко. – Киев: Ника – центр, 1996. – С. 207.
2. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35 – 73.
3. Степанов Ю.С. Язык и метод. К современной философии языка / Ю.С.Степанов. – М.: "Языки русской культуры", 1998. – 784 с.
4. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л.Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998. – 199 с.
5. Beaugrande de R. The Story of Discourse Analysis / R. de Beaugrande // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London-Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications, 1997. Vol.1. – P.35 – 63.
6. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction / van T.A.Dijk. – London – Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications. – 1997. – Vol.1. – 352 p.
7. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса / В.Г.Борботько. – Киев: Вища школа, 1981. – 144 с.

8. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р.Гальперин. – М.: Наука, 1981. – 140 с.
9. Тураева З.Я. Лингвистика текста: (Текст: структура и семантика). Учеб. пособие / З.Я.Тураева. – М.: Просвещение, 1986. – 126 с.

*X.U.Urokov,  
SamDCHTI o'qituvchisi*

## **INTERNET-IJTIMOY TARMOQ MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Internet tarmog'i bugungi shunday jadallik bilan rivojlanib kelmoqdaki, unda foydalanuvchilar tomonidan ishlatilayotgan so'zlarni o'rganish, tahlil qilish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq sahifalarida foydalanuvchilar tomonidan yozilayotgan internet matnlarida turli xil jargonlar, tabular, varvarizm, vulgarizmlar, sotsiolektlar kabi sotsiolingvistika elementlarini uchratishimiz mumkin. Bulardan tashqari, ijtimoiy tarmoqda shunday guruhlar shakllanib bormoqdaki, bu guruhlarining muloqot jarayonlarini amalga oshirishdan o'z maqsadlari mavjud. Ushbu maqolada aynan mana shu jihatlarga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvistika, internet, internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoq, kommentariya, foydalanuvchi, ijtimoiy guruh, muloqot, muloqot usullari.

Sotsiolingvistika bevosita ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning insonlar orasidagi muloqot vazifalarini qay darajada bajarishini, muloqot jarayonida qanday elementlardan foydalanilayotganini o'rganadigan soha sanaladi.

Sotsiolingvistika tilning o'zgaruvchan xususiyati va funksiyasini o'rganuvchi fandır. Sotsiolingvistika atamasi lotincha socialic–jamiyat va lingua–til so'zlaridan tashkil topgan. U ijtimoiy tilshunoslik demakdir.

Bu atamani fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri kiritgan. Sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak.

Bugungi kun internet tarmog'ida olib borilayotgan muloqotlarda suhbatdoshlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga umuman amal qilinmayapti, vulgarizmlarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin.

“Bu gap bilan Murod aka Barsaning muxlisi ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Barsa orqasidan yesa, putini ichiga kirib ketadi, yutsa dakan xo'rozday javdirab chiqadi” (Telegram tarmog'idan Murod Rizayev sahifasidan olindi).

Ushbu kommentariyga e'tibor beradigan bo'lsak, muloqot qiluvchining madaniyatsizligiga, saviyasining pastligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu fikr orqali yuqoridagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisining bilim saviyasi nihoyatda past ekanligi, birovlarining sha'ni umuman qiziqirtmasligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Internet tarmog'ini biz ma'lum bir jamiyat deb atasak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki jamiyat deganda, muayyan nutq sharoitida nutq jarayoni ishtirokchilari, shu nutq ishtirokchilari mansub bo'lgan ijtimoiy-madaniy tabaqa hamda nutq sharoiti tushuniladi. Bozorda, do'konda sotuvchi va xaridor o'ziga xos bir jamiyatni tashkil qiladi.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, internet tarmog'idagi ijtimoiy tarmoqlarda ham suhbatdoshlar ma'lum bir ijtimoiy tabaqaga, ular o'rtasida qo'llaniladigan muloqot usullariga ega bo'ladi. Chunki bu tarmoq juda katta va ko'p ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan. Ijtimoiy guruh a'zolari o'zlarining kasblaridan, ijtimoiy guruhlaridan kelib chiqqan holda muloqot qiladilar, ularning muloqotida nutq ixtisoslashadi-ma'lum bir qolipga tushadi, mavzu doirasi ham chegaralanadi. Masalan, Telegram tarmog'idagi foydalanuvchilarda o'qituvchilar guruhi, sport guruhi, talabalar guruhi, diniy guruhlar kabi ijtimoiy guruhlar mavjudki, bulardagi suhbatlar guruh

nomidan kelib chiqqan holda olib boriladi. Bu guruhlarini biz bemalol internet jamiyatining bir qismi sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Internet tarmog'ida ijtimoiy guruh va uning a'zolari o'rtasidagi suhbatlar va ma'lum bir ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro muloqotlar ham mavjud. Tarmoqdagi ma'lum bir maqsadda birlashgan guruh vakillari (masalan, "Ziyolilar", "Tilchilar", "Barsamaniya") o'zlarining mushtarak maqsadlariga tayangan holda muloqotga kirishadilar. Bulardagi suhbat jarayonlari kichik guruh doirasida olib boriladi. Boshqa guruh vakillarining muammolari, yutuqlari ularga unchalik ham ta'sir o'tkazmaydi.

Lekin shunday holatlar ham mavjudki, endi ijtimoiy tarmoqdagi ba'zi ijtimoiy guruhlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishiga to'g'ri keladi. Unda endi ikki guruh manfaatlari to'qnashadi yoki ikki guruh o'rtasidagi masalalarga oydinlik kiritiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi siyosatchilar bilan oddiy insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonini ushbu holatga misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan Xalq ta'lim vazirining **"Maktabdagi o'qituvchilarning ko'pi talabga javob bermaydi. Ularga qanday qilib 1000 dollar oylik to'lashimiz mumkin"** (Daryo.uz saytidan) deb nomlangan intervyusi orqali siyosatchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni ko'rishimiz mumkin.

Kichik guruh a'zolarining o'zaro muloqoti mikrosotsiologiyaviy, ijtimoiy guruhlarining o'zaro muloqoti esa makrosotsiologiyaviylikka misol bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoq sahifalarida bulardan tashqari ekvivalentsiz leksika, lakunalar, realiyalar, dialektlar, tarixiy va arxaik so'zlar, diniy so'zlardan ham foydalanilmoqda, bu orqali esa tilning naqadar ijtimoiylashib ketganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

"Sportning bu turini hech ikkilanmay, shafqatsiz jang turi deb atayman. To'g'ri, xatti-harakatlardagi chaqqonlik va ephillik talabi o'zimizning erkin kurash turiga yaqinroq turadi. Ammo qattiqqo'llik, raqibga ayovsiz kuchli va keskin zarba berishda ikkilanmaslik jihatlari bilan mutlaqo farq qiladi. Jang chog'ida tana a'zolarining qattiq lat yeyishi yoki sinishi ikkinchi taraf uchun qiziq emas".

Ushbu matnda til o'zgarishining tashqi omillari-tilning ishlatilishidagi shart-sharoitlarni kuzatishimiz mumkin. Chunki bunda so'zlovchi o'z suhbatdoshiga o'zining qaysi ijtimoiy guruhga mansub ekanligini, bu ijtimoiy guruhdagi qonun-qoidalar haqida, ular shug'ullanayotgan sport turning shavqatsizligini til orqali bildirib o'tmoqda.

"Kurash maydoni bu – iqtisod! Har bir g'alabada g'olib hisobiga katta miqdorda mablag' to'lanadi. Biroq jang maydonida faqat halollik ustun. Team Quest klubidan o'rganganlarim meni o'ta qattiq zarbalarga tayyorlagan bo'lsa, o'zbek maktabida ongimga singdirilgan «**kurashdagi halollik**» meni g'alabaga boshlagandek bo'laveradi..."(Farroshlik qilib yo'lini topgan, Amerikadagi kurash maydonlarida kuragi yerga tegmagan buxorolik hunarmand-muhojir-"Maqsadimga yetish uchun mehnatdan qochmadim" nomli maqola. Daryo.uz saytidan olingan)

Bu matnda nima uchun ushbu sport turini tanlaganini, ijtimoiy guruh a'zolarining asosiy maqsadi nima ekanligini bilib olamiz. Bundan tashqari, ushbu sport turi bilan shug'ullanayotgan insonning yosh ekanligini ham anglab olamiz. Ushbu insonning qaysi muhitda yashayotganligini, avval qaysi muhitda qanday g'oyalar ta'sirida tarbiya topganligini ham anglab olamiz. Til o'zgarishining tashqi omili so'zlovchilarning yoshiga jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Internet tarmog'ini, ijtimoiy tarmoqlarni biz bemalol lisoniy hamjamiyat, uning turlarini esa lisoniy hamjamiyatning guruhlari desak ham bo'ladi. Sababi lisoniy hamjamiyat deb ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari bilan va turli ijtimoiy institutlar bilan o'zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyiga aytiladi. Yaxshilab e'tibor berib qarasaq, internet ijtimoiy tarmog'i ham turli xil mavzularda bir-biri bilan muloqot qilinadigan tarmoq sanaladi.

Bir lisoniy hamjamiyat boshqasidan hajm jihatdan ham katta bo'lishi mumkin. Bu ta'rifga qarab ham internet-ijtimoiy tarmog'ining lisoniy hamjamiyat deyishimizga sabablar yetarli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki internet ijtimoiy tarmog'i katta, u juda ko'plab mayda guruhlarga bo'linib ketadi. Shuning uchun ham biz internet-ijtimoiy tarmoqni katta lisoniy

hamjamiyat, internet-ijtimoiy tarmoqning turlari – Telegram, Whats’app, Facebook, Instagram, Tik Tok, Massenger va ulardagi mavjud guruhlarni esa kichik lisoniy hamjamiyat, deb atasak ham bo‘ladi.

Internet-ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarda baynalmilal so‘zlar ham ko‘payib bormoqda, bu holatni xalqlar o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanganligi bilan bog‘lashimiz mumkin. Bunday hollarda ba’zi so‘zlar chet tilidan kirib kelgan bo‘lsa ham, bugungi kunda o‘zimizga o‘zlashib ketgan hisoblanadi. Lekin shunday chetcha so‘zlar ham mavjudki, bunday so‘zlar nutqimiz uchun, nutq vaziyati uchun umuman aloqasi yo‘q sanaladi. Masalan, hi, hello, sava, nu kak, xorosho, privet, kak delo, mamochka, papochka, mam, tak, love story, svidaniya kabi. Bularning bir qismi o‘zbekcha ma‘nosi bo‘la turib ham nutqimizda ishlatilsa, boshqa bir qismi esa umuman zarurati bo‘lmagan hollarda ishlatiladi.

Ijtimoiy tarmoq sahifalarida ham shunday so‘zlardan foydalanilgan matnlarga ko‘zimiz tushadi. Bu orqali biz so‘zlovchi haqida ma‘lum bir xulosalarni chiqarib olamiz. “Privet, meni kuzatib boruvchilarim. Men yaxshi, nasib bo‘lsa xabarlashamiz. Balki svidaniyalashamiz. Moy delo xorosho, shu uchun barchangizga kattakon spasibo. Meni qo‘llab turganlaring uchun”. (Instagram sahifasi)

Yuqoridagi matnda adabiy tilimizga salbiy ta’sir qiladigan so‘z va birliklar: privet, svidaniyalashamiz, moy delo xorosho, spasibo kabilar nutqimizni g‘alizlashtirib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoq matnini jarayon va suhbatdoshlarning yozishmalarini uning natijasi sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, unga salbiy ta’sir qiluvchi quyidagi sotsiolingvistik xususiyatlarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1) suhbatdoshlarning individual uslubi va ifoda vositalarini qo‘llashdagi o‘ziga xosligiga bog‘liq bo‘lgan sotsiolingvistik xususiyatlar;

2) adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatlarda pragmatik farqlar natijasida vujudga keladigan sotsiolingvistik xususiyatlar;

3) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi guruh a’zolarining milliy-madaniy o‘ziga xosliklariga bog‘liq sotsiolingvistik xususiyatlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Yermakova va boshqalar. “Sotsiolingvistika”. Moskva, 1999.
2. Chaer A., Agustina L. Sociolinguistik perkanalan awal (introduction to sociolinguistics). Jakarta, Rineka Cipta, 2004.
3. Hamidulla Dadaboyev, Shoirra Usmanova. Xorijiy sotsiolingvistika. Toshkent, 2014.
4. M.Jurayeva, O. Yusufjonova. O‘zbek tilini o‘qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni. Academiv research in educational science. www.ares.uz.
5. Sotsiolingvistika fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. SamDu, 2021.
6. Беликов В. И., Крисин Л. П. Сотсиолингвистика. –М., 2001.

## **O‘ZBEKISTONDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISHNING ME‘YORIY-USLUBIY ASOSLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitishda qabul qilinayotgan qonun, qaror, farmon va me‘yoriy-huquqiy asoslarning uzviy ketma-ketligi va ularning mazmun mohiyati to‘g‘risida yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tillarni xususan, arab tilini CEFR mezonlari asosida o‘qitish uchun zamonaviy yangi avlod darsliklarini yaratishda qanday talablarga royiya etilishi haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** PQ-1875, PQ-3775, PQ-5117, PQ-60, CEFR, darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma‘lumotlar to‘plami (banki), ma‘ruzalar kursi, ma‘ruzalar to‘plami, mashqlar (masalalar) to‘plami, lug‘at, daydjest.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so‘ng ta‘lim sifatini tubdan oshirish, ta‘lim muassasalarining iqtisodiy salohiyatini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarning ta‘lim jarayoniga to‘liq kirib borishiga ko‘maklashish, sohalarga malakali pedagoglarni jalb etish, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta‘limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o‘quv qo‘llanma va darsliklarning yangi avlodini yaratish yo‘nalishlarida amalga oshirilgan ustuvor ishlarni uch bosqichga bo‘lishimiz mumkin:

**1. Birinchi bosqich** - O‘zbekiston Respublikasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan chet tillarga o‘qitishning kompleks tizimi, ya‘ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlod shakllantirildi va respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi. Xalq ta‘limi tasarrufidagi maktablarda, o‘rta maxsus ta‘limidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda va oliy ta‘limdagi institut, universitetlarda xorijiy tillarni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

**2. Ikkinchi bosqich** - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-1875-sonli Qarorining qabul qilinishi bilan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimi takomillashtirildi. Respublikamizning barcha hududlarida ingliz tilini o‘rganish umumta‘lim maktablarining birinchi sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirish bosqichma-bosqich joriy etildi. Oliy ta‘lim muassasalarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnika va xalqaro mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish chet tillarda olib borila boshlandi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari va o‘qituvchilarini chet tillar bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualar bilan ta‘minlash, qayta nashr etish belgilandi. Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil etildi va bu boshqarma xalqaro e‘tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimi joriy etildi.

**3. Uchunchi bosqich** - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat sihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli Qarori va 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli Qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida,

2018-2019 o‘quv yilidan boshlab tayanch oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda ishlab chiqish, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontent yaratilishi tashkil etilishi belgilandi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda «maktabgacha ta‘lim muassasalari-umumta‘lim maktablari-oliy ta‘lim muassasalari-korxonlar» tamoyilidagi uzluksiz ta‘lim zanjirida talab yuqori bo‘lgan xorijiy tillarni o‘rganishni va o‘rgatishni davlat ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirilmog‘da. Oliy ta‘lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o‘quv qo‘llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi 816-sonli qarorining qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalarda ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida yangi avlod darsliklarini yaratish bo‘yicha qo‘yiladigan asosiy va qo‘shimcha talablar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2022-yil 22-avgustdagi “O‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibini hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta‘lim muassasalarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilash to‘g‘risida”gi 284-sonli buyrug‘ida belgilab berildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda xorijiy tillar Xalq ta‘limi muassasalarida birinchi sinfdan boshlab oliy ta‘lim muassasalarigacha bo‘lgan davr oralig‘ida uzluksiz ravishda o‘qitilib kelinishi yo‘lga qo‘yilgan. O‘quvchilarning xorijiy tillarni o‘rganish qobiliyatini aniqlashga qo‘yiladigan talablar CEFR xalqaro standartlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi 187-son Qaroriga muvofiq Davlat ta‘lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritildi va O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimida Davlat Ta‘lim Standartlariga asoslangan holda chet tilini o‘rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi:

<b>Ta‘lim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Umumyevropa xalqaro standarti darajalari</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy o‘rta ta‘lim</b>	Boshlang‘ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari	<b>A1</b>	Chet tilini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
	9-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Chet tilini o‘rganishning tayanch darajasi
	Chet tillar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2+</b>	Chet tilini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
<b>O‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi</b>	Chet tillarga ixtisoslashmagan akademik litseylar bitiruvchilari	<b>B1</b>	Chet tilini o‘rganishning mustaqil boshlang‘ich darajasi
	Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari		
	Chet tillarga ixtisoslashgan akademik litseylar bitiruvchilari (Ikkinchi chet tili)		
	Chet tillarga ixtisoslashgan akademik litseylar bitiruvchilari	<b>B1+</b>	Chet tilini o‘rganishning kuchaytirilgan mustaqil boshlang‘ich darajasi
<b>Oliy ta‘lim</b>	Oliy ta‘lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari	<b>B2</b>	Chet tilini o‘rganishning mustaqil muloqot darajasi

	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari		
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari bakalavr bosqichi bitiruvchilari (ikkinchi chet tili)	<b>B2+</b>	Chet tilini o'rganishning mustaqil muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari bakalavriat bosqichi bitiruvchilari	<b>C1</b>	Chet tilini o'rganishning erkin muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlari magistratura bosqichi bitiruvchilari		

Hozirgi rivojlangan globallashtirish sharoitida O'zbekistondagi OTMlarida tahsil olayotgan talabalarni bilimli, zukko, teran fikrlovchi va to'g'ri qaror qabul qiluvchi kadrlarni tayyorlashda yuqori sifatli o'quv adabiyotlarni yaratish va ularda berilayotgan ma'lumotlardan foydalanishning o'rnini va ahamiyati juda ham muhimdir. O'quv adabiyotlari oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik ma'lumotlar ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, jahon tajribalari asosida tizimli bayon etiladigan nashr hisoblanadi. Bizga ma'lumki, o'quv adabiyotlari an'anaviy va elektron o'quv adabiyotlariga bo'linadi. Shuningdek o'quv adabiyotlariga darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma'lumotlar to'plami (banki), ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, mashqlar (masalalar) to'plami, lug'at, daydjest kabi turlari mavjud.

Darslik – bu muayyan fanning mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlangan asosiy o'quv nashri hisoblanadi.[]

Darsliklarni yaratishda mamlakatda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik ta'minlanadi, mavzularning asossiz takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi hamda mavzular izchilligiga, oddiydan murakkabga, xususiyan umumiylikka o'tib borish tamoyiliga amal qiladi. Xorijiy tillar bo'yicha zamonaviy darsliklar so'nggi yillarda CEFR mezonlariga asoslangan holda yaratilmoqda. Bu CEFR talablarining to'liq darsliklarga integratsiya qilinishi asosida amalga oshirilmoqda. CEFR asosida yangi avlod darsliklarini yaratishda Umumyevropa xalqaro standartiga muvofiq lashtirilmoqda va integratsiyalashtirilmoqda. Bu kelajakda til o'rganuvchilarning xorijiy tillarni o'rganishida qulayliklar va yengilliklar tug'dirishidan tashqari, xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda aholi qatlamining barcha bo'g'inlari uchun mos bo'lgan zamonaviy o'quv materiallari sifati yildan-yilga zamonaviy standartlarga to'liq moslanib borilmoqda. Bu til o'rganuvchilarining xorijiy tillarni mukammal o'rganishlariga zamin bo'lmoqda.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. 2021-yil 19-may.

2. Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 816-son qarori. 2018-yil 10-oktabr.

3.Irisqulov M.T. Chet tillarni o'qitishda CEFR o'rni. Uzlüksiz ta'lim jurnali. №1. – T.: 2016. – B. 77-83.

4.Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Avtoref. ped. fan. fal. dok. (PhD) – T.: 2018.—45 b.

*M.Sh.Mardiyeva,  
SamDCHTI o'qituvchisi*

## G'AFUR G'ULOMNING INDIVIDUAL FRAZEOLOGIZMLAR QO'LLASH MAHORATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada G'.G'ulomning “Shum bola” va “Yodgor” qissalarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklar shakllanishida asosiy component vazifasidagi leksemalarga aloxida e'tibor qaratiladi hamda ularning izohi tegishli lug'atlardan keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazeologik birlik, uzual birlik, semantik ma'no, omonomlik, antonimlik, sinonimlik.

So'z ko'rki bo'lgan iboralardan foydalanish har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida nutq madaniyatini puxta egallashga, tilning qadr-qimmatini chuqur anglashga da'vat etuvchi xalq iboralari, aforizmlari, frazeologizmlari keng o'rin olgan. Bu turdagi xalq iboralari, aforizmlarida so'zning serma'no va o'tkir, fikrning qisqa va ixcham bo'lishi kabi muhim fazilatlar talqin qilinadi.

O'zaro ma'nodosh, bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o'zaro obrazlilik darajasi jihatdan farqlanadi. Masalan, boshiga yetmoq, boshini yemoq frazeologizmlari ayni bir ma'noni anglatlsa-da, ammo obrazlilik darajasiga ko'ra farq qiladi.

G'.G'ulomning shum bola asarida ushbu ibora domla tomonidan Qoravoyga nisbatan qo'llanilgan bo'lib quyidagi ko'rinishda uchraydi:

- Ha, xizimating **boshingni yesin!** - dedi domla. - Eshakni so'yib qo'yibsanku, padar la'nat! Men bu eshakni Buxoroyi sharifdan uch tilloga olgan edim. O'zi ham qanday eshak edi-ya, bay-bay eshagim...(Shum bola, 54)

Misoldagi iborada “yo'q qilmoq”, “halok qilmoq” ma'nosini kuchli va qat'iyroq tarzda ta'kidlash uchun ushbu ibora qo'llanilgan. Olib borilgan maxsus “kuzatishlar frazeologik sinonimlarning ko'pincha obrazlilik darajasida farq qilishini ko'rsatadi”[1, 116]

Tilimizda tilga olib bo'lmaydigan yaramas, uyatli gap-so'zlarga nisbatan “kurakda turmaydigan” iborasi ishlatiladi. Ibora tarkibidagi kurak so'zi O 'TILda ko'p ma'noli so'z sifatida ikki ma'noni bildirishi ko'rsatilgan: **1.** Sochilgan narsani sidirish ,kurash, to'plab biror narsaga solish uchun ishlatiladigan yog'ochdan yoki metaldan yasalgan asbob. **2.**Yelkaning yuqori qismidagi uchburchak shaklli yapaloq suyak. Tiliizda uchraydigan “kurakda turmaydigan” iborasi ham ko'p ma'noli ibora sifatida ikki ma'noni bildiradi: **1.** “Tilga olib bo'lmaydigan yaramas, uyatli. **2.**“Aqlga to'g'ri kelmaydigan, bemani [OTIL, II, 146].

“Yodgor” qissasida kurakda turmaydigan iborasi O 'TILda ko'rsatilgan birinchi ma'noga “tilga olib bo'lmaydigan yaramas, uyatli gap-so'z” to'g'ri keladi: “Yarim soatlardan keyin bir-birimizni kurakda turmaydigan haqoratlar bilan so'kib ZAGSning tor idorasini boshga ko'tarib, shovqinlashmoqda edik”.(Yodgor)

Shum bola asarida kurak so'zi bilan bilan bog'liq o'xshatish ham mavjud bo'lib, ushbu ibora quyidagi ko'rinishda Hoji bobo tomonidan qo'llanilgan:

“- Hey, - dedi Hoji bobo, - Devorga suyab qo'ygan kurakdek nega serrayib turibsan, amakilaringga salom berib, bu yoqqa chiq, bolam, ha, shunaqa bo'ladi”.

Kurak soʻziga [OʻTIL]da quyidagicha taʼrif berilgan “kul yoki oʻt olish uchun,koʻmir solish uchun ishlatiladigan, ikki cheti qayrilgan dastali asbob”.Asarda ushbu ibora Qoravoyga nisbatan kurakdek tik turmoq, qoʻl qovushtirmoq maʼnosida qoʻllanilgan.

“Shum bola” qissasida bozor tasviriga alohida eʼtibor qaratilgan, bozor tasvirlangan oʻrinlarda, tabiiyki, unda oldi-berdi jarayonida qoʻllaniladigan jumla va iboralar keltiriladi. Xalqimiz oldi-sotdi savdosida “barakasini ber”, “barakasini bersin”, “barakasi yoʻq”;“bor baraka”,“bor baraka top” singari iboralar tez-tez uchraydi. “Bor baraka”,“bor baraka top” iborasi OʻTILda qayd etilgan boʻlib, “aytilgan narxga xoʻp deng” maʼnosini anglatadi. [OʻTIL, II, 34]. Qissada mazkur ibora qisqargan shaklda «bor baraka top» tarzida qoʻllangan: Qani, ha, uka, baraka, de, - deb yarim soatcha qoʻl siltashib savdolashgandan keyin ketmonni yarim soʻmga, kurakni bir yarim tangaga «bor baraka top» qildik. (24); Biz hali biror tuyaning tishini koʻrmasdan, biror otning yoʻrigʻini bilmasdan, biror buqaga: «Bor, baraka top», demasdan, qoʻy bozorining kunchiqar tomonida gʻala-gʻovur janjal koʻtarilib qoldi.(28); Juma kuni, qoʻylar maʼragan, tuyalar boʻkirgan, otlar kishnagan, bozorichilar soʻkishgan, tole osmonini bozorning changi qoplagan, dallollarning bilaklari «Bor baraka top!» da charchagan (65).

Baraka leksemi bilan tilimizda bir qancha iboralar shakllangan: baraka topgur, barakasini bersin, baraka yogʻilsin, boriga baraka, barakasi ketdi, baraka kirdi, xirmonga baraka kabi. Bular ichida “baraka top”, “baraka topgur” iborasi katta yoshli kishilar tomonidan kichiklarga nisbatan olqish sifatida qoʻllanadi. “Yodgor” qissasida mazkur ibora Saodatga nisbatan kampir tilidan qoʻllangan: —Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, «xola-xola» deb holimdan xabar olib turadi. Nima uchundir, uch kundan beri kelmadi. «Tik etsa eshikka qarab oʻtirgan edim. Baraka topkurning qoʻli gulgina. Bir nafasning ichida hamma ishlarni saranjom qilib berib ketadi (47)

Xulosa qilib biz aytganda, Gʻ.Gʻulom ijodi serqirra va sermazmun. Agar biz yozuvchi ijodini bir jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak, ikkinchi bir jihatini eʼtiborga olmasdan qolish mumkin emas, agar har bir qirrasini ochib bermoqchi boʻlsak, unda biz yozuvchining butun bir ijodiy hayotiga qaytishimiz va uzoq muddat mobaynida izlanish va tahlillar yuritishimizga toʻgʻri keladi. Mazkur maqolada biz yozuvchi ijodidagi ayrim individual iboralarni tahlilga tortdik. Keyingi ishlarimizda mavzuni yoritishda mazkur tahlillarni kengaytiramiz.

#### **Foydanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Sh. Rahmatullayev. Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari. -Toshkent, «Oʻqituvchi», 1969, 116-bet.
- 2.Sh.Raxmatullayev. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. -Toshkent, «Oʻqituvchi», 1992.
3. Karimov N. Gʻafur Gʻulom. – T: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003.
4. Matyoqubova T. Gʻafur Gʻulom badiiyati. – T: Fan va texnologiya, 2006.
5. Oʻzbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003.

*Ilmiy rahbar dotsent. Shamaxmudova A.F  
SamDCHTI talabasi, Muratova L.R*

### **BOʻLAJAK CHET TILI OʻQITUVCHILARNI PEDAGOGIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI SIFATIDA VIDEO KONTENTDAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya:** Maqola chet tillarini oʻqitishda qoʻllaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga bagʻishlangan. Videokontent tushunchasi va uni chet tili darslarida qoʻllash yoʻllari koʻrib chiqiladi va tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Taʼlim, Pedagogik texnologiyalar, oʻquv dasturlari, video, kompyuter texnologiyalari, Internet.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yilda qabul qilingan“Taʼlim toʻgʻrisidagi” qarorigabinoantaʼlim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo,

o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirish lozim. (<https://yuz.uz/uz/news/prezident-jamiyatda-oqituvchi-kasbi-eng-nufuzli-va-obroli-kasb-bolishi-lozim>).

Zamonaviy madaniyatning yangi texnik imkoniyatlari (video, kompyuter texnologiyalari, Internet) va media matnlarning ustunligi madaniyatlarning yanada qizg'in muloqotiga yordam beradi.

So'z– birinchi qudrat turkisi, olam yaralishiga asos bo'lgan, degan falsafiy tushunchaga e'tiqod qilinib kelingan. Muqaddas kitoblar ham shu haqida xabar beradi. Alloh moddiy olamni yaratishda avval “Yaral (Bo'l)!” deb xitob etgan va olam yaralgan, ya'ni so'z – birlamchi, amal ikkilamchidegan tushuncha ham shundan kelib chiqqan. Alisher Navoiyning fikricha, so'z gavharining sharafibalandligigasabab uning butun olam qudrati tarafidan bani odamga tuhfa etilganidir. U to'rt sadaf gavharining burji– suv, havo, o't va tuproqdan hosil bo'lgan inson zotining bosh xususiyatini belgilaydi, inson nutqi bilan inson, nutq uni barchadan afzal etadi. (Shamaxmudova A.F., dotsent. Monografiya, 2022. 21 b.)

Video kontent voqelikning bevosita aks etishi emas, balki dekodlanishi kerak bo'lgan voqelikni tasvirlash shakllaridan biridir. Piter Forining fikricha, media-imo-ishora tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, ommaviy axborot vositalari boshqa ko'plab belgilar tizimlarini o'z ichiga oladi. Lingvistik (til), og'zaki bo'lmagan (kiyim, imo-ishoralar, mimika), vizual (video, kino, televizor, internet, grafika, fotografiya), og'zaki (ovoz, intonatsiya, vizual bayonni tushunish va talqin qilish).

Bo'lajak o'qituvchiga, bir tomondan, film/video bu muallif o'z dunyoqarashini, voqelikka munosabatini ifodalaydigan badiiy asar, ikkinchi tomondan ekran san'atining o'ziga xos tili borligini tushuntirish kerak, bu til ular bilan gaplashadigan tildan musiqa, tasviriy san'at, raqs, teatrdan farq qiladi. (Bazhenova L.M., 1992, 9-bet).

N.F.Xilkoningso'zlariga ko'ra. audiovizual aloqa turli xil ijodiy faoliyat yoki media ijodkorligini keltirib chiqaradi. Media ijodi, o'z navbatida belgilar, kompozitsion birikmalarga asoslangan, ma'lum bir semantik-stilistik transformatsiyani o'z ichiga olgan turli xil aloqa usullarida o'zini namoyon qiladi. (Xilko N.F., 2001, 148-bet).

Videokontentdan foydalanish va yaratish nafaqat bo'lajak o'qituvchining ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi, balki bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantiradigan til to'sig'ini yengib o'tishga imkon beradi.

Videokontentning refleksiv funktsiyasi vizual hikoyani ijodiy tushunish va talqin qilishda ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchining film/videoni idrok etishining o'ziga xosligi shundaki, ular filmdagi voqealar va qahramonlarni real deb qabul qiladilar.

Videokontent g'ayrioddiy, yuqori ixtisoslashgan qobiliyatlarning mavjudligini aniqlashga yordam beradi va ularni hisobga olgan holda malakali muxbir, fotograf, operator, gid, tarjimonning arsenalini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ko'nikma va motivlarni, fikrlash usullarini va faoliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning xohish-istaklarini aniqlash va ularning qiziqishlari va imkoniyatlariga muvofiq ishlarni tashkil etishdir.

Pedagogika fani va amaliyotda pedagogik texnologiyaning turli talqinlari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu tasodifiy holat emas, chunki har bir muallif texnologiyalarning mohiyatini tushunishga nisbatan ma'lum bir konseptual yondashuvga asoslangan holda yondashadi. (Petrosyan N.V. PhD.Avtoreferati, 2022. 12b)

Pedagogik tajribadan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning o'zlari ko'pincha muayyan sohada o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini ro'yobga chiqarmaydilar, ular o'z qobiliyatlarini kashf etish va ro'yobga chiqarishda yordamga muhtoj, o'quvchilarni turli mehnat shakllariga jalb qiladi. Shunday qilib, ma'lum bir semantik potentsialga ega bo'lgan va rivojlantiruvchi-ijodiy, aks ettiruvchi, axborot-kommunikativ, rehabilitatsiya, taklif, ko'ngilochar, kognitiv-evristik, estetik funktsiyalarni amalga oshiradigan videokontent obrazli, assotsiativ, majoziy, ma'noli, kognitiv-evristik, estetik funktsiyalarni kompleks rivojlantirish muammolarini hal qilishning eng yaxshi variantidir.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha barcha mavjudpozitsiyalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

-texnologiya aniq pedagogik maqsad uchun maqsadli ishlab chiqiladi, u muallifning uslubiy, falsafiy pozitsiyaga asoslanadi;

-harakatlar va operatsiyalarning texnologik zanjiri aniq kutilgan natija ko'rinishidagi maqsadlarga muvofiq qat'iy ravishda tuziladi;

-texnologiyaning qo'llanishi o'qituvchining talabalar bilan shartnoma asosida individuallashtirish va differensiallashtirish, inson va texnik imkoniyatlarni maqbul tarzda amalga oshirish, dialog va muloqotdan foydalanish tamoyillarini hisovga olgan holda o'zaro bog'langan faoliyatini o'z ichiga oladi; (Petrosyan N.V. PhD. Avtoreferati, 2022.13b)

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-talim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. "Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va shroitni yaratib berish zarur".

Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi. O'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo'naltirilgan bo'lishi o'qituvchi mas'uliyatini yanada oshiradi. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublarni bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini kun-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy aytganidek birinchilardan bo'lib o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash hamda tarbiyalash vazifalariga ustuvor ahamiyat berishga qaror qildi. Axloqiy tarbiya g'oyasini "tabiiy" va "o'z-o'zidan qabul qilingan" narsa sifatida u qat'iy rad etdi, K.D.Ushinskiy ta'kidlashicha agar pedagogika insonni va barcha insoniy munosabatlarni tarbiyalashni istasa, onalar birinchi navbatda uni va barcha insoniy munosabatlarni bilishlari kerak.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Borisova N.V. Ta'lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob'ekti sifatida: darslik. - M: 2000, - 146 b.

2. Gulova M.N. Innovative pedagogical technologies, M:- 2013.- 208 p.

3. Petrosyan N.V. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali til yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" Avtoreferati, Samarqand, 2022, 12-13 b.

4. Хилько Н.Ф. Роль аудиовизуальной культуры в творческом самоосуществление личности. Изд: Омск, 2001. - С. 148.

5. Shamaxmudova A.F., Lisoniy hurmat tamoyillari va sotsiopragsmatik tahlil asoslari. Monografiya. Samarqand, 2022, 21b.

*M.J.Qurbonova,  
SamDU magistranti*

### **BADIIY MATN USLUBIY-SEMANTIK XUSUSIYATINI YUZAGA CHIQRUVCHI VOSITALAR**

**Annotatsiya:** Bu maqola o'zbek tilshunosligida tilning unsurlari, sintaktik figuralar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyligi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Oksyumoron, antiteza, takror uslub, poeziya, lingvopoetika, stilistik figura

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeyini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya'ni ko'chma ma'nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo'llanish zarurati ma'lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo'lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo'q. Boshqa uslublarda asosan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, tilda qisman turg'unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko'rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo'lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin.

Badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanish zarurdir. "O'zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o'rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi, emotsional-ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo'lamiz. Ularning troplar deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo'shimcha ma'no ifodalaydi, tasvir obyektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O'quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko'makdosh bo'ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning o'zi so'zlarni asl ma'nolaridan ko'ra ko'proq ko'chma ma'noda qo'llashga intilishning natijasidir." [1.5]

Sintaktik figuralar nafaqat tilimizdagi jozibadorlikni yuzaga chiqaradi va shu bilan birga undagi xalqona soddalik, ravonlik, qochirimlarni ham o'zida aks ettiradi. Uning tinglovchi tomonidan oson va yengil qabul qilinishining sababi ham balki shundadir. Zero, R.Qo'ng'urov aytganlaridek: "Ular badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko'rinishini qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalaniladi". [7.11]

Sintaktik figuralar nutq jarayonida uning emotsionalligini, ta'sirchanligini oshirishga, kuchaytirishga yordam beruvchi maxsus nutq ko'rinishlari hisoblanadi. Tilshunos olim J.Lapasov ularni ikki turga bo'lib o'rgatadi hamda, leksik vositalar va ekspressiv-stilistik vositalar deya ataydi. Olim leksik vositalarga betaraf so'zlar, arxaizm, neologizm, dialektizm, varvarizm, vulgarizmlarni kiritisa, ekspressiv-stilistik vositalarga troplar va figuralarni kiritadi.

J.Lapasovning fikricha, "Figuralar nutq ta'sirchanligini kuchaytirish, tasviriylikni oshirishga yordam beruvchi maxsus sintaktik qurilish, nutq ko'rinishlaridir. Nutqda figuralar tinglovchiga ko'proq emotsional ta'sir ko'rsatish, gapdan anglashilgan umumiy ma'noni kuchaytirish yoki kamaytirishda sintaktik vosita sifatida ishlatiladi. Troplar so'zlar bilan ish ko'rsa, figuralar gap tuzilishi va gapdan anglashilgan umumiy ma'noga asoslanadi" [5.40].

Sintaktik figuralarning matndagi vazifasini prof.S.Karimov shunday ko'rsatadi: "Uslubiy figuralar asosan poetik asarlar uchun xarakterli bo'lib, ularning o'ziga xosligi nutq jarayonida, ijodkor maqsadidan kelib chiqib, ayrim til birliklarini ma'lum tartib va qoida asosida joylashtirish bilan belgilanadi. Til elementlarini yangi ma'nolarda qo'llash ularning vazifasiga kirmaydi, balki mavjud ma'nolarda ularni nutqda eng ma'qul o'ringa joylashtirib, emotsionallik paydo qilish nazarda tutiladi" [1.43].

Tadqiqotchi S.Komilova esa, "Keyingi yillarda qator fan sohalari boshqa fanlar bilan uyg'unlikda, o'zaro bog'liqlikda o'rganilyapti. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uyg'unligida yuzaga kelgan lingvopoetika ham ana shunday bog'liqlikning natijasidir. Shu ma'noda, poetik sintaksis adabiyotlarda ta'kidlanganidek, she'rdagi bevosita gap tuzilishi bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Gapni ifoda etishning esa turli usullari mavjud. Ushbu usullar

yordamida badiiy soʻzning ifodaviyligi kuchayadi, ranginlashadi, taʼsirchanligi oshadi, muallif tomonidan aytilayotgan fikrning tag maqsadi ochiladi”,[4.57] - deya taʼrif beradi.

Sintaktik-stilistik figuralar ifodali nutq hosil qiluvchi vosita ekanligi shakl-shubhasizdir. Ular shunday vositalari sanaladiki, sintaktik vositalar yordamida tuzilgan nutq shakli toʻliq, mazmunli, ifoda va tasviriylikka boy boʻladi. Bu esa ularning eng xarakterli xususiyatlaridir. Bu haqida “Oʻzbek tili stilistikasi” kitobi mualliflari shunday fikrni ilgari suradilar: “Sintaktik figuralar nutqni ohangdor, taʼsirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Shu jihatdan ular nutq musiqasi deb yuritiladi”[6.64].

Shu jarayonda soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash doim ham maʼqul boʻlgan foydali yoʻl, usulmi yoki tildagi soʻz boyligining kamligidan kelib chiqadimi degan savol yuzaga keladi va bunga tilshunos olim S.Karimov quyidagicha toʻxtalib oʻtadilar: “Badiiy adabiyot tilida uslubiy figuralar (filologiyada uslubiy figuralarni “sintaktik figuralar”, “ritorik figuralar”, “nutq figurasi” va hatto “poetik sintaksis” (garchi poetik sintaksis keng jabhadagi tushuncha boʻlsa ham) atamaları bilan nomlaydilar) deb ataluvchi tasviriy vositalarning paydo boʻlishi badiiy ijod namunalari bir qadar goʻzal, jarangdor, taʼsirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqandir. Sitseronning quyidagi gaplarini eslash maqsadga muvofiq: Soʻzlarni koʻchma maʼnolarda qoʻllash eng avvalo lugʻatlardagi soʻzlarning maʼno jihatdan kambagʻalligidan kelib chiqqan boʻlsa, asta-sekin goʻzallik va jozibadorlikka boʻlgan ehtiyoj ularning maʼnolarini kengaytira bordi. Bu esa xuddi kiyim dastavval sovuqdan himoyalaniş vositasi sifatida vujudga kelgan boʻlsa, keyinchalik esa kishi tanasini bezaydigan libosga aylanganiga oʻxshaydi. Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda boʻladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha koʻp va badiiy taʼsirchanlikning yuzaga kelishidagi salmogʻi kattadir”[1.43].

Ilmiy adabiyotlardagi sintaktik figuralarning antiteza, amfiteza, akroteza, apokopa, asindeton (bogʻlovchisizlik), assonans, gradatsiya (klimaks, antiklimaks), diateza, zevgma, tovushga taqlid, oksyumoron, padistola, paronomaziya, poliptoton (poliptot), parallelizm, polisenditon (koʻpbogʻlovchilik), sanash, pitorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, sinoykoza, sillepsis, segmentatsiya, uch ustunlik, kichraytirish, jim qolish, xiazm, ellipsis, inversiya kabi turlari qayd etiladi va ularning koʻpi hozirgi zamon poeziyasida, jumladan oʻzbek poeziyasida ham faol qoʻllaniladi.

Tadqiqotimiz markazida badiiy adabiyotda, jumladan sheʼriyatda eng koʻp qoʻllaniladigan badiiy tasvir vositalaridan, yaʼni sintaktik figuralardan boʻlmish quyidagi hodisalarni oʻrganishga harakat qildik:

- a) antiteza;
- b) oksyumoron;
- d) akromonogramma;
- e) anafora;
- f) epifora.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.–Самарқанд. 1994. –Б 59.
2. Каримов С.Бадий матннинг услубий аломатлари. –Самарқанд: СамДУ, 1992. – Б47.
3. Каримов С.Ўзбек тилининг бадий услуби.-Самарқанд: Зарафшон,1992. –Б 122.
4. Комилова С. Шеъринг нутқдаги айрим синтактик фигуралар хусусида./ЎТА. 2001-й. №1. 57-59-б.
5. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил.-Тошкент:Ўқитувчи,1995.–Б 86.
6. Sultonsaidova S., Sharipova Oʻ.Oʻzbek tili stilistikasi. –Toshkent. 2009. 64-b.
7. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан,1977. 125-б.

## **BADIIY ADABIYOTNING TARKIBIY-FUNKSIONAL TAHLILI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy adabiyotni tarkibiy funksional tahlil qilinishi natijasida o'zbek va jahon adabiyotining shaxs ma'naviy yuksalishida badiiy adabiyotning ahamiyati va inson tarbiyasidagi ta'siri haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** funksional, taraqqiyot, mutafakkir, afsonalar, rivoyatlar, an'analar, fantastik ruhdagi, tamoyillari.

Ta'lim tizimini takomillashtirish, yosh iqtidorli talabalardagi qobiliyatlikni chuqur singdirib borish, ularni bilimga intilish sirlarini, mehnatga muhabbat, mehnat qilishiga nisbatan hurmat hissini singdirishga va uni foydali mehnatga tayyorlash darajasini yanada oshirishga e'tibor qaratilgan. Ushbu maqola nazariy bilimlar olish bilan birga amaliy tajriba asosida bilim-ko'nikmalarni mustahkamlash, badiiy adabiy, pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy tarbiyasi, inson omili, maishiy mehnat sohalari, kishilarning moddiy va ma'naviy turmush sharoiti, shaxs ma'naviy yuksalishida badiiy adabiyotning ahamiyati, falsafiy tahlili, inson tarbiyasi, uning qonuniyatlari haqidagi fan, pedagogikani o'rganish orqali fikrlar, g'oyalar, bilim ko'nikma mujassamlashuvida badiiy adabiyotga qiziqishlari, mamlakatimizning jahon miqyosidagi o'rni bo'yicha dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalar berishini belgilab beradi. Badiiy adabiyot tarkibi san'at, badiiy shakllanish, ilm-fan bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'liq hodisalardir. Ular orasida jiddiy farq-tafovutlar bo'lsada, san'at ilm-fanni yoki ilm-fan san'atni butkul inkor qilmaydi. Badiiy falsafiy adabiyot kishilarning fikrlashi, tasovvur qilishlari, kishilarning ongliligi, fikr mulohazalari va ularning og'zaki faoliyatini anglatadi. Albatta, bu hayotiy tajribalarimizdan ma'lumdir. Badiiy adabiyot kishilarning va biz kelajak avlod yoshlarining hayotda to'laqonli yashashimizga, baxtli va saodatli bo'lishimizda, sermazmun, ongli munosabatda fikrlashimiz komil inson bo'lib yetishishimiz uchun turtki bo'ladi. Inson tafakkurining eng noyob ne'matlaridan biri sifatida gavdalanib komil inson tarbiyasida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyotni azaldan doim adabiy avlodlar yangilaydi, tajribalar tarixiy sahifalarda namoyon bo'lib boradi. Adabiy avlodlar esa adabiy jarayonda shakllanadi. Badiiy adabiyot falsafaiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'langanligini hozirgi zamonaviy adabiyotlardan aglab yetmog'imiz kerak. <sup>1</sup> Jahonda badiiy adabiyotlar tahlil qilinishi 20-asr davomida badiiy adabiyot bilan asosan san'at, kino, radio televidenya bilan tavsiflanadi. Badiiy adabiyotning ijodiyoti dunyo va milliy madaniyatning eng muhim bosqichlarini belgilaydi. Adabiyot filologiya, adabiyotning afzalliklari bilan o'rganilmoqda. "Jahon adabiyoti" tushunchasini birinchi marta 1827-yilda Gyote iste'molga olib kirgan, deyiladi. "Jahon adabiyoti" esa muayyan mezonlarga asoslanadi. Mumtoz adabiyoti dunyodagi eng qiziqarli adabiyotshunoslardan biri L. Tolstoy, N.Gogol, A.Pushkin, F.Dostoevskiy-badiiy so'zning taniqli mutafakkir ustalari. Yunon badiiy adabiyoti tarixida bir qancha ijtimoiy, falsafiy ma'lumotlar yaratilganligi e'tirof etiladi. Badiiy adabiyot inson madaniyatiga xos bo'lib, u rivojlangan har bir zamon va makonning o'ziga xos xususiyatlariga ega, keyinchalik adabiy ishlab chiqarishni belgilaydigan ma'lumotnomalar yaratildi. Bugungi kunda kunchiqar mamlakat adabiyoti uzoq sharq adabiy maydonida o'ziga xos o'ringa ega. Ayniqsa, yapon she'riyatigagina xos bo'lgan hayaku janri butun dunyoga mashhur va bugun ushbu janr boshqa millat ijodiyotiga ham asta-sekin kirib bormoqda. Xususan, o'zbek she'riyatiga ham. Bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi adabiy almashinuv bo'lmoqda. O'zbekiston va Koreys adabiyoti o'ziga xosligi, yangi zamon koreys adabiyoti. Koreya yarim oroli iqlimi, an'analari va qarashlari orqali boshqalardan farqlanib turadi. Birgina adabiyot sohasida ushbu mamlakatning o'z yo'nalishi mavjud. Ushbu millat fantastik ruhdagi qarashlarini o'z asarlariga singdirgan. XVII-asrdan boshlab badiiy adabiyot tobora ommalashib bormoqda va kitoblarni ijaraga berish sxemalari orqali osonroq sotib olinmoqda.

---

<sup>1</sup> .“Yoniq so'z” Qozoqboy Yo'ldoshev. Yangi avlod asari.2006-yil.

«Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo-sevaman va sophia-donolik soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, mazkur atamaning dastlabki maʼnosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Yunon mutafakkiri Pifagor tomonidan falsafa soʻzi miloddan avvalgi VI-asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, anʼanalar orqali) avloddan avlodga oʻtuvchi bilim bilan inson oʻz aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yoʻli orqali olishi mumkin boʻlgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan. Hozirgi rivojlanish davriga kelib badiiy adabiyot yangicha zamonaviylashib, rivojlanib yuksak choʻqqilarga erishish yoʻlida yangiliklarni hayotga tadbiiq etmoqda. XX-asr boshlarida oʻzbek maʼrifatparvarlari Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy kabilar oʻz asarlarini “Adabiyot” deb ataganlar. XX-asrning 20-yillarida “Adabiyot” atamasi badiiy asarlarga nisbatan ishlatila boshlandi. Yapon falsafasidagi badiiy adabiyoti tez oʻzgarishi va rivojlanishi bilan ajralib turadi. Xitoy va Hindiston mamlakatlarida ilk bor badiiy adabiyotlar, yʼani tarixiy manbalardan maʼlum boʻlishicha, qadimgi badiiy adabiyotning paydo boʻlish boshlanish sanasini aniqlay olmadilar, ayniqsa buyuk ogʻzaki anʼana boʻlganligi sababli biroq, maʼlumki, birinchi adabiy asarlar Mesopotamiya imperiyalari, Xitoy va Hindistonda yozilgan. Qadimgi Misr mamlakatlarida topilgan eng qadimgi kitoblardan maʼlum boʻlishicha bu oʻliklarning kitobi, miloddan avvalgi 13-asrga oid. Qadimgi Misrdagi dafn matnlarida oʻz ifodasini topgan. Oʻrta asr adabiyoti bu 476-yilda Rim imperiyasining qulashi va 1492-yilda Kolumbning Amerikaga kelishi bilan sodir boʻlgan davrdir. Oʻsha davrda cherkov adabiyot va bilimlarni egallab oldi. Rohiblar kitoblarga, matnlarning tarjimalariga, oʻzlarini oʻqitish va matnlarni yozish imkoniyatiga ega boʻlganlar. Shu sababli ham oʻrta asr adabiyoti hukmron diniy fikrni fosh etish bilan ajralib turadi. Sharq xalqlari ilm-fanida “badiiy adabiyot” soʻzi XX-boshlarigacha badiiy adabiyot haqidagi taʼlimot maʼnosida ishlatilgan, badiiy soʻz asarlari yigʻindisi “adabiyot” deb atalmagan. “Muhammad Gʻiyosiddin binni Jaloliddin Rompuriy 1827-yilda Hindistonda yozib tamomlangan va keyin Oʻrta Osiyoda ham keng shuhrat qozongan “Gʻiyosul lugʻat” kitobida “adabiyot” deb badiiy soʻz mahorati haqidagi taʼlimotni tushunadi va unga sheʼr yozish qoidalaridan boshlab arab tilining sarfi (morfologiyasi) hamda nahvi (sintaksisi) gacha boʻlgan topilmalarni kirgizadi”, deb yozilgan. Jahon adabiyoti namoyondalaridan, Alisher Navoiy, Uilyam Shekspir, Fyodor Dostoyevskiy singari sanʼatkorlarning asarlari necha yuz yil muqaddam yozilgan boʻlsada, hozir ham, bundan keyin ham kishilarni befarq qoldirmaydi va ularni hayot kurashdan iborat ekanligi, kishilararo munosabatlarning murakkabligi haqida oʻylantiradi. “Jahon adabiyoti” tushunchasini birinchi marta 1827-yilda Gyote isteʼmolga olib kirgan, deyiladi. “Jahon adabiyoti” esa muayyan mezonlarga asoslanadi. Badiiy adabiyotning folklorshunoslik sohasida esa xalq ogʻzaki ijodiyotidagi, qoʻshiqlar, ertak, doston kabi janrlarning oʻziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi.<sup>1</sup>

Badiiy falsafiy adabiyot insonlarni tarbiyalaydigan, ruhiyatini oziqlantiradigan, taʼbir joiz boʻlsa "koʻzlarini ochadigan" beqiyos kuch, inson aqliy va ruhiy omiling mahsulidir. Jamiyatda inson ruhining muhandislari butun millat, kerak boʻlsa dunyo xalqlarining yuragidagi tugʻyonlarini uygʻota oladi. Zero, badiiy soʻz qudrati katta. Bunga beʼetibor davlat taqdiri tanazzulga yuz tutadi. Oʻzbek adabiyoti esa dunyo adabiyoti vallamatlaridan desak, mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Sanʼat va adabiyotdagi yangicha shakllar, turli uslub, yoʻnalishlar hayot voqeligini taʼsirchan ifodalash va inson obrazini yorqin aks ettirishga intilishdan kelib chiqadi. Taʼkidlash joizki, badiiy adabiyot hayotni va inson dunyosi sanʼatning boshqa turlariga nisbatan keng aks ettiradi. Bu jihatdan sanʼatning hech bir turi adabiyot bilan bellasha olmaydi. Sanʼatning boshqa turlari, jumladan, kino sanʼati ham kishilarning muayyan paytidagi holatini gavdalantiradi. Oʻshanda ham u musiqa, tasviriy sanʼat, texnikaning turli vositalari hamda adabiyotga tayanadi. Badiiy adabiy jarayonga, badiiy asarlarga, shoir, adib, adabiyotshunoslar hayoti va ijodiy faoliyatiga munosabat bildirganda, albatta, ijtimoiy davrning oʻziga xos jihatlari eʼtiborga olinadi. Adabiyot shoʻro hukmronligi davrida mustabid hokimiyat siyosatini targʻib-tashviq etuvchi eng asosiy gʻoyaviy qurol vazifasini oʻtagan. Shu boisdan, bu davrda adabiyotga, adabiyot toʻgʻrisidagi ilmga alohida diqqat qaratilgan. Badiiy adabiyot hamisha ham davr bilan hamohang boʻlavermaydi. Negaki, zamonaviy-abadiy, davr-oʻtkinchi, adabiyot esa, shu ikki qarama-qarshi

<sup>1</sup> Axmedova M.A tarix fanlari doktori. Kitob.Toshkent.2005.yil.

tushuncha: abadiylik va o'tkinchilikni o'zida bir varakayiga aks etgirishi lozim bo'lgan hodisadir. Adabiyotga doir asarlarda o'tkinchi hayot tasvirlanadiyu, insoniyatning badiiy xotirasiga abadiyatga qadar muhrlanadi. Ayrim olimlar mustaqillik davri adabiyoti haqida emas, mustaqil adabiyot hahida fikrlashish foydali degan mulohazani bildirishmoqda. Darhaqiqat, davr kelib-ketaveradi, asl adabiyot esa qolaveradi. Lekin XV-asrdagi mustaqil adabiyot bilan XVI-asrdagi mustaqil adabiyotning farqli jihatlari bormi? Bu savolga ham bor, ham yo'q, deb javob berish mumkin. Farqi yo'q, shu ma'nodaki, har qanday davrdagi adabiyot mustaqilligining o'zi bilan, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jihatlariga qaram bo'lmaganligi bilan, asl estetik hodisa ekanligi bilan mohiyatan boshqa davrlardagi chin badiiyat namunalariga juda o'xshaydi.<sup>1</sup>

Xulosalash natijasi shuni ko'rsatadiki barcha jahon miqyosidagi adabiyotlarning kelib chiqish davri, fikr mulohazalar, tortishuvlar, taqqoslash, bir-birini tahlil qilish, ijod qilib o'tgan mashhur olimlar va ularning hayotiy tajribalari haqida fikrlar bildirib o'tildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Yoniq so'z" Qozoqboy Yo'ldoshev. Yangi avlod asari. 2006. yil
2. "Falsafa" Axmedova M.A tarix fanlari doktori. Kitob. Toshkent. 2005. yil.
3. "Ma'naviyatshunoslik" Abduraxim Erkayev. Darslik. 2018. yil.

*N.Sh.Shermamatova*  
*SamDU magistranti*

### **PUBLISISTIK MATNLARDA UNDALMALARNING QO'LLANILISHI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada publisistik matnlarda undalmalarning qo'llanilishi, ularning matn tarkibida ekspressiv-sintaktik vazifalarni bajarib kelishi, publisistik matnlarning turli ko'rinishlarida ular bajargan sintaktik va ekspressiv vazifalar yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** publisistik uslub, publisistik matn, publisistika, undalma, ekspressiv-sintaktik omil, ta'sirchanlik.

Nutq uslublari orasida publisistik uslub hayotimizda alohida o'ringa ega. Bu uslubning alohida o'rin va mavqega ega ekanligi uning ijtimoiy hayotda keng ko'lamdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy, madaniyat va sport kabi sohalarga xizmat qilishi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar publisistik asarlar jumlasiga kiradi<sup>2</sup>. Publisistik uslub ommaviy axborot vositalari orqali yozma va og'zaki shaklda namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda hayotni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda, butun dunyoda bo'layotgan yangiliklar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor bo'lamiz. Ommaviy axborot vositalari orqali ommaga taqdim etilayotgan xabarlar, gazeta va jurnallarda e'lon qilinayotgan yozma axborot matnlarini kuzatadigan bo'lsak, ularda sintaktik birliklarning turli ekspressiv vazifalarni bajarib kelishini kuzatishimiz mumkin. Shunday birliklardan biri - undalma.

Undalma deb so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsaga aytiladi. U o'zi qatnashgan gapga mazmun jihatda bog'lansa-da, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. U gap bo'lagi bo'la olmaydi. Undalmalar undash shaklidagi so'z bilan ifodalanadi.

Gap, gap bo'laklari, gap bo'laklari mazmunini muayyanlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birliklar masalasi, ayniqsa, ba'zan "gap bo'laklariga bog'lanmaydigan bo'lak", ba'zida «gapning uchinchi darajali bo'lagi» sifatida talqin etilayotgan sintaktik birliklardan biri – undalmalar tilshunosligimizda ko'pgina olimlar tomonidan o'rganildi. Chunonchi, A. Fitrat 1924-yilda nashr etilgan "Nahv"(Sintaksis) asarida gap turlarini ajrata turib, "undashli gap" atamasi ostida undalmali gaplarni ajratadi va undalmaga quyidagicha ta'rif beradi: "Gap kimgadir qaratib aytilgan bo'lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo oxirida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap va shul otning o'zi "undash oti" bo'ladir: Yigitlar, qo'lingizdan kelgancha

<sup>1</sup> "Ma'naviyatshunoslik" Abduraxim Erkayev. Darslik. 2018. yil.

<sup>2</sup> Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. DDA, -Toshkent, 2005, 11-b.

bilimingizni orttiringiz”<sup>1</sup>. Fitrat misoldagi yigitlar soʻzini “undosh oti” sifatida ajratadi. Fitratdan soʻng ham boshqa koʻplab tilshunoslar undalma va uning sintaktik xususiyatlariga alohida toʻxtalib oʻtdi.

Undalmalarning nutq uslublarida qoʻllanilishiga eʼtibor beradigan boʻlsak, u koʻproq soʻzlashuv va badiiy uslublarga xosdir. Ilmiy nutq uslubida undalmaning qoʻllanilishi xos emas<sup>2</sup>. Rasmiy uslubda undalmaning qoʻllanilishi chegaralangan. Undalmalarni rasmiy uslubdagi rasmiy xatlar va taklifnomalarda uchratishimiz mumkin. Shuningdek, davlat rahbarlarining bayram tabriklarida koʻp uchraydi. Davlat rahbarlarining har bir bayram tabrigida undalmalar, albatta, ishtirok etadi. Masalan, *Aziz va muhtaram doʻstlar! Sizlarni Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan yana bir bor samimiy muborakbod etaman. Qadrli doʻstlar! Prezident Sh. Mirziyoyevning Oʻzbekiston xalqiga Yangi yil bayrami bilan yozilgan bayram tabrigida undalma qatnashgan. Qadrli vatandoshlar! Siz, azizlarni, koʻp millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan chin qalbimdan tabriklayman... Muhtaram doʻstlar! Mamlakatimizda 2023 yilga “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”, deb nom berdik.*

Publisistik uslubda ham undalmalarning qoʻllanilishi sermahsuldir. Publisistik uslubning xabar janrida undalmalarning qoʻllanilganini kuzatib oʻtsak. Davlat rahbarlarining bayram tabrikleri, murojaatnomalari davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)da chop etilsa, ularning nutqida undalmalarning birikmali va murakkab koʻrinishlari ishtirok etganiga guvoh boʻlamiz. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oʻzbekiston xalqiga Yangi yil bayrami bilan yozilgan bayram tabrigida undalmalar qatnashgan. *Qadrli vatandoshlar! Siz, azizlarni, koʻp millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan chin qalbimdan tabriklayman... Muhtaram doʻstlar! Mamlakatimizda 2023 yilga “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”, deb nom berdik* [Xalq soʻzi, 2022]. Yuqoridagi kabi murakkab tarkibli va sifatlovchilar bilan kengayib kelgan undalmalar soʻzlovchining tinglovchiga munosabatini, baho ottenkasini bildirib keladi. Bu kabi undalmalarda tantanavorlik, ulugʻvorlik ustun turadi.

Bundan tashqari publisistik uslubning intervyu janrida ham undalmalarning ishtirokini koʻramiz. Bunda undalmalarning qoʻllanilishi jurnalist tomonidan beriladigan savollarga ham bogʻliqdir. Chunki undalma ishtirok etgan gapda, albatta, tinglovchining boʻlishi shartdir. Jurnalist intervyu olayotganda sodda, ixcham, ravon, tinglovchiga tushunarli boʻlgan uslubda soʻzlashi lozim. Va, albatta, unga murojaat qilayotganda ekspressivlikni taʼminlovchi murakkab tarkibli undalmalardan foydalanishi lozim. Misol uchun, *hurmatli ustoz, qadrli doʻstlar, aziz tomoshabinlar* singari.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, publisistik uslub va uning bir qancha xususiyatlari tahlil etish va oʻrganish hali hamon oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda. Buni tadqiq etish esa biz yosh izlanuvchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. DDA, -Toshkent, 2005.
2. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: Darslik va oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar— T.: «Maʼnaviyat», 2009. — 336 b.
3. M.Mamadiyeva. Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari. Monografiya.-Toshkent: Fan, 2008.-90 b.
4. Qoʻngʻurov R va boshqalar. Oʻzbek tili stilistikasi. -Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
5. Каримов. С Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. -Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. -192 б.

<sup>1</sup> Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: Darslik va oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar— T.: «Maʼnaviyat», 2009. — 205 b.

<sup>2</sup> M.Mamadiyeva. Ilmiy uslubning sintaktik xususiyatlari. Monografiya.-Toshkent: Fan, 2008.-90 b.

## THE NEW UZBEKISTAN IS BECOME A SOCIAL STATE

**Annotation:** This article aims to reveal the meaning of the concept of the social state, its history, its importance in building the New Uzbekistan, and its place in people's prosperous life.

**Keywords:** Social state, human dignity, human interests, social justice, social policy, social insurance.

The welfare state is recognized as an important institution in any developed society because it essentially aims to provide a decent life for its citizens. This concept is reflected in the basic laws of many countries. In particular, it is necessary to highlight that Article 1 of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan states that "Uzbekistan is a sovereign, democratic, legal, social and secular state with a republican form of government" [1] - a historical event that we all expected. Our President Sh.M. Mirziyoyev personally led this historical event and suggested strengthening the principle of "Uzbekistan as a social state" [2]. If we pay attention to the history of this form of state administration, we can see different approaches. The concept of the first social state began to develop in Western Europe at the end of the 19th century. After World Wars I-II, government representatives gradually expanded social tasks for the purpose of social protection of the population. Initially, the level of social benefits and social services covered the majority of the population. Later, national social protection programs increased. Some scholars believe that increased government intervention as a result of subsistence farming led to increased levels of taxation. In other sources, however, the use of this term dates back to 1948 in an article by William (later Lord) Beveridge of Great Britain entitled "Social Insurance and Allied Services" (1942) where social insurance guarantees the health and life of the population. emphasized that it is important and mentioned that it is a sign of the social state. Later, other countries gradually abandoned the outdated concept and sought to provide at least some of the social insurance measures associated with the welfare state. After that, most of the domestic programs of the United States (Franklin D. Roosevelt and subsequent presidents) were based on the principles of the welfare state.

A welfare state is a concept of government in which a well-organized network of state or social institutions plays a key role in protecting and promoting the economic and social well-being of citizens. It is based on the principles of equality of opportunity, fair distribution of wealth and the state that provides conditions for a good life.

As mentioned above, social insurance is a provision specific to most advanced industrialized countries (eg National Insurance in the UK and Social Security in the US). Such insurance is usually funded through mandatory contributions and is designed to provide benefits to individuals and families in times of greatest need. However, it is widely recognized that cash flows in practice are much lower than intended by the planners.

The welfare state usually includes the provision of basic education, health services, and housing (in some cases at low cost or free of charge). In this context, the welfare state is much more developed in Western European countries than in the United States, and in many cases includes providing full health care coverage and publicly subsidized higher education. includes

Anti-poverty programs and the personal taxation system can also be considered aspects of the welfare state. Taxation of individuals falls into this category because it is progressive, used to achieve greater fairness in income distribution (not just income), and also to finance social security payments and other benefits that are not fully funded by mandatory contributions. In socialist countries, the welfare state also covers the management of employment and consumer prices.

European scientists have conducted several studies in order to determine the role of the state in meeting needs and its place in ensuring well-being in the process of studying the theories of the social state. In particular, the Danish sociologist Gjosta Esping-Anderson came up with three main "modes of state activity" [3].

Liberal welfare states respond to market and labor imperatives. Many benefits, such as health insurance and pensions, are job-related.

- Conservative or corporatist welfare states - rely on public services rather than the market or private services. At the same time, stability of family relations is emphasized in countries with this mode of operation.

- Social-democratic social states - the state is considered as a guarantor of social rights. These countries promote high levels of equality of benefits as a way to minimize the effects of social class and income.

In our opinion, it is wrong to imagine that the understanding of the welfare state is limited only to industrialized democracies. It is unclear whether Esping-Anderson's typology is valid for countries at different stages of development or transitioning to a market economy. This typology also suggests that countries develop their welfare apparatuses in response to national political cultures, ideologies, and domestic political pressures.

In other approaches, the issue of gender equality lies as one of the main characteristics of the social state. Latin American scholar Sonia Alvarez advocated this approach in analyzing gender politics in Latin American countries. The Impact of Gender Equality Reforms on Welfare Policy emphasizes that gender equality ideologies are embedded in different countries' politics and economics, and is divided into the following types based on the ways in which welfare is provided and the creation of differentiated geographies of welfare.

- providing favorable working conditions, health and safety at work or equal opportunities between women and men;

- availability of universal and stable social protection systems that cover everyone

- inclusive labor markets that create fair wages for all social categories

- availability of functional and powerful social communication along with optimality

- public services of general interest

- social inclusion and social cohesion

Although different countries have different views on the welfare state, their point of intersection is man. Today, Uzbekistan is also entering the history of social statehood with its own principles. In recent years, the policy aimed at strong social protection of the population in our country has acquired a special tone. In particular, the "iron notebook", "women's notebook", "youth notebook", "mahallabay" and "household notebook" working methods introduced in our country are a clear example of our opinion. In this, it is necessary to support the needy sections of the population, create conditions for them to lead a decent life, ensure the employment of the population and increase its income, reduce unemployment and poverty, prevent stratification of the population in terms of living conditions and quality, and provide the population with social protection great attention is being paid to providing assistance to the needy part by the state through the system of guarantees. Also, special attention is paid to protection against unemployment, provision of guaranteed quality education, provision of qualified medical care, all-round support for children, women, the elderly, and persons with disabilities.

In new Uzbekistan, according to the principle of social state, man is the highest value, the main goal of the humanitarian policy is to ensure human rights and interests.

#### **List of references**

1. Draft of the Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan. Article 1. Page 2. 2023 year

2. Mirziyoyev Sh.M. Address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. December 20, 2022. [www.president.uz](http://www.president.uz)

3. G.E.Anderson - Typologies of the Welfare state. <https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/welfare-state>

*О.М.Рисаева*  
*Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,*  
*доцент кафедры немецкого языка и литературы*  
*Самаркандского государственного института*  
*иностраннных языков*

## **К РАЗМЫШЛЕНИЮ О НОВОМ ПОДХОДЕ В ИЗУЧЕНИИ ГЛАГОЛЬНО-ИМЕННЫХ СОЧЕТАНИЙ СОВРЕМЕННОГО НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА**

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблеме глагольно-именных сочетаний в современном немецком языке, где основное внимание уделяется описанию семантики глаголов, входящих в их состав. В результате анализа выявлены глаголы как с десемантизированным, так и недесемантизированным значением, что приводит нас к мысли о том, что дальнейшие исследования должны быть акцентрированы на описание прагматических особенностей сочетаний подобного типа.

**Ключевые слова:** десемантизированные и недесемантизированные глаголы, аналитические структуры, сочетания с функциональным глаголом.

Тенденция к именному стилю является общепризнанной тенденцией развития немецкого языка. Увеличивается количество существительных (особенно отглагольных существительных) в составе номинализированных сочетаний аналитического типа, конкурирующих с глаголами. В результате создаются аналитические структуры, среди которых особую коммуникативную силу имеют глагольно-именные сочетания аналитического и полуаналитического типа. В глагольно-именных конструкциях именная часть обозначает событие как совокупность лексико-семантических признаков, а глагол выступает как носитель грамматико-семантических признаков. Это распространенное явление, которое наблюдается не только в немецком, но и в других германских и романских языках, а также и в русском является важной теоретической проблемой в лингвистике, которая обсуждается с разных точек зрения на протяжении многих лет.

В работах исследователей мы встречаем разные термины этого явления, такие как «перифразы» [11, 12], «номинализированные глагольные сочетания» [13, 170], «именные парафразы» [4], «устойчивые словесные комплексы нефразеологического типа, аналитические и фразеологизированные глагольные сочетания» [1, 212-213] и др.

В немецкой лингвистике среди аналитических конструкций выделяется группа сочетаний, которые содержат в себе функциональный глагол. Исходя из этого такие сочетания получили название «Funktionsverbgefüge» (сочетания с функциональным глаголом) [6, 111-112, 561], представляющие собой конструкцию *Nomen + Verb* (существительное+глагол) и выполняющие функцию предиката (сказуемого). Глагол рассматривается часто из-за его десемантизации, как своего рода «функциональный элемент», который модифицирует глагольное содержание, выраженное в имени существительном» [9, 93].

Несмотря на то, что такие феномены как функциональный глагол и сочетания с функциональными глаголами достаточно хорошо исследованы, однако сам их статус до сих пор остаётся не ясным. Это требует дальнейшего исследования этих сочетаний. В области исследований до сих пор доминировало лингвистическое описание ограниченной группы «опустошённых», «семантически редуцированных» глаголов («*sinnentleerte*», «*semantisch reduzierte*») (z. B. «*gehen*» – «*in Erfüllung gehen*», «*kommen*» – «*zum Ausdruck kommen*»).

Функциональные глаголы могут рассматриваться как своего рода вспомогательные глаголы, полнозначные глаголы и как глаголы, которые семантически редуцируются в конкретном контексте (z. B. «*nehmen*», «*im Empfang nehmen*»). В немецких грамматиках функциональные глаголы часто обсуждаются наряду с модальными глаголами, вспомогательными глаголами в пассивных конструкциях [8, 433-442]. Сочетания с функциональными глаголами многие лингвисты не относят ни к фразеологизмам, не к

свободным сочетаниям, это сочетания промежуточного типа. Например: Uneinigkeit tritt ein [10, 168], eine Reise unternehmen [14, 27], mit einer Äußerung herausplatzen [2, 73]. Существует ещё ряд полнозначных глаголов, выступающих в качестве функциональных, лексическое значение которых не было изучено ни в фразеологии, ни в рамках грамматики: «starten», «hineinschlittern», «hinhauen», «produzieren» («eine Umfrage starten», «in Verlobung hineinschlittern», «eine Bemerkung hinhauen», «Lärm produzieren») и т.д. См.: [5].

Глагольно-именные конструкции создают конкуренцию глаголам как в литературных произведениях, так и в повседневной речи. Например: «Die rötlichen Muscheln erlöschen, der Schulpausenlärm auf den billigen Plätzen verstummt, diese ganze klassenlose Gesellschaft versinkt in schweigende Erwartung, während süß, bunt und breitwendig der Film beginnt» (aus der Erzählung von Heinrich Böll «Als Gott die Zeit machte...») [3]; «Ich gable mir ungerne eine Erkältung auf» (sich eine Erkältung aufgeben) [5]. Таким образом вместо глагола «erwarten» и «sich erkälten» используются глагольно-именные сочетания «in ... Erwartung versinken», «sich eine Erkältung aufgeben».

В качестве высокоинформативных средств языкового выражения глагольно-именные сочетания обладают большой коммуникативной ценностью, а также вносят свой вклад для выражения способов действия: «kausativ» (jmdm. die Arbeit aufhalsen – arbeiten, сравним с legen – liegen); «ingressiv» (sich in Wagnisse stürzen – wagen, сравним с einschlafen – schlafen); «intensiv» (einen Kuß schmatzen – küssen, сравним, schleudern – werfen) и. а.

Достаточно много глаголов было выявлено при исследовании номинализированных сочетаний, функционирующих в разговорном стиле языка, которые не потеряли своего значения, не десемантизированы (wie «schwingen», «landen», «rennen», «dreschen», «schinden»: «eine Rede schwingen», «einen Sieg landen», «ins Unglück rennen», «Skat dreschen», «bei jmdm. Eindruck schinden») [5]. Из примеров видно, что упомянутые вышеперечисленные глаголы образуют резкий контраст к поблэкшим, опустошённым функциональным глаголам «kommen» в сочетании «zur Entscheidung kommen».

В связи с этим отметим две тенденции, а именно, некоторые глаголы в глагольно-именных сочетаниях теряют своё исконное семантическое значение, а другие сохраняют его. Таким образом, можно противопоставить глаголы «бедные по содержанию» и глаголы «богатые по содержанию». Сравним: eine Strafe bekommen – sich eine Strafe einbrocken (разг.); eine Bemerkung machen – eine Bemerkung hinhauen (разг.); ins Unglück kommen – in sein Unglück hineintappen (разг.). Приведём пример: «Wir kriegten eines Tages einen Deutschlehrer, der hat uns gleich am ersten Tag eine Gedichtinterpretation hingelegt, so haben wir alle gekuckt» [12, 89]. Сравним, eine Interpretation hinlegen - eine Interpretation machen. Из приведённого примера видно, как отличается и варьируется способ действия в зависимости от выбранного функционального глагола.

Богатый выразительный потенциал номинализированных сочетаний, обусловленный большой коммуникативной и прагматической ценностью глагола побуждает нас в дальнейших исследованиях прежде всего к всестороннему рассмотрению глагольного значения с точки зрения семантического содержания, нагрузки, а также прагматической ценности.

### Использованная литература

1. Степанова М.Д., Чернышева И.И. Лексикология современного немецкого языка: Учебник для ин-тов и фак-тов иностр. яз. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 1986. – 247 с.

2. Bahr B.I. Untersuchungen zu Typen von Funktionsverbfügungen und ihrer Abgrenzung gegen andere Arten der Nominalverbindung: Inaug. Diss. / Vorgelegt von Brigitte Inge Bahr. – Bonn, 1977. – 281 S.

3. Böll H. Irisches Tagebuch. – München: Deutscher Taschenbuch Verl., 1999. – 132 S.

4. Duden Das Große Wörterbuch der deutschen Sprache – Mannheim: Bibliographisches Institut & F.A. Brockhaus AG, 1999.

5. Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache / hrsg. von G. Drosowski in Zusammenarbeit mit Peter Eisenberg... [Autoren: Peter Eisenberg...]. – 5., völlig neu bearb. und erw. Aufl. – Mannheim; Leipzig; Wien; Zürich: Dudenverl., 1995. – 864 S.
6. Eisenberg P. Grundriss der deutschen Grammatik. Band 2: Der Satz. – Stuttgart; Weimar: Metzler, 1999. – 551 S.
7. Grundzüge einer deutschen Grammatik / Akad. der Wiss. der DDR. – 2., unveränd. Aufl. – Berlin: Akademie-Verl., 1984. – 1028 S.
8. Günther H., Pape S. Funktionsverbgefüge als Problem der Beschreibung komplexer Verben in der Valenztheorie // Kopenhagener Beihage. Untersuchungen zu Verbvalenz/ hrsg. von H. Schumacher. – Tübingen, 1980. – S. 92-128.
9. Helbig G. Probleme der Beschreibung von Funktionsverbgefügen im Deutschen // Studien zur deutschen Syntax. – Bd.2. – Leipzig: Enzyklopädie, 1984. – S. 92-128.
10. Heringer, H.-I. Die Opposition von «kommen» und «bringen» als Funktionsverben. Untersuchungen zur grammatischen Wertigkeit und Aktionsart. – Düsseldorf: Pädagogischer Verl. Schwann, 1968. – 130 S.
11. Kempowski W. Immer so durchgemogelt. – Frankfurt am Main: Insel Verl., 1979. – 113 S.
12. Polenz P.v. Funktionsverben, Funktionsverbgefüge und Verwandtes. Vorschläge zur satzsemantischen Lexikographie // Zeitschrift für Germanistische Linguistik. 1987. – № 15. – S. 168-188.
13. Schmidt V. Die Streckformen des deutschen Verbums. Substantivisch-verbale Wörterverbindungen in publizistischen Texten der Jahre 1948-1968. – Halle (Saale): Niemeyer Verl., 1968. – 144 S.

*Тұрсын Е.Қ., Авакова Р.А.  
Әл-Фараби атындағы Қазақ ұлттық университеті  
Алматы, Қазақстан*

### **ӨЗБЕК ТІЛІ ҚЫПШАҚ ДИАЛЕКТИСІНІҢ ЭТНОМӘДЕНИ ЛЕКСИКАСЫ («Алпамыш» эпосы негізінде)**

**Аңдатпа.** Қазіргі тіл білімінде тілді ұлттық мәдениет, ұлттық таным, «тілдік әлем» арқылы зерттеу кең өрістеді. Бұл мақалада өзбек-қыпшақ диалектісінің этномәдени лексикасына талдау жасалды. Лексикалық бірліктердің этномәдени, тілдік мәні сипатталды, өзге түрік тілдерімен байланысы анықталды.

Қазақ ұлтына ең жақын этникалық топ – постномадтық өзбектер. Алайда қазіргі түріктану ғылымында өзбектер мен қазақтардың тілдік, этномәдени байланыстары бойынша зерттеулер аз. Авторлар «Алпамыш» эпосындағы этнолингвистикалық бірліктерді түрік тілдерімен салыстырып, ортақ қыпшақ негізді этномәдени терминдерді қалпына келтіруге талпынды. Нәтижесінде қыпшақ тілді өзбектердің заттық, рухани мәдениетінің терминдері түрік тілдерінің ішінен қыпшақ-ноғай тобындағы тілдерге жақын екендігі тұжырымдалды.

**Түйін сөздер:** өзбек тілі, қыпшақ диалектісі, этномәдени лексика, этнографиялық лексика, этнографиялық диалектизм.

**Кіріспе.** Тіл – қоғамдық дамудың сүрлеуінен өтетін сан қатпарлы, күрделі құбылыс. Оның лексикалық қабаттарында халықтың рухани-адамгершілік, материалдық мәдениетінің белгілері сақталады. Сондай-ақ тіл – халықтың тарихы мен дәстүрлі тұрмысынан хабар беретін тірі дереккөз.

Қазіргі өзбек халқының этногенінде Жошы Ұлысынан Темір мемлекетіне қоныс аударған (XVI ғ.) көшпелі өзбек тайпалары шешуші рөл ойнады. Көшпелі өзбек

субстратының қазіргі өзбек этноеті, тілі, этносаяси тарихына тигізген әсері туралы тұжырымдар әлі де айқындауды қажет етеді.

ФЕ, выражающие значение физического воздействия на кого-либо: «укоротить язык» (2).

ФЕ, передающие значение борьбы, драки, избиения, побоев и т.п.: «свалить с ног» (3), «сбить с ног» (3).

ФЕ со значением ‘не быть в состоянии выдержать что-либо (удар, испытание и т.д.)’: «не мог устоять на ногах» (2).

ФЕ со значением усталости: «валиться с ног» (1), «падать с ног» (1), «волочить ноги» (6), «сбиться с ног» (4).

ФЕ со значением места действия: «где не ступала нога» (9), «куда не ступала нога» (3), «ни одна нога не ступала» (1).

Об активности участия соматизмов в образовании общенародного пласта сказочных ФЕ свидетельствуют и факты одновременного включения в один оборот сразу двух соматизмов. Причем здесь выделяются своей продуктивностью как именные (парные) ФЕ, так и глагольно-именные.

Парные ФЕ состоят: 1) из повторяющегося одного и того же слова: «из уст в уста» (2), «с боку на бок» (4), «бок о бок» (2), «с глазу на глаз» (4), «с рук на руки» (1), «с ноги на ногу» (1) и др. 2) парные модели комплектуются разными соматизмами: «с головы до ног» (10), «с ног до головы» (5), «от головы до пяток» (1) и др.

Глагольно-именные ФЕ имеют в качестве стержня субстантивно-предложную группу: «приложить руку к сердцу /к груди/» (4), «глаза полезли на лоб» (3), «рот доходил до ушей» (1) и др.

Разновидностью этих ФЕ являются обороты, конструируемые по модели «Г + предлог + С»: «попасть в руки» (12), «попасть на глаза» (3), «схватиться за горло» (2), «проситься в рот» (1), «плюнуть в лицо» (2) и др.

Большая часть из отмеченных ФЕ относится к человеку, другая же (меньшая) к животным: «сложить лапки на брюхе»(1), «от головы до хвоста»(1), «попасть в пасть»(2), «лезть в пасть»(1), «попасть в когти»(1), «махнуть лапкой»(2), «вырвать из лап»(1), «спасать от когтей»(3), «с разинутой пастью»(1).

Как правило, разряд ФЕ, употребляемых по отношению к животным, образуются по аналогии с общенародными ФЕ, ср.:

- “махнуть лапкой” - от “махнуть рукой”
- “вырвать из лап” - от “вырвать из рук”
- “лезть в пасть” - от “лезть в пекло”
- “содрать шкуру” - от “содрать кожу”
- “сложить лапки на брюхе” - от “сложить руки на груди”
- “с головы до хвоста” - от “с головы до ног”
- “попасть в лапы”
- “попасть в когти” - от “попасть в руки”
- “попасть в пасть”

Таким образом, соматическая фразеология русских переводов узбекских народных сказок (в основном волшебных) отличается многообразием семантико-структурных типов ФЕ. ФЕ с соматизмами передают сложнейшие гаммы эмоционального и психологического состояния человека (волнение, сомнение, тревога, удивление, недоумение, растерянность и многие др.). Тем самым они вносят в контекст сказочного повествования живость, яркость красок, убедительность, динамизм действия, быстротечность событий, а также выражают ум и культуру узбекского народа.

### Литература

1. Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1973. – С.171-180.

2. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. – Самарканд: СамГИИЯ, 2004. – 90 с.

3. Журакулов Р.Д. Об особенностях фразеологии узбекских народных сказок// В журн. «Хорижий филология», Самарканд, 2018, № 2, С. 47-51.

4. Журакулов Р.Д. Некоторые особенности соматической фразеологии русских переводов узбекских народных сказок (на примере соматизма голова)// Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Samarqand, SamDCHTI, 2018, В. 54-55.

5. Журакулов Р.Д. Семантические особенности фразеологических единиц с соматизмом «рука». - Integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida chet tillarni o'qitishning muammo va yechimlari. – Namangan, 2022-yil 8-9-aprel, NamDU, 2022, В. 204-205.

6. Журакулов Р.Д. Семантические особенности фразеологических единиц с соматизмом «глаз». - Xorijiy til ta'limi lingvodidaktikasi va innovatsion asoslari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 20-21-aprel, 2022-yil. - Samarqand, SamDCHTI, 2022, В. 435-43

## YURAGIDA YO'LBARS YOTGAN IJODKOR

**Annotatsiya.** Maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasi haqida ma'lumot berilgan. Shoira individual uslubini belgilovchi, badiiy olamining asosini tashkil qiluvchi lirik obrazlar, lirik kechinmalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ayollar she'riyati, badiiy olam, lirik qahramon, lirik kechinma, ruhiy holat, ijtimoiy dard, individual uslub.

“O‘zbek shoiralari” kitobining muallifi, atoqli adabiyotshunos T.Jalolov “Tuyg‘ular tug‘yoni” maqolasida adabiyot dargohiga kirib kelayotgan Halima Xudoyberdiyeva haqida shunday deb yozgan edi: “Halima o‘zbek ayollar she’riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san’at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib, suron bo‘lib kirib keldi-da, to‘liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshladi.

Men shunchaki o‘ylagim kelmas,  
Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.  
Men shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Shu satrlar bilan boshlanadigan mumtoz, shiddatkor she’r menga shoira ijodiy, axloqiy, insoniy programmasi bo‘lib tuyuldi. Bu she’r to‘lig‘icha olganda tuyg‘ularning tug‘yoni, jasoratning namoyishidir.

Men sizlarni shu she’rning oxirgi baytlariga e’tibor qilishingizni istar edim:

Shunchaki yozmoqqa, ko‘ngil to‘lmaydi,  
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim.  
Shunchaki yozganga chidab bo‘lmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o‘lim!

Haqiqatan ham shunchaki yozmoq – faqat shoirning emas, adibning ham, olimning ham o‘limidir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodida shunchaki yozilgan she’r yuq. Ijodkorning asarlari haqiqiy ilhom va iqtidor bilan dunyoga kelgan.

Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni ona, opa, singil, dugona kabi rang-barang qiyofalarning turli ruhiy holat va kayfiyatdagi, turlicha rakursdagi qarashlarning umumlashma siymosidan yaralgan. Bu ayolning zuvalasi eng mayda shaxsiy dardlar bo‘lib ko‘rinadigan masalalardan katta ijtimoiy dardlargacha bo‘lgan hissiyotlar ummonida toblangan, pishgan. Shu bois uning so‘zi, istagi, da’vati qat’iy, dilga yaqin, hayotiy:

Sen so‘rama, men ham aytmayin,  
Kuragimning singanini qars.  
Shovqin solma, men uyg‘otmayin,  
Yuragimda yotar bir yo‘lbars.

Baland bir o‘t yongan ichimni,  
Men sovutib yashashim kerak.  
O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,  
Men ovutib yashashim kerak.

Ayol o‘tib borar, sho‘x yurib,  
Shamollarda soch yoygan ayol.  
Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib,

<sup>1</sup> Худойбердиева Х. Танланган асарлар. - Т.: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2018. – Б. 6.

Sirtidan mayin jilmaygan ayol!<sup>1</sup>

Yuqorida Halima Xudoyberdiyeva lirikasining ifoda tarzini tabiiy dedik. Bu tabiiylik uning tevarak atrof, uni qurshagan muhit, tabiat va nabotot olami bilan yaqinligidan, dildoshligidan tugʻilgan ezgu hosiladir. Shuning uchun bu lirik qahramonning shevasida qoʻllanish darajasi unchalik ham yuqori boʻlmagan, kamdan kam ishlatiladigan yoki deyarli unitilayozgan soʻz, iboralarni uchratamiz: “Otam, deb eslaydi shoira – adabiyotga ixlosmand odam boʻlib, oʻrtoqlari bilan tez-tez yigʻilishib turishardi. Ular chaqchaqlashib suhbat qurib, kitobxonlik qilganlarida uyimizda tongotar bazm boʻlardi. Qiblagohim otam kitoblar qiroatini joyiga keltirib, gʻalati, yurakni larzaga keltiruvchi bir xonish bilan oʻqirdilar. Ijodkor boʻlib, ozgina nimagadir erishgan boʻlsam, buning uchun men, avvalo, oʻz onam Sharofat Xonnazar qizi, otam Ummatqulboy Xudoyberdi oʻgʻlining, keyin onaizorim Qarshigul Xonnazar qizining poyiga bosh qoʻyib, koʻnglimni izhor qilmogʻim lozim”.

Ikki yoshida onasi Sharofat opa hayotdan koʻz yumib, boʻlgʻusi shoiraga xolasi Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi.

“Es-es bilaman, – deydi shoira, – Qarshigul aya kechalari chiroq yorugʻida qarsillatib, qilich solib, pat toʻqir, men u kishining yonida oʻtirib, basma-bas patning turini chalishardim. Pat gilamning gulini biror joyi buzilmay chiqayotganini koʻrgan onam “oʻzimni chevar qizim” deb peshonamdan oʻpib qoʻyar va koʻngillari iyib ketsa, oʻzining qattiq boshidan kechgan bir-yarim voqealarni hikoya qilib berardilar. Mening anchagina asarlarim, shulardan “*Bir oʻrim soch tarixi*”, “*Sayram baxshi aytimlari*”, “*Hindikushdan nola keldi*” sheʼrlarim, “*Ilinj*” dostonim aynan onaizorim taʼsirida bitilgandir.”

Tashqi koʻrinish jihatidan shoira sheʼriyati ayollar sheʼriyatiga xos sokin, nazokatli koʻrinsa-da, uning ichki mohiyatida shiddatli va qudratli boʻron yashaydi, bezavol va qaysar ruh oʻzligidan darak berib turadi:

Shovqin solma, men uygʻotmayin,  
Yuragimda yotar bir yoʻlbars.

Shu bois boʻlsa kerak, bu lirikada “*burgut*”, “*yoʻlbars*”, “*ot*” ramzlariga qayta-qayta murojaat qilinadiki, bu ramzlar ulugʻvorlikning, ichki qudratning, shijoat va erkning timsollari boʻlib gavdalanadi.

Mazkur sheʼrni muallifi kimligini bildirmasdan oʻqitsangiz hech bir sheʼrxon buni ayol kishi bitgan deb oʻylamaydi. Yaʼni, undagi “Kuragimning singanini qars”, “Ich-ichida yoʻlbars oʻkirib” kabi iboralar, ifodalar ayollar sheʼriyatiga unchalik ham xos va mos emas. Zulfiya, O.Hojiyeva, G.Joʻrayeva, G.Nurillayeva, X.Bobomurodova yoki boshqa ayol shoirlar uslubida bunday erkak ijodkorga xos ifoda tarzini uchratmaymiz. H.Xudoyberdiyeva sheʼrlarini oʻqigan zukko kitobxon ayollar adabiyoti degan tushuncha bir qadar nisbiy ekanligiga amin boʻladi. T.Jalolov bekorga “Halima ayollarning Abdullasi”, - deya lutf qilmagan. H.Xudoyberdiyeva sokin kuylashga majbur boʻlgan ayol, ona dardlarini zamonaga muvofiqlashtirdi, ilmiyroq qilib aytganda, modernizatsiya qildi desak toʻgʻriroq boʻlar.

Chindan ham, shoira sheʼriyatini sirti tinch, sokin oqayotgan daryoga oʻxshatish mumkin. Uning tublaridagi poʻrtana va girdoblar, nishabliklardagi shiddat va tezlik kitobxonni muʼtadil muvozanatda qolishiga yoʻl qoʻymaydi. Mazkur sheʼrlardagi urugʻ-mikrosujet shiddat bilan rivojlanadi, poetik fikr parvozini taʼminlaydi, psixologik asos banddan bandga oʻtgan sari yangi sifat bosqichiga koʻtariladi. Gʻoyaviy yuk baʼzan naqorat kabi takrorlanuvchi har bir bandning oxirgi misrasiga, koʻp hollarda esa yakunlovchi bandga yuklanadi.

Keyingi yillar adabiyotshunosligida mumtoz mohiyat va zamonaviy sheʼriyatning aloqadorligi masalasida muayyan qarashlar bildirilmoqda. Shu nuqtai nazardan shoira lirikasiga eʼtibor qaratsak, hozirgi sheʼriyat va mumtoz sharq sheʼriyatlararo maʼlum robitalar davom etib kelayotganiga guvoh boʻlish mumkin. Abdulla Oripov taʼbiri bilan aytganda, Halima Xudoyberdiyevaning sheʼrlaridagi vatanparvarlik jonfidolik, mardonavorlik maʼnolariga uyqash. Sababi tevarak-atrofdan kechgan yo kechayotgan voqea-hodisa, insoniy munosabatlarning baland-

<sup>1</sup> Худойбердиева Х. Танланган асарлар. Т.: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2018. – Б.474.

pasti, shaxsning, ijtimoiy hayotning qon tomirlarida bo'y ko'rsatayotgan holat, ruhiy kechinma, o'zgarish, yangilanishlarning barcha-barchasi, eng avvalo, lirik qahramon qalbida aks-sado beradi. Shu sababdan bu lirikada ba'zan publitsistik pafos ham ko'zga tashlanib qoladi.

Umuman bugungi adabiy jarayonda, jahon xalqlari adabiyotida ham she'riyatga "sof lirika" nuqtai nazaridan qarash udumdan qoldi. Chunki bugungi she'riyatning qiyofasini turli uslublarning montajidan yaralgandek taassurot qoldiradigan qorishiq, sintetik janr talablari belgilab bermoqda. Masalan, yetuk so'z san'atkorlari Andrey Voznesenskiy, Svetlana Alekseyevich, Mo Yan ijodida ham shunday uslub belgilarini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳимжонов Н. , Ҳамидова.Ҳ. Ҳ.Худойбердиева лирикаси. Т.: Фан, 2004.
2. Шукуров Н. ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. Т.: "Ўқитувчи", 1984. – 269 б.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т.: "Янги аср авлоди" нашриётиб 2006. – 545 б.
4. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. Т.: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2019.- 435 б.

*I.M.Pardaeva, SamDCHTI dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### TARIXIMIZNI BEZAGAN MALIKA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mashhur davlat arbobi, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegim haqida ma'lumot berilgan. Boburiylarning Hindistonda markazlashgan davlat barpo etish borasidagi faoliyatini o'rganishda "Xumoyunnoma" asarining tarixiy ahamiyati maqolada batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bobur, Gulbadanbegim, Xumoyun Mirzo, Hindiston, Boburiylar saltanati, tarixiy voqealar, ma'naviy meros.

Temuriyozda malikalar orasida Gulbadanbegimning nomi alohida ulug'langan, olima, iymoni butun, taqvodor ayol sifatida ta'rif etiladi. Gulbadanbegim yuksak idrokli, o'tkir farosatli, tadbirkor va noyob aql-zakovat sohibasi bo'lganidan, o'z davrining yetuk bilimdoni va olimasi bo'lib yetishdi. Turmushga chiqqanidan keyin ham akasi Humoyunshoh saroyida uning eng yaqin maslahatgo'yi va davlat ishlarini yuritishda ko'makchisi bo'lib, davlat miqyosidagi diplomatik ishlarda ishtirok etar, munozarali masalalarni hal etishda dono maslahatlari bilan yordamlashar edi. Gulbadanbegim— O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi yagona tarixchi ayol. Gulbadanning nomi onalari singari tarix pardasi orqasida qolib ketgan emas, balki boburiylar saroyidagi eng mo'tabar, dono ayol sifatida tarix sahifalarida qolganligi bilan e'tiborlidir. Gulbadanbegim Boburshoh va Dildorbegimning uchinchi qizidir. U 1523 yili Kobulda tug'ilgan. Bobur ra'yiga ko'ra, uni Mohimbegim tarbiyalagan. Bu g'oyat go'zal, aqlu idroki yuksak, nihoyatda xushfe'l va mulozamatli ayol Humoyun mirzodan boshqa yana 2 o'g'il va 2 qiz ko'rgan, lekin ular yoshligida vafot etganlar. Shu bois, Bobur Gulbadanni unga topshirganda farzandlar dog'idan birmuncha chalg'ishini ham nazarda tutgan ko'rinadi. Gulbadan yoshlikdan juda idrokli, kitobsevar, odobli, tahsilga berilgan qiz bo'lgan. 7-8 yoshlaridan Humoyun, Komron, Askariy, Hindol, Gulrangbegim, Gulchehrabegim va Gulbadanbegim uning yonida bo'lishgan. 1529 yilga qadar Kobulda yashagan Gulbadanbegim keyin Ograga kelgan edi.

Boburshoh saroyida shahzoda va malikalarni tarbiyalashda jiddiy e'tibor berilgan. Maktabda o'g'il bolalar bilan qiz bolalar birga o'qitilgan. Ularga ite'dodli mudarrislar, otinoyilar saboq berishgan. Turli mashg'ulotlar, chavandozlik, chavgon o'ynash bilan shug'ullanganlar. Gulbadanbegimning ham ilm-ma'rifatli bo'lishiga yoshlik damlaridanoq e'tibor berilgan. Uning tarbiyasiga saroyning bosh bekasi Mohimbegim mas'ul bo'ldi. Saroyning iste'dodli qissaxoni

Sarvqad ismli ayol go‘zal ertaklarni, afsona-rivoyatlarni, xalq qo‘shiqlarini maroq bilan so‘zlab bergan.

Diniy ilmlar bilan birga dunyoviy bilimlar o‘rgatilib, Qur‘oni karim yod oldirilgan. Yillar o‘tishi bilan Gulbadanbegim saroy malikalari orasida savodli, fozila ayol bo‘lib obro‘-e‘tibor topdi. Gulbadanbegim 60 yoshdan oshganda jiyani Akbarshoh tomonidan bobosi Boburshoh va otasi Humoyunshohning hukmdorlik faoliyatini ifoda etuvchi bir tarixiy asar yozish haqida farmoni oliy qabul qildi. Shu bois hazratning farmoniga itoat etgan holda Gulbadanbegim “Humoyunnoma”ni yozishga kirishadi. Bu farmon yana ikki kishiga — Humoyunning yaqin mulozimlari Javhar oftobachi va vaziri shayx Boyazidga ham berilgan edi.

Gulbadanbegim “Humoyunnoma”ni ixcham, ravon, sodda, tushunarli tilda bayon qiladi. Otasi Boburshoh olamdan o‘tganda, u sakkiz yoshlarida edi. Xotirasida saqlanib qolgan voqeahodisalarni bayon etar ekan, kamtarlik bilan “men ojiza”, “men haqir” deya voqealarga guvohlik beradi. Kobul taxtini egallagandan so‘ng Boburshohning shar‘iy to‘rtta xotini bo‘lib, ularning kattasi Mohimbegim ilm-ma‘rifatli, dono, go‘zal ayol edi. Shu bois Bobur bu go‘zal malikani chindan sevgan va qadrlagan. 1507-yilda Mohimbegimdan taxt vorisi — to‘ng‘ich farzandi Humoyun dunyoga keldi. Gulbadan bu haqida: Kobulning olinishi va Humoyunning dunyoga kelishini Olloh muborak etdi, deb yozadi. Humoyun o‘n ikki yoshga to‘lganda temuriylar saroyidagi udumga ko‘ra barcha shahzodalar singari uning tarbiyasi bilan maxsus kishilar shug‘ullangan. Chunki taxt vorisi edi. Bobur Humoyunga Badaxshon viloyatining hukmronligini berdi. Tarixiy ma‘lumotlarda Mohimbegimning Humoyundan tashqari farzandi bo‘lmagan, bo‘lganda ham ular yoshligida bevaqt olamdan ko‘z yumgan edilar. Yolg‘iz o‘g‘lining o‘z bag‘ridan ketishi bosh malika uchun ancha og‘ir edi.

Ko‘p manbalarda temuriy malikalardan dunyoga kelgan farzandlar, ayniqsa, boburiylarda turli xil kasalliklar oqibatida tezda nobud bo‘lganligi, ayniqsa, Hindiston zaminida avj olgan ichburuq tufayli bevaqt vafot etganligi qayd etiladi. Bobur Hindiston sarhadlari uchun jang olib borayotgan bir pallada Mohimbegimdan maktub oladi. Malika maktubda kundoshi Dildorbegimdan tug‘ilajak farzandi xoh o‘g‘il bo‘lsin, xoh qiz, uni o‘z tarbiyasiga berishini so‘ragan edi. Bobur mirzo malikaning ko‘ngliga qarab rozi bo‘ladi. Dildorbegim o‘g‘il ko‘radi. Hindistondek buyuk yurti zabt etish sharafiga unga Hindol deb ism qo‘yishdi.

“Onam hazratlari meni o‘z tarbiyasiga olganlarida men ikki yoshda edim”, deya xotirlaydi Gulbadan. Demak, Mohimbegim kundoshi Dildorbegimning ikki farzandini o‘z tarbiyasiga olganligi ma‘lum bo‘ladi. Bizga ayonki, azaldan temuriylar saroyida suyuqli shahzodalar sohibqironning topshirig‘iga binoan katta malikalar tarbiyasiga berilgan. Masalan, Shohrux mirzoning ikki farzandi: Ulug‘bekni Saroyulkxonimga, Ibrohim Sulton parvarishini Tuman og‘aga yuklaydi. Bunday udum boburiylarda ham uchraydi.

O‘sha davr udumiga ko‘ra Boburshoh saroyida temuriy malikalarga xos yuksak ta‘lim-tarbiya, odob, shohona kiyinish, musulmon ayollarga xos qat‘iy talab joriy etilgan. Bobur Hindistonni zabt etish jarayonida ko‘plab hind raqqosalarini Kobulga saroy malikalari xizmat qilish uchun yuborib ham turgan. Ular musiqa ohangida turli tadbirlarda raqs, qo‘shiqlar ijro etishgan. Bobur Hindistonda muqim o‘rnashgach, Kobuldagi haramini Agraga ko‘chirish haqida farmon berdi. Bu haqida Gulbadan: “Rona Sanganing mavh etilishidan so‘ng bir yil o‘tgach, onam hazratlari Mohimbegim Kobuldan Hindistonga keladi. Men haqir ham u kishi bilan podshoh otamni ko‘rgani keldim”, deb xotirlaydi. Gulbadan “Humoyunnoma”da saroy haramining Kobuldan Hindistonga qadar olti oy mobaynida kechirgan og‘ir yo‘l azobi, iztiroblarini atroflicha tasvirlaydi. Yanvar oyining dastlabki kunlaridan boshlangan safar yurishi tugab, nihoyat iyun oyining 27-kunida Agraga yetib kelganligini bayon etadi. Bobur tabiatan ayollarga, bolalarga nisbatan mehr-muruvvatli, ochiq ko‘ngilli kishi edi. Uzoq safardan toliqib kelayotgan saroy ahlini intizorlik bilan kutib oladi. Gulbadan padari buzrukvorini birinchi ko‘rganda ancha hadiksirab, hayratga tushadi.

“Ul hazrat anchagacha meni bag‘riga bosib, tizzalariga olib o‘tirdilar va men haqir shu onlarda o‘zimni shunchalik baxtli his qildim, buni tasavvur etish qiyin”, deb yozadi. Bu vaqtlarda Gulbadan endigina olti yoshlarda edi.

Oradan ikki yil o'tib jannatmakon otasi Boburshoh vafot etdi. Bu voqeani u shunday hikoya qiladi.

Dehlidan Humoyunning jiddiy betoblighi "ahvoli ancha og'irligi" haqida xabar keladi. "Bu xabarni eshitgach zamon onam hazratlari sabrsizlandilar", deb yozadi. Shundan so'ng Mohimbegim Dehliga jo'nab ketdi. "Tezda Humoyunni daryo orqali Agraga keltirishdi. Valiahdning ahvoli ancha qo'rqinchli edi. Podshoh hazratlari kelib bemorni ko'rishlari bilan nuroniy chehralarini qayg'u va alam tuyg'ulari qamrab oldi", deya yozadi Gulbadan. Saroy tabiblari qanchalik urinmasin farzandining ahvoli yanada og'irlashayotganligini ko'rgan Bobur Oллоh yo'lida o'z jonini baxshida etdi.

Ana shundan so'ng Bobur mirzoning toblari qocha boshladi. Humoyun mirzo esa sog'ayib ketdi. Ikki-uch oy o'tdiki, dard borgan sari og'irlashib borardi. Shundan so'ng o'g'li Humoyun mirzoga zudlik bilan maktub yubordilar. "U kishi tezlik bilan yetib keldi. Qiblagohi bilan ko'rishib, otasining og'ir ahvolini ko'rib yig'lab yubordi.

O'sal yotgan podshoh "Hindol qayerda? U nima qilyapti? Eh, afsus, ming bor afsus, deya zorlanardi. Biroq o'ziga ko'proq o'xshagan Komronning ismini tilga olmadi. Askariy mirzoni eslamadi".

Gulbadanbegimning islomga bo'lgan e'tiqodi va pok ayol sifatida haj ziyoratini ado etish istagi uning orzu-armoni edi. 1576-yilda bir necha saroy malikalari hamkorligida Akbar saroyini tark etib safarga chiqadi. Bu paytda u 50 yoshlardan oshgan edi. Akbar hajga yurishdagi barcha sarf-xarajatlarni, yo'l xavfsizligini ta'min etgan holda bu ishga rozilik berdi. Yo'lning uzoqligi, xavf-xatarni hisobga olib, maxsus sarbozlar tomonidan qo'riqlab borildi. Ziyoratchilar uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib, nihoyat Makkaga yetib kelishadi. Ular Arabistonda uch yarim yil yashab, to'rt marta haj ziyoratini ado etishadi.

1582-yilda ular uzoq yetti yillik ayriliqdan so'ng eson-omon Agraga qaytib kelishadi.

Gulbadanbegimga boburiylarning beshinchi avlodi Shohjahon nomi bilan mashhur bo'lgan Xurramning hukmronlik yillarini ko'rish nasib qilmadi. U sakson yoshida bezgak kasali bilan bu foni dunyodan ko'z yumdi. Bu voqea Akbarshoh o'limidan ikki yil oldin sodir bo'ldi. Akbarshoh sadoqatli ammasi Gulbadanbegimning tobutini yelkasiga olib anchagina ko'tarib bordi.

Boburning suyuqli qizi, pok iymonli, sadoqatli ayol, o'zining "Humoyunnoma"dek tarixiy asari orqali tariximizni bezagan malika Gulbadanbegimning siymosi tarix zarvaraqlaridan mustahkam o'rin olganligi bilan qadrlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гулбаданбегим, Захириддин Мухаммад Бобур қизи Хумоюннома Т.: "O'zbekiston"НМИУ,2016.-120 б.
2. Гулбадан Бегим (Захириддин Бобурнинг қизи) Т.1959й.-112б.
3. G'ofurjon Sotimov, Boburiyzodalar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. 52-bet.
4. G'ofurjon Sotimov, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixda Boburiylar davri. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 270-bet.
5. Turg'un Fayziyev, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. 31-bet

*M.T. Zokirov, Farg'ona davlat universiteti professori  
filologiya fanlari nomzodi*

### **LINGVOKULTUROLOGIYADA OLAMNING TIL MANZARASI MASALASI XUSUSIDA**

**Annotasiya.** Mazkur maqolada turli xalqlarning o'z atrofidagi olamni ifodalashida til imkoniyatlaridan foydalanishiga oid qarashlar bayon qilingan. Ma'lumki, atrofimizdagi olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog'liq. Shuning uchun olamning til manzarasida mavjud tafovutlarning sabablarini etnologiya, lingvokulturologiya va

boshqa turdosh fanlar nuqtai nazaridan aniqlash muhim. Bunday farqlar vujudga kelishining juda ko'p sabablari mavjud bo'lib, ular, asosan, tabiat, madaniyat, bilish bilan bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, olamning til manzarasi – bu til vositalari orqali aks ettirilgan ong tasavvurlaridir .

Ma'lum bir tabiiy tilda olamning idrok etilishidan til manzarasi yoki modeli g'oyasi kelib chiqadi. So'zlar vositasida olamning tasvirlanishi juda muhimdir. Kontrastiv tilshunoslik yo'nalishi asoschilaridan biri hisoblangan R.Lado ta'kidlashicha, barcha tillarda ma'no bir xildir, tillar mazkur ma'nolarni ifodalash shakli bilan farqlanadi xolos degan soxta tushuncha mavjud. Aslida esa, ma'no madaniy aniqlangan, unda bizning tajribamiz aks etgan bo'ladi, shuning uchun ma'no madaniyatdan madaniyatga o'tish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog'liq. Shuning uchun olamning til manzarasida mavjud tafovutlarning sabablarini etnologiya, lingvokulturologiya va boshqa turdosh fanlar nuqtai nazaridan aniqlash muhimdir. Mazkur masalaning yechimini topish tadqiqotchini lingvistika doirasidan chiqib, turli xalqlar tomonidan olamni bilish sirlariga bo'lgan qiziqishning chuqurlashishiga olib keladi. Bunday farqlar vujudga kelishining juda ko'p sabablari mavjud bo'lib, ular, asosan, tabiat, madaniyat, bilish bilan bog'liqdir.

Birinchi omil – tabiat. Ya'ni odamlarning tashqi yashash sharoitlari ularning tillarida o'z aksini topadi. Odam o'zi bilgan hayvon, o'simlik, joylarga, o'zi his qilayotgan tabiat hodisalariga nom beradi. Tabiiy sharoit inson til ongining hatto ranglarni idrok qilish jarayonini boshqaradi. Tabiat ranglarini nomlash, odatda, atrof-dagi predmetlarni ko'rib idrok qilishning farqlanuvchi belgilariga asoslanadi. Tabiatdagi muayyan obyekt u yoki bu rang bilan bog'lanadi. Turli til madaniyatlarida rang belgilash bilan bog'liq o'z assotsiativ bog'lanishlari mavjud bo'lib, ular qaysidir jihatlari bilan bir-biriga to'g'ri kelsa, qaysidir jihatlari bilan esa bir-biridan farq qiladi. Atrof-olam, tabiat inson tilida shunday assosiativ tasavvurlarni shakllantiradiki, ular tilda ma'nolarning metaforik ko'chirlari, qiyoslash konnotatsiyalarda o'z aksini topadi.

Ikkinchi omil madaniyatdir. Madaniyat – bu inson tabiat olamidani olgan narsa emas, bu inson o'zi yaratgan, qilgan, qo'shgan narsasidir. Turli avlodlar, ijtimoiy jamoalarni bir biridan ajratuvchi moddiy va ma'naviy faoliyat natijalari, ijtimoiy-tarixiy, estetik, axloqiy hamda boshqa qadriyatlar va me'yorlar bevosita kishilarning olam haqidagi turli til va konseptual tasavvurlarlarda yuzaga chiqaradi. Madaniyat sohasidagi har qanday o'ziga xos xususiyat tilda aks etadi. Tillardagi farqlar, shuningdek, milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, folklor-mifologik tasavvurlar, ramzlar tufayli ham vujudga kelishi mumkin.

Uchinchi omil, bilish xususida shuni aytish lozimki, olamni anglashning aql-idrok, hissiy va ma'naviy usullari har bir insonni bir biridan farqlaydi. Bilish jarayonida borliq haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

Olamning til manzarasi tushunchasining ko'p sonli talqinlarining mavjudligi turli tillar olam manzaralarida muayyan tafovutlar yuzaga kelishi bilan bog'liq, chunki atrof olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog'liqdir. Har bir olamning manzarasi til haqidagi o'z tasavvurini belgilaydi, shuning uchun "olamning ilmiy (konseptual) manzarasi" va "olamning til (sodda) manzarasi" tushunchalarini farqlash muhimdir.

Olam manzarasini o'rganishning bugungi holati ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlardan iboratdir. Birinchidan, berilgan tilga xos alohida konseptlar tahlil qilinadi. Bu, eng avval, til va madaniy ongdagi "stereotip"lardir. Ikkinchi tomondan, xos bo'lmagan konseptlarning o'iga xos konnotatsiyalari, masalan turli madaniyatlarda rang belgilovchi ramzlar. Yu.D.Apresyan o'tkazilgan tajribalar natijasida kompyuter monitori ranglaridan bo'lgan madaniy ta'sirlanish va tasavvurlarda aniqlangan farqlar xususida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi. Masalan, qizil rang AQSHda havf-xatarni, Fransiyada aslzodalarni, Misrda o'limni, Hindistonda hayot va ijodni, Yaponiyada qahr-g'azab va havf-xatarni, Xitoyda baxtni ifodalaydi; oq rang AQSHda tozalikni, Fransiyada betaraflikni, Misrda xursandlikni, Hindistonda o'lim va tozalikni, Yaponiyada o'limni, Xitoyda o'lim va tozalikni ifodalaydi.

Shuningdek, tilga xos bo'lgan olamga yaxlit qarash bo'yicha izlanishlar va rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy mazmuni quyidagilardir:

1. Har bir tabiiy til olamni idrok qilish va tuzilishining ma'lum vositasi sifatida aks etadi. Unda ifodalangan ma'nolardan yagona qarashlar tizimi, jamoa falsafasi shakllanadi. Bir vaqtlar grammatik ma'no muayyan xabar uchun muhimligidan qat'iy nazar ifodalanishi shart deb leksik ma'noga qarama-qarshi qo'yilardi. So'nggi o'n yilliklarda leksik ma'nolarning aksariyat elementlari ham majburiy tarzda ifodalanishi lozimligi aniqlandi.

2. Tilga xos bo'lgan olamga qarash qanchalik universal bo'lsa, shunchalik milliy o'ziga xosdir, shuning uchun turli til egalari atrof olamni o'z tillari ta'siri ostida biroz farqli ko'rishlari mumkin.

3. Boshqa tomondan olamning til manzarasi olamning ilmiy manzarasidan ko'p detallarda farq qilganligi sababli "sodda" hisoblanadi, lekin mazkur sodda qarashlar aslo yuzaki, primitiv emas. Ko'p hollarda ular murakkabligi va qiziqarliligi nuqtai nazaridan ilmiy tushunchalardan qolishmaydi. Masalan, insonning ichki dunyosi haqidagi sodda tasavvurlar shular jumlasiga kiradi. Ular ming yilliklar davomida yig'ilgan o'nlab avlodlar tajribasi asosida shakllanadi va odamni mazkur olamga olib kiruvchi yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajarishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda semantika va pragmatikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, tillarni kontrastiv o'rganilishi, poetika va mantiq bilan aloqalarning kuchayishi natijasida har bir tilda semantik material tashkillanishining sistem va milliy o'ziga xosligi g'oyasi yangi kuchli impulslarga ega bo'ldi. Leksik va grammatik ma'nolarning to'liq tasvirlanishi asosida olamning sodda modelini tiklash bugungi kunda semantika va leksikografiyaning eng muhim vazifasi sifatida qaralayapti. Ikkinchi tomondan, olamning sodda modelini tiklash til ma'nolarini tasvirlash strategiyasini o'zgartirish, uni umumlashtirish imkonini beradi. Dastavval, tilshunoslar til ma'nolarini borliq faktlarining bevosita in'ikosi sifatida ko'rib chiqishardi. Til ma'nolarini soddaroq tushunchalar orqali elementar ifodalar – universal semantik metatil so'zlarigacha tasvirlash strategiyasi bunga muvofiq keladi. Lekin olamning sodda modeli tushunchasi semantikaga yangi imkoniyatlar beradi. Til ma'nolarini borliq faktlari bilan bog'lab emas, balki mazkur tilda namoyon bo'lgan olamning sodda modelining ma'lum detallariga havola qilish orqali bog'lash mumkin. Natijada til ma'nolari shakllanishining ayrim tamoyillarini ochib beruvchi tabiiy tillar semantikasidagi universal va milliy o'ziga xosliklarni aniqlash uchun asos yuzaga keladi.

Tadqiqotlar natijasida olam manzarasi tushunchasining amaliy vazifalari o'z navbatida dunyodagi ko'pdan-ko'p madaniyatlarning yuzaga kelishi vaziyati hamda insoniyat genezisi jarayonlarini anglashdan iborat bo'lgan zamonaviy lingvokulturologiya va semiotikaga uzviy ravishda bog'lanib ketadi.

Shunday qilib, lingvistika rivojlanishining zamonaviy davrida olamning til manzarasi inson haqidagi fanlar majmui doirasida tasvirlash va tavsiflash obyektiga aylanayotganini ta'kidlash mumkin. Har bir tilning olam manzarasi mazkur xalqning folklori, mifologiyasi, madaniyati, tarixi, urf-odati va psixologiyasi kontekstidagina emas, balki lingvistika kontekstida ham ko'rib chiqiladi. Semantika va leksikografiya rivojlanishining bugungi bosqichida leksik va grammatik ma'nolarni tasvirlash asosida olamning sodda modelini yaratish eng muhim vazifaga aylanmoqda.

*R.A.Suvonova SamDU dotsenti,  
S.Allamurodova SamDU talabasi*

## **OKKAZIONALIZMLARNING SO'Z TURKUMLARIGA XOSLANISHI**

**Annotatsiya.** Okkazional so'zlar tildagi ifoda vositalaridan biri bo'lib, ular favqulodda yaratiladigan, ijodkor nutqining individual mahsuli bo'lib qoladigan, tilning me'yoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik bo'yog'ini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

**Kalit soʻzlar:** Okkazionalizm, soʻz turkumlari, uslubiyat, badiiy tasvir vositalari, nutqiy okkazionalizm, noodatiy soʻzlar, yozuvchi uslubi, nutqiy hodisalar.

Okkazional soʻzlar soʻzlovchi yoki ijodkorlar tomonidan oʻz fikr va maqsadini oʻziga xos tarzda va aniq ifodalash, oʻzlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan boʻlgan oʻz munosabati, yaʼni his-tuygʻularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qoʻllanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tasvirlashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganida yaratiladi.

“Okkazionalizmlarning soʻz turkumlariga xoslanishi” deganimizda okkazionalizmlarning yasalishi, soʻz turkumlariga mansubligiga koʻra tasnif qilinadi. Okkazionalizmlarning yasalishi xususida B.Umurqulov, A.Mamatov, S. Toshaliyevlar oʻz taqiqotlarida fikrlar bildirishgan va okkazionalizmlarni soʻz yasalish nuqtai nazaridan turlicha tasniflashgan<sup>1</sup>.

Okkazionalizmning paydo boʻlishida faqatgina affikslar qatnashmaydi, yasash asosining maʼnosi ham ishtirok etadi. “Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor – yasashga asos boʻlgan soʻz va yasalib chiqqan soʻz (yasashga asos boʻlgan element mustaqil holda ayrim soʻz, lekin yasalmaga asos boʻlgach – undan yangi soʻz yasalgach – soʻzning qismi). Yasalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan oʻzaro munosabatda boʻladi”, - deydi A.Gʻulomov. Shunday ekan, soʻz yasalishida ishtirok etadigan affikslarning yasash asosiga tanlab qoʻyilishi natijasida yangi soʻzlar hosil boʻladi. Yasash asosiga soʻz yasovchi affikslarning gʻayritabiiy qoʻshilishi esa okkazionalizmni keltirib chiqaradi.

Ot yasovchi –*dosh, -chi, -iston, -kash, -furosh, -zor, -boz, -soz* kabi affiks morfemalar ot okkazionalizmlarning yasalishida ishtirok etadi. Shuningdek, shakl yasovchi –*cha, -oy, -boy, -jon* kabilar bilan ham okkazionalizmlar yasalgan: *xudocha, kadrcha, Quyoshoy, oromjon* kabi.

Sifat yasovchi affikslar ancha kam. Ular –*kor, -parast, -dor, -iy, -ona, -iyat* boʻlib, ular yordamida belgining ortiqligi, oʻzakdan anglashilgan predmetga egalik, asosdan anglashilgan predmetga tegishlilik ifodalanadi: *zilzilakor, nolakor, sheʼrparast, soyador, suqdor, jahoniy* kabilar.

Soʻz turkumlariga mansubligiga koʻra, okkazional soʻzlarni quyidagi turlarga boʻlish mumkin:

1. Ot okkazionalizmlar.
2. Sifat okkazionalizmlar.
3. Feʼl okkazionalizmlar.
4. Ravish okkazionalizmlar.

Atoqli ot okkazionalizmlarini quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

- 1) Inson nomini bildiradigan atoqli ot okkazionalizmlari: *Chakkazarb aka, Yaxshi Yamoniy, Dollarshoh, Kitobyogar* kabi.
- 2) Joy nomlarini bildiradigan atoqli ot okkazionalizmlar: *Oqjariston, Yulduzkent, Oltiniston, Musayiston* kabi.
- 3) Tabiat hodisalari, osmon jismlarini jonlashtiradigan atoqli ot okkazionalizmlar: *Quyoshoy, Qishboy*.

Atoqli ot okkazionalizmlar maʼnosiga eʼtibor berilsa, ular oʻzlari atayotgan personaj, joy nomlarining xususiyatini koʻrsatadi. Masalan, *Chakkazarb aka* – jahli tez, raqibining chakkasiga tushiradigan odamni, *Kitobyoga* – kitob yoqishga koʻngli va qoʻli boradigan odamni ifodalaydi.

Turdosh ot okkazionalizmlar koʻp uchraydi. Ularni quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

- 1) Shaxsni bildiradigan turdosh ot okkazionalizmlar: *kulgudosh, zarxoʻr, xabarkash, soqoldosh, molchi, molshunos, ilmpaz, yersevar, toʻyxoʻr, mehrxoʻr* kabi.
- 2) Mavhum ot okkazionalizmlar: *mungdosh, oʻzsoʻzlik, sekretarbozlik, xurrakchilik, davrdoshlik, yurtparastlik, baxtsozlik, darddoshlik* kabi.
- 3) Joy nomlarini bildiruvchi turdosh ot okkazionalizmlar: *qumzor, chivinxaroba, yotoqgoh, nonxona, kafegoh, sukutgoh, qorongʻuzor, mehnatxona* kabi.

<sup>1</sup> Toshaliyeva S. Oʻzbek tilida okkazional soʻz yasalishi: -Toshkent: 1998. -B.23

4) Predmetni, shaxsni bildiradigan birikma ot okkazonalizmlar: *charxi o'yinkor, mazmundor magazin, puchak jonlar, bir miri kam polkovnik.*

Yuqorida keltirilgan okkazonalizmlarning "o'zagi ham, so'z yasovchi affikslari ha o'zbek tili uchun yangilik emas, ammo ular o'zaro biriktirilganda matnda favqulodda badiiy-estetik mazmunga ega bo'ladi".

Sifat okkazonalizmlar: *shafaqgun (piyola), fitnagar (olam), obdor (qilich), beshumor (kunlar), aqlavval (kishilar).* Sifat okkazonalizmlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularning yoniga sifatlanmish keltirilsagina, ya'ni mikromatnda ma'nosi aniqroq bo'ladi.

Fe'l okkazonalizmlar: *tog'lanaman, jo'ralashing, xorazmlashmoq, g'ozlanmoq, xayollanib, kalitlamoq, konkurslashmoq* kabi.

Ravish okkazonalizmlar: *maymunona, tinsiz, sho'xona, nozimona, jayhunona, darhayrat* kabi. Ravish okkazonalizmlar kesimdan anglashilgan ish-harakatning belgisini bildirib, kesimga bog'lanib keladi: *darhayrat (bormoq), boltashakul (qaychulanib), yelbag'ay (kelmoq), tinsiz (shovullamoq)* kabi. Ba'zi ravish okkazonalizmlar ravish yasovchilar bilan yasalgan bo'lsa ham otlarga bog'lanib, sifatlovchi vazifasida ham kelishi mumkin:

*Maymunona fikrlardan nazm tuzdi u.*

(A.Oripov).

*Jayhunona kurashga kelmasa qodir daryo.*

(O. Matjon).

Misollardan ko'rindiki, okkazonalizmlar badiiy nutqda, eng avvalo, ot turkumi doirasida, so'ngra sifat, fe'l, ravish so'z turkumi doirasida uchraydi.

Son va olmosh so'z turkumiga xos okkazonalizmlarni hozircha uchratmadik.

Okkazonalizmlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Og'zaki nutq okkazonalizmlari;
2. Badiiy nutq okkazonalizmlari.

Og'zaki nutq okkazonalizmlari - obrazlar nutqida ishlatiladigan betakror birliklarni nazarda tutiladi. Masalan, *Yaxshi Yamoniy, boboyka, qayta qurish dohiysi, paxta ishi, tekin hurmat, xudocha, xalqlar otasi, akaxon, ukagoh,* kabilar. Bunday okkazonalizmlarning ma'nolariga e'tibor berilsa, ularda satira va yumor mavjud.

Og'zaki nutqda biror narsa ustidan kulib, kinoya bilan gapirish odatiy hol. Kulguli vaziyat yoki nafrat uyg'otish uchun odamlar tesha tegmagan so'z va iboralarni, ifodalarni qo'llashga harakat qiladilar. Masalan, *Bu qanaqa bo'ldi, boboyka...*(C.Ahmad). *Meni Tuhmatilloning o'rniga tayinlashlaringni talab qilaman.* (A.Muqimov)<sup>1</sup>.

Og'zaki nutqdagi okkazonal so'zlar bilan badiiy nutqdagi okkazonalizmlar orasida farq bo'lishini tilshunos olimlar isbotlab berdi.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab til ilmida "okkazonalizmlar termini neologizmlarning nutqdagi kurinishiga nisbatan qo'llanila boshlandi. Okkazonalizm (lot. occasionalts - tasodifiy) - umumiste'molga muvofiq, to'g'ri kelmaydigan, individual tarzdagi ma'noga ega bo'lgan til birligi. Shu ma'noda, Behbudiy va Cho'lpon publitsistik asarlari va ularda qo'llangan okkazonal so'zlar alohida ahamiyatga ega.

Okkazonalizmlarning qo'llanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, badiiy nutqda ot okkazonalizmlar eng faoldir. Miqdoriga ko'ra sifat okkazonalizmlar ikkinchi o'rinda, fe'l okkazonalizmlar uchinchi o'rinda, boshqa turkum so'zlari esa keyingi o'rinlarda turadi.

Okkazonal so'zlar tildagi ifoda vositalaridan biri bo'lib, ular favqulodda yaratiladigan, ijodkor nutqining individual mahsuli bo'lib qoladigan, tilning me'yoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik bo'yog'ini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. - Toshkent: Fan, 1981
2. Mo'minov S. Okkazonal nutqiy nominatsiyada motivatsiyaning roli. - Toshkent, 1990.
3. Samadov S. O'zbek tili uslubiyati. Badiiy uslub. - Toshkent: O'qituvchi, 1991

<sup>1</sup> Roziqova G. Okkazonal lissoniy birliklar haqiada. Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, O'TA jurnali, 2005, 5-son.

4. Toshaliyeva S. O‘zbek tilida okkazonal so‘z yasalishi: -Toshkent: 1998.

5. To‘xtasinova O. Badiiy okkazonalizmlar.-Farg‘ona, 2006.

*Мақсат К., Түймебаев Ж.Қ.<sup>2</sup>*  
*Әл-Фараби атындағы Қазақ ұлттық университеті*  
*Алматы, Қазақстан*

## ШАҒАТАЙ ТІЛІ ЛУҒАТТАРЫ

**Аңдатпа.** Бұл мақалада ортағасырлық түркі әдеби тілі бойынша сөздіктері сипатталып, зерттеушілері мен сөздік нұсқалары қарастырылып, хронологиялық тәртіпшен ұсынылды. Мақаламыз ортағасырлық түркі әдеби тілі сөздіктерінің жалпы сипаттамасы және сөздіктерді зерттеушілер сынды негізгі бағыттармен қарастырылған.

Мақаланы жазу барысында ортағасырлық түркі әдеби тіліндегі сөздіктері синтез, жалпылау, салыстыру және жинақтау яғни жалпы ғылыми әдістер арқылы зерттелді. Мақаланың негізгі бөлімінде ортағасырлық түркі әдеби тілінің сөздіктеріне байланысты қызығушылық XIX ғасырдан бастау алатыны көрсетіліп, сөздіктерді зерттеулер түркі ғалымдары, орыс ғалымдары мен еуропалық ғалымдар тарапынан жасалынғандығы талданады.

**Түйін сөздер:** Ортағасыр түркі әдеби тілі, луғаттар, текстология, интерпретация.

**Кіріспе.** Ескі өзбек тілі немесе шағатай деп аталатын бұл тіл төңірегінде сөз қозғау үшін міндетті түрде текстология туралы түсінік болуы шарт. Текстология XX ғасырда қалыптасқан жас ғылым ретінде қарастырылады. Текстология библиографиядан 1917 жылдан кейін бөлініп шыққан дербес ғылым деп танылды. Текстология термині жазба мәтіндердің, салыстырмалы өзіндік ерекшелігін анықтауға деген ұмтылысты білдіру үшін қолданылады.

Сөздіктер – мәтін, мазмұнының, негізгі ойын анықтау мен дұрыс интерпретациялаудың кілті. Түркітнуда сөздік құрастыру дәстүрі ортағасырлардың өзінде қалыптасып қойға. Махмұт Қашқариды айтпағанда, ортағасырлық түркі әдеби тілі бойынша іргелі сөздіктер жазылды. Оның кейбірі ғылыми тұрғыдан сипатталып, бізге дейін жетті.

**Әдістеме және зерттеу әдістері.** Мақаланы жазу барысында ортағасырлық түркі әдеби тіліндегі сөздіктері синтез, жалпылау, салыстыру және жинақтау жалпы ғылыми әдістер арқылы зерттелді. Қазіргі күнде ортағасырлық еңбектерді зерттеу әдіс-тәсілдері түрленіп, қарқынды дамып келе жатыр.

**Нәтижелер мен талқылау.** Ортағасырлық түркі әдеби тілі зерттеулерінің негізгі салаларының бірі - ортағасырлық түркі әдеби тілінің сөздіктері болып табылады. Ортағасырлық түркі әдеби тілінің сөздіктеріне қызығушылық XIX ғасырдан бастау алады. Зерттеулер түркі ғалымдары, орыс ғалымдары мен еуропалық ғалымдар тарапынан жасалынған. Бұл зерттеулерді қарастыра отырып, сөздіктердің жарық көрген жылдарына қарай төмендегідей кезеңдерге бөліп қарастырдық:

1. XVI - XVIII ғасыр сөздіктер;
2. XIX - XX ғасыр сөздіктер;

XVI ғасырдың сөздіктер қатарын ең көнесі - 1544 жылғы «Абушқа» сөздігі. Келесі кезекте «Қисман Лутфи», Мир Қайдар шығармаларындағы ортағасырлық түркі әдеби тілі сөздердіне парсыша анықтама берген «Бадоибул- луғат» сөздігі. Надир Әлидің 1629-1642 жылдары Үндістанда жарық көрген «Чағатай луғати», Мұхаммед Риза ән-Насари әш-Шусидің 1666-1694 жылдары басылған «Китаби түрки», Абдул-Джамал Насари, Файзола Ханның 1658-1707 жылдары жарық көрген «Файзолахан луғати», Мухаммед Якуб Ченгинің 1658-1707 жылдары арасында басылған «Китаб-и-Зебан-и-Түрки» сынды сөздіктерді атасақ болады. XVIII ғасырда жарық көрген іргелі сөздіктің бір - Бухаридің «Елфати Селиефи Бейани Луғати-Түрки». Сөздік Қожа Шебиби-Бухаридің авторлығымен шамамен 1719-1743

жылдар арасында Бұхарада жазылған. Сөздік қоры жағынан бай, жүйелі сөздіктердің бірі – Мирза Мұхаммед Мехди Хан ибн Мұхаммед Насири Естрабадидің 1758-1760 жылдар арасында жазылған «Сенглаһ» сөздігі. Ортағасырлық түркі әдеби тілінің сөздіктері әдетте қос, үш тілді болып келеді.

Өзіне дейінгі сөздіктерді негіз ете отырып, жан-жақты байи түскен ХІХ ғасырдағы ортағасырлық түркі әдеби тілі сөздіктерін екінші толқын ретінде қарастырсақ болады. Бұл кезеңде жарық көрген сөздіктер легін Махмудхан ибн Қожа Насириддин Бухари тарапынан 1824 жылы Үндістанда жарық көрген «Қожа Амир Хан Китабу Лисан» (Тағлифул Амир) сөздігі мен Фаизлулла Ханның лексика және граматикаға негізге алына жазылған, 1825 жылы Калькутта шыққан «Луғути Турки» сөздігімен бастауды жөн көрдік. Келесі сөздік 1845-1846 жылдары Қоханда «Лайла ва Мажун», «Садди Ескендрий» еңбектерінің сөздері басты назарға алына отырып жазылған құнды еңбектердің бірі «Хамса бо халли луғат» атты сөздік. Ортағасырлық түркі әдеби тілі бойынша сөздіктер қатарын 1862 жылы Фетхали Качардың тарапынан жазылған «Фетхали Качари луғат» сөздігімен түркі сөздерінің анықтамасының берілуімен ерекшеленетін 1864-1865 жылдары Хивада көшірілген «Халли луғати чағатой» атты сөздігі толықтырады. Келесі кезекте 1870 жылы Парижде жарыққа шыққан Паве де Куртейдің сөздік түсіндірмесі француз тілінде берілген «Шаркий туркий луғат» атты сөздігін айтсақ болады. ХІХ ғасырдың екінші жартысының тағы бір туындысы Шейх Мухаммад Салих тарапынан жазылып Насируддин Шахқа ұсынылған «Ел Тамга-и Насири» сөздігі. «Луғати чифатой ва турки-осмоний» сөздігі Шайх Сулаймон Бухари тарапынан 1882 жылы Стамбулда жарық көрді. Аталмыш ғасырдың құнды еңбектерінің бірі ретінде 1888-1890 жылдары Бұхарада көшірілген «Халли луғати чағатой Хамсайи Навоий» сөздігін атасақ болады. Кезекті 1897-1898 жылдары Стамбулда басылған Мехмед Садықтың «Үсс-и Лисан-и Түрки» сөздігіде ХІХ ғасырдағы ортағасыр түркі әдеби тілі сөздіктерінің бірегейі болып табылады. Аталмыш сөздікті 1902 жылы Мартин Хартман неміс тіліне аударды. ХХ ғасырдағы көлемді сөздік ретінде Ташкенттен 1983 жылы Фазлов редакторлығымен жарық көрген «Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғатиатты» сөздігінде атаса болады.

Ортағасырлық түркі әдеби тілі сөздіктерінің ең көнесі, «Абушка». Сөздік «қарт әйел, кемпір» деген мағына беретін «Абушка» атты бастапқы сөзімен басталғандықтан оған «Абушка сөздігі» деген есім беріледі. Сөздіктің авторы беймәлім, туынды ХVІ ғасырдың ортасында Османлы тілінде жазылған ортағасырлық түркі әдеби тілі - османлы тілі сөздігі. Ортағасырлық түркі әдеби тілінің тарихи маңызы зор бұл сөздік алғаш рет 1862 жылы Пешт қаласында венгр тілінде, кейін В. Вельямин-Зернов тарапынан француз тіліне аударылып, Петербург қаласында 1869 жылы жарияланады (Ерен, 1950: 145). Түркиялық М. Гүзелдирдің зерттеулері бойынша бүгінде бұл сөздіктің жалпы саны қырық нұсқасы. Оның он жетісі Еуропада, қалған жиырма үші Түркияда сақталған. Сөздіктің негізгі ерекшелігі ретінде аздаған айырмашылығына қарамастан сөздікте 3027 сөз бірліктерінің түсіндірмелері берілгенін нақты айтуға болады.

**Қорытынды.** Зерттеу нәтижесінде сөздіктердің ең ескісі және өзінен кейінгі сөздіктерге негіз болған «Абушка» сөздігі екеніне көз жеткіздік. Біз қарастырған сөздіктердің басым көпшілігі ХІХ ғасырда құрастырылған. Сөздіктердегі сөздер әр түрлі принцип негізде берілген. Атап айтқанда, араб графикасымен алфавиттік реттілікпен берілген сөздіктер: «Абушка», «Файзолахан луғати». Лексика және граматика негізге алына жазылған сөздіктер: «Луғути Турки». Әртүрлі түркі диалектілері салыстырылған салыстрмалы сөздіктер: «Китаби түрки Абдул-Джамил Насари», «Ферхенги Түрки». Түсіндірме сөздіктер: «Бедайи ул-Луғат», «Шаркий туркий луғат», «Халли луғати чағатой». Сөз таптарына негізделген сөздіктер: «Файзолахан луғати», «Китаб-и-Зебан-и-Түрки». Сонедай ақ, «Файзолахан луғати», «Луғати чифатой ва турки-осмоний», «Китаб-и-Зебан-и-Түрки», «Сенглаһ», «Үсс-и Лисан-и Түрки» сынды сөздіктерде байқалған тағы бір ерекшелік сөздіктер бір ғана емес бірнеше принцип бойынша негізделген. Зерттеу

нәтижемизде сөздіктердің зерттелуі ХХ ғасырға тиесілі әрі зерттеушілердің басым бөлігі батыс ғалымдары екені байқалды.

Ортағасырлық түркі әдеби тіліндегі сөздіктер мен қолжазбаларды зерттеуде туындайтын негізгі мәселелер төмендегідей:

1) Ортағасырлық түркі әдеби тілінің қазіргі түркі тілдерімен салыстырмалы қазақ тілді сөздігінің болмауы;

2) Қазақстан бойынша ортағасырлық түркі әдеби тілінің жазба ескерткіштерін жинайтын ортақ электронды базасының болмауы;

3) Зерттеу институттарында жазба ескерткіштерінің жүйелі жинаудың қолға алынбауы;

4) Түркітанушылар үшін жоғарғы оқу орындарында ортағасырлық түркі әдеби тілін зерттеу негізгі пән ретінде оқытылмауы;

5) Ортағасырлық түркі әдеби тілін зерттеу әдіс-тәсілдерін жүйелеу мен жас түркітанушыларға практикалық кеңістіктің болмауы;

6) Ортағасырлық түркі әдеби тілін білетін ғылыми мамандардың болмауы.

Бұл мәселелер алдағы уақытта өз шешімін табады деген сенімдеміз. Қортындылай келе, дәл қазіргі уақытта елімізде табылған ортағасырлық түркі әдеби тілінің сөздіктері мен қолжазбаларын аудару жұмыстары өзекті. Қазақ халқы үшін құнды көне жазбаларды оқуды жеңілдету үшін транскрипциялау, тілдік ерекшеліктерін анықтау, аудару, оларға лингвистологиялық талдау жүргізу, сондай-ақ, ортағасырлық түркі әдеби тілі мен қазіргі түркі тілдерінің сөздіктерін құрастыру сияқты жұмстар қазіргі түркітану ғылымының басты міндеті болып саналады.

#### **Әдебиеттер:**

Eren H. (1950) Çağatay Lüगतleri Hakkında Notlar. AÜDTCF Dergisi, 8 cilt. Sayı 1-2 Ankara,.145-163 sayfa.

Инан, Әбділқадыр, «Чағатай жазба тілінің қалыптасу тарихы туралы ойлар», TDAY-Belleten, (1946 жылғы наурыз) 1946, Сериялар: III, P.6–7, 531–543

Әлішер Науаи. Мухәкәмәтул-луғәтәйн. (Дайындаған Т. Қыдыр). – Нұр-Сұлтан: Халықаралық Түркі академиясы, 2021. – 208 б.

Благова Г.Ф. О соотношениях прозаического и поэтического вариантов среднеазиатско-тюркского литературнописьменного языка XV – начала XVI в. (к постановке вопроса) // TURGOLOGIKA. – Ленинград: Наука, 1976. – 364 с.

Vambery H. Cagataische Sprachstudien. Leipzig, 1867.

*S.R.Karimova, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti*

### **O‘ZBEK ADABIYOTIDA ZULLISONAYNLIK AN‘ANALARI**

**Annotatsiya.** Zullisonaynlik Sharq xalqlari, xususan, fors-tojik va o‘zbek adabiyotlarida qadimiy an‘analarga ega poetik san‘atlardan hisoblanadi. Bu adabiy hodisa she‘riy usul sifatida bir baytning ikki tilda o‘qilishiga asoslanadi. Zullisonaynlikning ikkinchi ko‘rinishi bir ijodkorning ikki tilda asar yozishi, ancha keng tarqalgan an‘anadir.

**Kalit so‘zlar:** an‘ana, zullisonaynlik, poetik san‘atlar, ikki tillilik, fors-tojik va o‘zbek adabiyoti, shiru shakar, mulamma, adabiy aloqa, o‘zaro ta‘sir, bayt, do‘stlik, radif, tatabbu‘, qasida.

Zullisonaynlikning «shiru shakar», «mulamma» kabi ko‘rinishlari mavjud. «Shiru shakar» va «mulamma»ning takomili esa to‘la ma‘nodagi zullisonayn qalamkashlarni – ikki tilda original asarlar yaratuvchi shoirlarning balog‘atga yetishida qulay vaziyat hozirladi. XV asrning birinchi yarmidayoq «zullisonaynlik», «shiru shakar», «mulamma» poetik san‘atlar doirasidan chiqib, o‘zbek va fors-tojik adabiyotlarining mustaqil sohasi darajasiga ko‘tarildi.

Zullisonaynlik tarixi badiiy so‘z san‘atining o‘zi singari qadimiydir. Bu an‘ananing tug‘ilishi va taraqqiyoti xalqlar o‘rtasidagi aloqa va hamkorlik munosabatlarining paydo bo‘lish jarayoniga borib tutashadi. Xalqlar, mamlakatlararo bahamjihat munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy

muomala, savdo-sotiq ishlari qanchalik keng avj olsa, madaniy aloqalarning ko‘lami ham shunchalik kengayadi, ravnaq topadi. Shu bilan bog‘liq ravishda til, turmush, adabiyot va san’atda ijobiy ma’nodagi yangiliklar ko‘payib boradi. Eslatilgan jarayon jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ko‘zga tashlanadi. Ammo, ana o‘sha jarayonning sodir bo‘lishi hamma xalqlar taqdirida bir xilda kechmaydi. Masalaning bu tomoni ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-geografik muhit bilan izohlanadi. Yani xalqlarning bir-biriga tutash hududlarda yashashi, kurash va mehnat tarzining monandligi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning taqozosi sifatida o‘zaro yaqinlashish jarayoni boshlanadi va davom etadi.

Dilda bori til tufayli ro‘yobga chiqadi, necha-necha qalblarga yo‘l topib yashaydi, kishilarga zavq-shavq hadya etadi. Tilsiz she‘riyat ham, ilm-fan, adabiyot ham bo‘lmaydi. Fikrning ifodalanish quroli – til bilishga bo‘lgan qiziqish, bir necha tilda ijod qilish an‘anasi ancha olisdan boshlanadi va u ko‘pchilik xalqlar adabiyotida uchraydi. Muhimi shundaki, zullisonaynlik hodisasining amal qilishida tillarning genetik jihatdan bir-biriga yaqin va yo mutlaqo uzoqligi hal qiluvchi rol o‘ynamaydi.

Zullisonaynlikning adabiy an‘anaga aylanishi va uning izohi lug‘at va ilmiy risolalarda ko‘rina boshladi. Masalan, “Navoiy asarlari lug‘ati”da yoziladi: “Zullisonaynlik, arabcha ikki til egasi, ikki tilni biluvchi, ikki tilda ijod qiluvchi”. “Tojik tilining izohli lug‘ati”da ham xuddi shunday fikr o‘rtaga tashlanadi. Poetik san‘atlar ustida bahs yurituvchi asarlarda “zullisonayn”lik she‘riy usul sifatida talqin etiladi.

Turkigo‘y shoirlarning tojik tilida qalam tebratishi XV asrning ikkinchi va XVI asrning birinchi yarmida ham o‘zbek-tojik xalqlari do‘stligining ramzi sifatida amal qildi. Bu xususda Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush-shuaro», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» singari asarlari qimmatli ma‘lumotlar beradi. O‘zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy o‘z zamonida turkiy tilda vujudga kelgan har bir asarni alohida sinchkovlik bilan o‘rgangan. Uning faoliyatida hayotga, atrof-muhitga, adabiyot olamiga haqiqatgo‘ylik ko‘zi bilan qarash an‘analari birinchi o‘rinda turadi. Ulug‘ shoir tabiatidagi o‘sha olijanob fazilat zullisonaynlik bobidagi ma‘lumotlarni to‘plash misolida yanada ravshanlashadi. «Majolisun-nafois»da zikr etilgan 459 san‘atkordan 39 tasi turkigo‘y yoki zullisonayn ijodkorlar hisoblanadi.

Zullisonaynlik Sharq xalqlari, xususan, fors-tojik va o‘zbek adabiyotlarida qadimiy an‘analarga ega poetik san‘atlardan hisoblanadi. Bu adabiy hodisa she‘riy usul sifatida bir baytning ikki tilda o‘qilishiga asoslanadi. Zullisonaynlikning ikkinchi ko‘rinishi bir ijodkorning ikki tilda asar yozishi, ancha keng tarqalgan an‘anadir. O‘zbek adabiyoti tarixida Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sida mustahkam shakllangan bu an‘ana adabiyotning Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Muhammadjon Vasliy singari zabardast vakillari ijodiga qadar davom etib keldi. Ikki tillilikning bu shakli bir ijodkorning o‘z adabiy faoliyati davomida ikki tilda qalam tebratib asarlar yaratishi, shu vosita bilan ikki xalq madaniyati ravnaqiga ulush qo‘shishi ular do‘stligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mumtoz adabiyotda ana shunday sharaflı baxtga musharraf bo‘lgan tab‘ ahllarini «zullisonayn ijodkorlar» tarzida tilga olish ularni yuksak fazilatli shaxslar sifatida ardoqlash ham an‘ana tusini olgan. Zamon taqozosi bilan bahamjihat hayot tufayli ko‘pgina o‘zbekcha so‘zlar fors-tojik tiliga va aksi o‘laroq, fors-tojik so‘zlari o‘zbek tiliga kirib, o‘zlashgan. Bularga Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Toshxo‘ja Asiriy va Muqimiylarning ustozu shogirdligi, bamaslahat ijodiy hamkorligi qo‘hib bu ikki xalqni yanada yaqinlashtirdi. Fors-tojik adabiyoti tarixini o‘zbek adabiyoti tarixidan ajratib o‘rganish mumkin emas, chunki o‘zbek adabiyoti o‘z taraqqiyoti yo‘lida fors-tojik adabiyotining hayotbaxsh ta‘sirini his etgani kabi, o‘z navbatida o‘sha adabiyot ravnaqi uchun samarali ta‘sir ham ko‘rsatishga erishdi. Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Sayfi Saroyi, mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy singari o‘nlab o‘zbek qalamkashlarining o‘z ona tillari bilan bir qatorda fors-tojik tilida, Davlatshoh Samarqandiy, Hiloliy, Binoiy, Osafiy, Vosifiy kabi fors-tojik arboblarning o‘zbek tilida ijod qilishi; Muhammad Solih, Amir Shayxim Suhayliy singari o‘nlab tab‘ sohiblarining har ikki tilda birday qalam tebratib, devonlar tartib berishi bu adabiyotlar o‘rtasida mustahkam mantiq zanjiri borligidan dalolat beradi. Yuqoridagilardan

quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Zullisonaynlik o'zbek va tojik xalqlarining hamjihat hayoti jarayonida shakllanib borgan va uzoq davom etgan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi. Dastlab qo'shni tilga qiziqish, uni o'rganish va badiiy asarlarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'sha tilga mansub so'zlarni qo'llash jarayonida zullisonaynlikning «shiru shakar», «mulamma» kabi ko'rinishlari yuzaga keldi. «Shiru shakar» va «mulamma»ning takomili esa to'la ma'nodagi zullisonayn qalamkashlarni – ikki tilda original asarlar yaratuvchi shoirlarning balog'atga yetishida qulay vaziyat hozirladi. XV asrning birinchi yarmidayoq «zullisonaynlik», «shiru shakar», «mulamma» poetik san'atlar doirasidan chiqib, o'zbek va fors-tojik adabiyotlarining mustaqil sohasi darajasiga ko'tarildi. Bu hayotbaxsh soha esa fors-tojik hamda o'zbek adabiyotlari o'rtasidagi aloqa, o'zaro ta'sirni yanada mustahkamlashda yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiyot tarixidagi zullisonaynlik an'anasi tayyor shaklda maydonga kelgan hodisa emas. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida amal qilib kelayotgan mulammachilik poetik san'atining evolutsion o'sish yo'li ham ana shu fikrni o'rtaga tashlash imkonini beradi. Mulamma – Sharq xalqlari adabiyotida ancha ommalashgan adabiy hodisa. Uning vujudga kelishi O'rta Osiyoda tillararo kurashlarning kuchayishi bosqichlariga to'g'ri keladi. Zullisonaynlik va mulamma asarlar yaratish yo'lidagi ilk urinishlar fors-tojik-arab, fors-tojik-arab-mo'g'ul, arab-o'zbek, arab-o'zbek-mo'g'ul shaklida namoyon bo'ladi. Ilk mulammalarning izlari kishi nomlaridayoq ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyo xalqlarining nomnomasi ko'zdan kechirilgan ekan, o'sha kishi ismlari ro'yxatida arabcha, forscha-tojikcha, mo'g'ulcha, grekcha, lotincha va yahudiycha so'zlarning atoqli ot vazifasida kelganligi ma'lum bo'ladi. Bunday faktlar garchi kichik bo'lib ko'rinsa-da, aslida uning tagida katta hayotiy va tarixiy haqiqat yotadi.

Mulamma – Sharq xalqlari adabiyotida ancha keng ommalashgan poetik usullardan biri bo'lib, unda qalam tebratish ijodkordan birgina kichik lirik janrdagi asarning o'zida bir necha til materiallaridan foydalanishni taqozo qiladi. Hozirga qadar vujudga kelgan mulammalarning arabcha-forscha-tojikcha, forscha-tojikcha-o'zbekcha, o'zbekcha-arabcha-mo'g'ulcha, o'zbekcha-arabcha, tojikcha-o'zbekcha, tojikcha-ruscha, o'zbekcha-ruscha, o'zbekcha-ruscha-tojikcha so'zlar qorishmasidan yaratilganligi fikrimizning isboti bo'lib xizmat qiladi. Mulamma atamasi bilan parallel tarzda she'rlar uchun ilmiy va badiiy adabiyotlarda «shiru shakar», agar bu xususiyatga molik asarlarda uch tilga oid so'zlar qatnashgan bo'lsa, «shaxdu shiru shakar» mavhumlari ham qo'llaniladi.

Mulammada ijod etilgan asarlarning baytlar miqdorini qat'iy cheklash qiyin. Mulammalar baytlar miqdori jihatidan turlicha (eng kichigi 4 misra va eng kattasi 26 bayt, hatto undan ham ko'p bo'lishi mumkin) bo'ladi. Masalan,

Shiru shakardek biri birlan qarin,  
Hamsabaku hamnafasu hamnishin.

(Yu. Amiriy)

Ramuzul - ishq konat mushkilam bil — aks hallilho,  
Ki on yoquti mahlulat namoyad halli mushkilho.

(A.Navoiy)

Zamonlar o'tishi bilan mulammachilikning yangi-yangi shakllari vujudga keldi. Masalan, mavlono Lutfiyning

Ko'r dum seni, ketdi g'am, alminnatullah,  
Jon topdi hayot ushbu dam, alminnatullah -

matlai bilan ibtido topuvchi g'azalida arab tilidan olingan «alminnatullah» so'zi radif vazifasida kelib shoir tasviridagi psixologik holatning jonli, jozibali va kutilganday chiqishida xizmat qilgan.

Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning tabarruk nomi zullisonayn ijodkor sifatida ham qadrlidir. Shoir bu sharafli unvonga boy ma'naviy merosi tufayli sazovor bo'ldi. U fors-tojik tilini puxta bilibgina qolmay, qadimiy an'analarga boy bu tilning imkoniyatlaridan ham durustgina xabardor edi. Buni ulug' adibning «Muhokamatul-lug'atayn» asari to'la tasdiq etadi. Aytish kerakki, Alisher Navoiy fors-tojik tilini kamsitish yo'lidan bormaydi. Fikrimizcha, tili boshqa-

boshqa, ammo, dili, fe'l-atvori, urf-odati, kasb-kori, mavsum-marosimi, turmush tarzi, taqdir va tarixi tutash bu ikki xalqni Alisher Navoiy teng ko'rgan va birday ardoqlagan. Xalqlarimizning do'stlik tarixidan chuqur xabardor bo'lgan ulug' o'zbek shoiri o'sha shaffof birodarlik sahifalariga dog' tushishini, xiralashib qolishini istamagan. Buni uning ilmiy va badiiy merosi to'la quvvatlaydi.

Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari mukammal bir to'plam tusini olgan. Adabiyot tarixida «Devoni Foni» nomi ostida ma'lum bo'lgan bu kitobning mundarijasi xususida muallifning o'zi «Muhokamatul-lug'atayn» asarida shunday mulohaza yuritadi: «Yana forsiy g'azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami' suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu'dur, tartib beribmankim, olti mingdan ab'yoti adadi kuprahdurki, ko'prak ul hazrat she'riga tatabbu' voqe' bo'lubtur». Ko'chirilgan parchadan «Devoni Foni»ning ikki muhim xususiyati ayon bo'layotir. Bulardan birinchisi, shu to'plam tarkibidagi asarlar aksariyatining Xoja Hofiz Sheroziy g'azaliyotiga tatabbu' qilinganligi hisoblanadi. Ikkinchisi, to'plamga kiritilgan she'rlar miqdorining olti ming baytdan ko'proq ekanligidir.

«Muhokamatul-lug'atayn» asarining Alisher Navoiy fors-tojik tilidagi merosini o'rganishdagi muhim manbalik roli yana shundaki, unda «Devoni Foni» to'plamining nashrlariga kirmay qolgan anchagina qasidalarining nomi tilga olinib, matlari keltiriladi. Jumladan, «Nasimul-xuld», «Ruxul-quds», «Aynul-hayot», «Minhojul-najot», «Quvvatul-qulub» qasidalari va to'rt qasidadan iborat «Fusuli arbaa»ning mundarijasi bayon etiladi. Sharq klassik she'riyatining to'qqiz janrida yaratilgan bu merosning hajmi «Muhokamatul-lug'atayn»dagi ma'lumotlarga ko'ra o'n ikki ming misradan ko'proqdir.

Professor Hamid Sulaymon Alisher Navoiy asarlari o'n besh tomligiga yozgan so'zboshisida «Devoni Foni»dagi she'rlarning umumiy hajmini 6197 bayt yoxud 12394 misra deb ko'rsatadi. Fikrimizcha, bu raqam ham tugal emas. Chunki H. Sulaymon aniqlagan redaksiyada Alisher Navoiy forsiy qasidalarining soni yettita deb ko'rsatiladi. Holbuki, «Sittai zaruriya» va «Fusuli arbaa» tarkibida o'nta qasida joylashtirilgan bo'lib, ularning umumiy hajmi ikki ming misradan oshadi. Ko'rinadiki, yuqoridagi raqamga uch qasidaning misralari qo'shilmay qolgan.

Aytilganlar hisobga olinadigan bo'lsa, Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari o'n uch ming misraga yaqinlashadi. Aslida, shuncha baytdan tuzilgan she'riy merosni yaratishning o'zi bir umrni talab qiladi, ikkinchidan, bunday salmoqqa ega asarlar fors-tojik adabiyoti ravnaqiga qo'shilgan bebaho ulushdir.

Fors-tojik adabiyoti vakillarining qardosh tillar, xususan, o'zbek tilida qalam tebratishi o'z tarixiga ega. Garchi bu hodisaning dastlabki unsurlari fors-tojik adabiyoti tarixiy taraqqiyotining XII-XIII asrlariga to'g'ri kelsa-da, keng rivoj topishi XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridan boshlanadi.

Tojik adabiyotida o'zbek tilida ijod qilish bilan bog'liq zullisonaynlikning bunday tus olishi qator ijtimoiy-siyosiy va tarixiy omillar bilan izohlanadi. XV asrning so'nggi choragi va XVI asr ibtidosida o'zbek tilining nufuzi yanada ko'tarilib bordi. Afg'onistonu Hindistonda boburiylar saltanatining paydo bo'lishi bilan ayni paytda bu o'lkalarda ham turkiy til taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar hozirlandi. Tarix maydonidagi bunday siljishlar turkiy tilning o'zaro aloqa, muomala, munosabat funksiyasidagi rolini oshirish bilan birga, unga ikkinchi ona tiliday munosabatda bo'lish, tabiat va jamiyat voqea-hodisalari uyg'otgan his-hayajon, tuyg'ularni badiiy ifodalashga bo'lgan havas va rujuni ham kuchaytirdi. Shu tariqa «ikki tillilik Navoiydan so'ng tojik adabiyotida ham mustahkam o'rin olib, qutlug' an'ana sifatida davom ettirildi». Natijada XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida yashagan Binoiy, Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy, Hiloliy singari talantli tojik shoirlari Alisher Navoiyga ergashib o'zbek tilida ham anchagina go'zal she'rlar, g'azallar yaratganlar.

XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi tojik adabiyotida zullisonaynlik an'analari amal qilgan, o'z ona tili qatorida ba'zan o'zbekcha she'rlar bitgan shoirlardan yana biri Jamoliddin Binoiydir. Mavlono Binoiy mulammalari va sof o'zbek tilida ijod qilingan she'rlari bilan ikki tillilik rivojiga sezilarli ulush qo'sha oldi. Ma'lumki, bu qalamkashning hayot yo'li ikki sulola

saltanati yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham u birmuncha notinch va uqubatli hayot manzaralarini boshidan o'tkazgan. Goh temuriylar va goh shayboniylar dargohida panoh topgan. Shoirning ana shunday darbadar hayoti, keyincha, Shayboniyxon oldida nufuz topib, unga yaqinlashuvi bilan bog'liq tarzda uning o'zbek tilidagi she'rlari maydonga kelgan. Biroq, manbalarning guvohlik berishicha, shoirning bu tildagi adabiy merosi deyarli ko'p emas. Bundan qat'i nazar, mavlono Binoiyning o'zbek tilidagi tarqoq asarlari ham uning bu tilni anchagina yaxshi bilishidan darak beradi.

Badriddin Hiloliyning zullisonaynlikka munosabati o'zgacha yo'nalishni tashkil qiladi. Chunki u kelib chiqishi nuqtayi nazaridan turkiy qabilalarga mansub bo'lsa-da, umr bo'yi tojik tilida dilbar asarlar ijod qilib, tojik adabiyotining zabardast qalamkashlari ro'yxatidan joy olgan. Alisher Navoiy ham o'zining «Majolisun-nafois» asarida mavlono Hiloliy haqida mulohaza yuritib, uning turk elidan ekanligini ta'kidlagani holda, tojik tilidagi she'ridan parcha ko'chiradi. U umri davomida tojik tilida ijod qildi va fors-tojik adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Shunisi xarakterliki, adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning voqe bo'lishida qator ideologik va estetik faktorlar qatnashadi. Ana shunday g'oyaviy va estetik ildizi bo'lgan adabiy aloqagina mustahkam, uzoq yashovchi va ayni zamonda, chinakam o'zaro ta'sir uchun zamin yaratish imkoniga egadir. Bunday adabiy aloqa va o'zaro ta'sir ikki mamlakat, alohida olingan hududdagi adabiyotlar uchun foyda keltiradi, ularda chinakam ijodiy muhitning rivoji, istiqbol ufqlarining kengayishi, umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan yuksak mahoratli asarlarning vujudga kelishida ilhombaxsh turtki bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзоев А. Сездаҳ мақола. – Душанбе: 1977. – Саҳ. 163.
2. Мумтоз Салмон. Озарбайжон адабиётининг манбалари. – Баку, 1986. - Б. 262-266.
3. Хайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент : 1968. – Б. 72.

*H.A.Aslanova*

*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi (PhD)*

### **XOJA HIKOYATLARIDA OSHIQ SHOH OBRAZI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xoja hikoyatlari va uning obraz yaratish mahorati tahlil etilgan. Xoja hikoyatlarida obrazlarning poetik ifodalanishi va tasavvufiy g'oyalar asosida ifodalanishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hikoyat, obraz, tasavvuf, didaktika, tariqat, tamsil, yor, may, ishq, oshiq.

O'zbek mumtoz adabiyotida Xojaning o'rni alohida ahamiyatga ega. Uning adabiy merosi hikoyat janrining eng go'zal namunalari sifatida talqin qilinadi. Uning «Miftohul adl» va «Gulzor» asarlari hikoyatlar majmuidan iborat. Ma'lumki, Xoja XVI asrda yashab ijod etgan, shayboniyxonlar hurmat e'tiboridagi, davlat ijtimoiy muhitida o'zining munosib o'rni, vazifalariga ega bo'lgan shaxslardan biri sanalanadi. Asar 15 bobdan iborat bo'lib, dastlab nazariy-didaktik xarakterdagi tezislar, so'ngra ularni tasdiqlash uchun turli masallar, hikoyalar keltirilgan. Xoja hikoyatlari o'zining g'oya ifodasi, syujet chizig'i, yoritilish uslubiga ega.

«Bu asar yagona syujetga ega bo'lmagan hikoyalar, masallar to'plami shaklidir. Aytish mumkinki, asar nafaqat adabiyotshunoslik sohasining talqin manbai bo'lib hisoblanadi, shuning bilan bir qatorda u o'zbek tili va tarixini o'rganishi nuqtai nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ko'p qimmatli va boy material beradi. Asar jonli xalq tilida yozilgan bo'lib, unda murakkab, farmolistik bezaklar, tushunilmaydigan yoki og'ir jumladan kam uchraydi. Asar ko'p asrlar burun yaratilishiga qaramay, hozir ham ravon o'qiladi. Asarning yaxshi hislatlaridan biri shuki, undagi hikoyatlar mazmunini xiralashtirib qo'yadigan keraksiz va ortiqcha tasvirlash, bayon qilish uchramaydi, ixchamlik va aniqlik mavjud» [5. 7-bet].

«Miftohul adl»dagi barcha qahramonlar «shoh» bo‘lib kelavermaydi. Ayni paytda ijtimoiy muhit ahvolidan kelib chiqib, jamiyatdagi nohaqliklarni hikoyatlarida aks ettirar ekan, unda shohlarning ham ijobiy, ham salbiy obrazlar sifatida o‘z in‘ikosini topganligining guvohi bo‘lamiz. Bu bilan hikoyat qahramonlarining barchasi shohlar, degan xulosa kelib chiqmaydi, adib hikoyalarning bosh qahramonlari qilib oddiy kishilarni – xalq vakillarini oladi. Bu qahramonlarning hammasi dono va irodali, vijdonli va odil shaxslar sifatida tavsirlangan. Ular ifloslikni, yaramaslikni va nohaqlikni qoralaydilar, zo‘ravonlar va talonchilikni la‘natlaydilar. Ular yovuzlik oldida qo‘l qovushtirib o‘tirmaydilar, balki harakat qiladilar, o‘z manfaatlarini himoya qiladilar, maqsadlariga erishadilar. SHoh timsolini yaratishda ham shu kabi xususiyatlarni jonlantirar ekan, Xoja ko‘proq odillik tarozisi boshida turgan, qalbiga Olloh yodini muhrlagan, ishqqa oshno qilib gavdalan tiradi. To‘g‘ri, badiiy olamda shohlar timsoli juda ko‘plab uchraydi. Lekin, ularning barchasi ham bir xil emas. Jumladan, ««Tuhftul-ahror»da shohlar haqidagi fikr-mulohaza o‘n uchinchi «maqolat»da keltirilgan. Boshidanoq shuni ta‘kidlaymizki, Jomiyning bu bobi avvalidan oxirigacha tanqidiy ruhda yozilgan, ya‘ni gap mutloq zolim shoh ustida boradi. Shoir zulmda «namuna» bo‘lgan zolim podsho obrazini yaratgan» [4. 125-bet].

Xojaning «Miftohul adl» asarining 2 bobi – odil sultonlarga bag‘ishlangan. Lekin, shohlarning barchasi ham ijobiy qahramon sifatida tasvirlanmaydi. Birgina Mahmud shoh timsolini olaylik. Ushbu obrazni Xoja bir necha hikoyatlarida bosh qahramon tarzida gavdalan tiradi. Ammo, obraz hikoyatlarda turlicha: salbiy va ijobiy ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Bir xususiyat ahamiyatliki, salbiylik niqobini olgan shoh, hikoyat so‘ngida pushaymonlik hissini tuyib, ijobiy qahramonga aylanadi. Ma‘lumki, «Mahmud va Ayozi» hikoyati ko‘plab ijodkorlarimiz asarlarida uchraydi: F.Attor, A.Navoiy, Sa‘diy, Jomiy, Fahriddin ali Safiy kabi har bir ijodkorning qahramonlari o‘zining orzu-istaklaridan, ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Dastlab, Xojaning «Ikki asari «Miftohul adl» va «Gulzor»da bayon etilgan «Mahmud va Ayozi» hikoyatlarining talqini haqida so‘zlasak. «Miftohul adl» asarida ushbu qahramon «shoshqaloq», surab- surishtirmay ish ko‘ruvchi qilib tasvirlangan.

Ya‘ni, hikoyatdagi shoh Mahmud obrazi «Etti o‘lchab bir kes» maqoliga zid ravishda, aldamchi vazirining yolg‘on nag‘masiga ishongan holda ish ko‘rgan bo‘lib namoyon bo‘ladi. Ushbu rivoyatda sulton Mahmud G‘aznaviy – oshiq shoh timsolida kelganligi faqat bir jumlada o‘z ifodasini topadi. «sulton Mahmud G‘aznaviy Ayozi xoslaridin ziyodroq yaxshi ko‘rar edi». Lekin shu ta‘rifning o‘ziyoq an‘anaviy uslubning oshiq-ma‘shuq xarakterini ochib bersa-da, hikoyat tasavvufiy ilohiy ishq ruhida sug‘orilgan bo‘lsa-da, undagi voqeotlarda ko‘proq real hayot-saroydagi jirkanch munosabatlar tasviri aks etadi. Muallif o‘z dunyosidagi ziddiyatlarni shohlar va xoslar o‘rtasidagi o‘zaro muomala rishtalarining to‘siqlarga uchrashiga saroy a‘zolari sababchi bo‘lib qolishini ijod olamiga kiritib, hikoyatini shu saviyada yaratgan. Hikoyatning markaziy planida «ilohiy ishq» maqomi tursa-da, Xojaning maqsad yo‘nalishi – shoh va sultonlarning mudroq qalbini, basir ko‘zini ochishga, adolatli hukmlarni chiqarishga chorlaydi. Ayni paytda ushbu hikoyatda vazir obrazi bor, u bo‘htoni bilan o‘z boshiga o‘zi etadi. Muallif bu bilan «har kim ekanini o‘radi», maqolini isbotlaydi. Xoja hikoyatlarining barchasi o‘zining poyonida yaxshilik echimini oladi. Ayozi obrazi ma‘shuq timsoli, oqil va dono tarzda ish ko‘ruvchi, shunga muvofiq harakat qiluvchi bo‘lib keladi. Bu obraz o‘zining dono fikrlari bilan shohni qoyil qoldiradi. Xuddi, sha‘mga parvona talpinganidek. Lekin, Xoja asarining boshqa o‘rindagi hikoyatida sulton Mahmud nihoyatda zolim tarzda gavdalanadi va vaziri «bisyor oqil» ekanligi bayon etiladi. Lekin bunda Ayozi obrazi yo‘q. Ayni paytda shohning ichki ruhiyatidan ko‘ra, ma‘naviy ishq, botiniy intilishlardan ko‘ra ko‘proq, shu dunyomizdagi shohlarga xos xarakter – zolimlik aks etadi. Aytish mumkinki, Xoja «Miftohul adl»da shoh Mahmud obrazini foniy olam vakiliga aylantirgan va unga ko‘proq manmanlik xususiyatini bergan hamda Ayozi obrazini zukko, itoatkor xos qilib tasvirlagan. Muallifning bu bilan ko‘proq dunyo ahli sultonlarini odillikka chorlaganligi sezilib turadi.

Endi Faririddin Attorning «Mantiqut tayr» asaridagi «Sulton Mahmud va Ayozi hikoyati»ni olaylik. Hikoyat aynan tasavvufiy ishq ruhida yozilgan, naqshbandiya tariqatining uchinchi

rashhasi aks etadi. YA'ni «Safar dar vatan» qolaversa, birgina «Puteshestvie serdsem po rodine» (A.A.Semenov – qalban vatan bo'ylab safar qilmoq) deganda faqat sayohat tushunilmaydi. Ayni paytda naqshbandiya tariqati vakillari yozganidek:

*«Az darun shav oshnovu v-az birun begonavash,  
Inchunin zebo ravish kam mebuvad andar jahon.*

Mazmuni:

*Ichkaridan Ollohga oshno va tashqaridan begonadek bo'l,  
Bunday zeboravish jahonda kam topiladi». [1. 163-bet]*

Mahmudning Ayoza bo'lgan ishq, unga intilishi va uning u bilan qalban birga bo'lishi naqshbandiya tariqati rashhalari maqomida yo'g'irilganligi bilan ahamiyatlidir.

Hikoyatning so'nggi bayti ayni shu rashhaga ishora tarzda yozilgan:

*«Zohiran istab xabar, dilxohi men,  
Aslida har dam uning ogohimen...» [6.103-bet]*

Mahmud obrazi shu asarning yana boshqa o'rinlarida ham uchraydiki, «Sulton Mahmud va tikanchi chol» unda sixovatpesha, donishmandlikni sevuvchi, ma'naviyat ahli oldida ta'zim qiluvchi tarzda tasvirlanadi. Yana «Sulton Mahmud va baliqchi bola» hikoyatida ham Odil poshsho tarzda gavdalantriladi. SHuni ta'kidlash lozimki, F.Attor obrazini haqiqiy sufiy oshiq, adolatli podsho, ilmi, oqil shaxs qilib tasvirlaydi. Mavjud bo'lgan «Foniy dunyoda muhabbat, yo Ollohga bo'lgan ishq, yoki shohlik maqomi ostida davlatga bo'lgan ishqqa bo'linadi» degan aqidaga zid ravishda, oshiq shoh timsolini yarata olgandir.

Hazrat Navoiyda esa ushbu hikoyat «Lisonut-tayr» asarining CLXXXV qismida «tamsil» qilib keltiriladi. Uning Sulton Mahmud va Ayoza obrazlari oshiq-ma'shuq, ishq va bu uchlikning maqomotdagi harakati tasvirlanadi. Oshiq shoh – o'z mahbusiga nihoyatda intilishi, unga singib ketishlikni xohlashi hikoyat tarkibida shunday izohlanadi:

*«Taxt ayog'i sori solib takyagoh,  
Etib erdi boshi uzra keldi shoh.  
Bir dam etti husnig'a nazzorae,  
Shavq o'tig'a aylayin deb chora.  
Shavqni nazzora afzun ayladi,  
Ishq ahvolin digargun ayladi.  
Chekti mahvashning ayog'ig'a o'zin,  
Shavhdin qo'ydi tabonig'a kuzin». [2. 256-bet]*

(Shoh Mahmud uning boshiga etib keldi. U bir dam uning husniga nazar tashlab, o'zidagi shavq o'tiga chora topmoqchi bo'ldi. U behad zavq-shavq bilan unga boqdi, ishq uni boshqacha tusga kiritdi. SHoh mahvashning oyoqlariga o'zini tashlab, shavqqa to'lgan holda ko'zlarini Ayoza tovoniga surta boshladi). [2. 448-bet]. Bu esa, uning oshiq Mahmud obrazi ekanligini ifodalaydi. Lekin, mahvashning uyg'oqligini bilgach, uzatilgan oyog'ini yig'magan Ayoza xafaligini bildiradi:

*«Bildi shahkim nozani uyg'og'erur,  
Dedi, eykim jonda sendin dog'erur.  
Mendin anglab muncha izhori niyoz,  
Nevchun erdi muncha beandoza noz?  
Kim ayog'tortib qo'pub o'lturmading,  
Zohir aylab mehr bir so'z so'rmading?» [2. 256-bet].*

(Ey Ayoza, sendan jonimda dog' hosil bo'lmoqda! Mendagi senga bo'lgan shunday muhtojlikni ko'rib, nega bunchalik beandoza noz qilding? Nega oyog'ingni yig'ib, o'rningdan turib o'turmading? Bizga mehr izhor aylab, biron so'z demading?)»

Aynan ushbu ta'rif Mahmudning sultonlarga xos bo'lgan jihati bo'lib yoritiladi. Ayoza bu paytda «men»likdan judo bo'lib, vahdat maqomida tasvirlanadi. Navoiy tasavvufona, aynan naqshbandiya tariqatining ruhida boyitilgan hikoyatni yaratganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida qiyoslaganimiz, ushbu hikoyatlarning mushtarakligi shundaki, ular har biri shoh Mahmud, ayni paytda ma'shuq – Oллоh oldida gado, tariqatda hodiy - Ayoз «ilohiy ishqqa majoziy ishq vosita» g'oyasi ilgari suriladi. YUqorida qiyos etib ko'rgan hikoyatlar turlicha o'ziga xos muallif qalamlarida, ijtimoiy muhiti ta'sirida, orzu-maqсадlari asosida bitilgan bo'lsa-da, markaziy yadroda – Mahmud va Ayozning ishqiy yotadi. Xuddi tasavvuf tariqatlarida zikr yo'llari turlicha bo'lsa-da, maqsad bir – Oллоhga hamd aytish degan aqida kabidir:

*«Yakist ishq, lekin har surate namoyad,  
Vin chashmi ahvolonro du chor menomoyad,  
Siddiq bo Muhammad dar haftum osmon ast,  
Har chand o' ba zohir g'or menomoyad.*

Mazmuni:

*G'ilay odamlarga har narsa qo'sh ko'ringay,  
Aslida ishq bir xil, kimgadir xush, noxush ko'ringay,  
Aslida Jannatdadir Siddiq rasul bilan birga,  
Garchi ul zot g'orda kimgadir xomush ko'ringay» [1. 143-bet].*

Har ikki asarda ham muallif janrlarni hikoyatlar, qit'alar, fardlar, masnaviylar, g'azallar tartibotida joylashtirgan. SHuning bilan bir qatorda hikoyatlar tarkibida ham qit'alar, masnaviy, fardlar keladi. Ushbular esa, aynan shu hikoyat g'oyaviy mazmunini ochuvchi, shu syujet qolipini ifodalovchi xususiyat kasb etgan holda bayon etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абулқосим Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али «Баҳоуддин Балогардон». Т.: «Ёзувчи», 1993й.
2. Алишер Навоий. Лисонут тайр.-Тошкент: Фафур Фулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991 й.
3. Мирзааҳмедова М. Хожа. –Тошкент: Фан, 1975 й.
4. Мухиддинов М. Комил инсон-адабиёт идеали.-Тошкент: Маънавият, 2005 й.
5. Пошшоҳўжа «Мифтоҳул адл» ва «Гулзор»дан (нашрга тайёрловчи В.Зоҳидов, С. Фаниева). –Тошкент, 1962 й.
6. Фарируддин Аттoр. Мантикут тайр. (Фoрсийдан Жамoл Камoл таржимаси).-Тошкент: Фан, 2006 й.

*G.M.Umarjonova, Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Oyguł Jo'rayeva, Farg'ona davlat universiteti talabasi*

#### **NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLAR TASNIFI HUSUSIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dunyo tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Jumladan, nemis tilshunosligida frazeologizmlar o'rganilishi hamda ularning tasnifiga xususidagi qarashlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Turli tillarning o'z lug'at boyligi mavjud bo'lib, uning doimiy o'zgarib borishi dunyo tilshunos olimlarining to'xtovsiz diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu borada turli tillar kesimida ko'plab qiyosiy va chog'ishtirma tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi globallashuv sharoitida esa bu masala yanada dolzarblashdi. Chunki jahonning yuksak taraqqiy etgan ayrim tillari lug'at fondi kundan-kunga yangi lug'aviy birliklar bilan boyib bormoqda. Fan va texnikaning shiddatli rivoji hamda insoniyatning mislsiz tafakkur oqimi tufayli har daqiqada turli yangi tushuncha va ularni ifoda etuvchi lingvostrukturalar paydo bo'lmoqda. Bizga ma'lumki, har qanday yangilik yangi so'z yoki iboralarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu yangi so'z, termin, atama va iboralar o'z navbatida lingvistik tahlillar o'tkazishni taqozo qiladi. Ma'lumki, tilning lug'at boyligi asosan ikki yo'nalish imkoniyati natijasida boyib boradi: 1) tilning o'z ichki imkoniyatlari orqali, ya'ni

tilning struktural-semantik xususiyatlari asosida, 2) tildan tashqari, ya'ni ekstralingvistik jihatlari yordamida o'zga tillardan so'zlarni o'zlashtirish orqalidir.

Tilning o'z ichki imkoniyati, o'ziga xos xususiyatlaridan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Dunyodagi har qanday tilning boyligi nafaqat leksik birliklardan, balki mavjud minglab turg'un iboralardan tashkil topib, shu bilan birga mazkur turg'un birikmalar ham til lug'at boyligining bir qismini tashkil qiladi.

Frazeologizmlar xususida o'tgan asrning ikkinchi yarmida dunyo tilshunoslari tomonidan bir qator fundamental ishlar olib borildi. Turli tillardagi frazeologik birliklar va ularning belgilari ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tavsiflangan, qator monografiya va dissertatsiyalar yaratilgan hamda bir, ikki yoki ko'p tillik frazeologik lug'atlar tuzilgan. Shu bilan birga, frazeologik iboralarning shakllanish jarayoni, ularning tildagi lug'at boyligini oshirishdagi ahamiyati halixanuzgacha alohida tadqiqatlarga tortilmagan. Shunga qaramay o'zbek tilida ba'zi kamchiliklar uchrab turadi, masalan, mavjud frazeologik birliklarning shakllanishi, ularning lug'at boyligida tutgan o'rni hamda semantik, grammatik va paradigmatic xususiyatlari yetarlicha tahlilga tortilmagan.

XX asr dunyo tilshunosligida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar olib borgan ko'zga ko'ringan olimlaridan biri shveysariyalik tilshunos, Sarbonna nomli Parij universiteti doktori Sharl Balli (1865-1947) bo'lib, u o'zining 1909-yilda nashr etilgan "Traité de stylistique française" – "Frantsuz tili stilistikasi" nomli asarida frazeologizmlar masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. Uning tahkidlashicha, struktural xususiyatlar frazeologizmlarning tashqi, semantik tabiati esa uning ichki belgisidir. Ammo uning asari, asosan, Rossiyada tadqiq qilinib, nemis va roman tilshunoslari bu taxminlardan foydalanmadilar, yarim asr mobaynida frazeologiyaga juda kam e'tibor qaratadilar. Frazeologiya atamasi olim Sh.Balli tomonidan "tegishli kombinatsiyalarni o'rganadigan stilistika bo'limi" [10, 392] ma'nosida paydo bo'ldi. U, shuningdek, frazeologiya nazariyasi asoschisi hisoblanib, birinchi navbatda, u stilistikaga tegishli darslikda frazeologiyaga oid bo'limni kiritdi. So'ngra, "Stilistika to'plamlari" va "Frantsuz tili stilistikasi" kitoblarida so'z birikmalarini tartibga solgan. Birinchi kitobida u to'rtta guruh haqida bayon qilgan:

- 1) "erkin so'z kombinatsiyasi, ya'ni barqarorlikdan mahrum kombinatsiyalar;
- 2) odat bo'lib qolgan kombinatsiyalar, ya'ni, ba'zi o'zgarishlarni tahminlaydigan komponentlarning nisbatan kamroq aloqasi bo'lgan iboralar;
- 3) frazeologik ketma-ketliklar, so'z guruhlari. Xar xil ikki tushunchalar deyarli bir-biriga birlashtirilgan, mazkur birikmalar komponentlarning qayta tuzilishiga imkon beradi;
- 4) frazeologik birliklar o'z mahnosini yo'qotib qo'yadigan kombinatsiyalar va bir noodatiy tushunchani ifodalaydi. Bunday kombinatsiyalar komponentlarning qayta tuzilishiga yo'l qo'ymaydi" [10, 393].

Dunyo tilshunosligida frazeologiyaning turli masalalari ko'plab olim va tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan. Lekin ko'p vaqtlar mobaynida bu birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lmadi. XX-asrning 40-yillariga kelib rus tilshunosligida ilk marotaba frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida paydo bo'lgan.

Frazeologiya atamasi ko'plab mualliflar tomonidan xilma-xil tavsiflangan. Xorijiy lug'atlarda frazeologiya atamasi faqat "inhalteere Schönredneri und Neigung dazu" – "mantiqsiz so'zamollik va unga bo'lgan moyillik" tarzidagi izohlar ham mavjud [7, 839]. Keyinchalik, "Großes Fremdwörterbuch" lug'atida esa, "feste Wortverbindung, Redewendung" – "turg'un iboralar, idiomalar" deb atalgan [5, 446]. Mashhur nemis tilshunos olimi Xarald Burger esa frazeologik birliklarni quyidagicha tavsiflaydi: "Idioma shakllanishiga izoh shart bo'lmagan umumiy atama siftida tushuniladi yoki ular faqat sintaktik va semantik qoidalarga asoslanmagan so'zlar zanjiridir" - "solche Wortketten, deren Zustandekommen nicht oder nicht nur aufgrund von syntaktischen und semantischen Regeln erklärbar ist" [1, 145] deb yozadi.

"Frazeologiya" iborasi yunoncha "phrasis" – "ibora, ifoda, jumla"; "logos" – "so'z, tushuncha" va "logia" – tahlim berish, yahni "iboralar haqidagi bilim" degan mahmolarni anglatadi. Bu xaqda XVI asrda R.Ekkert va X.Gyunterlar tomonidan yaratilgan "Die Phraseologie der russischen Sprache" [6, 412] nomli asarlarida batafsil yoritib o'tilgan.

Tilshunos olim Georg Fridrix Zaylarning nemis tili frazeologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida nemis tilining frazeologik boyliklarini namoyish etish bilan birga "maqollar, matallar, turg'un birikmalar, juftlashgan kombinatsiyalar, shuningdek, ularning tilda vujudga kelish masalalari, ularning manbalari, struktur va semantik tahlil"[8] iga ham ehtibor qaratgan. Mazkur tadqiqotlarda olim eng boy faktik materiallardan tashqari, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bir qator umumlashtirilgan qimmatli nazariy fikrlarga tayangan holda maqollar tahrifini aniqlagan. G.F.Zaylarning tadqiqotlari frazeologizmlar, ularning kelib chiqishi va leksikografiya haqidagi muammolarni yoritib berishga qaratilgan.

Tea Shippan o'zining "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache" nomli kitobida frazeologik birliklarni "... die feste Einheiten aus mehr als aus einem Wort verstehen" – "bir so'zdan ko'proq tarkibga ega bo'lgan turg'un birliklar" deb tushuntiradi [9, 47-48]. Tilning frazeologik tuzilishining asosiy sohasi uning reproduksiyasi (der Re'rodution), turg'unligi (der Festigkeit), leksikallashuvi (der Lexikalisierung) va idiomalashuvi (der Idiomatizität) bilan ajralib turadi degan fikrlarni ilgari surgan. Olim frazeologiyani umumiy nom sifatida qo'llab, uning batafsil tasnifini ishlab chiqqan.

Frazeologiyaning mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanishida inson omili katta rolga o'ynaydi. Qabul qiluvchi omil muloqotning muhim generativ elementi hisoblanadi. 1982-yilda Tsyurixda bir necha yil davom etgan tadqiqot loyihasi natijasida X.Burger, A.Buxofer, A.Sialmlarning "Frazeologiya qo'llanmasi" nashr etildi[2, 433]. Unda hozirgi kunga qadar o'zining qiziqarli jihatlarini yo'qotmagan tadqiqot masalalari shakllantirilgan. Bir-biridan mutlaqo mustaqil ravishda nashr etilgan V.Flaysherning "Zamonaviy nemis tili frazeologiyasi" [4, 250] va X.Burger, A.Buxofer, A.Sialm [2, 433] larning "Frazeologiya qo'llanmasi" asarlari o'rta asr tilshunosligida keng foydalanilgan bo'lib, unda turli xil frazeologik tushunchalar haqida bayon qilingan. V.Flaysher leksikologiya masalalariga ko'proq ehtibor qaratgan bo'lsa, Burger, Buxofer, Sialmlarning qo'llanmasida frazeologik birliklar ehtibor markazida bo'lgan.

V.Flaysher frazeologik birliklarning xususiyatlariga va tadqiqot usullariga qarab, tilning frazeologik tarkibini turli xil tasniflashni taklif qilgan. V.Flaysher leksema va idiomalarni frazeologiya shakllanishining asosiy mezonini deb baholaydi. Masalan, "Bausch und Bogen" – yaxlit, "kli" und klar" – "qisqa va aniq". U FBning semantik va semantik-struktur barqarorligi, leksikallashuvi nutq va matn tayyorlashda leksik birlik xususiyatlarini ko'rsatuvchi asos deb hisoblaydi.

V.Flaysherning mazkur asari Germaniyada frazeologiyaga oid tadqiqotlarning keng miqyosda olib borilishiga sabab bo'ldi. 1980 yillar oxirlariga kelib, germaniyaliklar va boshqa mamlakatlardagi nemis tilida so'zlashuvchi kishilar frazeologiyaga oid tadqiqotlarda o'zaro yaqin ilmiy aloqalar o'rnatdilar. O'sha vaqtdan boshlab frazeologiyaga bo'lgan qiziqish jadal surhatlar bilan o'sib bordi va bu qiziqish samarasi o'laroq ko'plab ilmiy asarlar nashr ettirildi.

1983-yilda Mannxaym shahrida, 1987-yilda Tsyurixdagi bo'lib o'tgan konferentsiya frazeologiya sohasi rivojida umumiy nazariy masalalarning hal qilinishida katta rol o'ynadi. Slavyan va nemis tilshunoslari o'rtasidagi hamkorlikda bunday xalqaro konferentsiyalar ko'plab o'tkazildi va ularda aynan frazeologiyaga doir masalalar o'rta taga tashlandi. Bu kabi tadbirlar Yevropaning turli mamlakatlarida anhanaviy tarzda o'tkazilib kelishi bilan birga nemis va slavyan tilshunoslaridan tuzilgan institutlarni yaratish uchun asos bo'ldi. Aynan shunday tadbirlar ta'sirida 1999 yilda "Evropa frazeologiya jamiyati" tashkil etildi va faol ish olib bordi.

2003 yilda nemis tilshunosi X.Burger frazeologiya sohasiga yangi qarashlarni olib kirdi. 2006 yilda X.Burger boshchiligida yevropa tilshunos olimlari birgalikda yozgan "Tilshunoslik va kommunikatsiya fanlari bo'yicha qo'llanma" turkumidan yangi mazmundagi "Frazeologiya" nomli kitob chop etildi[2, 433]. Bu qo'llanmada Kristina Palm[3, 38-40] (1995) frazeologizmlarni tizim va jumlada alohida so'zlar (leksemalar) funktsiyasi va ma'nosini o'zida mujassam etgan tilning turg'un so'z birikmalarini o'rganuvchi fan deb tahriflaydi.

Ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklarning o'rganilishi turli aspektda olib borilgan. Bugungi kunda frazeologik birliklarning turli tizimli tillarda ifodalanishi, ularning mazmun, grammatik jihatdan, matndagi xususiyatlarini har tomonlama tadqiqi qilish muhim vazifalaridan

biri. Binobarin, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni chog'ishtirib o'rganish har ikkala tillarning ichki strukturalarini aniqlashga, ikki tillik frazeologik lug'atlar yaratishga hamda ularning tildagi imkoniyatlarini ochib berishda asosiy zamin bo'lib hisoblanishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burger H. Idiomatic des Deutschen. - Tübingen, 1973. S. 145.
2. Burger Harald / Annelies Buhofer / Ambros Sialm. Handbuch der Phraseologie. Verlag: Walter de Gruyter. Berlin, 1982. – S. 433.
3. Christine Palm. Phraseologie: eine Einführung. Tübingen: Narr, 1995: 38-40
4. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Verlag: Leipzig, 1982. - S. 250.
5. Großes Fremdwörterbuch. Verlag: Buch und Zeit Verlagsgesellschaft, Köln, 1991. – S. 446.
6. Günter H. / Eckert R. Die Phraseologie der russischen sprache. Langenschedet. Verlag Enzyklopädie. 1. Auflage. 1. Januar 1992. –S. 412.
7. Heyse Johann Christian. Allgemeines Verdeutschendes und erklärendes Fremdwörterbuch. Verlag: Siegfried Cronbach, - Berlin, 1879. S.839.
8. Seiler F. Deutsche Sprichwörterkunde, Handbuch d.dt. Unterrichts an höh. Schulen 4.3, München, 1922
9. Shippan Th. "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache". Verlag: Max Niemeyer. Tübingen, 1992. – S. 47-48.

*Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi*  
*BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi*

#### O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING KETMA-KET QO'LLANILISHI VA ULARNING OZARO SINONIMIK MUNOSABATLARI

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tilida ayrim tinish belgilari o'rtasida sinonimik munosabatlar mavjudligi, bu munosabat ularning matnda biri o'rnida ikkinchisining qo'llanishi orqali yuzaga kelishi yoritilgan. Unda tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi hamda tinish belgilari tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liqligi haqida fikr bildirilgan. Ushbu maqolada ayrim tinish belgilarining biri o'rnida ikkinchisini qo'llash amaliyoti mavjudligi, ammo bu amaliyotdan foydalanaverish hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermasligi faktik misollarda aks ettirilgan.

**Key words:** punktuatsiya, tinish belgilari: vergul, qo'sh tire, qavs, stilistika, ekspressiv sintaksis, punktuatsiyaning mantiqiy-grammatik, uslubiy va farqlash tamoyillari

Tinish belgilari yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi—soedinenie, bo'linishi —otdelenie, ajralishi—obosoblenie, ayrilishi — vdelenie kabilar) ni ko'rsatish uchun qo'llanadi. Tinish belgilari o'rtasida sinonimik munosabat mavjud. Ammo bu sinonimik munosabat har qanday o'rin almashinishlardan farqlanishi kerak, degan fikrdamiz. Mana masalan: Oyog'iga qizil saxtiyon etik, ustiga ko'k movut chakmon kiyib, belini kumush kamar bilan bog'lagan, boshiga esa qunduz telpak kiyib, uchiga qizil popiltiriq taqib olgan (bu popiltiriq amirlik alomati edi) amir Sulton Jondor tarxon ichkariga kirmoqchi bo'lib bir qadam bosdi-da, ikkilanib to'xtadi (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi"). Gapdagi muallif izohi sifatida keltirilgan kiritma har ikki tomondan qavs – () bilan ajratilgan yoki o'rab olingan. Bu belgini bemalol tire – (–) yoki vergul – (,) bilan bemalol ajratish mumkin [Bu qo'llanishlarni odatdagi vergul, tire, qavsning ishlatilishidan farqlash maqsadida qo'sh vergul, qo'sh tire, qo'sh qavs tarzida ham ishlatadi].

Xo'sh, bu kabi almashinishlar gapning mazmuniga yoki ifoda ottenkasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bizningcha, hech qanday! Bunday paytda bu har uchala tinish belgisi gapning grammatik qurilishi uchun xizmat qilayapti, xolos. Ma'no ottenkalarini farqlash vazifasini zimmasiga olmayapti. Shunday bo'lgandan keyin, ularni sinonimik tinish belgilari deb bo'lmaydi. Bu qo'llanishlarda biron-bir stilistik farqlanishlar sezilmaganligidan keyin ularni mutlaq sinonimlar yoki dubletlar tarzida qarash to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Chunki ular bu

almashinishlarning barchasida bir xil semantik mazmunga ega va bir xil grammatik vazifani ado etmoqda.

**Munozara.** Tinish belgilarning yozma nutqda qo'llanishiga oid barcha funktsiyalarni alohida-alohida ko'rsatmay, ularga xos umumin tomoplarni va yozma nutq jarayonida ko'proq uchraydigan holatlarni ta'kidlash bilan cheklanamiz. Tinish belgilari yozma tekstdagi mazmuni (ma'noni, fikrni) apiq pfodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: «Sho'rim kursin! Shahodat! Kel! (Oybek) Birinchi gapda his-hayajon, ikkinchisida undov, uchinchisida buy- ruq ma'nosi ifodalangan.

Tinish belgilari, butun gapga xos umumiy mazmuniy munosabatlarni ifodalabgina qolmay, gap qismlariga xos - semantik munosabatlarni ham bildirish xususiyatiga egadir: Bolamga yana bir til tegdir — soqolingni bittalab yulaman, och arvoh (Oybek) It huradi — karvon o'tadi. (Maqol)

Shu yo'l bilan bordik — yetdik murodga,  
She'rimiz kasb etdi balog'at, kamol. (Uyg'un)

Keltirilgan qo'shma gaplarniig birinchisida shart, ikkinchisida zidlik, uchinchisida sabab-natija munosabatlari ifodalangandir. Bunda tire qo'shma gapni tashkil etuvchi gaplar orasidagi turli semantik aloqalarni (ma'nolarni) anglatishiga qaramay, bir sintaktik vazifani — gaplarning birini ikkinchisidan ayirish vazifasini bajarayotir. Bir tinish belginiig bunday turln ma'poda ishlatilishi punktuatsion polisemiya sanaladi. Bir tinish belgining turli xil funktsiyani bajarishi esa punktuatsion omonimiya hisoblanadi.

Ba'zan gaplardagi mazmun murakkab bo'ladi. Bunday choqlarda tinish belgilari qo'sh qo'llanadi: Chambarchas payvandmi shunchalar mehri?! (F.Usmonova)

Tinish belgilari yozma tekstdagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi—soedinenie, bo'linishi —otdelenie, ajralishi—obosoblenie, ayrilishi — vdelenie kabilar) ni ko'rsatish uchun qo'llanadi. Masalan: Onam, opam, akam, bobom, buvim va men—hammiz ayvonda dastgurxon atrofida davra qurganmiz. (O.) Opam Karomat—hali paranjisiz yosh qiz—maktabdan qaytadi.

Birinchi gapda uyushiq bo'laklar biri-ikkinchisidan vergul vositasida, ikkinchi gapda esa izohlovchi (hali paranjisiz yosh qiz) tire vositasida ajratilgandir.

Verul belgilarining qator - ikki yoki undan ortiq qo'llanilishi, asosan, gap oxirida, ba'zan gap boshi yoki o'rtasida ham kuzatilib, u bilan bog'liq ayrim holatlar kuzatish mumkin. Masalan: [vergul + tire] – *“Kamtarlik, - deydi Hamid Olimjon, - donolik yo'lining boshlanishi”* yoki [vergul + tire + ko'p nuqta] - *Xalos, xalos, - dedi mufti, - ...ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bolur.* (A.Qodiriy) [qo'shtirnoq + vergul + tire] – *“Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi”, - deydi Tog'ay Murod.*

[so'roq + undov + qavs + vergul] - Undan ko'nglimni tamom sovitib yuboradigan xususiyatni atayin izlagan damlarim bo'idi, shunday xususiyatni topguday bo'lsam, oramizdagi inja munosabatiarga barham berilishiga bahonayi sabab bolarmikan degan xayollarda yurgan paytlarim bo'ldi, biroq izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi iztirobiarimizning ilohiyligi?!), yo'q, behuda ketdi desam yolg'on aytgan bo'laman. (X.Do'stmuhammad) [so'roq + undov + ko'p nuqta + qo'shtirnoq + qavs + vergul] - Yozuvchining bu fikri (“Qaydasan go'zalim?!”), dunyoqarashi uning yaxshi niyatda ekanini ko'rsatadi [4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, vegul tinish belisi pragmatik jihatdan yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to'g'ri ta'minlash va yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'noni aniqlashtirish, farqlash hamda yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ko'rsatib berish uchun ahamiyatli bo'lsa, grammatik jihatdan esa gap qurilishini aniq belgilash - gap bo'laklari, sodda yoki qo'shmaligi, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalma, kiritmalar, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatni ko'rsatish, muallif va ko'chirma gaplarni ajratish, yozma nutqni ixcham va ravon bayon qilish uchun ahamiyatlidir. Punktuatsiya va ohang ikki xil nutq turiga xos mustaqil kategoriyalar bo'lib, bir-biriga teng kelmaydi, punktuatsiya intonatsiyaning yozuvdagi ifodasi emas. Ularning o'zaro aloqadorligi haqida gapirilganda ohangning gapdagi darajasi hisobga olinadi. Punktuatsiya va intonatsiya munosabati alohida tadqiq manbai bo'lib, eksperimental o'rganishni talab etadi.

Hozirgi kunda punktuatsiyaning roli ortib, uning funksiyasi va qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu hodisa respublikamizda matbaachilik, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi, o'zbek yozuv madaniyatining taraqqiy etishi, kishilar savodxonligining oshishi va ularning o'z amaliy faoliyatlarida nutqning barcha formalaridan foydalana olishlari, adabiy til ta'sirining kengayishi, adabiy til funksional stillarining paydo bo'lishi va takomillashuvi- nutq madaniyatining keng ko'lamda ravnaq topishi va o'sishi bilan izohlanadi. Punktuatsiyaning tilshunoslikning boshqa sohalari: sintaksis, orfografiya, grafika bo'limlari, shuningdek, adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi fanlari bilan hamkorlikdagi taraqqiyoti davomida oydinlashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси лугати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.– Ижевск, 2004 г. ва б.
7. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
8. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.

*I. Pardayeva,  
Guliston davlat universiteti dotsenti*

### **ZARGARLIK TERMINLARINING TEMATIK TASNIFI**

**Annotatsiya.** O'zbek tilida qadimdan zargarlik buyumlarining jamini ifodalovchi terminologik tizim tarkib topib kelgan Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida zargarlik terminlarining tematik tasnifi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Zargarlik, zeb, ziynat, naqshlar, ma'dan va toshlar.

Zargarlik zeb – ziynat buyumlari milliy – badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning o'lmishdagi o'lmish maqsadlarini o'zida mujassamlashtirgan. Zargarlik ziynat buyumlari hunar egalarining mahoratidan ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy shart – sharoitlardan, ma'dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladi. Zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san'atining uslubiy xususiyatlarini o'zlarida namayon etadi. Shuningdek, zargarlik zeb – ziynat buyumlarining hayotdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'rni ham anchagina sezilarli. Insonning jamiyatdagi mavqei ham ko'pincha uning qiymatbaho zargarlik buyumlari borligiga qarab belgilaganlar. Taqinchoqlar kishilar yoshidagi farqni va oilaviy ahvolini belgilash uchun xizmat qilib, ularning nasl – nasabidan nishona berib turuvchi xususiyatga ega bo'lgan. Boz ustiga, qiymatbaho matolardan yohud ular aralashmasidan tayyorlangan taqinchoqlar kishilar salomatligini bir me'yorda saqlab turish uchun ham xizmat qilgan. Nihoyat, ularning nafasat borasidagi fazilatlaridan so'zlaydigan bo'lsak, u zargarlarning yurak qo'ri bilan yaratilgan mukammal asar bo'lib, u yoki bu davrda yashagan xalqlarning badiiy nafasat haqidagi tushunchalarini o'zida aks ettirgan.

Demak, mazkur san'at misolida odamlarning ham moddiy, ham nafosat olami, ham ilohiy qudrat haqidagi tasavvurlarining bir – biri bilan uzviy ravishda chirmashib ketgani ko'rinadi.

Mana shu asnoda o'zbek tilida qadimdan zargarlik buyumlarining jamini ifodalovchi terminologik tizim tarkib topib kelgan. Davr, fan va texnika, ishlab chiqarish, madaniy – maishiy hayotdagi o'zgarishlar taqozosi bilan mazkur terminologik tizim hamisha boyib keldi.

Mehnat jarayonida yuzaga kelgan va ijtimoiy hodisalardan sanalgan til kishilik turmushini har taraflama va keng suratda o'zida aks ettirdi.

Kasb–hunarga oid terminlar o'sha xalqning ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi jamoaning o'zaro aloqasi, fikr almashishi natijasida yuzaga kelgan. Kasb–hunar leksikasining bir tarmog'i bo'lgan zargarlik terminlari ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Muzeylarda saqlanayotgan va hozirgi kunda turli joylardan topilgan qadimiy zargarlik ziynat buyumlari namunalarining tuzilishi, badiiy naqsh kompozitsiyasining xilma – xilligi, ularni yasashda ishlatiladigan mehnat qurollari – bularning barchasi ularning maxsus terminlar bilan atalganligi, birinchidan, zargarlik zeb – ziynat buyumlarining, ularni yasovchi zargarlar san'atining tarixiy taraqqiyotini yoritishga yordam bersa, ikkinchidan, zargarlik buyumlarining uzoq davrlardan beri qo'llanib kelinayotganligini tasdiqlaydi.

Jamiyatdagi barcha voqea – hodisalar, narsa – predmetlar bir – biridan farq qilishi yoki bir – biriga o'xshashligi bilan ajralib turadi va shunga muvofiq ravishda ularning har qaysisi ma'lum bir guruhni tashkil qiladi. Huddi shunday guruhlarga ajratish tilga ham tadbiiq qilingan. Lingvistik nuqtai nazardan qaraganda, har bir sohaga oid terminlar ma'lum guruhlarga birlashib tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil etadi. O'z navbatida, bu tizim muayyan guruhlardan, boshqacha aytganda, tematik guruhlardan iborat bo'ladi.

Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan har qanday kasb o'tmishda ham, hozir ham o'z terminologiyasini yaratgan va yaratib keladi. Umumiste'moldagi istalgan so'z kasb – kor, soha doirasida maxsus ma'noga ega bo'lishi, termin ma'nosini anglatishi, termin vazifasini bajarish mumkin. Chunonchi, uzuk, bilaguzuk, zirak umumiste'molda oddiy so'z, ammo zargarlar tilida termindir.

Shunga ko'ra, o'zbek tili leksikasining eng qadimiy qatlamlaridan bo'lmish (inson o'zini go'zal qilib ko'rsatish maqsadida foydalanadigan) zargarlik terminlari, ya'ni zargarlik zeb-ziynat buyumlari, ularning qismlari, asbob-uskunalar va nihoyat, ularni yasaydigan, sayqal beradigan kasb-kor egalari terminlarini tematik jihatdan guruhlarga ajratish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

- I. Zargarlik zeb – ziynat buyumlari nomlarini ifodalovchi terminlar;
- II. Zargarlik zeb – ziynat buyumlari naqshlari nomlarini ifodalovchi terminlar;
- III. Zargarlik zeb – ziynat buyumlar qismlarini ifodalovchi terminlar;
- IV. Zargarlik zeb – ziynat buyumlarini yasashda va bezashda qo'llanadigan asbob – uskunalarini ifodalovchi terminlar;
- V. Zargarlik buyumlari xomashyolarining nomlarini ifodalovchi terminlar;
- VI. Zargarlik buyumlarini tayyorlash jarayonlarini ifodalovchi terminlar;
- VII. Soha, kasb – kor ma'nolarini ifodalovchi terminlar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Doniyorov R. O'zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan. -Toshkent, 1973. 270 bet
2. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb – hunar leksikasi. Toshkent, 1959 yil, 157 - bet
3. Mirahmedova Z. O'zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent, 2010, 7 –18- bet.

## МАҚОЛЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация:** Ушбу мақолада мақолларнинг ўзига хос хусусиятлари, сўзловчи ёки ёзувчи мақсадининг амалга ошишида муҳим вазифа бажариши асосан бадиий матнларда яққол намоён бўлиши. “Бадиий матн бадиий асар мазмунини ифодалаган, функционал жиҳатдан тугалланган, тилнинг тасвир имкониятлари асосида шаклланган, ўзида турли услуб кўринишларини муаллиф ихтиёрига кўра эркин жамлай оладиган, кишиларга эстетик завқ бериш хусусиятига эга бўлган ғоят мураккаб бутунлик ҳисобланади.

**Калит сўзлар:** фразеологик бирликлар, сўз бирикмалари, синтактик қурилмалар, семантик қурилма, лексик-грамматик таркиб, мақол, халқ оғзаки ижоди, кўп асрлик ҳаётий кузатишлар, ижтимоий-иқтисодий тажриба.

Мақолларнинг ўзига хос хусусиятлари, сўзловчи ёки ёзувчи мақсадининг амалга ошишида муҳим вазифа бажариши асосан бадиий матнларда яққол намоён бўлади. “Бадиий матн бадиий асар мазмунини ифодалаган, функционал жиҳатдан тугалланган, тилнинг тасвир имкониятлари асосида шаклланган, ўзида турли услуб кўринишларини муаллиф ихтиёрига кўра эркин жамлай оладиган, кишиларга эстетик завқ бериш хусусиятига эга бўлган ғоят мураккаб бутунлик ҳисобланади. Бадиий матнда бошқа услуб матнларида бўлганидек қатъий мантқ, соддалик, тушунарлилик, нормативлик каби қонуниятларга тўла-тўқис амал қилинавермайди. Унда бадиий тасвир воситаларидан унумли фойдаланилади. Таъсирчанлик биринчи планга кўтарилади<sup>5</sup>.

Инсоннинг сўзлаш ёки ёзиш жараёнида тил бирликларидан фойдаланишида тингловчи ёки ўқувчига маълум маълумотни етказишгига эмас, балки шу танланган тил бирлиги воситасида нутқ қаратилган шахсга таъсир этиш ҳам кўзда тутилади. Ана шундан келиб чиқиб, “Ўзбек тили стилистикаси” китобида тил бирликларини қўллашда бадиий-эстетик таъсирчанлик муҳим ўрин тутиши қайд этилади: “Бадиий адабиётда тасвир этиладиган манбалар доираси жуда ҳам кенгдир. Адабиёт турли хил касб-хунар эгаларининг, ҳар хил тоифадаги кишиларнинг ҳис-ҳаяжонларини тасвирлабгина қолмай, уларнинг ички дунёсини, жамиятдаги амалиётини ҳам акс эттиради. Шунинг учун бу стилда нутқ ва тил воситалари бошқачароқ — ўзига хос характерда қўлланади: агар нутқнинг бошқа функционал стиллари фақат у ёки бу ҳодисанинг мазмунини хабар қилиш учун хизмат қилса, бадиий нутқ эса бундан ташқари, ўқувчи ёки тингловчига эстетик ва эмоционал таъсир кўрсатишни ҳам мақсад қилиб қўяди. Демак, эстетик таъсир этиш функцияси бадиий нутқнинг ўзига хос хусусиятидир. Бадиий адабиётнинг бу асосий ва ўзига хос функциясига адабий асарда тил воситаларини танлаш ва ишлатиш принциплари ҳам тўла бўйсунди<sup>7</sup>”.

Ўзбек тилшунослигида фразеологизмнинг объекти сифатида ибора, идиома, мақол, матал кабиларнинг илмий тадқиқига доир<sup>3</sup>, ўзбек ёзувчи, шоирлари асарларининг тили ва услубига оид кўпгина изланишлар, номзодлик ва докторлик диссертацияларида мақолнинг маъновий, услубий хусусиятларини ўрганишга эътибор қаратилган ишлар бажарилди<sup>6</sup>, мақолнинг лингвистик хусусиятларини илмий ўрганиш ҳам бошланди. Ўзбек тилшунослигида мақолнинг синтактик<sup>1</sup> хусусиятлари Х.Абдурахмоновнинг номзодлик ишида ўрганилган, олим изланишларини давом эттириб, ўзбек халқ оғзаки ижоди асарлари тилининг синтактик хусусиятларини атрофлича тадқиқ этди. Кейинги ишда ўзбек тилида мақол ва маталларнинг синтактик қурилиши, мақоллардаги гаплар ва сўз бирикмаларининг асосий кўринишлари, уларнинг морфологик, синтактик, баъзи маъновий-услубий хусусиятлари кенг ёритилган. М.Садриддинованинг ишида ўзбек мақол ва маталларининг луғавий хусусиятлари тадқиқ этилиб, мақол ва маталлар лексикаси, бир томондан, ўзбек адабий тили лексикаси билан, иккинчи томондан эса лаҳжа ва шевалар лексикаси билан қиёсий ўрганилди. Муаллифнинг номзодлик диссертациясида мақолларнинг маъновий-

услубий жиҳатлари: кўп маънолилиги, вариантлилиги, услубий хусусиятлари тадқиқ этилди<sup>4</sup>.

Тилшунос олим Б.Жўраева ўзининг “Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари” мавзусидаги докторлик диссертациясида таъкидлашicha, дунё тилшунослигида фразеологик ҳамда паремиологик бирликларнинг турли аспекти: структур-семантик, лингвокультурологик, когнитив хусусиятлари, мақолнинг идиома, ибора, афоризм ва маталлар билан муносабати, лисоний ўрни, диахрон ва синхрон ҳолати ҳамда нутқдаги кўринишлари ҳақида қатор илмий тадқиқотлар яратилди. Шундай бўлса-да, мақолларнинг интралингвистик ва экстралингвистик омиллар асосида шаклланиши борасида чуқур тадқиқ этилиши лозим бўлган жиҳатлар ҳам мавжуд. Шу маънода мақолнинг бошқа паремик ва барқарор бирликларга муносабати масаласига ойдинлик киритиш, мақол пайдо бўлишининг лингвистик асосларини, коммуникатив-прагматик хусусиятларини очиб бериш бугунги тилшуносликнинг долзарб масалаларидан бири саналади<sup>4</sup>. Антонимларнинг муҳим стилистик вазифаси уларнинг антитеза ҳосил қилишда лексик восита бўлишидир. Антитеза стилистик приёмларда бири сифатида халқ оғзаки ижодида, хусусан, мақол ва маталларда кенг тарқалган. Бу эса мақол ва маталларнинг кучли экспрессивлигини ва таъсирчанлигини таъминлайди. Қуйидаги мақолларда буни тўла кузатиш мумкин: Яхши топиб гапиради, ёмон қошиб гапиради. Каттага ҳурматда бўл, кичикка иззатда бўл. Антонимларнинг бундай ишлатилиши поэзияда ҳам кўплаб учрайди. Кўпинча, антонимик жуфтликнинг бири бир мисрада, иккичиси эса бошқа мисрада қўлланади. Бунда жуда кучли контрастлик юзага келади, мисралар ўртасидаги бу контрастлик эса экспрессивликни, эмоционалликни бениҳоя орттиради<sup>2</sup>.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис .....канд. филол. наук. – Ташкент: АН УЗССР, 1964. – 18 с.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: ”Фан”, 1981. Б.13
3. Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке: Автореф. дис .....канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – 18 с.
4. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном..... дис. – Тошкент, 2002. – 136 б.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент, 2007. Б.35
6. Назарова Х. Ҳ.Ҳ.Ниёзий асарларининг тили: Филол. фан. ном..... дис. – Тошкент, 1944. – 114 б.
7. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б.30.

*N.Abdumannatova, SamDU tayanch doktoranti*

#### **“HOTAMNOMA” ASARIDAGI AYRIM FE’LLARNING LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI ABDUMANNATOVA NAFISA ABDUMAJIT QIZI**

**Annotatsiya.** Maqolada saxiylikning oliy timsoli Hotami Toy va uning qahramonliklari tasvirlangan xalq kitobi - “Hotamnoma” matnidagi ayrim fe’llar lingvofolkloristik jihatdan tahlil qilingan. Unda tahlilga tortilgan fe’llarning yasaliş tizimiga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar.** Folklor leksikasi, “Hotamnoma”, leksikografiya, dialektologik tahlil, lingvofolkloristik tahlil.

Lingvofolkloristik tadqiqotlarda folklor matnlarida so‘z yasaliş tizimiga alohida e’tibor qaratiladi. Boisi leksikografik fondni shakllantirishda so‘z yasaliş tizimini tahlil qilish juda muhim. Odatda folklor matnlarini tahlil qilishda turli yondashuvlar mavjud. Xususan, folklor matnlarining til xususiyatlarini tahlil qilish, dialektologik tahlil, folklor tahlili, lingvopoetik tahlil.

Ayni shular sirasida lingvofolkloristik tahlilni farqlash joiz. A.T.Xrolenko lingvofolkloristik tahlilda obyektning leksik-semantik, stilistik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish lozimligini, shuningdek, folklorida lakonizm, alogizmlarni yuzaga chiqaruvchi vositalarning ahamiyatini o'rganish, turli madaniy qatlamlarga oid xususiyatlarni aniqlash, hududiy nuqtayi nazardan tahlil qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Lingvofolkloristika folklor matnlarining faqat til xususiyatlarinigina tahlil qilishga qaratilgan soha emas. Shu o'rinda agarda faqat lingvistik xususiyatlari tahlil qilinsa, badiiy asarning lingvistik yoki lingvopoetik tahlilidan qanday farqi bo'ladi degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Shu boisdan lingvofolkloristikada yondashuv keng mohiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan holda quyidagi aspektlar tekshirilishi lozim:

**1. Folklor matnining til xususiyatlari** (leksik, morfologik, sintaktik).

Ularda bugungi davr bilan bog'liqlik. Til tarixi nuqtayi nazardan muayyan davrga oid xususiyatlarni baholash. O'ziga xosliklarni aniqlash). Ushbu jihatlarga ko'ra "Hotamnoma" asari lingvofolkloristik tahlilida so'z yasash tizimi, sinxron va diaxron so'z yasalishi, ularning aynan qaysi davr til xususiyatlarini namoyon qilishi, aynan biror so'z turkumida o'ziga xos yasash tizimi mavjud yoki mavjud emasligi tekshiriladi.

**2. Folklor matnining dialektologik xususiyatlari** (folklor tilida muayyan

sheva-dialekt elementlarining aks etishi. Ta'kidlangan hududlar orqali lingvogeografik tadqiqolarni amalga oshirish); "Hotamnoma" asarining dialektologik xususiyatlari tahlilida sujet kartografiyasi (qaysi hududlarda sodir bo'lgan?) va uning til xususiyatlariga aloqadorlik jihati, muayyan sheva va dialektlarga xos xususiyatlarining mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish lozim.

**3. Folklor matnining lingvokulturologik xususiyatlari**

(Matnda muayyan etnosga xos bo'lgan an'ana, qadriyat, marosimlarning aks etishi, yoki muayyan madaniy qatlamga ishoraning mavjudligi. Berilish shakli. Tasviriy vositalarning qo'llanilishi). Aytilish joizki, "Hotamnoma" asari sujetida turli madaniy qatlamlarga doir urf-odat, qadriyatlar aks etadi. Ular bir-biridan shakily va mazmuniy jihatdan farq qiladi.

4. **Folklor matnida lakonizm va alogizm.** Lakonizm (yun. lakonismos — qisqalik) — fikrni bayon qilishdagi qisqalik va aniqlik. Lakonizm adabiy ifoda vositasi sifatida asarda ortiqcha tafsilotlarga berilmaslikni, mezonni bilish va vazminlikni anglatadi. Tildagi lakonizm uchun oz so'z bilan ko'p ma'no bayon etish muhim sanaladi. Hikmatli so'zlar, topishmoq, maqol, iboralar, shiorlar lakonizm namunalari. *Alogizm* (yun. a — inkor qo'shimchasi, logos — idrok) — ilmiy bilishda mantiqiy fikrlashning rolini inkor etadigan oqim.

A.T.Xrolenko lingvofolkloristikada alogizm tahlilida mantiqqa to'g'ri kelmaydigan har xil tasvir vositalari: g'ulu, ig'roq, litota singlarlar, shuningdek, har xil sehr-jodu, afsun bilan bog'liq holatlarni nazarda tutadi. [Лингвофольклористика, 2008:18]

5. **Folklor matnida folklor motivlari va ularning ifodalanishi.**(sayyor sujetlar, qoliplar, janriy o'ziga xosliklar, tuzilishi).

6. **Folklor matni lingvostatistikasi** (topishmoqlarda muayyan obrazlar chastotasi, dostonlarda so'zlar, topishmoqlar, qoliplar chastotasi)

Tilimizda mahsuldorligini yo'qotgan so'z yasovchi qo'shimchalarning hozirgi o'zbek tilida mavjudligini ikki jihatdan baholash mumkin: 1) so'z yasash qobiliyatini saqlab qolgan qo'shimchalar. 2) ildiz tarkibiga singib, mustaqilligini yo'qotgan qo'shimchalar. Quyida biz ularning tasnifini batafsil ko'rib chiqamiz.

"Uyqu" so'zini uy "uy" va -qu morfemalariga ajratish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Taniqli turkolog olimlar [Monuments of ancient Turkic writing, 1951:20] bu so'zning o'zagi u (u) ekanligini ko'rsatib, "Devon"da uz "uyqu" ekanligi ta'kidlangan: "Emdi uzin uzindi" (Endi uyqudan uyg'ondi). [Devonian dictionary Turkish.,1960:35] Turkman tilida uvqi (Arazquliyev. Do'rtgul, 194), tarixiy matnlarda "uz" va "ud" variantlari ham uchragan. "Uyqu" (Uyqu) o'zbek, qirg'iz, qozoq, uyg'ur tillarida. Turkiy tillarda d~z~v~y mavjudligini hisobga olsak, "y"li variant oxirgi shakllangan, degan xulosaga kelish mumkin. 18—19-asrlarda yozilgan matnlarda "uyqu" (uyqu) ~ (uyqu) "uyqulamoq" shakli ham qo'llanilgan. "Hotamnoma"da ham uyqulamoq tarzida qo'llanilgan. Xususan: *Ko'rdilarki, odamizod uyqulabdur.[94]Hotam ul sufaning to'pasig'a*

*chiqib uyquladi.* [Хотамнома, 1988:45] Shuningdek kompozitsiya usulida yasalgan fe'llardan *bo'l* va *qil* komponentlarining salmog'i yuqori:

**Qilmoq fe'li bilan:** *Savol qilmoq, o'bdanliq qilmoq, daf qilmoq, sarf qilmoq, zoye qilmoq, tavallud qilmoq, bovar qilmoq, tay qilmoq, xayrbod qilmoq, anbor qilmoq, vido qilmoq, ovoz qilmoq, muof qilmoq, tuban qilmoq, nisor qilmoq, ko'shish qilmoq.*

**Bo'lmoq fe'li bilan:** *giriftor bo'lmoq, behtar bo'lmoq, diltang bo'lmoq, zoyil bo'lmoq, mutaffaq bo'lmoq, daruig' bo'lmoq, maxfuz bo'lmoq, muntazir bo'lmoq, xo'b bo'lmoq, behud bo'lmoq.*

Quyidagi xulosalarga tayanib, Hotamnoma asarida morfologik qoldiqlarning mohiyatini aniqlash mumkin:

1. Folklor matnining qadimiy holatini tiklash uchun uning hozirgi lisoniy qiymatiga zid bo'lgan ma'nolarni solishtirish zarur.

2. Hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklar morfologik shakllarning qarama-qarshiligi folklor matnidan farq qilishi natijasida kashf etilishi mumkin.

3. Tildagi tarixiy izlar dialektik qonuniyatlar asosida – hozirgi tilda mavjud bo'lgan variantlarning o'zgarma shaklini bilish orqali aniqlanadi.

4. Sinxron lingvistik qiymat diaxronik qiymatga mos kelmagan hollarda kuzatilishi mumkin va bu tartibsizlik ham til taraqqiyotiga xos ekanligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Хотамнома. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: А.Матғозиев. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 224 б.

2. Mahmud Kashgari. Devonian dictionary Turkish. Volume 1. – Toshkent, 1960. P. 46.

3. Malov S.E. Monuments of ancient Turkic writing. – Moscow; –L.: The science, 1951

4. Хроленко А.Т. Лингвофольклористика. Листая годы и страницы. Курск, 2008. Художественный язык фольклора кабардинцев и балкарцев. Нальчик, 1981.

*M.B.Eshniyazova,  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

### **ALISHER NAVOIYNING “ARBA'IN” ASARIDA QO'LLANGAN SHE'RIY UNSURLAR BADIYYATI**

**Annotatsiya:** ushbu maqola “Arba'in” asaridagi nazmiy parchalarning poetik tahlili, she'riy bandlarning qofiyalanish tartibi, janriy xususiyatlari, qofiya va radif, ularning turlari hamda badiiy o'ziga xosliklari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** nazm, hadis sharhi, qofiyalanish tartibi, masnaviy, qit'a, qofiya, mutlaq qofiya, muqayyad qofiya, to'li qofiya, och qofiya, radif, qisqa radif, yoyiq radif, hojib.

O'zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib mumtoz adabiyotning eng ko'p janrlarida asar yaratgan nodir iste'dod sohibi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Uning o'z tili bilan aytganda, “yuz ming bayt”lik “nazm-u nasr”dan iborat butun ijodi muallifning salohiyati qaydarajada yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi.

Mavjud adabiyotlarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy ijodi jamlanganda lirikaning 18 janrida qalam tebratganligi ta'kidlanadi. Navoiyshunos Sul-tonmurod Olim adibning asarlari soni va umimiy ijodining janr tarkibi haqida to'xtalganda, “Hazrat Navoiy jami 31 janrda naqd 4 ming 585 ta asar bitgan!” degan xulosaga keladi. Lekin asarlar miqdorini belgilashda “Nazmul-javohir” va “Arba'in”dagi she'rlar hamda nazr-u nazm aralash shaklda yozilgan asarlari tarkibida keltirilgan she'riy parchalarni alohida mustaqil asarlar sirasiga kiritmaydi. “Nazmul-javohir”dagi ruboiylar va “Arba'in”dagi qit'alar jamlanib, “nazmiy tarjima” janriga kiritiladi. Olimning yozishicha, “Bu yerda kelajakda aniqlik kiritilishi zarur bo'lgan ikki nozik nuqta bor. Birinchisi shuki, “Nazm ul-javohir”dagi she'rlar arabiydan, “Arba'in”dagi she'rlar esa forsiydan tarjima qilingan. Ammo navoiyshunosligimizda hali ular qay darajadagi yoki qaysi tipdagi tarjimalar

ekani ilman aniqlashtirib berilganicha yo‘q”. Biz kelgusi tadqiqotlarimizda mana shu borada ham izlanishlar olib borishni maqsad qilib qo‘ydik. Bugungi maqolamizda esa “Arba’in” asaridagi she‘r bandlarining “ilmi qofiya” talablari bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tmoqchimiz.

“Arba’in” asari Abdurahmon Jomiy tomonidan qayta yaratilgan sahih qirq hadisning nazmiy ifodasi bo‘lib, Alisher Navoiy ustoz, piri va maslakdoshidan izn so‘rab, ushbu nazmiy matni o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Asar an‘anaviy hamd, na‘t, munojot, “Sababi ta‘lifi manzuma”, asosiy matn (nasr va mazm), xotima (nazmiy va nasriy) qismlaridan iborat. To‘plamning hamd (1 bayt), na‘t (1 bayt), munojot (3 bayt), “Sababi ta‘lifi manzuma” (18 bayt), she‘riy xotima (5 bayt) qismlari – jami 28 bayt she‘r masnaviy usulida *aa, bb, cc, ...* tarzida qofiyalangan. Asosiy qismda esa 40 ta hadisning asl arabiy matni va uning she‘riy talqini ketma-ketlikda tartib bilan berilgan. Sheriy parchalarning qofiyalanish tartibiga e‘tibor qaratilsa, 39 tasi *abcb* tarzida, 1 tasi *aaba* ko‘rinishida qofiyalangan.

Qofiya she‘rda ritm va musiqiylikni ta‘minlash, g‘oyaviy mazmunni kuchaytirib ifodalash, g‘oyaviy yukni tashish bilan birga, uni boshqarish, asarning kompozitsion qurilmasi va janr xususiyatlarini belgilashda asosiy mezon sanaladi. Adabiyotshunoslikda qit‘a janri xususiyatlari haqida so‘z borganda unga “ikki yoki undan ortiq baytdan tarkib topadi, juft misralari o‘zaro qofiyalangan holda toq misralari ochiq qoladi, vazn va mazmun jihatlaridan cheklanmaydi, — ko‘ramizki, bunda shakl xususiyatlari janrni belgilovchi asos bo‘lib xizmat qiladi” degan ta‘rif beriladi. Ushbu berilgan ta‘rifga ko‘ra, sher‘iy parchalardan 39 tasi qit‘a janrining qofiyalanish tartibiga mos tushadi, faqat bitta she‘riy band ruboiy ko‘rinishida qofiyalangan:

Elga ne kelsa, aylamas pand  
Ulki, ko‘nglini qildi g‘aflat band.  
Kimki pand oldi elga tushgandin,  
Oni bilkim, erur saodatmand.

Aslida, qofiya shunday bir san‘atki, Sharq mumtoz adabiyotida hech bir she‘r qofiyasiz yaratilmaydi, uning qoidalari buzilmaydi. Shuning uchun olimlar qofiya ilmini shoir va she‘rxonning alifbesi hisoblashgan va adabiyotshunosligimizda maxsus o‘rganilgan.

Mumtoz adabiyotimizda qofiyadosh so‘zlarning raviy bilan tugash-tugamasligiga ko‘ra turlari mavjud bo‘lib, mutlaq va muqayyad qofiya farqlanadi. “Arba’in”dagi she‘riy parchalarga bu jihatdan e‘tibor qaratilsa, mutlaq qofiyaga nisbatan muqayyad qofiya qo‘llangan baytlar miqdori keskin farqlanishi ko‘zga tashlanadi. Asarning masnaviy usulida qofiyalangan qismida mavjud 28 baytdan bor-yo‘g‘i ikkitasida mutlaq qofiya uchraydi, qolgan 26 baytning barchasida muqayyad qofiya qo‘llangan. Shuningdek, qit‘alarning 11 tasida mutlaq, 29 tasida muqayyad qofiyadan foydalanilgan. Aynan muqayyad qofiyalar qit‘alardagi hukmni qat‘iy, keskin ifodalash imkonini beradi, muallifning darddoshlik tuyg‘usidan ko‘ra ko‘proq shiddatli fikri, dolzarb mavzusi, umumbashariy g‘oyasi asosiy e‘tibor markaziga chiqariladi.

“Arba’in”dagi qofiyadosh so‘zlarda turkiy va forsiy lafzlar ham qo‘llangan bo‘lsa-da, asosan, arabiy kalimalar yetakchilik qiladi. Muallif qofiyadosh so‘zlarni tanlashga hadisning asl matnida qo‘llangan so‘zlardan yoki uning asosdoshlaridan ham unumli foydalanadi. Bunda hadis matnidagi mantiqiy urg‘u olgan birliklarni qofiyada ishlatishga e‘tibor qaratiladi va hadisdagi fikriy ta‘kidning she‘riy sharhda ham saqlanishiga erishiladi. Masalan, “Al-kalimat ut-toyyibatu sadaqatun” – “Yaxshi so‘z **sadaqadir**” hadisi shoir tomonidan quyidagi shaklda nazm ipiga teriladi:

Yaxshi so‘z birla hojat ahlin so‘r,  
Bermasang yaxshi to‘madin nafaqa.  
Ne uchunkim, rasul qavli bilan  
Yaxshi so‘z border o‘ylakim **sadaqa**.

“Arba’in”dagi qit‘alarda to‘q qofiyalar ko‘p uchrasa-da, ba‘zi qit‘alarda o‘zbek xalq og‘zaki she‘riyatida bo‘lgani kabi och qofiyalar ham qo‘llangan. Agar shoir she‘rda och qofiya qo‘llagan bo‘lsa, u holda qofiya yonida radif ham keltiradiki, bu nazmda ohangdorlikni to‘liq saqlash imkonini beradi:

Mo‘min emastur, ulki imondin

Ro'zgorida yuz **safo** ko'rgay,  
Toki qardoshiga ravo ko'rmas –  
Har nekim o'ziga **ravo** ko'rgay.

Alisher Navoiy san'atga san'at qo'shib, bir o'rinda tajnisli qofiyadan foydalanadi va so'z o'yini qilib, til imkoniyatlarining yana bir jilolanishini amaliy ko'rsatib beradi:

Subh uyqusin ulki aylar tark,  
Rizq-u ro'zin o'ziga **to'sh** ko'rgay.  
Ulki g'aflatdin etti navmi sabuh,  
Bu sharafni magarki **tush** ko'rgay.

Ma'lumki, she'riyatning musiqiylikni ta'minlovchi, asardagi asosiy yukni ko'taruvchi unsurlaridan biri radifdir. Alisher Navoiy ijodida radiflardan foydalanish salmoqli o'rib tutadi. Masalan, Navoiyning 5782 qo'shmisradan iborat «Farhod va Shirin» dostonining 965 ta bayti (17 foizi) ni muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi. Demak, radif adib ijodidagi eng asosiy badiiy san'atlardan biridir. Radiflarning ishlatilishi jihatidan "Arba'in" asari ham o'ziga xos: undagi she'riy bandlarda muallifning bu she'riy unsuridan samarali foydalanganini ko'rish mumkin. Asarning masnaviy usulida qofiyalangan qismida 11 bayt radifli, 17 bayt radifsiz. Qit'alardan esa 11 tasi radifli, qolgan 29 tasi radifsiz. Alisher Navoiy qo'llagan radiflar sof turkiy so'zlar bo'lib, bu holat asarning butun o'zbek adabiyoti tarixidagi o'ziga xos badiiy o'rni borligidan dalolat beradi. Asarda *bo'lub, topqaylar, qildi, etib, aylab, erdi, ettim, bo'lg'ay, ko'rgay, qilmoq, etti, o'lg'ay, yetgay* kabi fe'llar, *manga, suvdin, andin, birla* kabi boshqa turkumga mansub, lekin sof turkiy so'zlar radif sifatida qo'llanib, musiqiylik va ohangdorlikni ta'minlash, ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi. "Arba'in"dagi radiflarda o'zbek tilining grammatik qurilishiga oid qoidalarga ishora qiluvchi birliklar, ya'ni fe'l so'z turkumiga xos so'zlar ko'proq qo'llangan. Ma'lumki, o'zbek tilida kesim gapning oxirida keladi va u ko'pincha fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi. Agar baytdagi fikrning asosiy yuki radif zimmasiga tushishi, shoir fikrda nimaga ko'proq urg'u bermoqchi bo'lsa, o'sha so'z yoki so'zlarni radifga olishi, mavzu ham, badiiy tasvir ham, demakki, g'oya ham shu so'z atrofida aylanishi, janr hajman kichraya borgan sayin radif zimmasiga yuklatiladigan badiiy vazifa shunchalik orta borishi hisobga olinsa, muallifning asl maqsadi ham ko'zga tashlangandek bo'ladi, ya'ni muallif ta'kidlaganidek, o'quvchi kitobxon hadislarni, uning nazmdagi "murattab"ini shunchaki o'qishi emas, balki amalda bajarishi, unda ifodalangan fikrni anglagan holda ijrosiga shoshilishi, harakatlarni boshlashi lozim.

Adibning radif qo'llash mahoratiga e'tibor qaratisa, qisqa (yig'iq) radif bilan bir qatorda yoyiq radifli qit'alar ham uchri kuzatiladi:

Hirsdin kechgil, ul g'amedurkim,  
Had-u g'oyat **emas anga paydo**.  
Tut qanoatke, ul erur mole  
Ki, nihoyat **emas anga paydo**.

She'rda qofiyadan keyin, ya'ni unga «mingashib» yoki «yo'ldosh bo'lib» kelgan bir so'z yoki so'zlar turkumining takrori «radif» deb ataladi. Lekin she'riy asarlarda qofiyadosh so'zlardan oldin takrorlanib keladigan va adabiyotshunosligimizda "hojib" deb ataladigan she'r unsuri ham bor. Alisher Navoiy bunday badiiy unsuridan ham foydalanib fikrning ta'kidiga, qofiyadagi yukning kitobxonga bo'rttirib yetkazilishiga erishadi:

Bir-birin do'stlar agar gah-gah  
Ko'rsalar, do'stluq **o'lur** g'olib.  
Shavqdin ixtilot o'lur matlub,  
Vasl uchun orzu **o'lur** tolib.

"Arba'in" asarining asosiy qismi sanalgan qirq hadis sharhi qit'a janrida berilishi ham bejiz emas. Qit'ada kuzatilgan voqeadan darhol poetik xulosa chiqarish, fikrni boshqa janrdagi qat'iy shakllarga qaraganda erkin ifodalash mumkin; hajm, vazn, mavzu doirasi chegaralanmagan. Qit'a yaxlit asar sifatida ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy va boshqa yo'nalishlardagi muayyan mavzuga bag'ishlanib, ularda, umuman olganda, pand-nasihath ruhi ustunlik qiladi. Alisher Navoiy bu janrning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanib, uning yetuk

namunalarini yaratdi hamda o'zbek qit'achiligini yuksak pog'onalarga ko'tardi. «Xazoyin ulmaoniy»dagi jami 210 ta qit'a, shuningdek «Mahbub ul-qulub», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Pahlavon Muhammad» va boshqa asarlaridagi qit'a namunolari shoirning keng dunyoqarash, buyuk salohiyat egasi ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Shu bois Abdurahmon Jomiyning forsiy tildagi "Arba'in"i qo'lga tushganda ustoz va maslakdoshining ijozati, duosi ila e'tiqodi, tafakkuri, qalbi amri bilan juda qisqa muddatda, kutilgandan ham tezroq tarjima qilishga erishdi:

Men demakni chu muddao aylab,  
Ul ijozat berib duo aylab...  
Bir-ikki kunki ehtimom ettim,  
Ko'z tutardin burun tamom ettim.

Demak, Alisher Navoiy maslagida, e'tiqodida sobit turgan, uni targ'ib qilish yo'lida astoydil mehnat qilgan, shu bilan birga, kundalik hayotdagi hodisalarga hozirjavoblik bilan munosabatda bo'lgan. Agar mavjud masala olam va unda odam taqdiri, inson shaxsiyati, jamiyat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lsa, hazrat Navoiy bu haqida yozishga doim kuch topgan va unga jidd-u jahd bilan kirishgan.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek mumtoz adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shdi, balki shaxs tarbiyasida ulkan maktab yaratib ketdi. Adibning har bir asarini o'qib uqish, mag'zini chaqib, fikrlarni idrok etib tafakkur qilish, badiiyatini his qilib, didni shakllantirish, ona tilning betakror imkoniyatlarini o'rganib, hayotga tatbiq etish o'zimiz uchun, millatimiz, mamlakatimiz kelajagi uchun faqat va faqat foydali, manfaatli bo'ladigan vazifalarimizdan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alisher Navoiy. Arba'in. Toshkent: «Fan», 2000.
2. Qurbonov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. – [www.ziyounet.com](http://www.ziyounet.com)
3. Sultonmurod Olim. Navoiy qancha va nechta janrda asar bitgan? - <https://yuz.uz/uz/news/navoiy-qancha-va-nechta-janrda-asar-bitgan>
4. Eshniyazova M. "Tarixi anbiyo va hukamo" asaridagi she'riy parchalarning g'oyaviy-badiiy qimmatini. Alisher Navoiy xalqaro jurnali, 2023-yil, 3-jild, 1-son.

*T.Y.Oydinov,  
SamDCHTI o'qituvchisi*

### **PROSODIKA VA PROSODIK BELGILAR**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada prosodika va uning asosiy belgilari – urg'u, ohang, pauza, ton va nutq sur'ati kabi prosodik hodisalar ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. O'zbek tilshunosligida prosodik tadqiqotlarning holati ko'rib chiqiladi, turli tilshunoslik maktablarining yondashuvlari qiyoslanadi. Maqolada prosodik belgilarning nutq kommunikatsiyasidagi o'rni va ularning lingvistik tahlil metodologiyasi ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** prosodika, prosodik belgilar, urg'u, ohang, pauza, ton, nutq sur'ati, fonetika, tilshunoslik.

Zamonaviy tilshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan prosodika tilning tovush tizimini, xususan uning ritm-melodik tuzilishini o'rganadi. Prosodika (yunoncha *prosōdia* – qo'shiq ohang, aktsent) atamasi tilshunoslikka antik davr mualliflari tomonidan kiritilgan bo'lib, dastlab she'r vazni va misra tuzilishini anglatgan. Keyinchalik bu tushuncha kengayib, nutqning barcha suprasegmental xususiyatlarini o'z ichiga ola boshlagan. Prosodik tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqni avtomatik qayta ishlash, sun'iy intellekt asosida ovozni sintetizlash, xorijiy til o'qitishning optimal metodologiyasini ishlab chiqish – bularning barchasi prosodika fani yutuqlarisiz amalga oshib bo'lmaydi. O'zbek tili fonetik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda prosodik belgilarni tadqiq etish esa bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Prosodika fani rivojining ildizlari qadimgi yunon va hind grammatika an'analariga borib

taqaladi. Paṇini (mil. avv. V–IV asr), Aristotel va Dionisiy Frakiylik asarlarida nutqning ritmik va melodik xususiyatlariga doir muhim kuzatuvlar mavjud. Evropa tilshunosligida prosodikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

XX asrda Praga tilshunoslik to‘garagi (N.Trubetskoy, R.Yakobson, B.Trnka) va Kopengagen maktabi (L.Xelmslev) prosodik hodisalarni fonologik tahlil doirasida o‘rganishda muhim hissa qo‘shdi. N.Trubetskoyning fonologiyaga oid asosiy asari bo‘lmish «Grundzüge der Phonologie» (1939) suprasegmental hodisalar tasnifining ilmiy asosini yaratdi.

O‘zbek tilshunosligida prosodika masalalariga F.Abdullayev, A.Nurmonov, B.O‘rinboyev, Sh.Shoabdurahmonovlar e‘tibor qaratgan. A.Nurmonov o‘zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarida urg‘u va ohangning o‘zbek nutqidagi o‘ziga xosliklarini ilmiy tahlil etgan. Keyingi yillarda E. Begmatov, N. Mahmudov va boshqa tilshunoslar ham prosodik muammolarga murojaat qilishgan.

Prosodika – nutqning suprasegmental (bir necha tovush yoki bo‘g‘inlarni qamrab oluvchi) xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi. U fonetika va fonologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zining maxsus tadqiqot ob‘ekti va metodologiyasiga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda prosodika ikki aspektda ko‘rib chiqiladi: **fonetik prosodika** (nutqning akustik va artikulyatsion xususiyatlari) hamda **fonologik prosodika** (prosodik hodisalarning til tizimidagi funksional roli).

Prosodikaning asosiy tadqiqot obyektlari quyidagilardan iborat: urg‘u (so‘z urg‘usi va sintagmatik urg‘u), ohang (intonatsiya), pauza, nutq sur‘ati (temp), ton (sekin-asta yoki keskin o‘zgaruvchi), ritm va nutqning umumiy melodikasi.

Urg‘u – so‘z yoki sintagma tarkibidagi biror bo‘g‘in yoki so‘zning boshqalariga nisbatan kuchli talaffuz etilishi hodisasidir. Tilshunoslikda urg‘uning bir necha turi farqlanadi: dinamik (kuch) urg‘u, tonal (musiqiy) urg‘u, miqdoriy (kvantitativ) urg‘u. O‘zbek tilida dinamik urg‘u ustunlik qiladi va so‘zning asosan oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Biroq urg‘u o‘zgarishi ma‘no farqlash vazifasini ham bajarishi mumkin: ma‘lum leksik-grammatik toifalarda urg‘u o‘rni belgilovchi rol o‘ynaydi. Qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o‘zbek urg‘uning rus, ingliz yoki nemis tillaridagi urg‘udan farqi shundaki, u erkin (erkin joylashuvchan) emas, balki nisbatan qattiq (so‘zning muayyan bo‘g‘iniga birikkan) xususiyatga ega.

Ohang – nutq jarayonida tovush balandligining melodiaviy o‘zgarishi bo‘lib, u gap ma‘nosini, muloqot maqsadini va emotsional-ekspressiv ma‘noni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Intonatsiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: melodika (tovush balandligining o‘zgarishi), intensivlik (kuch), temp (sur‘at), tembr va pauza.

Tilshunoslikda intonatsiyaning turli tasnifiy tizimlari mavjud. Britaniyalik fonetist D. Kristal intonatsiyaning oltita asosiy funksiyasini ajratadi: grammatik, diskursiv, semantik, pragmatik, psixologik va indeksik funksiyalar. O‘zbek tilida intonatsiya darak, so‘roq, buyruq va undov gaplarni farqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Pauza – nutq jarayonidagi to‘xtam, uzilish hodisasi. U ikki asosiy turga bo‘linadi: *fizik pauza* (haqiqiy to‘xtam, nutqning uzilishi) va *virtual pauza* (eshituvchi tomonidan his etiladigan, ammo real bo‘lmagan uzilish).

Pauza nutqni semantik va sintaktik jihatdan parchalash, mantiqiy urg‘uni kuchaytirish, tinglovchiga ma‘lumotni o‘zlashtirish uchun vaqt berish kabi muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi. O‘zbek og‘zaki nutqida pauza o‘rtacha 200-500 millisekund davom etadi, ammo bu ko‘rsatkich nutq sur‘ati va janriga qarab keng o‘zgarishi mumkin.

Ton – ovoz pardalarining tebranish chastotasi bilan belgilanadigan nutqning akustik xususiyati. Tonal tillar (xitoy, vietnam, yoruba va boshqalar)da ton ma‘no farqlash funksiyasini bajarsa, intonatsion tillarda (o‘zbek, rus, ingliz) ton intonatsiyaning melodika komponenti sifatida ishlaydi.

Nutq sur‘ati (temp) – vaqt birligida talaffuz etiladigan tovush, bo‘g‘in yoki so‘zlar soni bilan o‘lchanadi. O‘rtacha nutq sur‘ati minutiga 120–150 so‘zni tashkil etadi. Sur‘at o‘zgarishi kommunikativ maqsadga, emotsional holatga, nutq janriga va individual xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbek tili prosodikasini chuqur o‘rganish bir qator dolzarb masalalarni hal etishga yordam beradi. Birinchidan, o‘zbek nutqini avtomatik sintez qilish va tanish tizimlarini takomillashtirish

uchun prosodik modellar yaratish zarur. Ikkinchidan, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda prosodik me'yorlarni to'g'ri ifodalash katta ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'zbek nutqining prosodik xususiyatlari o'z-o'zidan shakllanmay, turk, fors va slavyan tillari bilan uzoq muddatli muloqot natijasida ham o'zgarishlarga uchrab kelgan. Bu esa prosodik kontaktologiya muammolarini ham tadqiq etishni taqozo etadi.

Prosodika – nutqni yaxlit idrok etishni ta'minlovchi suprasegmental tizim bo'lib, uning asosiy belgilari – urg'u, ohang, pauza, ton va nutq sur'ati – kommunikatsiyaning mazmuniy va ekspressiv jihatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbek tili prosodikasini zamonaviy metodlar yordamida tadqiq etish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalarida ham muhim natijalar berishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.Crystal. Prosodic Systems and Intonation in English. Cambridge: Cambridge University – 1969. – 381 p.
2. R.H. Robins. A Short History of Linguistics. 4th ed. London: Longman. 1997. –42 p.
3. N.S. Trubetzkoy. Grundzüge der Phonologie. Prague: Travaux du Cercle Linguistique de Prague. 1939. — 272 b.
4. A. Nurmonov. O'zbek tilshunosligining nazariy masalalari. Toshkent: Fan. 2002.— 240 b.
5. F. Abdullayev. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent: O'qituvchi. 1999.— 184 b.

*T.P.Bekmurodov, Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

## JADIDLAR DAVRIDAGI MATBUOT VA NASHIRYOTLAR TADQIQI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidlar davridagi matbuot va nashryotlarning umumiy ahvoli, rivojlanishi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ilmiy va tahliliy mulohazalar yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Matbuot, Turkiston viloyatining gazetasi, Tarjimon, Taraqqiy, Osiyo, Sadoi Farg'ona, pressa, Kengash.

O'zbekiston va unda yashayotgan xalqning tarixiga nazar solib qaraydigan bo'lsak, bir necha ming yilga borib taqaladi. Bunday deyishimizga sabab shundaki, u turli xalqlar tarkibida turlicha nomlarda yashagan, o'z davlatchiligiga ega bo'lgan eng ko'hna shajaralardan birdir. Ular qadimdan o'ziga tegishli va unga yondosh bo'lgan xalqlarga ziyo va ma'rifat ulashib kelgan xalq sanaladi. Shu nuqtayi nazardan o'rta asrlarda jahon tamaddunining beshigini tebratgan bobokolonlarimiz dunyoga quyosh yang'liq nur sochgan. Jumladan, Farobiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G'azzoliy, Qamadoniy, G'ijduvoniyy va boshqa ulug' zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e'tiqod - imonining pokligi bilan dunyoga ibrat bo'lgan.<sup>1</sup> Bundan tashqari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xoja hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturdiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyy, Xoja Axmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oniy, Shayx Najmiddin Kurbo, Xoja Ali Romitaniy, Yusuf Hamadoniy, Buhovuddin Naqshband kabi siymolar ilohiy marifat yo'lining rahnamolari bo'lganlar.<sup>2</sup> Bu ro'yxatni qatorlab davom ettirishimiz mumkin. O'sha davrlarda ham marifatni va ma'naviyatni targ'ib qilish vositalari sirasiga turli xil qo'lyozmalar, she'riy parchalar, diniy va dunyoviy kitoblar va ijtimoiy va siyosiy yangiliklarni xalqqa ovoza qilib yuradigan jarchilar orqali tarqatilgan. Qaysidir ma'noda yuqorida sanagan vositalarimiz bugungi kunda matbuot deb atayotgan va u bajarayotgan vazifani o'sha davrda bajargan deyishimiz mumkin. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsan, ular o'sha davrning o'ziga xos matbuot tizimi bo'lgan.

Shu o‘rinda jadidlar faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muxim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma‘rifatchilik; 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan –

20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.<sup>3</sup>

Turkistonning madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Toshkent shahrida o‘lkaning to‘ng‘ich gazetasi “Turkestanskiy vedomosti” 1870 yil 28 aprelda chiqa boshlagan edi. Ushbu gazeta Rossiya guberniya vedomostlariga tenglashtirilgan bo‘lib, unga amaldorlar obuna bo‘lishi majburiy edi.<sup>4</sup> Turkiston general-gubernatorligi bu gazeta orqali o‘z g‘oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, amalda matbuot o‘lkani har tomonlama o‘rganib hamda rus aholini Turkiston hayoti bilan tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish borasida alohida ahamiyat kasb etgan edi.

Turkistondagi birinchi o‘zbek tilidagi gazeta “Turkiston viloyatining gazetasi” 1870-1883 yilgacha “Turkestanskiy vedomosti” gazetasiga “Ilova” tarzida chiqarilar edi. Bu gazeta bir oyda 4 marta – 2 marta o‘zbek tilida va 2 marta qirg‘iz tilida chiqa boshladi. 1883 yil 30 yanvardan 500 nusxada alohida gazeta sifatida chiqa boshladi. 1888 yilga kelib gazeta 600 nusxadagina bosilib, uning asosiy qismi majburiy obunachilarga aylantirilgan mahalliy amaldorlarga jo‘natilgan.<sup>5</sup> “Turkiston viloyatining gazetasi”ning muharriri N. Ostroumov gazetaning o‘quvchilari kamligini milliy tildagi dastlabki gazeta bo‘lganligi va mahalliy aholi uchun pulga gazeta sotib olib o‘qish yangilik ekanligi bilan izohlagan edi.<sup>6</sup> Aslida esa Turkiston aholisi ziyolilari orasida Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chiqqan “Tarjimon” gazetasi mashhurroq bo‘lgan o‘sha davrning o‘zidayoq “Turkiston viloyatining gazetasi” xalq orasida katta obro‘ga ega emasligi sabablarini ochishga ma‘lum ma‘noda harakat qilingan. Mazkur gazetaning moliyaviy ahvoli ancha og‘ir bo‘lib, ayniqsa 1912-yilning oxiri – 1913-yillarda mablag‘ yetishmasligidan gazetaning yopilish xavfi ham bor edi. Faqat Toshkentda mahalliy tilda xususiy gazetalar chiqarishga harakat qilinayotganligi, bu esa hukumatga qarshi kayfiyatlar tarqalishiga olib kelishini hisobga olgan Turkiston general-gubernatorligi “Turkiston viloyatining gazetasi”ni moliyaviy tomondan qo‘llab turishga uringan edi. Hatto, 1913 yilning 5 yanvarida Turkiston general-gubernatori harbiy vazirga xat yozib, ushbu gazetani bosib chiqarishga mablag‘ so‘ragan,<sup>7</sup> so‘ralgan mablag‘ning nechidir foizi qoplab berilganligi haqida ham ma‘lumotlar bor. Lekin “Turkiston viloyatining gazetasi” Rossiyaning boshqa joylarida, ya‘ni Gelsingfros, Qozon, Qashg‘ar, Boqchasaroy, Moskva, Omsk, Peterburg shaharlarida ham oz bo‘lsada o‘quvchilariga ega edi.<sup>8</sup> Ushbu gazeta sahifalarida, Turkistonda boshqa milliy gazeta yo‘qligi tufayli Ishoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy,

<sup>1</sup>Хайруллаев М. О‘рта Осиёда ilk uyg‘onish davri madaniyati.-Т.: Fan, 1994 y.

<sup>2</sup> Ма‘naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar.-Т.: 1999 y.

<sup>3</sup> Кастелская З.Д., “Из истории Туркестанского края (1865 - 1917)”. М.: 1980 й.

<sup>4</sup> ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 534-иш, 5-бет

<sup>5</sup> ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 60-иш, 82-бет

<sup>6</sup> ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 35-иш, 39-45 – бетлар

<sup>7</sup> ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 734-иш, 117-бет

<sup>8</sup> Остроумов Н.П., Сарты. Т.: 1894 й.

Mirmuhsin Shermuhamedov va shu kabi taraqqiyparvarlar madaniy-ma'rifiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib, mahalliy aholining dunyoviy ilmlarga, fan va texnika, boshqa xalqlarning ilg'or madaniy va adabiy merosiga qiziqishini kuchaytirganlar.

XIX asrning 90-yillariga kelib Turkistonda matbuot sohasida burilish yuz berdi. Bu davrda o'lkada rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar paydo bo'la boshladi. Dastlab Samarqandda, keyin Toshkentda 1890-1907 yillarda chop etilgan "Okraina" va 1898-1907 yillarda Toshkentda chop etilgan "Russkiy Turkestan" gazetalar shular jumlasidandir. Mazkur gazeta faoliyatida N. Likoshin, N. Xanikov va A. Divaevlar faol ishtirok etishgan. Bu gazetalar universal bo'lib, uning sahifalarida o'lkaning tarixi, geografiyasi, iqtisodiy hayoti va madaniy-ma'rifiy masalalari muntazam yoritib borilgan.<sup>1</sup> 1904 yilda "Tashkentskiy listok" gazetasi chop etila boshlagan edi, unda teleqrammalar, e'lonlar va mahalliy xronikalar ham berib borilgan. Ushbu gazeta 1906 yildan "Tashkentskiy kurer", 1908 yildan esa "Turkestanskiy kurer" nomi ostida chiqqan.<sup>2</sup>

XX asr boshlarida Toshkentda milliy taraqqiyparvar kuchlar bir qancha gazetalar chiqarishga muvaffaq bo'lganligi o'lka ijtimoiy hayotida muhim voqea bo'lgan. 1905-1907 yillardagi inqilobdan vahimaga tushgan hukumat matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo'lgan. Gazetaning xalq ijtimoiy-siyosiy ongini oshirishdagi rolini tushungan jadid taraqqiyparvarlari milliy gazetalar chiqarishga muvaffaq bo'lishgan. Bunday gazetalarining ko'pchiligi avvalo Toshkent shahrida chop etilgan. Milliy taraqqiyparvar kuchlar chiqargan gazetalar "Taraqqiy" (1906 y.), "Xurshid" (1906 y.), "Shuhrat" (1907 y.), "Osiyo" (1908 y.) hukumat tomonidan qattiq ta'qib ostiga olinib, gazetaning har bir sonlaridagi maqolalar tarjima qilinib kuzatib borilgan.<sup>3</sup> Hukumat gazetasi bo'lgan "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida ushbu gazetalar qattiq tanqid ostiga olingan.<sup>4</sup> Bu milliy gazetalar juda qisqa vaqt nashr qilingan va hukumatga qarshi yo'nalishlari uchun to'xtatib qo'yilgan. Jadid taraqqiyparvarlari tashkil etgan milliy gazetalarda millatni jaholatdan qutqarish va uning taraqqiy topishiga erishish masalalari diqqat markazida bo'lgan. Ular milliy ongni o'stirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biz jadidlarning faoliyati davomida ochilgan va faoliyat yuritgan matbuot nashrlarini birma-bir sanar ekanmiz ularning qanchalar murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritganini va qanchadan-qancha to'siq va muammolarga duch kelganligini chuqurroq his qilishga harakat qilmog'imiz kerak. Jumladan, qattiq siquvga olingan milliy taraqqiyparvar kuchlar uzoq vaqt matbuotga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan edilar. Bu haqda milliy taraqqiyparvarlardan biri Rauf Muzaffarzoda shunday deb yozgan: "Bizda "Taraqqiy"dan so'ng ko'pgina gazetalar chiqib, oz fursatda yana yopilib qoldi. Agar o'sha paytda chiqib, so'ng yopilgan jaridalarini yig'sak, juda katta jarida mozori hosil bo'ladi".<sup>5</sup> Lekin jadidlar muntazam ravishda bu yo'lda harakat qilgan edilar. Natijada XX asrning 10-yillarida Turkistonning qator shaharlarida, jumladan Toshkent shahrida ham milliy matbuotni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lingan. 1914-1915 yillarda Ubaydulla Xo'ja Asadullaxo'jaev muharrirligida "Sadoi Turkiston" gazetasi chop etildi. Ushbu gazeta faoliyatida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Saidnosir Mirjalilov, Hamza Hakimzoda, Xolid Said, Abdulhamid Sulaymon, Mo'minjon Muhammadjonov, Abdulla Erg'oziyev, Nushiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Mulla Said Ahmad Vasliy, Fuzayil Jonboev, Muhammadjon (mudarris), Badriddin A'lami, Hoji Muin, Sh. Rahimiy kabi millat fidoiylari muharrirga yaqindan yordam berdilar. Turkiston taraqqiyparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy ham ushbu gazetani chiqarishni davom ettirish uchun millat jonkuyarlari moddiy va ma'naviy tomondan yordam berishlarini, chunki dunyoda 10 million aholiga ega bo'lgan davlatlar minglab matbuot nashrlariga ega ekanligini ta'kidlab, milliy taraqqiyparvar kuchlarni mushtariy yig'ishga yordam berishga chorlagan edi.<sup>6</sup> Ammo milliy taraqqiyparvarlarning sa'y-harakatlariga qaramay, 1915 yil 10 aprelda mablag' yetishmaganidan "Sadoi Turkiston" gazetasining 66-soni chiqarilib, to'xtatib qo'yildi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra,

<sup>1</sup> Украина. 1893,- № 129.

<sup>2</sup> Добросмыслов А.И.Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. С.:- № 293.

<sup>3</sup> ЎЗР МДА. 1-жамгарма, 28-рўйхат, 779-иш, 10-20 – бетлар

<sup>4</sup> Туркстон вилоятининг газети. 1906. 25, 29, 30, 33, 35-37, 44, 51-сонлар

<sup>5</sup> Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот, Садои Туркстон. 1914. -№ 44

<sup>6</sup> Бехбудий М. Садои Туркстон, Садои Фарғона ёхуд Туроннинг эгизак таъвом фарзандлари, Ойна. 1914. -№ 25.

keyinchalik Ubaydulla Xo'jaev gazetani yana chiqarishga urungan, lekin hukumatdan rasmiy ruxsat ololmagan.

Xulosa sifatida shuni takidlashimiz mumkinki, jadidlarimiz tomonidan tashkil qilinga bu kabi gazeta va jurnallar O'zbekiston matbuot taraqqiyotini misli ko'rilmagan darajada ildamlashiga asos bo'lgan. Matbuot va nashiriyot sohasining bu darajada shiddat bilan shakillanishi jarayonida shu sohaga tegishli bo'lgan terminlar va tushunchalar ham kirib kela boshlagan. Bu jarayon o'z navbatida shu sohani his qiladigan kadrlar masalasini ham o'rta taga tashlagan. Buni yaxshi anglab yetgan ziyolilarimiz yosh o'zbek yigit va qizlarni har tamonlama rivojlangan xorijiy davlatlarga yuborish va u yerning ta'lim tizimi va matbuot sohasidagi yutuqlarini o'rganib kelish vazifalari yuklatilishi ko'zda tutilgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. T., 1994 y.
2. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. 1999 y.
3. Кастелская З. Д. "Из истории Туркестанского края (1865 - 1917)". М., 1980.
4. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 534-иш, 5-бет
5. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 60-иш, 82-бет
6. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 35-иш, 39-45 – бетлар
7. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 17-рўйхат, 734-иш, 117-бет
8. Остроумов Н.П., "Сарты", Т., 1894 й
9. Украина. 1893. № 129
10. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. С. 293
11. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 779-иш, 10-20 – бетлар
12. Туркистон вилоятининг газети. 1906, 25, 29, 30, 33, 35-37, 44, 51-сонлар
13. Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот, Садои Туркистон. 1914, № 44
14. Бехбудий М. Садои Фарғона ёхуд Туроннинг эгизак таъвом фарзандлари. Садои Туркистон, Ойна. 1914, № 25

*S.S.Mirzakamolova*  
*NDPI, Ingliz tili va adabiyoti fakulteteti,*  
*Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida o'qituvchisi*

### **MULOQOTDA SAMIMIYLIK TUSHUNCHASINING YONDOSH TUSHUNCHALAR BILAN KESISHUVI**

**Annotatsiya:** Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'min-lashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta, uni ochiq chehra bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, hol-ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Maqolada shaxslararo muloqotda samimiylik konsepsiyasi hamda yondosh tushunchalar bilan bog'liqligi borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Muloqot, shaxslararo munosabat, ochiqlik, ochiqko'ngillilik, uyatchanlik, ijtimoiy muloqot.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar)

o‘zaro munosabat va ta‘sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma‘lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Aslida, har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning o‘zaro bir-birini tushunishlarini ta‘minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta, ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, hol-ahvol so‘raydi. Shunisi xarakterliki, ta‘ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko‘plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya‘ni odamni yolg‘izlatib qo‘yishning uning ruhiyatiga ta‘siri o‘rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg‘izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o‘zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o‘zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o‘rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg‘izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, qayg‘u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg‘izlikka mahkum bo‘lganlar ma‘lum vaqt o‘tgach, ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko‘rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo‘lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo‘lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g‘or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. “Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim...”

Shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyojining to‘la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o‘zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti, ko‘pincha, insonning ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o‘tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o‘z oldida turgan hamkasbiga qarab ko‘proq, tezroq ishlashga kuch va qo‘shimcha iroda topadi. To‘g‘ri, bu hamkorlikda o‘sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o‘rtasida o‘zaro simpatiya hissi bo‘lsa, unda odam ishga “bayramga kelganday” keladigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta‘sirini o‘rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya‘ni so‘rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shaxslararo munosabatlar harakat qismi o‘zaro ta‘sirilar va uning kontekstida ham ko‘rib chiqiladi. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi tajribali, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning turli darajalarida amalga oshiriladi. Ular o‘zaro ta‘sir qiluvchi shaxslarning turli xil hissiy holatlariga, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlariga asoslanadi. Ba‘zida shaxslararo munosabatlar hissiy, ekspressiv deb ataladi. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi yosh, jins, millat va boshqa omillar bilan belgilanadi. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda ancha kichikroq ijtimoiy doiraga ega. Ular o‘zini oshkor qilish, o‘zlari haqidagi shaxsiy ma‘lumotlarni boshqalarga etkazish uchun shaxslararo muloqotga muhoj. Bundan tashqari, ayollar ko‘proq yolg‘izlikdan shikoyat qiladilar. Ular uchun shaxslararo munosabatlarda eng muhim xususiyatlar qayd etilgan va erkaklar uchun ishbilarmonlik fazilatlari muhimdir.

Dinamikadagi shaxslararo munosabatlar quyidagi sxema bo'yicha rivojlanadi: ular paydo bo'ladi, mustahkamlanadi va ma'lum bir etuklikka erishadi, keyin ular asta-sekin zaiflasha oladi. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish dinamikasi quyidagi bosqichlardan iborat: tanishuv, hamrohlik va do'stlik. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish mexanizmi - bu bir shaxsning boshqa shaxsning tajribasiga munosabati. Qishloq joylarga qaraganda, shahar sharoitida shaxslararo aloqalar eng ko'p bo'lib, tez boshlanadi va tezda uziladi.

Bolalikdan boshlab, ma'lum bir madaniyatga tegishli bo'lgan atrofdagi odamlar, narsalar, hodisalar minglab ko'rinmas yo'llar bilan odamga standart ma'noga ega bo'lgan "o'z-o'zidan ravshan" standart holatlarning butun tarmog'ini kiritadi. Turli shakllarda bu tarmoq inson shaxsi tuzilishiga majburiy ravishda kirib boradi, u dunyoga qaraydi va dunyoni idrok etish va talqin qilish stereotiplari panjarasi ortida o'tirgandek tushunadi. Bu nafaqat ma'lum bir madaniyatning xususiyatlariga, balki inson o'sgan oilaning xususiyatlariga ham tegishli. Ushbu ijtimoiy va oilaviy (+ tasodifiy) stereotiplar boshqa odamni tushunish uchun to'siq va ayni paytda zarur shartni ifodalaydi. Uni bu to'siqlar ortida ko'rish qiyin. Ammo agar siz ularni ko'rmasangiz va tushunmasangiz, o'zingizni ko'rasiz: o'zingizning xususiyatlaringiz (o'zgartirilgan shaklda, boshqasiga tegishli). Shunday qilib, bu "hujayra" nafaqat aralashibgina qolmay, balki tarkibga barqarorlikni ham beradi, go'yo muloqotda individual o'zboshimchaliklarning noaniqligini kamaytiradi. Muloqotdagi eng muhim amaliy masala ochiqlikdir. Ochiqlik so'zlovchining samimiyligi sifatida emas, balki boshqasini ochiq fikr bilan idrok etish qobiliyati sifatida: u etkazmoqchi bo'lgan narsaga ochiq bo'lish. O'zini monarx sifatida tasavvur qilish, u o'zi xohlagan va tushunganidek, muloqotda ko'rlikka va munosabatlarda primitivizmga olib keladi. Yuqori muloqot madaniyati sizni to'g'ri tushunishingizga ishonch beradi. Ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini buzgan odam o'z xatti-harakatining ma'nosini ochish vazifasi bilan boshqa odamlarning ruhiyatiga "yuklaydi".

Aloqa jarayoniga munosabati bo'yicha odamlar quyidagilarga bo'linadi *ochiqko'ngil va uyatchan*. F.Zimbardo uyatchan odamlarni maxsus tadqiq qilgan va bu xususiyatni o'zining "Uyatchanlik" kitobida batafsil bayon qilgan. "Uyatchan bo'lish" - "ehtiyotkorlik, tortinchoqlik va ishonchsizlik tufayli muloqot qilish qiyin" odam bo'lishni anglatadi. Uyatchan odam "ba'zi odamlar va narsalar bilan muloqot qilishdan qochadi". Uyatchanlik insonni tanadagi eng jiddiy kasallikdan kam bo'lmagan holda nogironlikka olib keladigan ruhiy kasallik bo'lishi mumkin. Uning oqibatlarini dahshatli bo'lishi mumkin. Uyatchanlik sizni yangi odamlar bilan tanishish, do'stlar orttirish va potentsial yoqimli tajribalardan zavqlanishingizga xalaqit beradi. Bu odamni o'z fikrini bildirishdan va huquqlarini himoya qilishdan saqlaydi. Sizning uyatchanligingiz boshqalarga sizning shaxsiy qadringizni qadrlashiga to'sqinlik qiladi. Bu o'z-o'ziga va xatti-harakatga ortiqcha e'tiborni kuchaytiradi. Uyatchanlik aniq fikrlashni va samarali muloqot qilishni qiyinlashtiradi. Uyatchanlik odatda salbiy yo'lga o'tirish, tashvish, tushkunlik hissi bilan birga keladi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi hamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T., 2001.
2. "Psixologiya" Uch. T-2. "Prospekt". Moskva – 2004.
3. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: IKS "MarT", 2004. – 512 s.
4. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey: Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd. Sentr VLADOS, 2003. – 320 s.
5. www.psycho.all.ru
6. www.psychology.net.ru

## THE LEXICAL FEATURES OF THE ARTISTIC SPEECH

**ANNOTATION.** The given article reveals the problem of lexical features of artistic speech. The word's meaning is utilized in an artistic manner, opening up extra meanings and semantic nuances. Language-based stylistic agents include rejecting template words and idioms, using words with metaphorical meanings, intentionally mixing up different terminology, using bibliographically colored terminology, and the presence of emotionally charged words.

**Keywords:** creative style, words, author, artistic style, meaning.

The linguistic characteristics of the artistic speech pattern influences the reader's imagination and emotions while also communicating the author's thoughts and sentiments. It also makes use of a wide variety of terminology and writing techniques and is distinguished by its use of metaphor, emotion, and concrete speech. A big difference exists between the emotionality of journalistic and informal style and that of creative style. Speaking with emotion in art serves an aesthetic purpose. A preliminary language budget selection is required for art; all available language resources are needed to produce visuals.

Drama, prose, and poetry, which are broken down into pertinent genres (for instance, tragedy, comedy, drama, and other dramatic genres; Roman, novella, tale, and other prosaic genres; poem, bass, poem, romance, and other poetic genres), are used to express artistic style. Using specific speech figures, also referred to as artistic trails, that provide narration color and a strong sense of reality is one way to identify the artistic style of speaking. Everything in the creative style serves to create an image that readers will see when they read the text. The highest variety index of vocabulary is characterized by the artistic style, which also encourages the widespread use of the language's expressive capabilities (portable meaning of words, updating metaphor, phraseology, comparison, personification, etc.). Additionally, any figurative-significant language elements, such as background and letters, grammatical forms, and syntactic constructs, are specifically chosen. They give readers background impressions and a particular attitude. The ability to emphasize the finer shades of values is made possible by the speech multivalueness of the Word, which learns the meanings and semantic nuances as well as synonymous in all language levels. This is explained by the author's attempt to employ the full breadth of the language in order to create a book that is vibrant, expressive, and well-shaped. The author employs a number of visual devices drawn from informal speech and culture in addition to the vocabulary of the codified literary language.

The emotionality and expressivity of the image are ignored by the first plan and the aesthetic text. Many terms that function as well-defined abstract notions in scientific speech, socially generalized concepts in newspaper and public relations speech, and tangible, sensuous performances in artistic speech are all present. Styles so complement one another. Inversion, or switching up the normal order of words in a sentence to emphasize a word's semantic value or give the entire phrase a unique aesthetic flavor, is typical of artistic speech, especially poetry [3].

Syntactic structure of expressive language. You can meet all the different syntactic structures here since it reflects the flow of shaped-emotional copyright impressions. Each author uses language as a tool to accomplish their respective ideological and aesthetic goals. In artistic discourse, it is feasible for the author to stress characteristics vital to the work's significance while deviating from structural conventions. They may be articulated in ways that go against lexical, morphological, phonological, and other rules.

Art form. It benefits the realm of linguistic and artistic innovation, a specific area of human activity. Like the other styles, art serves all of the most crucial social purposes. Language:

1) educational (through reading art, we learn about the world and human culture);

2) communicative (the writer interacts with the reader by conveying to him his understanding of actual phenomena and hoping for a reaction; in contrast to a publicist who addresses the general public, the writer appeals to the addressee who is able to comprehend it);

3) moving (the author wants the reader to feel something when reading his work)[1].

The author's vision serves as a representation of all surrounding realities. However, when reading a work of art, we are able to observe both the writer's world and the writer in this world, including his preferences, criticisms, and admirations. This connects artistic style's emotionality, expressiveness, metaphoricity, and meaning. Artistic speech has its own language, which is a system of figurative shapes articulated through language and other extra linguistic ways. The national language has two levels: artistic speech and unnoticed speech [4].

The word's meaning is utilized in an artistic manner quite frequently, opening up extra meanings and semantic nuances as well as synonymy at all language levels, which gives the impression that it emphasizes the most subtle nuances of values. This is explained by the author's attempt to employ the full breadth of the language in order to create a book that is vibrant, expressive, and well-shaped. The artistic text's structural structure ignores the image's expressiveness and emotional range.

Many terms that in newspaper and journalistic discourse function as socially generalized conceptions, in scientific speech as well-defined abstract concepts, and in artistic speech as specific sensuous thoughts. As a result, different styles work better together.

As a result, different styles work better together. For instance, the adjective "lead" has a direct value in scientific speech (lead ore, lead bullet), whereas it takes on an expressive metaphor in art (lead clouds, lead night, lead waves). In order to generate a certain figurative performance, words are crucial in creative speaking.

The flow of shaped-emotional copyright impressions is reflected in the syntactic system of creative speech, thus you can encounter a wide range of syntactic patterns here. Each author uses language as a tool to accomplish their respective ideological and aesthetic goals. The author may include some concept, ideas, or aspects crucial to the meaning of the work, which could lead to structural aberrations in creative discourse. They may be articulated in ways that go against lexical, morphological, phonological, and other rules. This method is used frequently to produce comedic effects or vibrant, expressive creative images[2]

The flow of shaped-emotional copyright impressions is reflected in the syntactic system of creative speech, thus you can encounter a wide range of syntactic patterns here. Each author uses language as a tool to accomplish their respective ideological and aesthetic goals. The author may include some concept, ideas, or aspects crucial to the meaning of the work, which could lead to structural aberrations in creative discourse. They may be articulated in ways that go against lexical, morphological, phonological, and other rules. This method is used frequently to produce comedic effects or vibrant, expressive creative images.

1. Language-based stylistic agents:

1) Rejecting template words and idioms; 2) Frequently using words with metaphorical meanings; 3) Intentionally mixing up different terminology; 4) The usage of bibliographically colored terminology; 5) The presence of emotionally charged words.

2. Spoken and fictional character frameological means.

3. Food formation: the application of numerous techniques and word-formation models;

4. Morphological means include the following: 1) use of word forms in which the specificity category is evident; 2) frequency of verbs; 3) passivity of uncertain-personal forms of verbs, forms of the third person; 4) minor consumption of medium-sized noun in comparison to noun male and female; 5) forms of the plural number of distracted and real nouns; and 6) extensive use of inferior adjectives.

5. Syntaxes: 1) the use of all possible syntaxes; 2) extensive use of decorative figures.

### References

1. Bakiev G.Kh. Linguistic foundations of literary text analysis. Thesis. Doctor of Philology T., 1993.

2. Lotman Y.M. The structure of the artistic text. - M.: Enlightenment, 1970. - 96 p.
3. Lukyanova N.N. Linguistic interpretation of the text as a way of modeling a fragment of the language picture of the world (based on the works of D. Kharms "Revenge" "Temptation"). Dissertation of the candidate of philological sciences. - Barnaul, 2000-304 p.
4. Askoldov - Alekseev S.A. Concept and words // Russian literature. From the theory of literature to the structure of the text. - M.: Academia, 1997. - P. 267-279.

*T.Habibullayev, SamDU talabasi*

## TILLAR — DAVR KO‘ZGUSI

**Annotatsiya.** Maqolada til va uning ijtimoiy mohiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuning bilan birga tilning jamiyat hayotida, millat taqdiridagi vazifasi tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, millat ruhi, til va dil, ijtimoiy hayot, ma'naviy hayot, milliy til, xalq tili.

Tilning, aynan ona tilining kishi ichki olamining suyanchi ekanligi haqidagi ta'rif-u tavsiflar kunimizda anchayin yoyg'in. 2003-yilning 21-fevralida Xalqaro ona tili munosabati ila YUNESKOning o'sha ondagi Bosh direktori Koichiro Masuuro shu fikrni so'ylagan edi: "Ona tiliga nega bu qadar e'tibor berilmoqda? Shuning uchunki, tillar insoniyat ijodining butun rangorangliklaridagi benazir ifodasidir. Aloqa, idrok va tafakkur quroli sifatida til, shuningdek, biz dunyoni qay yo'sinda qurishimizni belgilaydi. O'tmishimiz, bugunimiz va kelajagimiz o'rtasidagi aloqani aks ettiradi... Har bir insondagi tug'ilganidanoq tilning muayyan ta'sirlarini yuzaga qalqishiga, ya'ni keyinchalik ham inson ko'plab tillarni o'rganib ham o'z ona tilini unutmaydi va u til mudom o'z tili bo'lib qoladi. Chet tilini bilishlik, bu olamni o'zgacha ko'z ila ko'rish ila boshqacha usullarni ham tanish demakdir".

Til shunchalik kuchli qurolki, u ham bunyodkorlikka, ham vayronkorlikka xizmat eta biladi. Inson tug'ulibdiki tili chiqqan tilni sevishi, u til bilan ko'ngil qulfi-kalitini ochadi, muloqot quradi, so'zlaydi. Ona bizga suti ila hayot baxsh etsa, ona tilimiz bizga yurtimizni, kentimizni sevishlikni o'rgatadi.

Ne afsuski kunimizda tilimizga bo'lgan hurmatsizliklar ortib borayotir, ya'ni o'z tilimiz qolib "chala-chulpa" boshqa tillardan foydalanib kelayotirmiz. Shu uchunki, so'z boshida buyuk jadid bobolarimizdan biri Abdurauf Fitratning "Tilimiz" nomli tom yuz yil oldin tilimiz haqida qayg'urib yozilgan maqolasidan iqtibos ila boshlashni joiz deb bildim. Turk tili ya'ni davr nazarida tom Turon o'lkasi bo'lganligi uchun hamki umumiy o'laroq Turk tili deyilmoqda. Maqolada o'z tilimizdagi chet tildan kirib kelgan so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul etmasdan ularning muqobil qolibini belgilaylik va yoki turkiylashtiraylik deya yozg'iradi. Bugun ham shu jumboqli ish emasmi aziz o'qirman?

Vaholanki, Turkiycha boy til va bu xususida Hazrat Mir Alisher Navoiyning bir qancha asarlarida turkiy tilning so'z turkumlaridagi va morfologik jihatdan boyligini oyna kabi ravshan etib berganligini hamda Turkiy tilning qashshoq emasligini va shunday deb bilganlarga qadim asarlar ila tanishib chiqishini uqtiradi.

O'z tilining ravnaqini o'ylagan Eron shoiri Firdavsiy ham o'zining "Shoxnoma" asarida Fors tiliga anchayin ta'sir bildirgan arab tiliga kelganda quyidagicha,

Zahir shutur xurdan susi mor,

Arabro ba joyi rasidast kor.

Ki taxti Kayonro ko'nad orzu,

Tfu,bar tu, charxi gardun tfu!

qichqiradi. Bu so'zning Turkiychasi bu turur: "Tuya suti bilan ilon eti yeydigan, boshqa qilari bo'lmagan arabning ishi, shu yerga chiqmishkim, Eron imperatorining taxtini dili tusaydir. Ey, shu ishga nedan bo'lgan qadar tfu senga, tfu!"

Til haqida ma'lum va mashhur asarlar va tushuncha, fikrlar ko'plab yozilmishtir albatta. Men bir bo'lajak filolog sifatida shu mavzuga xos bo'lgan tadqiqot va izlanishlarim sirasiga kirguvchi manbadan so'z ochishni lozim topdim. Barcha qo'li bitik olgan va qalb-la o'qigan o'qirmanlarga ayon Qirg'iz va butun Turon o'lkasi yozarmani Chingiz Aymatovning "Fikrlar simfoniyasi" deb nomlaganim Turk tilidan O'zbek tiliga o'girayotgan bitikdan "Til koinoti" nomli til hususidagi qarashlaridan namuna keltirsam:

"Her bir halkin dili, kendi halkinin dehalari tarafidan olusturulan ehsiz bir hazinedir. Ona karshi gosterilen olumsuz muameleler sadece onun kaybina sebep olur."

"Har bir xalqning tili o'z xalqining daholari tomonidan yaratilgan noyob xazinadir. Unga nisbatan salbiy munosabat faqat uning yo'qolishiga olib keladi".

Buyuk adib bu qarashlari ila har bir tilga hurmat va e'tiborda bo'lishlikka chorlaydi va hech bir tilga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmaslikni so'zlaydi. Shu jumladan, o'z ona tilimizning yo'qolib ketmasigiga doir O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ona tilim o'lmaydi" deb atalgan she'rida ham millat va vatan shoni bo'lmish tillarni hurmatlash, bilish, o'rganish va qo'llashda jiddiy bo'lmoqlikka chaqiradi.

Tillarga bo'lgan diqqat e'tiborini va o'z ona tili ila birgalkda boshqa tillarni sevishni, o'z ijod maydonidagi tilni Chingiz Aymatov shunday izoh etadi:

Rus tili men uchun ikkinchi ona tilidir. Men uni sa'nat tili, strategik boylikning eng muhim manbai deb bilaman. Bu til o'zining lingvistik tamoyillari, fikrni har tomonlama ifodalash oson bo'lgan tillar, paydo bo'lgan, rivojlangan va o'tgan bosqichlari jihatidan dunyodagi eng ko'p so'zlashuvchi tillardan biridir. Bugungi kun va uning taqdiri. Bu sizning dunyoqarashingizni kengaytiradi va madaniyatning ta'siriga hissa qo'shadi. Hayot shuni ko'rsatadiki, bugungi dunyoda mavjud va qo'llanadigan tillarning ta'sirchanligini oshirish uchun ularga qarshi turmaslik kerak.

Bilasiz, tilimiz ila bog'liq muammolar qorishiq va og'riqli holatlari ham bor albatta. Chunonchi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarimizdagi xatoliklar, tele-dasturlarimizdagi adabiy tilimizga bo'lgan behurmatliliklar, so'zlashuv nutqimizdagi so'z buzilishlar va "chala tillilik"lar, joy nomlari bilan bog'liq xiyonatlarga qarab tilimizga rahming keladi kishining va shu o'rinda o'zbek xalqining ardoqli adibi Erkin A'zamning "Bayramdan boshqa kunlar" asari huddi shu masalalarni ko'taradi. Yoshlar o'rtasidagi suhbatlashuv jarayonlarini asosiy uch obraz bo'lgan Bakir, Bargida va Sapura orqali gavdalantiradi. Tilning og'zaki qo'llanilishi jarayonidagi bepisandliklarni zaharxandalik bilan "til buzar"larning yuziga tarsaki tortadi. Bu singari yozarlarimizning asarlari va fikrlari ko'p va jumladan yana bir zamondosh O'zbek yigit otaxon shoiri Usmon Azim o'zining "So'ng so'zlar" deya nomlanmish xotirotida so'zga shunday ta'rif beradi:

"So'z — dunyoning beshinchi unsuri".

Shoir demoqchiki, dunyo to'rt unsurdan ya'ni, "olov", "suv", "havo" va "tuproq"dan tashqari "so'z" ham olam yaralishida o'rni borligini tarixan va aqlan izoh etmoqqa tirishadi va haqlidir ham. Chunonchi, so'z uni jamlovchi til bo'lmasa bu ongli "mavjudot" ne ham qilardi deysiz?

Aziz kishim so'z ya'ni til badiiyligi qudrati shu qadar kuchliligi sir emas sizga ham. Deymanki, bir narsa va hodisani ifodalamoq uchun oddiy emas, she'riy va nasriy usuldan foydalansak, suhbatdoshimizga ta'sir kuchi ortadi.

Misol o'laroq, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ijodidan kichik tarjima keltirsam va ardoqli adib Chingiz Aytmatovning til haqidagi fikrini yana ham ochiqglasam:

Nemis shoiri Henrich Heynedan

Hamma esnab turdi, quloq solmadi,

Qayg'umni gapirib bergan vaqtimda.

Meni alqamagan kishi qolmadi,

Qayg'umni nazmga tergan vaqtimda.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondan Rus tilidan O'zbek tiliga o'girim.

1927-yil, Mart.

\*\*\*

Herkes esneyip durdu, dinlemedi  
Kederimi paylaştığım anımda.  
Beni alkışlamayan kişi kalmadı  
Kederimi şiir'e dizen anımda.  
Şubat 2023 (Fevral)

Kishi tilni sevib muomila qilar ekan, uning uchun ochilmagan qopqa yo'qdir. Ijod sohasida ayniqsa maqbuldir. Tilda shirin va aniq so'zlamoch xususida, Yusuf Xos Hojib "Odobning boshi tildir" deya bekorga tanbehlamagan. Qolaversa, nutqning go'zalligi, tilning burroliqi, lisoniy ifodaning aniqliqi inson uchun o'ziga xos husndir, bu husn oxir-oqibatda jamiyatning, millatning ham husni jamolini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fitrat. "Tilimiz" maqolasi, "Ishtirokiyun" gazetasi, 1919. 12-iyul (132-son)
2. Mahmudov N. Toshkent "Mumtoz so'z" 2007 "Til tilsimi tadqiqi", Til nufuzi. "Til siyosati va siyosat tili" 5-bet.
3. Ch. Aytmatov. "Fikrlar simfoniyasi" 2020 Rus tilidan Turk tiliga tarjimon Ibrohim Turkxon, 2020-y.
4. A. Cho'lpon. "Jadidlar adabiyoti namoyandalari". Tarshima she'rlaridan, 189-bet. "Zabarjad media", 2022-y.
5. Mahmudov N. "Tilimizning tilla sandig'I", "Ajoddu avlodni allalagan til" maqolasi, 3-bet.
6. Maqoladagi Turk tilidagi matnlarni Turk tilidan O'zbek tiliga, O'zbek tilidan Turk tiliga Temur Habibullayev o'girdi.

*M.Z.Saydullayeva Manzura Zoxidjon qizi  
SamDChTI 2-bosqich talabasi*

### **INGLIZ YOZUVCHISI UILYAM SHEKSPIRNING "HAMLET" FOJEASIDAGI BOSH QAHRAMON XARAKTERISTIKASI**

**Annotasiya** Ushbu maqolada ingliz adabiyotining buyuk namoyandasi Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasidagi bosh qahramon xarakteristikasi xususida mulohazalar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar.** Shekspir, tragediya, ruhiy kechinma, qabohat, tubanlik, adolatsizlik, or-nomus

Ma'lumki, dunyoda har bir xalqning o'z madaniyati va an'analari bor. Ular turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi, ammo ularning substanti, tub negizi bitta. Shu sababli har bir elatning madaniyati har xil bo'lishi mumkin, lekin ma'rifati bir biriga uyg'undir. Misol uchun or-nomus, g'urur, iymon har bir xalqning eng katta boyligidir, desak adashmagan bo'lamiz. Buni nafaqat o'zbek adabiyoti xususan, jahon adabiyoti yozuvchilarining ijod namunalarida ham ko'rish mumkin. Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri aktyor, dramaturg Uilyam Shekspirning ijod namunalari inson tuyg'ularining murakkab va qarama-qarshi qirralarini aks ettirgani bilan xarakterlidir. Xususan, "Hamlet" tragediyasida ham inson aqli va tuyg'ularining chigal va tushunib bo'lmas jihatlarini o'zida aks ettirgan personajlar mavjud. Ushbu asarda har bir personaj xoh u bosh qahramon bo'lsin, xoh epizod o'zining ta'sir doirasiga ega. Tragediyadagi voqealar rivoji davomida har bir personaj o'z tabiatini namoyon etadi. Syujetlar ketma-ketligida halollik va qabohat, tubanlik va to'g'ri so'zlik o'rtasida o'zaro kurash natijasida ezgulikning g'olib kelishi mohirona tasvirlangani bilan ham e'tiborga molik.

Asarning bosh qahramoni Hamlet - gumonlar, o'ylar girdobiga tushib qolgan, iztirob chekayotgan o'ychan yigit. Shuningdek, unga va oilasiga nisbatan qilingan adolatsizlikdan alamzada, shu bilan birga xato qilmaslik uchun har bir qadamini o'lchab, o'ylab bosadigan, nohaq qon to'kilishiga qarshi shahzoda hamdir. U kishilar ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun harakat

qilmaydigan, "almashinib turish" fasllarga xos naqliga amal qiluvchi obraz bo'lishi bilan bir qatorda, oriyatli yigit hamdir. Hamlet - o'tkir aql va fikr kishisi. Shu sababli ham begunoh insonlarning o'limiga sababchi bo'lishdan qo'rqadi va ayni damda, otasining arvohi so'zlariga qaramay, bir qarorga kelishga juda qiynaladi. Tragediyada adolatsizlik qilishdan cho'chiydigan o'y kishisi sifatida ikkilanish va iztirob og'ushidagi Hamlet kechinmalari o'ta hayotiy va ta'sirchan aks ettirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Fojeada Hamlet nafaqat o'z otasi o'limi uchun xun olish uchun, balki adolatparvar inson singari o'z yurtini jaholat botqog'iga botgan qirol va uning hokimiyatidan qutqarish uchun ham kurashishga va oqilona yo'l tutishga harakat qiladi. Uning "Daniya - men uchun zindon" [1.82] jumlasidan ham shuni bilish mumkinki, u mamlakatda adolatsizlik, xiyonat, qabohat va tubanlik avj olganidan norozi ekanligini anglash mumkin.

Yuqorida biz qahramonni oriyatli yigit deya ta'kidlagan edik, buni biz uning ushbu onasiga qarata aytilgan so'zlarida ko'rishimiz mumkin:

"Qilmishlaringiz  
Axloq, uyat, diyonatni yerga uradi,  
Haqiqatni sharmanda-yu sharmisor aylab,  
Ma'sum muhabbatning oppoq peshonasiga  
Toshma bo'lib toshadi-yu, shundoq turadi.  
Va muqaddas nikoh ahdi paymonlarini  
Qimorbozning savdosiga aylantiradi.  
Siz shundoq bir kirdikorlar etdingizki, to  
Bekor bo'lib qoldi butkul va'da-yu vafo." [1.150]

Bu jumladan shuni tushunish mumkinki, Hamlet onasining qilgan ishi, ya'ni o'z turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng uning ukasiga yor bo'lganligidan oriyati kelgandi. Negaki, bu qancha o'lchab ko'rilmasin axloqiy normalarga to'g'ri kelmaydigan holat edi. Fikr kishisi sifatida u to'g'ri mulohaza yuritgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Uning insoniy hislatlar egasi ekanligining yana bir asosi sifatida uning Ofeliyaga aytgan so'zlaridan ham tushunish mumkin:

"Tarki dunyo qil. Kechikma...!" [1.112]

Ushbu jumla qisqa bo'lishi mumkin, lekin uning botiniy ma'nosi juda keng. Qahramon unga "yor" bo'lgan mahbubini xatolari uchun tavba qilishiga, vijdonini poklashga undaydi, to'g'ri va pok yo'ldan borishini istaydi. Bu ham uning o'z xatolari ustida ishlaydigan, o'zini taftish qiladigan, boshqa insonlar uchun ham yaxshilikni sog'inadigan insonligining yana bir isbotidir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, fojeada adib sadoqat, vafo va adolatning eng muhim ustivor hayot qonuni ekanligini, insonlar faqatgina shu hislatlari bilan tirikligini ochib bermoqchi bo'lgan. Asar bosh qahramoni Hamlet aql kishisi, insonparvar g'oyalar egasi hamda or-nomusli inson sifati bu hayotdagi razilliklardan bezigan o'ychil yigit kabi ifodalanadi. Shu sababdan, onasining qilgan qabohatini ham yengil hazm qilolmaydi. Shuningdek, Hamlet o'z tashvishlariga o'ralashib qolgan kishi sifatida emas, fikr kishisi sifatida doimo inson hayoti davomida qanchalik qiyinchilik va adolatsizlikka qaramasdan yashash uchun ilinj izlashi sabablarini aniqlashga harakat qiladigan kishi sifatida gavdalantirilgan. Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ijodkor Hamlet obrazi orqali har doim ham o'lim masalaning yechimi bo'lolasligini, buni aksi o'laroq, uni yanada qiyinlashtirishini, har qanday vaziyatda ham g'urur va or-nomusni gard tekkizmasdan pok saqlash kerakligini ochib bermoqchi bo'lgan va buni undasidan chiqqan desak adashmagan bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tanlangan asarlar, T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Hafiza Aslanova, Saydullayeva Manzura. Yozuvchi Toxir Malikning "Nafs kishanlari" asari badiiy va falsafiy tahlili. The Journal of Social Science and Researches Volume 1 Issue 5, 2023.
3. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshibekov. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 9-sinfi uchun darslik. 4-nashr, T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GENDER BELGILI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'RGANISH MEZONLARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda namoyon bo'ladi gender xususiyatlarni bir qator mezonlar orqali tahlil qilinadi. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslik sohasida gender til madaniyati tushunchasi sifatida ko'rsatilmoqda va uni ingliz hamda o'zbek tillari frazeologik birliklari materiallarida gender stereotiplarini shakllantiruvchi asos sifatida tavsiflanmoqda

**Kalit so'zlar:** gender belgili frazeologik birlik, grammatik mezon, morfologik mezon, leksik mezon, semantik mezon, gender stereotip, erkak stereotiplar, ayol stereotiplar.

Gender tushunchasining mazmunini til tuzilmalarini tahlil qilish orqali ochish mumkin, bu jinsning madaniy ifodasini lingvistik o'rganish zarurligini tushuntiradi, shu sababdan u shunchaki lingvistik kategoriya emas. L.Gordonning qarashlariga ko'ra, gender jamiyat ijtimoiy tuzilishining asosiy o'lchovidir. Tilshunoslarning turli nuqtai nazarlarini taqqoslab, biz jinsni ma'lum bir jinsga mansublik bilan bog'liq holda til vositalarida va odamlarning nutq faoliyati xususiyatlarida namoyon bo'ladigan kognitiv xarakterdagi tushuncha yoki hodisa sifatida aniqlash mumkin.<sup>1</sup>

O'rganilayotgan tillarning umumiy frazeologik fondidan faqat gender belgisi bo'lgan frazeologik birliklarni tanlash maqsadida biz ingliz va o'zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni tanlashda quyidagi mezonlarni taklif qilamiz:

**1. Grammatik mezon.** Ingliz tilida *he* (u), *she* (u), *his/her* (uning) *him* (unga), *her* (unga) shaxs olmoshli frazeologik birliklarni gender xususiyatli qiladi. Misol uchun: *His Majesty's servants* - aktyorlar; *he is so dumb you can sell him the Brooklyn Bridge* – u mutlaqo ahmoqdir. Biroq, ingliz tilidagi *he* shaxs olmoshili ko'pgina maqollarda genderni neytrallash hodisasi mavjud bo'lib, bunday maqollarni ayollarga nisbatan qo'llash mumkin: *he laughs best who laughs last* – oxirgi kulgani odam yaxshi kuladi. Bu ingliz tili grammatikasida androsentrizmda namoyon bo'ladigan narsa, ya'ni hodisadir. O'zbek tilida frazeologik iboralarning gender bo'yog'ini grammatik mezon yordamida aniqlash qiyin, chunki unda muayyan jinsni ko'rsatuvchi olmoshlar mavjud emas.

**2. Morfologik mezon,** birinchi navbatda, ingliz frazeologik birliklari tarkibida erkak jinsni bildiruvchi *-er* va – (qo'shimchasiz) yoki qo'shimchalarining mazmuniga, ayol jinsini ko'rsatuvchi *-ess* qo'shimchasiga tayanadi: *stock actor* - aktyor, -ma'lum bir teatning doimiy truppassi tarkibiga kiruvchi aktyor; *meddling duchess* - buyruk berishni yaxshi ko'radigan, lekin o'zi hech narsa qilmaydigan gavjum xonim.. Ammo *-er* va - qo'shimchali komponentni o'z ichiga olgan inglizcha frazeologik iboralarning hammasi ham male (erkak jinsi)ni bildirmaydi. Bu qo'shimchalar ba'zan ayolni ham anglatishi mumkin: *high kicker* - o'yin-kulgini yaxshi ko'radigan beparvo qiz; *cradle robber* – o'zidan ancha yoshroq odamga turmushga chiqqan ayol.

3. Ingliz va o'zbek tillarida gender xususiyatli frazeologik iboralarni ajratib olishning **leksik mezonini** quyidagi gender indekslangan komponentlar tarkibiga qarab aniqlash mumkin:

a) Atoqli otlar, ya'ni erkak va ayol ismlari: Xo'ja Ahrorning moli – bu narsalar Xoja Ahrorga tegishli (ya'ni, boshqa bировga tegishli bo'lmagan narsalar); kichik Stepanik - xodim.

b) Muayyan jinsni bildiruvchi ot, gender belgili leksemalar: payg'ambar yoshi – Muhammad payg'ambarning yoshi (ya'ni, 63 yosh); oppoq qiz -shirin qiz (qizga odobli murojaat); kampir - ona, yoshi kata ayol.

v) jinsi ko'rsatilgan qarindoshlik atamaları: oppoq dada - bobo; katta onam – buvi

4. Gender belgili frazeologik birliklarni tanlashning **semantik mezonini** eng qiyindir, chunki ingliz va o'zbek frazeologiyasida komponent tarkibiga ko'ra jinsi belgilanmagan birliklar juda

---

<sup>1</sup> Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. P.258.

ko'p, ammo bu komponentlarning umumiy ma'nosiga murojaat qilsak, shuni bilishimiz mumkinki, ular erkak jinsini ham, ayol jinsini ham bildiradi. O'zbek frazeologiyasini ko'rib chiqamiz: **boshi qorong'i** -homilador (homiladorlikning birinchi davrida). Bu frazeologik birlikni alohida komponentlarga ajratadigan bo'lsak, bosh va qorong'i leksemalarini olishimiz mumkin. Bu leksemalar alohida tarzda hech qanday jinsni belgilamaydi, lekin ular birgalikda homiladorlikning dastlabki davridagi ayol jinsiga xos frazeologik birlikni hosil qiladi. Ingliz frazeologiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, **lounge lizard** - ishyoqmas odam, shuningdek, jins komponentini o'z ichiga oladi: **lounge** - dam olish va o'yin-kulgi uchun joy, **lizard** - hayvon (kaltakesak). Ular birgalikda ma'lum bir mashg'ulot bilan shug'ullanmaydigan va ko'ngilochar klublar va barlarda vaqt o'tkazishni yaxshi ko'radigan odamni anglatadi. Shunday qilib, gender belgili frazeologik birliklarni tanlash uchun sanab o'tilgan mezonlarning har biri muayyan o'zgarishlar yoki istisnolarga imkon beradi. Shuning uchun ma'lum bir frazeologik birlikning semantikasida ko'rsatilgan gender xususiyatni aniq belgilash uchun barcha mezonlar birgalikda qo'llanilishi kerak. Ingliz va o'zbek frazeologiyasi materiallarida uchraydigan gender stereotiplari quyidagilarga bo'linadi: 1) erkak stereotiplar; 2) ayol stereotiplar.<sup>1</sup>

Gender stereotipi til tizimi darajasida ishlaydi, gender tushunchasiga kelsak, u gender stereotipiga qaraganda ancha kengroq ifodalanadi. Gender tushunchasi leksik-frazeologik darajada va butun matnlar darajasida aktualashtirilishi mumkin. Gender tushunchasi har doim ham gender stereotipiga to'g'ri kelavermaydi, aksincha, zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida gender stereotiplari va gender tushunchalari o'rtasida ma'lum bir tafovut ham mavjuddir. Jamiyat rivojlanib borar ekan, odamlarning erkak va ayolning mavjud yoki ilgari mavjud bo'lgan modellari haqidagi stereotipik qarashlari o'zgaradi va bu o'zgarishlar har doim ham o'z vaqtida qayd etilib, tilda, xususan, leksikografik manbalarda aks ettirilmaydi.<sup>2</sup>

Gender xususiyatlar o'zining namoyon qilayotgan belgilariga monand bir qancha guruh va turlarga bo'linadi. Ingliz tilidagi gender xususiyatli iboralarni tahlil qilish bizga quyidagi semantik tasnifni yaratishga imkon beradi:

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. -278 p.
2. Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 – 187 p.
3. Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. –352 p.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.
5. Искандарова, Ш. М. Узбек тили лексикаси мазмуни майдон сифатида (шахс микромайдони): Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Тошкент, 1999; Расулова М. И.. Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент, 1999;

<sup>1</sup> Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 - P.137.

<sup>2</sup> Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. – P. 307.

## **O‘TKIR QALAM SOHIBI CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” QISSASIDAGI BOTINIY VA ZOHIRIY MA’NO XUSUSIDA TAHLILIIY QARASHLAR**

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada fransuz olimi Lui Aragonning “Muhabbat haqida yozilgan eng yaxshi asar” deya ta’kidlangan, Chingiz Aytmatov ijodiga mansub “Jamila” qissasi xususida mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zlar.** Hayot, inson taqdiri, jo‘shqinlik, yurt madhi, personaj, chin muhabbat.

Qirg‘iz adabiyotining yetuk ziyoli namoyondalaridan biri Chingiz Aytmatov asarlari dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lishidan qat’iy nazar barcha kitobxonlar uchun manzur va maqbuldir. Uning ijod namunalari faqatgina maroq bag‘ishlaydigan asar bo‘libgina qolmay, insonlar qalbining tub-tubigacha yetib boradi. Xususan, adib har bir asarda insonni ulug‘lashi, uning zahmatkashligi, yaratuvchanligini sharaflashi bilan e’tiborni tortadi.

Badiiy so‘z qudratini chuqur anglagan ijodkor so‘zlardan ustalik bilan foydalana olishi bilan ham e’tiborga molik. Shundayin mahorat bilan yaratilgan asarlardan biri "Jamila" qissasidir. Bu qissa o‘tgan asrning ellik-oltmishinchi yillarida adib Moskvadagi Oliy adabiyot kursida talaba bo‘lib yurgan kezlarida yozilgan. Institut proza bo‘limi rahbari Izbax Gonshteyn buyuk fransuz yozuvchisi Lui Aragonga “Jamila” qissasini yuboradi. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tgach, Lui Aragon javob xati yo‘llagan va ushbu maktubda aytilishicha, qissa unga juda yoqqan va uni fransuz tiliga tarjima qilib 100 ming nusxada chop ettirgan, yana 100 ming nusxada chop ettirmoqchiligini ham takidlab o‘tgan. Shunisi xarakterliki, xat “Men bunday go‘zal sevgi qissasini o‘qimaganman” degan jumlar bilan yakunlanadi. Aynan mana shu xat va buyuk yozuvchining iqtibosi Chingiz Aytmatovga ilhom bag‘ishlagan va ulkan ijodiy yutuqlarga erishishga turtki bo‘lgandir, ehtimol. Jahon adabiyoti namunalaridan, “Jamila” qissasi singari nasriy asarlardan bir necha o‘ntasini o‘qigan, nafis did sohibi va oddiy so‘zdan mukammal so‘zlar zanjirini hosil qila oladigan ijodkor deya ta’riflanadigan adib, hayotda ham o‘z o‘zligini anglab yetgan inson sifatida ta’kidlanadi. “Jamila” qissasi badiiyati mukammal asar, ya’ni badiiy so‘z, uslub va vositalardan ustalik bilan foydalanilgan. Xususan, tabiat tasviri aniq va sodda, bir o‘qish orqali tasavvur eta oladigan qilib ifoda etilgan, shuningdek, sho‘ro tuzimi va urush davrida insonlar hayotining barcha qiyinchiliklari va ularning sinovlarga bardosh bera olishi - matonati mohirona aks ettirilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Qissaning asosiy qahramonlari – oddiy odamlar – Jamila, Doniyor, Seit. Voqealar bir qishloq aholisi doirasida aks ettirilgan bo‘lib, dastavval, har bir qahramon, xoh u yirik qahramon bo‘lsin, xoh epizod har biriga xarakteristika beriladi.

Jamila - sarvqomat, shaddod, shuning barobarida, jo‘shqin, gapga chechan va o‘jar ayol obrazi. Adib uning tabiatini shunday ta’riflaydi:

“Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlarday boshim, belim og‘riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o‘zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so‘kishgan bilan so‘kishadigan o‘jar ayollardan edi”. [1.9]

Yana bir o‘rinda shunday ta’rif beradi: “Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi”. [1.11]

Bu ta’rif va tavsiflardan uning yaxshi, ishchan, xusni malohatli olov kelin ekanini anglash mumkin.

Doniyor obrazi haqida so‘z yuritar ekanmiz, uning odamovi, lekin ichki dunyosi go‘zal, yurtiga mehri beqiyos ishchan yigit obrazi ekaniga amin bo‘lamiz. Asarda unga berilgan tariflar quyidagicha;

“Birovga yondashmas janjallashish, tortishish nimaligini bilmas, birovga yaxshi ham gapirmas, yomon ham gapirmas edi”. [1.23]

“U – qalbida yuksak insoniy muhabbat tug‘yon urgan bir inson edi”. [1.41]

Jamila va Doniyor. Ular ikkisi bir biriga mos, ya’nikim bir birini to‘ldiradigan, go‘yo kun va tunde tasvir etilgan: biri sho‘x shodon, biri bosiq va mulohazali.

Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, adib dastlab asarni chop ettirgan paytda ko'plab tanqid va e'tirozlar qurshovida qolgan.

Aytish zarurki, bunday e'tiroz va tanbehlarining o'ziga yarasha "asoslari" bor. Asar syujetida Jamila urushda qon kechib, vatani uchun jon kuydirayotgan erini tashlab, boshqa bir kimsa bilan, qochib ketadi, bu ham yetmagandek, qaynukasi Seit ham ularni yoqlaydi. Bu esa bir millatning qadimdan to shu kungacha yetib kelgan urf-odatlarini, ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarini, ayni shu xalqqa, shu millatga mansub turmush tarzi, e'tiqodi, ya'nikim milliy o'zligiga xoslikdan chetga chiqqan degan fikrga ega insonlar ko'pgina topilishiga katta bir asos bo'ladi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor, asar faqatgina bir millat e'tiqodi, qarashlari va hayotiy mezonlariga muvofiq ravishda yozilish bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarga va keng qamrovli hayotiy voqealarga, inson hayoti davomida uchrashi mumkin bo'lgan vaziyatlarga, ruhiy kechinma va ziddiyatli jarayonlarga asoslangan holda yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov har bir personaj taqdirini ustalik bilan haqqoniy va asliyatini saqlagan holda yaratadi. Xususan, adabiyotshunos K.Asanaliyev Ch.Aytmatov ijodidagi bu xususiyatni bunday izohlaydi: "Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashtirmagan, haqiqat qanchalik achchiq bo'lmasin, uni butunicha, tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz chinch (haqiqatchi), rostgo'y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos oq niyatdan, turmushda uchrab turadigan ziddiyatlarni suvab-siypalamay, tarab-butamay asl holicha aytish maqsadidan kelib chiqadi."

Xulosa o'rnida aytish zarurki, qissada faqatgina bir ayolning oilasini tashlab boshqa kishi bilan qochib ketishi emas balki, ikki sof qalbning birlashuvi aks etgan deyish ham qaysidir ma'noda to'g'ri. Qalbida yurt madhi jo'sh urgan, pok niyatli inson- Doneyorning sof sevgisini yozuvchi quyidagicha ta'riflaydi: "Uning sevgisi biror kishiga ishq tushib, o'sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki insonni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug' dunyoga bo'lgan cheksiz, jo'shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o'z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi". [1.41] Bu ta'rifdan ko'rinadiki, yigit yuksak qalb egasi va paridek Jamila unga munosib. Ularning pok tuyg'usi insoniylik hissi bilan yo'g'rilgan, bir biriga oshufta sof ko'ngil esa bir-birini topgandi va ularning munosabati garchi bemavrid kelgan bo'lsa-da, chin muhabbat edi.

"Ular chin muhabbatini topdi va birga qochib ketishga haqli" deb ularni **to'laqonli ravishda** oqlash niyatimiz yo'q. Balki ular to'g'ri yo'lni tanladi. Balki... Asarni to'liq va mazmun-mohiyatini tushungan holda mutolaa qiling va o'z xulosangizni chiqaring.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jamila. Chingiz Aytmatov - T.: "Yangi nashr", 2019. - 112b
2. Ahmadjon Meliboyev. Chingiz-dengiz demak. "Tafakkur" jurnali, 3-son, 2018.
3. Hafiza Aslanova, Saydullayeva Manzura. Yozuvchi Toxir Malikning "Nafs kishanlari" asari badiiy va falsafiy tahlili. The Journal of Social Science and Researches Volume 1 Issue 5, 2023.
4. fayllar.org//Chingiz Aytmatov "Jamila" asari tahlili.

*R.Raxmatova, SamDU magistranti*

### **ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA RASHK TAVSIFI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy asarlarda ko'p uchraydigan "rashk" tushunchasi haqida bahs yuritiladi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol ruhiyatida "rashk" sabab bo'ladigan o'zgarishlarning ruhiy talqini tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, ruhiyat, badiiy asar qahramonlari, rashk, ayol, his-tuyg'u, kelin, oila tashvishlari, atir-upa va h.k.

Badiiy asar mutolasida biz qahramonlarning ichki va tashqi dunyosini o'rgana boshlaymiz. Asar mazmuni oxiriga yetgach esa, voqealar rivojini tahlil qilamiz, undagi obrazlarni o'zimizcha baholaymiz, ijobiy va salbiy obrazlarga ajratib chiqamiz. Va ularning taqdirini ham o'z qarashimiz bilan o'zgartirishga harakat qilamiz. "Agar qahramonlar boshqacha yo'lni tutganda voqealar yaxshilik bilan tugardi, yoki aksincha, balki boshqa yo'ldan borganda asar boshqacharoq tugardi", - kabi fikrlar bilan o'z mushohadamizni bildiramiz. Ikkinchi bir asarni o'qir ekanmiz, endi ana shu ikkinchi o'qiyotgan asarimizni birinchisi bilan solishtira boshlaymiz va natijada, ikki romanni bir-biriga qiyoslab o'zimiz uchun yangi-yangi ma'nolarni, tushunchalarni angalaymiz va yangidan-yangi qahramonlarni o'zimiz uchun kashf etamiz. Ma'lum bir davrga yoki muallifga tegishli bo'lgan badiiy asarlarni o'qiganimizda, ular o'rtasida qandaydir qahramonlar, voqealar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashliklarni taqqoslay boshlaymiz. Jumladan, O'.Hoshimovning qator asarlaridagi ("Urushning so'nggi qurboni", "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari" va h.k.) Komil tabib obrazi, yozuvchi asarlaridagi ko'chib yuruvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Yana shunday yozuvchilar borki, ularning har bir asaridagi qahramon yangi bir obrazni, o'zgacha bir qarashni, o'zgacha bir qiyofani gavdalandiradi. Ayniqsa, qahramon ayol kishi bo'lsa biz uning ichki olamini taftish eta boshlaymiz. Chunki ayol kishini tushunish uchun kamida ayoldek fikrlash va u his qilgan narsani hech bo'lmasa tushuna olishimiz kerak. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, H.Xudoyberdiyeva singari ayol ijodkorlarimiz bugungi kunda ayollar ruhiyatini ochib berishda peshqadam ijodkorlar sanaladi. Shu ijodkorlarning asarlari orqali boshqa yozuvchilarning asarlarida ayollar psixologiyasi o'rganish imkoniga ega bo'lamiz.

Zulfiya Qurolboy qizining 2019-yilda nashrdan chiqqan "Besh tashabbus-besh kitob" loyihasiga munosib deb topilgan "Ayol" nomli hikoyalar to'plamida ayollar tasviri, ularning ruhiyati, qismati badiiy tasvirlar orqali yorqin ifodalangan. Yozuvchi har bir hikoyasiga obrazni badiiy mahorat bilan tanlagani ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ularning biri ikkinchisini takrorlamaydi, har birining taqdiri o'zgacha uslubda bayon etiladi. Ayollarda Odam Ato va Momo Havo zamonidan meros bo'lib kelgan, "rashk" tuyg'usi tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Qadimgi mifologik qarashlarga ko'ra: "Yer yuzi yaralganda, dastavval Momo Havo Odam Atoni Lilitdan rashk qilgan ekan". Aslini olganda rashk mavzusi hech qaysi asarda uchramaydigan tuyg'u yoki yangilik emas, chunki boshqa asarlarda ham biz bu tuyg'u orqali bo'ladigan hodisalar, oqibatlar haqida yetarlicha mulohazaga egamiz. Rashk tuyg'usi shunchalik nozik tuyg'uki, u ko'pgina hollarda yaxshilikdan ko'ra yomonlikka xizmat qilishi muqarrar. Buning yorqin dalili sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi qahramonlar Kumush va Zaynabni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Asarning voqealar rivoji barchaga tanish: Otabek va Kumushning sevgisi bilan boshlangan asar Kumushning fojiali o'limi bilan yakun topadi. Voqealar rivojiga Zaynab kirib kelishi bilan (undan oldinroq ham) muammoli vaziyatlar boshlanadi. Kumush va Zaynabning kelishmovchiligi, Otabekning murosasizligi sababli ham Kumush halok bo'ladi. Bunga sabab esa, Zaynab va Kumush o'rtasidagi Otabekka nisbatan bo'lgan rashk... Ularning o'zaro kelishmovchilik va juda katta ziddiyatni yuzaga keltiradi. Yozuvchi Zaynab ruhiyatida sodir bo'layotgan evrilishni tasvirlash uchun asarga uning opasi Xushro'ybibi obrazini shakllantiradi, Shuningdek, oiladagi o'zaro ziddiyat, ya'ni Otabek va Kumushning muhabbati Zaynab ruhiyatida g'alayonning sodir bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu holat jahon va o'zbek adabiyotshunosligida asosiy mavzu sifatida yetakchi o'rinni egallaydi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Besh tashabbus-besh kitob" loyihasiga munosib deb topilgan "Ayol" nomli hikoyalar to'plamidan o'rin olgan "Rashk" nomli hikoyasida "Ovulning eng suluv qizi Xosiyat qo'shni qishloqlik Donaboy cholning o'g'li Sheraliga turmushga chiqqanida o'n yeti yashar navnihol qizcha edi". Adabiyot o'qituvchisi bo'lgan kuyovto'ra ota-onasining rayiga qaramay shu qizga uylanadi va xotining atrofida girdikapalak bo'lib yurardi. Lekin ketma-ket tug'ilgan uch bola va mol-hol, supur-sidir, non yopish, uy tozalash, xullas, butun ro'zg'or tashvishi katta kelin bo'lgan Xosiyatni butunlay o'zgartirib yubordi. Oradan vaqtlar o'tishi bilan Sherali oddiy ayolga aylanib qolgan xotinni xushlamay qo'yadi, unga nisbatan (beparvolik bilan) muomala qila boshlaydi. Bundan xafa bo'lgan xotin dardini hech kimga ayolmaydi. Atigi bir marta o'ziga qarab hovliga chiqqan kuni ham hammadan gap eshitadi, hamma ishi teskarisiga

ketgandek bo'ladi. Kelinning dardi ichida edi, uni hech kim eshitmay yoki tushunay demasdi, hech kimga aytolmagan birdan-bir orzusi "upa-elikni, atirlar-u taqinchoqlarni eri sovg'a qilishini juda xohlar edi". Xosiyat ham eriga e'tiborsiz yoki beparvo, befarosat ayol emas edi. U ham boshqa ayollarga o'xshab, masalan, Sheralining oxirgi vaqtlarda og'zidan tushmay qolgan "muzqaymoqchi xotin"ga o'xshab o'ziga qarab yurishni, "o'zidan tappi hidi emas, atirgul hidi anqib tursa...", yonidan o'tgan kishining mastliqdan boshlari aylanib ketishini" xohlardi. Lekin ro'zg'orning ikir-chikirlari bunga yo'l qo'ymas edi. Shu tufayli ham er-xotin bir-biridan tamoman uzoqlasha boshlaydi. Xosiyat kelin o'zini tortgani sari Sherali ham undan uzoqlasha boradi. Shunday kunlarning birida to'satdan Sherali o'qituvchilik kasbini tashlab savdogarlik qilishni xohlab qoladi va kechga olmalarga xaridor er-xotin kelishini xotiniga tayinlaydi. Kechki vaqt uyga ikki emas uch kishi kelganini ko'rgan Xosiyat kelin uchinchi kishining "muzqaymoqchi xotin" ekanligini darrov payqaydi. Guvohi bo'layotgan voqealariga ishonmay o'zini-o'zi aldashga harakat qiladi. Lekin shom mahali og'ilxonadan eshitgan gaplaridan keyin qalbida hali o'zi ham tushunib yetmagan qandaydir tuyg'ular paydo bo'lgandi. Begona kishilarni ko'rishi bilan quloqni qomatga keltirib huradigan it esa, hech tinchiy demasdi. Nimanidir ko'ngli sezgan qaynona ularning gaplarini eshitishi uchun unga qopag'on itning hurishi xalaqit berayotgandi. Qaynonasining buyrug'i bilan qopag'on itni boshqa joyga bog'lashga ketayotgan Xosiyat kelin erini olmazorda yana o'sha "muzqaymoqchi xotin"ning yonida ko'radi. Xotinning unga masxaromuz tikilib turishini ko'rgan Xosiyat kelin itni bog'lash uchun chorbog'ga o'tib itni bog'lamoqchi bo'lgan vaqtda "bexosdan" qo'lidagi zanjir tushib ketadi. Hamon jazavaga tushib hurayotgan it "oshiqma'shuqlar" tomon yugurib ketdi, hech qancha vaqt o'tmay esa ayolning jon holatda qichqirgani eshitiladi. Hikoyada rashk sabab, o'zini batamom unutgan Xosiyat ruhiyati va sodir bo'lgan fojeada it orqali ayanchli o'ch olinishi yozuvchining mahorati. O'zbek ayollariga xos bolajonlik, oila, ro'zg'or tashvishi orqali boy berilayotgan muhabbatning achchiq qismati Xosiyat obrazi orqali tasvirlanadi. Asar voqealari va oqibatlarini yozuvchi tomonida juda sodda til bilan tushuntiriladi. Rashkni yuzaga keltirgan narsa, Xosiyat kelinning uyidagi vaziyati, Sheralining unga nisbatan o'zgarib qolgani va to'satdan, "muzqaymoqchi xotin"ning paydo bo'lib qolganidir. Hikoyaning bunday yakun topishiga, kelin rashkining alangalanib ketishiga faqat Sherali yoki bo'layotgan hodisalar emas, ana shu hodisalar ichidagi ko'zga ko'rinmas jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Masalan, Xosiyat kelin ko'rganda ham e'tibor bermaslikka harakat qilayotgan bir paytda, "muzqaymoqchi xotin" xuddi atayin qilgandek Xosiyatning jig'iga tegishga, uning nafsoniyatini oyoq osti qilishga harakat qilayotgandek tuyuladi. "Muzqaymoqchi xotin"ning oxirgi masxaromuz qarashi Xosiyatning ko'nglidagi alam, rashk va nafrat tuyg'usini qalastirib "qasos" tuyg'usini alangalatib yubordi va "bexosdan" qo'lidagi qopag'on itning zanjirini tushirib yubordi. Aynan ana shu rashk Xosiyatni qasos olishga undagan turtki edi.

Manbalarda "Rashk" aslida forscha so'z bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan, o'z haqqi deb bilgan narsani qizg'anish, unda boshqa bironing sheriklik qilishidan qalbning norozi bo'lishi va iztirobga kelishidir. Rashk ko'proq er va ayol o'rtasida namoyon bo'ladi va kuchliroq kechadi. Bu tuyg'uda ayol va erkak mushtarakdir. Ba'zan ayollarda rashk qattiqroq bo'ladi, - deb ta'kidlaydi. Rashk arab tilida «g'oyrotun» so'zi bilan ifodalanadi. Bu o'zak bizda «g'ayratshijoat», «g'ayri», «g'ayrlik» so'zlarida ifoda topgan. Haqiqatan, bu so'zning tub mazmunida mazkur ma'nolarning barchasi mujassam.

Rashk faqatgina ayollarga xos xususiyat emasligi yozuvchining shu to'plamga kirgan yana boshqa bir hikoyasida ham uchratish mumkin. Yozuvchining "Ko'lanka" nomli hikoyasi bosh qahramoni Samandar (keyinchalik Behruz) ham rashk tufayli ko'nglida allaqanday o'zi ham xohlamagan tuyg'ular aralashib ketadi. Sevgan qizi Dildoraga yetisha olmagan uchun, hatto, o'z do'sti Behruzga ham o'lim tilaydi. Do'sti vafot etib Dildoraga yetishgach esa, Behruznung ruhidan ham uni qizg'onadi. Oxiri shu darajaga borib yetadiki, bir umr Behruz bo'lib uning soyasi, ya'ni "ko'lanka"si yashashga ham rozi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, rashk insondagi tug'ma xususiyat bo'lishiga qaramay, tashqi omillar ta'sirida o'z o'zanidan chiqishi muqarrar. Shu bois, rashk hammada ham me'yordagidek bo'lmaydi. Kimdir rashkda haddan oshib, qotilga, kimdir bezoriga aylanib qolgan bo'lsa, kimdadir

bu xislat tamoman yo‘q bo‘lib, natijada u axloqsizlik, sharmandalik botqog‘iga botib ketgan. O‘zbek adabiyotida yozuvchilar tomonidan yaratilayotgan asarlarda rashk tasviri o‘z qiymatini yo‘qotmagan muhim jihatlardan biri sifatida hali ham dolzarb.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To‘ychiyev U. “O‘zbek adabiyotida badiiylik”. T., 2011.
2. Zulfiya Qurolboy qizi “Ayol” (hikoyalar) T. 2019.
3. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

*Rajabov Elshod Erkinovich*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*Qiyomova Nigora Bahodir qizi*  
*Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 34-maktab*  
*ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

### **O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ IBORALARIDA “OILA” KONSEPTINING IFODALANISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** *oila, maqol, naql, ota-ona, o‘g‘il, qiz, uyg‘unlik, yaxshilik, tahlil.*

**Annotation.** This article compares and analyzes phraseological units in Uzbek and English languages.

**Key words:** *family, proverb, wise saying, parents, son, daughter, harmony, kindness, analysis.*

**Аннотация.** В данной статье сравниваются и анализируются паремиологические единицы на узбекском и английском языках.

**Ключевые слова:** *семья, пословица, мудрое изречение, родитель, сын, дочь, гармония, доброта, анализ.*

Ma‘lumki, oila jamiyatning, har bir xalq turmush tarzining ajralmas bir bo‘g‘ini hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi, ma‘naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Jamiyatning asosiy guruhi hisoblangan oila shu jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Qadimgi sharq xalqlarida “Oila – vatan ichra vatan”, “Oila – mehr-oqibat maskani”, “Oila – baxt qo‘rg‘oni” kabi purma‘no hikmatlarning mavjudligi oilaning inson va jamiyat hayotidagi mavqeyi naqadar ahamiyatli ekanligining yorqin dalilidir.

Insoniyat taraqqiyotidan ma‘lumki, ibtidoiy jamiyatning ilk davrlarida shakllana boshlagan oila-qarindoshlik munosabatlari ma‘lum davrlar o‘tishi bilan tobora mustahkamlanib, takomillashib borgan. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda ham o‘zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarga egaligi bilan katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir xalq, millat vakili oila muqaddas ekanligi, uni ulug‘lash, e‘zozlash zarurligi, unda umuminsoniy va milliy qadriyatlar aks etganligini his qilishi lozim. Shu o‘rinda Hazrat Navoiyning oila tayanchlari bo‘lmish ota va ona haqida bitgan purhikmat misralarini keltirish o‘rinlidir:

*Boshni fido ayta ato qoshig‘a,*

*Jismni qil sadqa ano boshig‘a.*

*Tun-kuning aylagali nur fosh,*

*Birisin oy ayta, birisin quyosh.*

Oila tushunchasi dunyoning barcha xalqlarida ham mavjud. Ammo, tabiiyki, ulardagi oila tushunchasiga bo‘lgan qarashlar bir xil emas. Ayniqsa, oiladagi qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an‘analar, oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar masalasida turli xalqlar milliy madaniyatida

o‘zaro tafovutlar yo‘q emas. Oila to‘g‘risidagi bunday qarashlar o‘z-o‘zidan tilda aksini topdi va bu tushunchalar lisoniy ifodaga ega bo‘ldi. O‘zbek va ingliz tillarida ham “oila” konseptiga ishora qiluvchi lisoniy birliklar talaygina bo‘lib, ushbu ishda frazeologik birliklarning ikki tildagi qiyosiy-tipologik tahliliga e‘tibor qaratildi, o‘zbek va ingliz xalq iboralari misolida oila tushunchasining lisoniy mohiyati, uning mazmuniy xususiyatlari tahlil qilindi.

Ma‘lumki, frazeologik birliklar paremiologik birliklar singari xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan, ma‘lum bir ibratli fikr-xulosani o‘zida mujassam etgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Frazeologik birliklarda milliy tafakkur, xalqona ur-odatlar va an‘analar, turmush tarzi, milliy mentalitet kabi tushunchalar yaqqol aks etadi.

“Oila” konseptiga ishora qiluvchi o‘zbek va ingliz xalq iboralari quyidagi mazmuniy guruhlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkin:

- 1) oila a‘zolari va qarindosh-urug‘lar bilan bog‘liq iboralar;
- 2) oilada turmush tarzi, uy-joy, ro‘zg‘or masalalari va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq iboralar;
- 3) oilali bo‘lish, turmush qurish masalalari bilan bog‘liq iboralar;
- 4) oilada farzandning o‘rni haqidagi iboralar.

O‘zbek va ingliz tillarida oila a‘zolari va qarindosh-urug‘ nomlari bilan bog‘liq xalq iboralari salmoqli. O‘zbek tilida oila a‘zolari, ular o‘rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari quyidagi frazeologik birikmalarda aks etadi: *Bir mayizni teng bo‘lib yeydi* (bir-birlaridan hech narsa ayamaydigan, doimo birga yuradigan, topganlarini o‘rtaga qo‘yib, birga baham ko‘radigan yaqin qarindoshlar va do‘stlarga nisbatan ishlatiladi); *Biri qosh, biri ko‘z* (o‘ziga eng yaqin qarindosh-urug‘i yoki samimiy do‘stiga nisbatan ishlatiladi); *Bir ko‘rpada tepkilashib o‘sgan* (bir nechta oshna-og‘aynilar, do‘stlar yoshlik chog‘laridan birga o‘sadilar, birga ulfatchilik qiladilar, ularni hech kim ajrata olmaydi ma‘nosidagi ibora); *Bir-biri bilan qirq pichoq bo‘lib, urushib o‘layozishdi* (biror narsa – yer, mulk, meros ustida bir katta oilaning ikkiga bo‘linib qattiq urush qilishlarini ifoda etadi); *Oftobda qatiq ichishgan qarindosh* (bir odam yuqoriroq amalga ega bo‘lganda, unga o‘zini qarindosh qilib ko‘rsatuvchilar ko‘payadi ma‘nosida ishlatiladi); *Yaqindagini bo‘ri emas* (bir odam to‘y yoki ziyofat qilganda, o‘zining yaqindagi qarindoshi yoki do‘stini esdan chiqarib aytolmaydi, ammo uzoq-uzoq joylardan qarindosh-urug‘lari o‘z vaqtida yetib keladi. Shunday vaziyatda ushbu ibora ishlatiladi); *O‘ligimga o‘tirgan, tirigimga tik turgan, ko‘zdek qarindoshim* (hamma masalada yordam beradigan, to‘yiga qarashib turadigan, o‘lim bo‘lsa borib xizmat qiladigan qarindoshlarga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Hozircha tirik to‘qimga yo‘lamay, sag‘risiga qo‘l tekizdirmay yuribdi* (oila hayotidan uzoqda bo‘lgan, tirikchilikka bo‘ysunmagan, ro‘zg‘or ishlarini bo‘yniga olmagan shu oilaning a‘zosiga nisbatan ishlatiladigan ibora). Ingliz tilida esa qarindoshlik munosabatlarining madaniy jihatlarini o‘zida aks ettirgan quyidagi idiomatik birliklarni keltirib o‘tish mumkin: *to get serious* (to have a relationship with someone), *to get back together* (to turn to a relationship or marriage after separating), *to be like one of the family* (used as a way to say that someone or something is a part of the family or a member of the family), *to run in the family* (to be common quality among members of a particular family, a lot of people in the family have that characteristics), *to be at cross-purposes* (not understand each other because they are trying to do or say different things), *to live in each other’s pockets* (to do everything together), *to hit of* (to develop a friendly relationship quickly), *to start off on the wrong foot* (to have a bad start to a relationship), *to look up to someone* (to respect and admire someone, to have a very good opinion of someone), *to take after someone* (to resemble a member of your family in appearance or character), *to get round someone* (to persuade someone to let you do or have something, usually by flattering them), *to take one’s side* (to support someone), *to be close to someone* (to like someone very much), *eternal triangle* (a relationship between three people), *empty nest syndrome* (the sad feelings which parents have when their children grow up and leave home), *in and out family* (members of the same family who are regulars at the workhouse), *a close band* (relationship or feeling of togetherness), *nearest and dearest* (someone’s close relatives), *one’s own flesh and blood* (someone’s relatives), *a man and a brother* (one’s best relatives and friends), *a long-lost relative* (is one whom you have not seen for many years), *shoulder to shoulder*

(relatives who live together), *forty second cousin* (not to be close relatives), *cousin seven times removed* (relatives who are not close), *to receive someone into one's house* (to receive someone as a relative), *to be one's kith and kin* (to be related by blood), *a man of no family* (a man who has not got family and any relatives such as wife and children).

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qarindoshlik atamolari va tushunchasi ishtirok etadigan frazeologik birliklar har doim ham oila, qavm-qarindoshlik munosabatlariga ishora qilavermaydi. Ba'zi frazeologik birliklarda bunday atamalar qo'llansa ham, umumiy mazmun boshqa munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi birliklarni o'zbek tilining ham, ingliz tilining ham lug'at boyligida uchratish mumkin. Jumladan, o'zbek tilida *Onasining qornida* (hali tug'ilgani yo'q, mutlaqo yo'q, yer yuzida topilmaydi), *Onasini ko'rsatmoq* (ta'zirini bermoq, jazolamoq), *Ona suti og'zida* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan ketmagan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan anqib turgan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'ziga kelmoq* (haddan tashqari qiynalmoq ma'nosida), *Onadan tug'ma bo'lib* (har qanday kasallikdan yoki balo-qazolardan xoli bo'lib, aslidagiday; sog'lom, hech narsa ko'rmaganday), *Ota go'ri qozixona* (bir kishining arzimagan aybini katta jinoyatga yo'yib ko'rsatish), *Otang temirchimi?* (Muncha ezmasan, gapni cho'zma, degan ma'noda ishlatiladigan ibora), *Otasining xunini so'ramoq* (biror narsa uchun haddan ziyod pul yoki haq so'ramoq, biror narsaga juda qimmat baho qo'yimoq), *Bu ham yo'q edi, otam bozordan keltirdi* (Bolalar biror taom, kiyim-bosh, buyumdan norozi bo'lib, xarxasha qilib, injiqlik bildirganda shunday deyiladi. Boriga, topilganiga shukur qil, shu ham aslida yo'q edi, dadang bozordan keltirdi, deya mazkur buyumning narxi oshiriladi, bahosi – qadri ko'tariladi) kabi turg'un birikmalarda; ingliz tilida esa *Am I my brother's keeper?* (Am I guilty?); *Sister Anne* (reliable friend); *Bob's your uncle* (everything is good); *It's not your uncle* (it is not easy), *Husband's tea* (cold tea); *If my aunt had been a man, she'd had been my uncle* (what if, in case); *Sister company* (branch of the company); *Father daughter dance songs* (songs of good fortune) kabi barqaror birikmalarda yuqoridagi holat ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, turmush tarzi, uy-ro'zg'or, oiladagi ahillik, oila a'zolari o'rtasidagi inoqlik, birlik, mehr-muhabbat, oilaviy munosabatlar masalasi qadimdan o'zbek va ingliz iboralarida asosiy o'rin tutib kelgan. Bu holatni o'zbek tilidagi *Qozonni suvga tashladi* (zo'rg'a tirikchilik ko'rayotgan oilalarda har kun ham qozon qaynamaydi, qozon qaynamagan o'sha kun ushbu ibora ishlatiladi); *Qora qozoni qaynab turibdi* (biror kishining turmushi, ro'zg'ori, tirikchiligi o'tib borayotir ma'nosida ishlatiladi); *O'choqning kulini tort* (oilalari o'rtasida ro'zg'orini tejash maqsadida aytiladigan ibora); *Bo'yniga tuzluq to'rva tushdi* (ota-onaga yoki merosga orqa qilib tirikchilikni bo'yniga olmagan odam ota-ona o'lgach, meros tomom bo'lgach tirikchilik qilishga majbur bo'ladi); *Baland oxurdan suv ichgan* (katta yeb, katta ichib o'rgangan va og'ir mehnatga darrov bo'yin egmaydigan oila a'zolariga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Beli baquvvat* (puli ko'p, davlati zo'r oila kishilariga nisbatan ishlatiladigan ibora) frazeologizmlari orqali ifodalash mumkin. Ingliz tilidagi *to feel homesick* (to feel after moving away from own family), *to set up home* (to start an independent life in one's own flat or house), *to provide for one's family* (to earn enough money to support family), *on the rocks* (difficult situation in relationship), *to be born with a silver spoon in one's mouth* (to be born to a wealthy family with many advantages), *to fly the nest* (to leave to live independently), *not to see eye to eye* (you do not agree on something), *to have its ups and downs* (to have good and bad moments), *to live to a ripe old age* (living well into old age), *to be at death's door* (to be close to death), *to feel one's age* (to feel as old as they are), *a family feud* (quarrel in a family causing bad feeling for many ears), *a bumpy relationship* (up and down like a car on a road with bumps) frazeologik birliklari ham yuqoridagi masalaning yorqin bir dalilidir.

Har qanday xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek va ingliz xalqlarida ham oilali bo'lish, turmush qurish, er va xotin munosabatlari singari dolzarb masalalar shu xalqlarning tilida turli xalqona naqlar orqali gavdalantiriladi. O'zbek tilida *oilalari qurmoq*, *oilali bo'lmoq*, *turmush qurmoq*, *ro'zg'or boshiga tushmoq*, *boshini ikkita qilib qo'yimoq*, *bo'yniga olaxurjun tushmoq*, *bir yostiqaqa bosh qo'yimoq* kabi ko'plab iboralar mavjud. Ingliz tilida ham shu kabi *"To tie the knot"* (turmush qurmoq), *"It is good to marry late or never"* (Kech yoki hech uylanmaslik yaxshi), *"Marry your daughters betimes, lest they marry themselves"* (Qizning o'zi erga tegmasligi uchun uni tezroq

*erga berish kerak*), “*Marry your son when you will, your daughter when you can*” (*O‘g‘lingni xohlaganingda uylantir, qizingni esa imkoniyatin borida uzat*) iboralari mavjud ekanligini ta’kidlash kerak.

Oilada farzandning tug‘ilishi, uning oiladagi tarbiyasi masalasi ham o‘zbek va ingliz xalqlari milliy madaniyatining o‘ziga xos bir namunasidir. Bu madaniy jihatlar o‘zbek va ingliz xalqlarining tilida ham o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, o‘zbek tilida *Bir palakdan necha xil qovun yetishadi* (bir ota-onadan olti-yetti bola tug‘ilsa, shu bolalar tashqi ko‘rinishda bir-birlariga o‘xshasalar ham, xulq-atvori jihatidan har xil bo‘ladilar, bir-birlariga o‘xshamaydilar. Mana shunday bir ota-onadan tug‘ilgan bolalar fe‘l-atvorining har xil bo‘lishiga qarab ishlatiladi), *Burunni sassiq deb kesib tashlab bo‘lmaydi* (ba‘zan kishi a‘zolarining hammasi baravar salomat bo‘lavermagandek, bir ota-onadan bo‘lgan bolalarning hammasi ham bir xil yaxshi bo‘lavermaydi. Ota-ona farzandlari ichida yomon bolasini harchand yaxshi yo‘lga solaman deb urinib ko‘radi, lekin epga ololmaydi. Ota-ona bunga chora topolmasligini, farzandini yo‘q qilolmasligini nazarga olib ishlatiladi), *Yengilini yetaklab, og‘irini orqalab, bularni boqquncha ona sutim og‘zimga keldi* (bolani boqish va tarbiyalash mas’uliyatli va qiyin ishdir. Shunday azob-uquqbat bilan bola boqqan ota-onaga nisbatan ishlatiladigan ibora), *Yerga qo‘ysam gard bo‘ladi, osmonga qo‘ysam chang bo‘ladi, deb bolasini yer-u ko‘kka ishonmaydi* (shunday xotinlar bo‘ladiki, uzoq yillar bola ko‘rmaydi yoki bolasi turmaydi. Natijada eng so‘ng tug‘gan bolasini hech kimga ishonmaydi. Doimo asrab-avaylab, erkalab o‘stiradi. Mana shunday xotinga nisbatan ishlatiladi), *Jo‘javurdek jon* (tovuq jo‘jalarining ko‘pligiga qarab, ko‘p bolali odamlarga nisbat beriladi, ya‘ni bolasi ko‘p kishiga “jo‘javurdek jon” deyiladi. Bu ibora ko‘proq achinish, ayash ma’nosida ishlatiladi), *Yirtiqqa yamoq, dardga davo bo‘ladi* (bu ibora bolaga nisbatan ota-ona tarafidan aytiladi. Ota-ona bolani qiyinchiliklar bilan boqib voyaga yetkazadi, so‘ngra qo‘lidan ish kelmaydigan bo‘lib qolganda, ba‘zi bolalar ularga qaramay qo‘yadi. Mana shunday holda ishlatiladigan ibora), *Kun tug‘sa ham shunga tug‘sin; oy tug‘sa ham shunda tug‘sin* (ota-ona yaxshi ko‘rgan farzandiga eng go‘zal, ko‘rkam, a‘lo darajali narsalarni ravo ko‘radi. Oy, kun va ularning tug‘gan bolasi yoki ularning chiqishini yaxshi ko‘rgan farzandiga munosib ko‘rib shu iborani qo‘llaydi), *Tobut ostida qolgan bola* (qarigan kishining xotini tug‘adi, ammo chol o‘lib qoladi. Tug‘ilgan bolaga nisbatan shu ibora ishlatiladi) singari iboralar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Ingliz tilidagi “*As the tree, as the fruit*” (*Daraxtiga ko‘ra mevasi, ota-onasiga ko‘ra bolasi*), “*Each bird loves to hear himself sing*” (*Qora qo‘ng‘iz ham o‘z bolasini oppog‘im deydi*), “*Every mother thinks her own gosling a swan*” (*Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga*), “*Like father, like son; like mother, like daughter*” (*Otadan o‘g‘il, onadan qiz*), “*The parson always christens his own child first*” (*Har kimsa birinchi bo‘lib o‘z bolasini cho‘qintiradi*), “*Happy is he that is happy in his children*” (*Har kishining baxti uning bolalarida ko‘rinadi*), “*Many a good father has but a bad son*” (*Ko‘p yaxshi otalarning yomon o‘g‘li bo‘ladi*) iboralari ham farzand to‘g‘risida ekanligi bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbek va ingliz tillarida oila konseptiga xos bunday frazeologik birliklar juda ko‘p. Oila konseptiga ishora qiluvchi maqollar o‘zbek va ingliz xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari lug‘ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013.
2. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1990.
3. Shomaqsudov Sh, Dolimov S. Qayroqi so‘zlar: xalq iboralarining izohli lug‘ati. – Toshkent, “O‘zME”, 2011.
4. Karomatova K.M, Karomatov H.S. English proverbs. Toshkent, 2005.
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.

## COMPLEX SYNTACTIC WHOLE: PROSE STANZA

**Abstract:** The article describes a prose stanza as a group of sentences that are closely interconnected in meaning and syntactically, expressing a more complete development of thought compared to a separate sentence; one of the basic units of speech. In the linguistic literature, other terms are also used to refer to this unit, more often than others - "complex syntactic whole", as well as "super-phrasal unity", "paragraph", "component". However, the term "complex syntactic whole" emphasizes the syntactic nature of this unit, leaving aside its semantic unity. In addition, the term "complex whole" is used by some scholars to designate a complex sentence.

**Key words:** complex syntactic whole, super-phrasal unity, paragraph, component, component, prose stanza.

In connected speech, along with a sentence, one can single out a unit of a more complex composition - a complex syntactic whole, or a prose stanza. As a rule, the exact expression of a thought requires a group of interrelated sentences. Therefore, a separate sentence appears in coherent speech as an integral part of a complex syntactic whole, or a prose stanza.

A prose stanza is a combination of several sentences that are closely related in meaning and syntactically, representing a more complete development of thought compared to a separate sentence.

From the semantic side, the prosaic stanza is characterized by the unity of thought, utterance, theme, close logical cohesion of sentences.

Syntactically, it is characterized by:

- specific syntactic means of communication between sentences (chain, parallel, connecting);
- unity of subjective-modal coloring: each prose stanza is not just a mechanical combination of sentences, but internally a single complex syntactic whole, in which individual sentences are connected by a certain attitude of the author (speaker) to the statement;
- rhythmic-intonational unity: pauses between sentences included in a stanza are shorter than pauses between stanzas, the rhythm of the whole whole depends on the syntactic structure of the stanza, a combination of certain syntactic constructions.

The syntactic characteristic (syntactic articulation) of a stanza represents the plan of its structure. Being the largest of the syntactic units, the stanza is also characterized by compositional-thematic division, which creates, as it were, the outline of the stanza. In its most general, "ideal" form, a stanza consists of a beginning (beginning of a thought) that formulates a theme, a middle part (development of a thought, a theme) and an ending that sums up the development of a micro-theme not only in semantic terms, but also syntactically. The syntactic and compositional-thematic plans of the stanza are closely interconnected (but do not coincide). So, the beginning usually consists of one sentence, but it can include two or even three sentences. The same applies to the middle part and to the ending. A complete characterization of a stanza consists of an analysis of its syntactic and compositional-thematic plans.

A particularly important role in the structure of the stanza is played by the beginning - the first sentence of the stanza, expressing the beginning of a thought. The first sentence of the stanza begins the message, contains "new". One of the common ways to design beginnings in narrative speech is the preposition of the predicate: *Служил на Кавказе офицером один барин* (Л.Т.). Full common sentences are also used, starting with the circumstance of time or place *Однажды человек десять наших офицеров обедали у Сильвио* (Р.). Such beginnings usually open a calm, detailed narrative.

The syntactic structure of the beginnings is diverse. But it should be noted the stable nature of their structure for texts of various types. Introducing a new thought, the beginning largely determines its development, as well as the whole style of the subsequent presentation. A common

feature of the beginnings is their semantic and grammatical completeness, independence in comparison with subsequent sentences.

Special syntactic means are also used to design the ending of the stanza. In this function, the union is used and in the concluding meaning: *Германн долго не мог опомниться. Он вышел в другую комнату. Деничик его спал на полу; Германн насилу его добудился. Деничик был пьян по обыкновению: от него нельзя было добиться никакого толку. Дверь в сени была заперта, Германн возвратился в свою комнату, засветил свечку и записал свое видение (П.).*

The last sentence consists of three homogeneous predicates with a union and before the last one. The union and, closing a number of homogeneous members, means the exhaustion of the enumeration. At the end of the prosaic stanza, the function of the union becomes more complicated under similar conditions: it marks the completeness of not only the enumeration, but the entire stanza.

Unions a, yes, but, as well as interrogative and exclamatory sentences, introductory words, direct speech, etc. can also complete the stanza. In any case, the syntactic appearance of the ending changes compared to the previous text (a different word order, sentence structure, the nature of the syntactic connection of the ending with the previous sentence, the modal narrative plan, etc.). The special syntactic design of beginnings and endings makes it possible to single out stanzas in the text, and, in addition, organizes speech syntactically and stylistically. When selecting stanzas, it is very important to take into account the semantic criteria, first of all, the exhaustion, completeness of the development of the micro-theme of the stanza.

The prose stanza is the main "building material" of coherent speech. In the structure of the prose stanza, in the connections between its elements, the originality of the style of the writer or publicist is largely manifested. The prose stanza plays an important role in shaping the style of the work, it participates in the semantic (and intonation) articulation of speech, in creating the rhythm of prose. In a work of art, it is the stanza, and not the sentence, that is the smallest artistic whole.

#### **List of used literature:**

1. Galperin I. R. tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledovaniya. Moscow. 1981.
2. Odinson V.V. stilistika teksta. Moscow. 1980.
3. Pospelov N. S. Slojnosintaksicheskoye seloye I osnovnie osobennosti ego strukturi. Moscow.-L. 1948.
4. Silman T.P. problem sintaksicheskoy stilistiki. L. 1967.
5. Solgannik G. Ya. Sintaksicheskaya stilistika. M. 2008.
6. Tolstoy L.N. Kovkazskiy plennik. Sobrannik socheneniy. T.10.
7. Pushkin A.S. Povesti pokoynogo Ivana Petrogo Belkina. 13s.
8. Pushkin A.S. Pikovaya doma.

## MUNDARIJA

### I SHO‘BA

#### TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

<i>I.M.Tuxtasinov.</i> Tarjimon tayёрlashning metodik asoslari .....	3
<i>N.Q.Turniyozov.</i> Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar xususida .....	5
<i>A.G‘afforov.</i> O‘zbek tilida ilovali qurilmalarning sintaktik shakllanishida zidlov bog‘lovchilarning o‘rni .....	7
<i>M.X.Zaynieva.</i> Global sintaktik struktur xususida айрим мулоҳазалар .....	9
<i>R.Samandarov.</i> Gap shaklining kengayishi xususida .....	11
<i>B.N.Turniyazov.</i> Til sistemasida leksik kauzativning o‘rni .....	13
<i>O.E.Eshboyeva.</i> Applikativ va transformatsion modellar xususida .....	15
<i>Sh.N.Turniyazova.</i> Matn derivatsiyasida ko‘makchili qurilmalarning o‘rni .....	18
<i>N.A.Ne‘matova.</i> Xitoy va o‘zbek tillarida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi .....	21

### II SHO‘BA

#### SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

<i>T.A. Бушуй.</i> Современный словарь как продукт определенной научной концепции .....	23
<i>A.M.Turobov.</i> Tilshunoslik mustaqil fan sifatida .....	25
<i>S.D.Tursunkulov.</i> Nutq va uning xarakterli xususiyatlari .....	27
<i>D.A.Dadajonova.</i> Oliy ta‘lim tizimi talabalarining o‘zini- o‘zi rivojlantirishda mustaqil ta‘lim kompetentligini shakllantirish .....	29
<i>S.S.Xudoyev.</i> Nemis topishmoqlarining kompozitsion-ritmik tuzilishi tasnifi .....	32
<i>R.Eshaliyeva.</i> O‘zbek tilida olmosh so‘z turkumining imlosi .....	34
<i>D.Mamirova, S. Ruziyeva.</i> Nom bildiruvchi so‘zlarning reklama matnlarida qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlari .....	37
<i>Hidaka Shinsuke.</i> O‘zbek tilidagi taxmin yoki mumkinlikni ifodalaydigan analitik ifodalar orasidagi farqlar .....	39
<i>A.Ibayev.</i> Tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalarning struktur xususiyatlari .....	43
<i>A.V.Faleeva.</i> Theoretical interpretation of american colloquialistics in lexicographical sources .....	45
<i>Sh.Alieva.</i> Aniqlovchili birikmalar bilan kengayish natijasida hosil bo‘lgan transformalar xususida .....	48
<i>R.Valijeva.</i> Zur frage der terminologie von phraseologischen einheiten in der modernen linguistik .....	50

### III SHO‘BA

#### KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI

<i>X.Z.Xayrullayev, M.A.Ibragimova.</i> Morfemaning lingvistik tavsifi xususida .....	53
<i>Kh.Khayrullayev, U.Kuldoshov, A.Almuratova-</i> The importance of cognitive metaphor in the language .....	58
<i>M.Komilova.</i> Хитой тилидан ўзлашган баъзи овқат номларининг семантик хусусиятлари (манти, лағмон, манпар сўзлари мисолида) .....	61
<i>A.S.Kushbakova.</i> Ingliz-o‘zbek rasmiy-biznes matnlarida pragmasemantik voqelanish haqida tushunchalar .....	64
<i>T.Sh.Abdullaeva.</i> Morphology of uzbek and english languages (morphological categories based on English and Uzbek materials) .....	66
<i>S.Sog‘lomov.</i> Emergence and usage of abbreviational homonyms .....	68
<i>K.Hatamova.</i> Tijorat hujjatlari tili va uning leksikasi .....	71
<i>M.M.Ergasheva.</i> The etymological information on phraseological units with proper name .....	73

<i>A.A.Navro'zova.</i> O'zbek tilida -ikki nuqta belgisining pragmatik xususiyati .....	76
<i>N.M.Rasulov, S.J.Nurmatova.</i> -mi So'roq yuklamasining o'zbek tilida ishlatilish o'rni .....	77
<i>B. Tuxtayeva.</i> Kiritma va qo'shma so'zlar haqida ayrim mulohazalar .....	79
<i>H.S.Egamberdiyeva.</i> Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo'lishi va uning ahamiyati.....	81
<i>K.K.Ahmedova.</i> Virtual muloqotga xos nutq shakli .....	83
<i>G.M.Umarjonova, N.Aliyeva.</i> Classification of pragmatic phraseologies in the german language and problems of their application.....	85
<i>M.Зайниддинов.</i> Киноя лингвостилистик категория сифатида.....	88
<i>K.A. Mamadkulova.</i> Criteria of pedagogical technology: conceptuality, consistency, manageability, efficiency, reproducibility .....	89
<i>B.Sh.Nurmuhammedov.</i> Toponimlarning kognitiv-pragmatik va lingvomadaniy aspektlari haqida ba'zi ulohazalar .....	93

#### IV SHO'BA

#### ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA'LIM USLUBIYATI MASALALARI

<i>M.B.Begmatov.</i> Talabalarga chet tilini o'qitishda gazeta maqolalaridan foydalanishning ustuvor vazifalari .....	95
<i>Г.И.Топурова.</i> Ўзбек тили миллий корпусини яратиш методологияси ва унинг муаммолари .....	96
<i>U. Rashidova, O.Mamarajabova.</i> O'zbek tili izohli lug'atida "bosh" komponentli iboralarning grammatik tavsifi.....	101
<i>I.U.Mamasoliev.</i> Ilova konstruksiya tarkibida badiiy tasvir vositalarining ilovali elementlar sifatida qo'llanilishi.....	103
<i>K.A. Mamadkulova.</i> Use of traditional teaching methods in foreign language lessons.....	105
<i>S.D.Tursunkulov.</i> Badiiy nutqning ishtirokchilari .....	108
<i>D.A.Dadajanova.</i> Oliy ta'lim tizimi talabalarining o'zini- o'zi rivojlantirishda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish.....	110
<i>F. Yakubov.</i> Diskurs va matn tushunchasi haqida.....	113
<i>X.U.Urokov.</i> Internet-ijtimoiy tarmoq matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari .....	117
<i>Z.A.Norboyev.</i> O'zbekistonda cebr mezonlari asosida yangi avlod darsliklarini yaratishning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	120
<i>M. Sh.Mardiyeva.</i> G'afur G'ulomning individual frazeologizmlar qo'llash mahorati .....	123
<i>A.F.Shamaxmudova, L.R.Muratova.</i> Bo'lajak chet tili o'qituvchilarni pedagogik mahoratlarini shakllantirish omillari sifatida video kontentdan foydalanish .....	124
<i>M.J.Qurbonova.</i> Badiiy matn uslubiy-semantik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi vositalar .....	125
<i>A.B.Qurbonov.</i> Badiiy adabiyotning tarkibiy-funksional tahlili .....	128
<i>N.Sh.Shermatova.</i> Publitsistik matnlarda undalmalarning qo'llanilishi .....	130
<i>J.B.Anarbayev.</i> The new Uzbekistan is become a social state.....	132
<i>О. М.Пусаева.</i> К размышлению о новом подходе в изучении глагольно-именных сочетаний современного немецкого языка.....	134
<i>Тұрсын Е.Қ., Авакова Р.А.</i> Өзбек тілі қыпшақ диалектісінің этномәдени лексикасы («Алпамыш» эпосы негізінде) .....	136
<i>D.N.Rahmatova.</i> Davr tilining leksik-semantik qatlamini aniqlashda lug'atning ahamiyati .....	140
<i>F.H.Sirojiddinova.</i> O'smir bolalarda og'uvchi axloqning paydo bo'lishi .....	143
<i>Ш.Носирова.</i> О гендерных стереотипов в диалоговой речи детей младшего школьного возраста .....	146

**V SHO‘BA**  
**TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI**

<i>P.D. Журакулов.</i> Фразеологические единицы общенародного пласта сказок: фе с соматизмами (на материале фразеологии русских переводов узбекских народных сказок) .....	149
<i>M.A. Xalova, F.Sadinov.</i> Yuragida yo‘lbars yotgan ijodkor .....	152
<i>I.M.Pardaeva.</i> Tariximizni bezagan malika .....	154
<i>M.T.Zokirov.</i> Lingvokulturologiyada olamning til manzarasi masalasi xususida .....	156
<i>R.A.Suvonova, S.Allamurodova.</i> Okkazonalizmlarning so‘z turkumlariga xoslanishi .....	158
<i>K.Maqsam, Ж.К.Тўймебаев.</i> Шағатай тили лўғаттары .....	161
<i>S.R. Karimova.</i> O‘zbek adabiyotida zullisonaynlik an‘analari.....	163
<i>H.A.Aslanova.</i> Hoja hikoyatlarida oshiq shoh obrazi .....	167
<i>G.M.Umarjonova, O.Jo‘rayeva.</i> Nemis tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi hususida .....	170
<i>G.F.Xayrulloeva.</i> O‘zbek tilida tinish belgilarining ketma-ket qo‘llanilishi va ularning ozaro sinonimik munosabatlari .....	173
<i>I.Pardayeva.</i> Zargarlik terminlarining tematik tasnifi .....	175
<i>У.С. Умурзаков.</i> Мақолларнинг лингвистик хусусиятлари .....	177
<i>N.Abdumannatova.</i> “Hotamnoma” asaridagi ayrim fe‘llarning lingvofolkloristik tahlili .....	178
<i>M.B. Eshniyazova.</i> Alisher navoiyning “arba’in” asarida qo‘llangan she’riy unsurlar badiiyati .....	180
<i>T.Y.Oydinov.</i> Prosodika va prosodik belgilar.....	184
<i>T.P.Bekmurodov.</i> Jadidlar davridagi matbuot va nashiryotlar tadqiqi .....	186
<i>S.S.Mirzakamolova.</i> Muloqotda samimiylik tushunchasining yondosh tushunchalar bilan kesishuvi .....	188
<i>S.Mavlonova.</i> The lexical features of the artistic speech .....	191
<i>T.Habibullayev.</i> Tillar – davr ko‘zgusi .....	193
<i>M.Z.Saydullayeva.</i> Ingliz yozuvchisi uilyam shekspirning “hamlet” fojeasidagi bosh qahramon xarakteristikasi .....	195
<i>X.Sh.Gafforov.</i> Ingliz va o‘zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni o‘rganish mezonlari.....	197
<i>M.Z.Saydullayeva.</i> O‘tkir qalam sohibi chingiz aytmatovning “jamila” qissasidagi botiniy va zohiriy ma’no xususida tahliliy qarashlar .....	199
<i>R.Raxmatova.</i> Zulfiya qurolboy qizi hikoyalarida rashk tavsifi .....	201
<i>E.E.Rajabov, N.B.Qiyomova.</i> O‘zbek va ingliz xalq iboralarida “oila” konseptining ifodalanishi.....	203
<i>Khamrayeva Zebiniso Khaydar qizi.</i> Complex syntactic whole: prose stanza .....	207

# ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI  
*Samarqand shahri, 2023-yil, 18-may*

Muharrir: G.Rahimova  
Musahhih: Z.Usmanova  
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:  
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655  
Bosmaxona tasdiqnomasi:  
№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

2023-yil 16-mayda bosishga ruxsat etildi:  
Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84<sub>1/8</sub>.  
"Times" garniturası. Raqamli bosma usulda bosildi.  
Hisob-nashriyot t.: 26,0. Shartli b.t. 19,0.  
Adadi 10 nusxa. Buyurtma №16/05.

---

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo'limida chop etildi.  
Manzil: Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.